

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

IBROHIM KARIMOV

# NOOSFERA: GEOSIYOSAT VA MAFKURA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan  
ushbu o'quv go'llanma Milliy istiqlol g'oyasining falsafiy masalalari  
mutaxassisligi: SA141502 bo'yicha magistr'larga dars beruvchi professor-  
o'qituvchilar hamda 1-bosqich magistr'lari uchun tavsiya etilgan*

Toshkent  
"Yangi asr avlodi"  
2008

"Noosfera: geosiyosat va mafkura" tahsili "Milliy g'oyaning falsafiy masalalari" yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat standartiga kiritilgan. Milliy g'oya va mafkura ixtisosligi bo'yicha magistrlar ikki o'quv yili davomida ta'lim olishayotganlariga qaramay, bu borada bironta ham o'quv qo'llanmasi mavjud emas edi. Ushbu o'quv qo'llanmasi tajriba sifatida ta'lim tizimidagi bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan birinchi urinishdir.

Tabiat o'z taraqqiyotining Noosfera – Aql sohasi bosqichiga o'tishi munosabati bilan insoniyat tarixida yangi davr boshlanganligi, endilikda Ona tabiat in'om etgan aql quvvati (energiyasi)dan odamzot faqat bunyodkorlik va ezgulik maqsadlarida foydalanish yo'llari, vositalarini izlab topmasa, katta halokatlar ro'y berishi mumkinligini olimlar isbotlamoqdalar. Shu boisdan ham davlatlarning geosiyosati va milliy mafkuralari yangi davr ruhiga moslashishi ijtimoiy va tarixiy zarurat ekanligini yosh kadrlar bu tahsil asosida anglab oladilar.

Ushbu o'quv qo'llanma Milliy istiqloq g'oyasining falsafiy masalalari mutaxassisligi: 5A141502 bo'yicha magistrarga dars beruvchi professor-o'qituvchilar hamda 1-bosqich magistrleri uchun mo'ljallangan. U Davlat ta'lim standartiga ixtisoslik fani sifatida kiritilgan.

Qo'llanma materiallaridan Milliy g'oya yo'nalishidagi siyosatshunoslik, falsafa, etika fanlaridan dars berayotgan barcha professor-o'qituvchilar hamda bu yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalar ham foydalanishlari mumkin. Ayni chog'da bu fan milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish uchun ham xizmat qiladi.

**Taqrizchilar:**

**S.MAMASHOKIROV,**  
falsafa fanlari doktori, professor

**A. OCHILDIYEV,**  
falsafa fanlari doktori, professor

**K.J. TULENOVA,**  
falsafa fanlari doktori, professor

**ISBN 978-9943-08-337-0**

© Ibrohim Karimov «Noosfera: geosiyosat va mafkura». O'quv qo'llanma. «Yangi asr avlodi», 2008-yil.

## MUQADDIMA

2001-2002 o'quv yilidan boshlab ilmiy pedagogik salohiyati yetarli bo'lgan Oliy o'quv yurtlarida "Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari" ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. (2007-2008 o'quv yilidan boshlab esa "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» deb atala boshlandi). Ba'zi bir Oliy o'quv yurtlarida yuqoridagi ixtisoslik bo'yicha bakalavrlar tayyorlanib, 2005-2006 o'quv yilida ular 1-bosqichni bitirib chiqdilar.

Respublikadagi 17 ta Oliy o'quv yurtida shu ixtisoslik bo'yicha bakalavrlar tayyorlandi. Albatta, ularning ba'zilari "magistrlik" bosqichida o'qishni davom etdirmoqdalar. Ular saboq olishi lozim bo'lgan va Davlat standartiga kiritilgan "Noosfera: geosiyosat va mafkura" tahsilidan na metodik, na o'quv qo'llanmasi bor edi. Bu hol o'quv jarayonini hozirgi yuksak talablar darajasida tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da hozirgi davrda har tomonlama bilimli, o'z ixtisosligini puxta o'zlashtirgan malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Yetarli darajada o'quv adabiyotlari bilan ta'minlamay turib, bu muhim vazifani muvaffaqiyatli hal etish amri mahol.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirish muammosiga doir mulohazalarida bu ancha muddatni o'z ichiga oladigan jarayon ekanligiga e'tibor qaratib, bu sohadagi ishlarni takomillashtirib borishda Oliy o'quv yurtlari jamoalari oldida katta mas'uliyatli vazifalar turganini nazarda tutgan edilar. Prezident Islom Karimovning 25 avgust 2006 yilda chiqargan "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori bu mas'uliyatni yanada oshirdi desak mubolag'a

qilmagan bo'lamiz. Chunonchi, bu qaror munosabati bilan endilikda ixtisoslik "Milliy istiqol g'oyasi" emas, balki "Milliy g'oya" deb atalishining nihoyatda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. So'ngra milliy g'oyani targ'ib qilish, xususan yoshlarni turli g'oyaviy xurujlardan himoya etish maqsadida "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyatining tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqish" lozim topildi. Shunga binoan, "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashiga raislik qilish, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi Raisi, viloyatlar, shahar va tumanlar hokimlariga esa hududiy kengashlarga rahbarlik qilish vazifasi" yuklatildi. Ayni chog'da Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etish lozim topildi. Ma'lumki, 2001 yilda Nizomiy nomidagi TDPU Milliy istiqol g'oyasi va uning falsafiy masalalari bo'yicha klassifikator etib belgilanganligini ta'kidlash o'rinlidir. Bu hol oliygohimiz ilmiy-pedagogik jamoasi zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Prezident Farmoniga muvofiq Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti va Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetini shu yo'nalishdagi fanlar bo'yicha "Eksperimental maydoncha" etib belgilagan. Bu Oliy o'quv yurtlari Milliy istiqol g'oyasi yo'nalishida dasturlar tayyorlashda faol ishtirok etdilar. Ular o'zlari to'plagan tajribalarga tayanib, tarqatma materiallar va metodik qo'llanmalar tayyorlashga kirishdilar. Bu hol istiqbolda Davlat ta'lim standartiga kiritilgan qator yangi fanlardan darsliklar yaratish uchun ham asos bo'lib qolishi mumkin.

"Noosfera: geosiyosat va mafkura" tahsilidan magistrlar Ona tabiat – Yer o'z taraqqiyotining Noosfera – Aql sohasi bosqichiga o'tganligini anglab oladilar. Aql va uning natijasi bo'lgan fan-texnika va axborot texnologiyalari muvaffaqiyatlaridan faqat umummilliy va umumbashariy maqsadlar uchun foydalanish orqaligina hozirgi zamon muammolarini hal etish, ayniqsa Ona tabiatni muqarrar halokatdan, jamiyatlarni ma'naviy-ahloqiy bo'hrondan saqlab qolish mumkinligi haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Buning uchun avvalo davlatlarning geosiyosatida va milliy mafkura yo'nalishlarida yangicha falsafiy yondashuvlar, yangicha tafakkur va turmush tarzini shakllantirish zaruratini anglab yetadilar, demak, magistrlar ana shu g'oyalarni targ'ib etish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish malakasiga ham ega bo'ladilar.

Bu tahsil garchi magistrilar uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, ammo Noosfera davri falsafasi sifatida barcha fanlarda, ayniqsa milliy mafkura, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ham o'rni bilan foydalanish barcha talabalarining hozirgi davr muammolarini tushunib olishlari uchun imkon tug'diradi deb hisoblash mumkin.

Albatta, tahsil yangi, u tobora takomillashib borishga muhtoj. O'ylaymizki, ushbu o'quv qo'llanmasi kasbdoshlarimiz va talabalarimizni Ona tabiat va insoniyat istiqboli haqida jiddiy fikrlashga da'vat etadi va ular o'z fikr-mulohazalarini hech ikkilanmay bizga ma'lum etadilar.

*(Bizning manziliimiz: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy, Nizomiy nomidagi TDPU, "Falsafa" kafedrası).*

## **"NOOSFERA: GEOSIYOSAT VA MAFKURA" TAHSILINING TADQIQOT SOHASI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

*Bu tahsilni o'tishga ehtiyoj.* Odamzot o'z tarixiy-tadrijiy taraqqiyotida juda ko'p bosqichlarni bosib o'tdi. U million yillar davomida to'da-to'da, gala-gala bo'lib yashashdan keyingi 50-40 ming yillar ichida jamoa va jamiyatda tom ma'nodagi ijtimoiy yashash davrini boshidan kechirmoqda.

Albatta, odam Yer deb atalmish tabiat harakati va taraqqiyotining mahsuli bo'lib, fanda u tirik tabiatdagi bitta tur hisoblanadi. Binobarin, o'simliklar va hayvonot olamiga doir biologik mohiyat unga ham xosdir. Farqi shuki, o'simliklar va hayvonlar asosan tabiatga moslashsalar, odamzot o'z ijodi va faoliyatining mahsuli bo'lgan ijtimoiy muhitga ham moslashadi. Ijtimoiy muhit qanday bo'lsa, individlar fe'l-atvori, xatti-harakati asosan o'shanga muvofiq tarzda namoyon bo'ladi. Muayyan jamiyat tomonidan tarixan shakllangan odob-axloq me'yorlari, davlat belgilaydigan qonunlar va tartib-intizomlar doirasida xatti-harakat, faoliyat yo'nalishini belgilash malakasini o'zida hosil etganlar. Boshqacha aytganda, o'z shaxsiy, guruhiiy manfaatlarini umumiy (jamiyat va bashariyat) manfaatlariga bo'ysundira oladigan insonlar ko'p bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy muhit nisbatan sog'lom bo'ladi. Shu sababli g'ayriinsoniy, g'ayrioddiy fe'l-atvorli individlar (tekinxo'rlar, dangasalar, o'g'rilar, firibgarlar, ta'magirlar, fohishalar, poraxo'rlar, qotillar va h.k.) uchun vujudga keladigan noqulay shart-sharoitlar ularni o'ylashga, o'z fe'l-atvorlarini sog'lom ijtimoiy muhitga moslashga majbur etadi. Demak, barkamol insonlar jamiyatda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratsalar, bunday ijtimoiy muhit o'z navbatida barkamol insonlarni voyaga yetkazish uchun sharoit yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, odam o'z holiga tashlab qo'yilsa, yoki unga me'yoridan ortiq erk berilsa, uning faoliyati ustidan jamiyat va davlat nazorati susaysa, individlarda yovvoyilik (o'simlik va hayvonga

xos) qusurlar\* o'zidan-o'zi vujudga kelaveradi. Masalan, begona o'simliklar urug'ini tanlash, ular unib-o'sishi uchun ekinzorlarni sozlash va ishlov berish, parvarishlash shart emas. Ammo madaniy o'simliklarni o'stirish, ulardan hosil olish uchun dehqon yil davomida tinimsiz mehnat qilishi, o'z bilim va tajribasini mohirona qo'llay olishi shart. Aks holda madaniy o'simliklarni yovvoyi o'simliklar, turli zararli hashoratlar yo'q qilib tashlaydi.

Shuning uchun ham Xitoy mutafakkiri Konfusiy (Kun Szi) odamlar orasida, umuman jamiyatda ideal munosabatlar bo'lishi, jumladan, "O'zingga ravo ko'rmaganni birovga ravo ko'rma" tamoyiliga amal qilinishi kerak, degan insoniylik konsepsiyasini ilgari surgan edi. XX asr boshida vatandoshimiz Abdulla Avloniy: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir», deganida, tarbiya tufayli inson (jamiyatlashgan individ)ga aylanishi mumkinligiga qattiq ishongan edi.

Odam (biösotsial mavjudot)ni insonga aylantirish nihoyatda nozik va jiddiy masala ekanligi barcha davrlarda ham dolzarb bo'lib kelgan. Biroq XX asr va ayniqsa uning o'rtalaridan boshlab ilmiy-texnika inqilobi va globallashuv jarayonining intensiv tus olishi tufayli odamzot aql-zakovati, salohiyati shu darajada yuksalib ketdiki, hatto tabiatning obyektiv qonunlariga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Jahonga taniqli tabiatshunos olimlar (avvalo fiziklar va kimyogarlar) Yer o'z taraqqiyotining Noosfera (Aql sohasi) bosqichiga ko'tarilganini isbotladilar. Ularning fikricha, bu insoniyat jamiyati bosib o'tgan barcha tarixiy bosqichlardan shu bilan tubdan farq qiladiki, ilmiy kashfiyotlar, fan-texnika va axborot texnologiyalari yutuqlaridan faqat umumbashariy manfaatlarga tamomila muvofiq ravishda foydalanish uchun butun moddiy va ma'naviy imkoniyatlardan foydalanishi lozim. Aks holda odamzot tobora boshi berk ko'chaga kirib borish jarayonida Ona tabiat – Yerni halokatga uchratishi, o'zi ham ma'naviy tanazzulga yuz tutib, Yerdə yashash sharoitidan mahrum bo'lib qolishi mumkin.

---

\*Qumursqa, asalari kabi jonivorlarda ijtimoiylikka o'xshash tartiblar borligi ayon. Boshqa hayvonlar, ayniqsa rivojlangan hayvonlarda ong elementlari, shuningdek, bir-birlariga ma'lumot (informatsiya) bera olish uchun tovush, hayqiriq, harakat tillari ham borligi sababli, noaniq vaziyatlarda aniqroq harakat belgilash ko'nikmasiga egadirlar. Ularda "poda ongi" doirasida fe'l-atvor belgilash xususiyati bor.

Bu tahsil ta'lim tizimiga birinchi marta kiritilishiga sabab shuki, avvalo yosh avlod o'zi yashayotgan davr ilgarigi barcha davrlardan tubdan farq qilishini teran anglab olishi, endilikda har qanday shakl-shamoilda dushman obrazi yaratib, o'z turi – odamzotga nisbatan zo'rvonlik ishlatishdan tiyilish yo'llari, usullari, vositalarini izlashi va topishi ijtimoiy va tarixiy zarurat ekanligini anglab yetishi favqulodda ahamiyatga molik ekanligiga ishonch hosil qilishi muhimdir.

Avvalo g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning tizimga tushgan va nihoyatda ta'sirli mafkuraviy vositasi bo'lgan ta'lim tizimiga ushbu tahsilning kiritilishi milliy g'oyaning hayotchanligini namoyon etadi.

Bu davrda milliy, diniy, irqiy, sinfiy, guruhiy va boshqa negizda mojarolar, urushlar chiqarishga qaratilgan harakatlar va ularni g'oyaviy jihatdan "oqiash"ning har qanday ko'rinishi butun insoniyatga qarshi qaratilgan tajovuzkorlik deb baholanib, munosabat belgilashni yetakchi maylga aylantirish kechiktirib bo'lmaydigan muammo bo'lib turibdi.

Jahondagi barcha davlatlar o'z geosiyosatlarini belgilayotganlarida Noosfera davri xususiyatlarini, albatta, inobatga olishlari, an'anaviy geosiyosat tamoyillariga jiddiy o'zgartirishlar kiritishlarini davr taqozo etmoqda. Har bir mamlakatdagi milliy mafkuralar yo'nalishi, mazmun-mohiyati aql-idrok salohiyatidan faqat bunyodkorlik, ezgulik uchun foydalana oladigan yangi insonlar shaxsini kamolga yetkazish, har bir jamiyatda ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muhitni sog'lomlashtirish yo'llarini topishga e'tiborni qaratish yetakchi tendensiya bo'lib qolgandagina, ular o'z vazifalarini bajargan hisoblanishi mumkin.

***Tahsilning tadqiqot sohasi.*** Har qanday yangi davr avvalo dunyoqarashda, u bilan bog'liq ravishda odam tafakkuri va turmush tarzida o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Zero, voqelikdagi o'zgarishlar individual va ijtimoiy ongda o'z in'ikosini topishi qonuniy jarayondir. Ammo ijtimoiy ong ijtimoiy voqelikdan yo o'zib ketishi yoki orqada qolishi mumkin. Milliy g'oya va mafkuraning falsafiy masalalarini o'rganayotgan magistrlar uchun mo'ljallangan ushbu tahsilda talabalar milliy negizda ham, umumbashariy asosda ham ijtimoiy ong va u bilan bog'liq ravishda individual ong ijtimoiy voqelikdan nega bunchalar orqada qolib kelayotgani, buning oqibatida dahshatli qirg'inbarot urushlar va mojarolar kelib chiqayotganini anglab olishlari nazarda tutiladi. Bu esa, birinchidan, shu yo'nalishda jiddiy ilmiy tadqiqotlar



olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, tabiatshunos olimlarning XX asr davomida Noosfera to'g'risidagi qarashlarini umumlashtirib, uning falsafiy jihatlarini mustahkamlash ham tadqiqot sohasiga aylanadi.

Uchinchidan, olamning ilmiy manzarasi, uning kelib chiqishi, evolutsion taraqqiyoti haqidagi yangi bilimlar asosida mukammal ilmiy-falsafiy dunyoqarash shakllanishi, odam-olam munosabatlarida ilmiy haqiqatlarga ishonadigan va shu ishonchga sodiq qolib, uni himoya qila oladigan imon-e'tiqodli shaxslarni kamolga yetkazish yo'llarini izlab topishi, izchil ravishda tadqiqot o'tkazib borishini taqozo etmoqda.

To'rtinchidan, har qanday jamiyat tarixan shakllanadigan ma'naviyat tufayli individlarni birlashtirib, muayyan maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun ularni safarbar etadi. Ma'naviyat esa muayyan dunyoqarash bilan uzviy bog'liq holda qaror topadi. U dunyoqarashning bosh va asosiy g'oyalari mafkuraviy ijtimoiy institutlar, g'oyaviy ta'sir ko'rsatish vositalari, shakllari, uslublari orqali individlar ongiga singdiriladi. Shu asosda umumiy fe'l-atvor, xatti-harakat, faoliyat yo'nalishi vujudga keladi, ya'ni tarixiy voqelikka muvofiq keladigan g'oyalar, ularni o'zida gavdalantiradigan milliy mafkuralarni shakllantirish muammosi ham tadqiqot sohasidir.

Beshinchidan, ma'lumki, insoniyat jamiyat bo'lib yashashga o'tgach, dastlabki ibtidoiy jamiyatlar ma'naviyati mifologik dunyoqarash asosida qaror topdi. So'ngra diniy dunyoqarashlar vujudga kelgan. Uning bosh va asosiy g'oyalarini individlar imoni va e'tiqodiga aylantirish uchun kuchli va ta'sirli mafkuralar vujudga keldi. Diniy tashkilotlar, ilohiyotchilar, ruhoniylar olamning diniy manzarasini qaror toptirishda, unda odamning va jamoaning o'rni qanday bo'lishi to'g'risida juda qimmatli tarixiy tajribalar to'plaganlarki, ularni ilmiy-falsafiy tahlil etib, diniy mafkuralardan ijodiy foydalanish yo'llarini qidirish ham tadqiqot sohalaridan biridir. Zero, ilm-fan, texnika va texnologiya tufayli yuzaga kelgan muammolarni faqat ilm yo'li bilanгина hal etish mumkin. Ammo Noosfera davrida insoniyatning ma'naviy-axloqiy bo'hrondan chiqib ketishida dinlardan foydalanish tarixiy zaruratdir. Binobarin, dunyoviylik (ilmiy qarashlar)ni diniylikka qarama-qarshi qo'yish amaliyoti zararli ekanini isbotlash muhim bo'lib turibdi.

Oltinchidan, ba'zi olimlarning qandaydir yangi din yaratish to'g'risidagi qarashlari ilmiy asosga ega emasligini ko'rsatish, ammo

odamzot nimagadir ishonmasa, nimagadir e'tiqod qilmasa, u o'zini-o'zi boshqara olmasligi, muqim axloq egasi bo'lolmasligini e'tiborga olib, ilmiy-falsafiy dunyoqarash negizida ham imonli va e'tiqodli individlarni kamolga yetkazish mumkinligini isbotlash zarurati paydo bo'lmoqda. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, dinlar tarixiy hodisa, imon esa inson ongining nodir hodisasi sifatida odamlar jamiyat bo'lib yashashining zarur sharti ekanini ommaga anglatishning samarali yo'llarini izlab topish ham tadqiqot sohasiga kiradi.

Ana shu yo'nalishda Noosfera davri va kelajak muammolarini hal etishda davlatlar belgilaydigan geosiyosatlar yo'nalishi batamom insoniy tus olishi kerak bo'ladi. Milliy mafkuralarda endilikda odamlar, davlatlar, xalqlar o'rtasida muqarrar chiqadigan ziddiyatlarni urushlar, janjallar, mojarolar, terrorlar yo'li bilan hal etish amaliyoti hech qanday natija bermasligini izchil ravishda tushuntirib borish, barcha ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketmasdan, ularni o'z vaqtida tomonlarning murosa, yon berishlari yo'li bilan hal etish mumkinligini isbotlashlari yetakchi maylga aylanishi muhim bo'lib turganligi ushbu tahsilda ayon bo'ladi. Bu tahsilni o'rganishga magistrarning nihoyatda qiziqib qarashi shundan dalolatdir. Istiqbolda Noosfera davri muammolarini hal etishga qaratilgan tadqiqotning yangi yo'nalishining O'zbekistonda vujudga kelishi, u milliy g'oya va mafkura mazmunini boyitishi, ta'sirchanligini behad oshirishi mumkin.

O'zbekiston tarixan tamaddun maskanlaridan biri bo'lganligi ayon. Binobarin, shu tahsilning tobora takomillashib borishi natijasida yangi sivilizatsiya negizlari vujudga kelishi, ilmiy-falsafiy tadqiqotlarning yangi yo'nalishlari ma'lum bo'lishidadir. Nihoyat, tirik mavjudodlar ichida ong sohibi bo'lgan bitta yakkayu yagona tur – Odam Quyosh tizimidagi Yer deb atalgan va yashash uchun shart-sharoiti mavjud bo'lgan Ona tabiatni e'zozlab, bir-birlari bilan tinch-totuv, o'zaro hamkor-hamnafas bo'lib yashashga o'tadigan davrlar kelishiga umid va ishonch ko'tarinki bir ruhni qaror toptiradi, deyish uchun asos bor.

***Tahsil predmeti va undan ko'zlangan asosiy maqsad.*** Odam-olam munosabatlarini anglab olishda ilmiy fikrlarning paydo bo'lishi, ilmiy axborotlarni yig'ish, bir tizimga solish va avlodan-avlodga uzatish vositasi bo'lgan fanning yuzaga kelishi, rivojlanib borishi natijasida odamzot olam, unda odamning o'rni to'g'risidagi tasavvurlarida sifat

jihattan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Materiya harakatining turli shakllari va ular qonunlarining kashf etib borilishi natijasida aql tobora qudratli kuch (energiya) sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan shu holatni anglab olish, odam va uning barcha uyushmalari voqelikda sodir bo'lgan bu xususiyatlarni hisobga olib, faoliyat yo'nalishini belgilay olsa, endilikda tabiat taraqqiyoti va uning tarkibiy qismi bo'lgan jamiyat rivoji o'z o'zanida borib, insoniyatning porloq istiqboliga asos solinishi mumkin. Mabodo aql quvvatini ko'p hollarda hozirgidek g'ayriilmiy, g'ayriinsoniy maqsadlarga sarflash davom ettirilsa, Yer halokati muqarrar tusga kirishi aniq bo'lib qoladi.

Shu vaqtgacha fanning materiya evolutsion rivojini anglatadigan adaptasiya (notirik va tirik tabiat hamda jamiyatda tashqi muhitga moslashish) murvati borligi aniqlangan bo'lib, shu nuqtai nazardan turib voqelikka munosabat belgilanilib kelindi. "Moslashish" murvatining o'ziga xos xususiyati shuki, voqealar rivoji va uning oqibatlarini oldindan ilmiy tahlil etish mumkin. Chunki tizimning moslashishi aniq-ravshan tashqi muhitda uning muayyan barqaror rivojlanishini ta'min etadi. Demak, muhit xususiyatini hisobga olib tizim o'zgarishidagi maylni oldindan ko'ra olamiz. Endilikda evolutsiya murvatlarining boshqa tipi – bifurkatsiya (ikki tarmoqqa ajralish) hodisasi borligi ayon bo'ldiki, buni, albatta, hisobga olish tabiat va jamiyat rivojini, ayniqsa tizim o'zini-o'zi tashkil qilishi va boshqarishini anglab, faoliyat yo'nalishini belgilash zarurati paydo bo'ldi. Ya'ni, hamma vaqt ham tabiiy va ijtimoiy voqelikni qonuniyatli aloqalar belgilab qolmasdan, ayni chog'da tasodifiy holatlar ham tizimda sifatli o'zgarishlar hosil etishi fanga ma'lum. Ya'ni tashqi ta'sirning o'zgarishi bilan tizim ilgarigi chegarasidan chiqib, yangi holatga o'tadi. Bu holatda uning doiraviy chegarasi bir xilda bo'lmaganligi tufayli, yangi tashkil qilinish tasnifi ham aynan bir tusda bo'lmaydi. Bifurkatsiyadan keyin juda ko'p ehtimol tutilgan strukturalar vujudga kelishi, tizimning keyingi rivojida qaysi mayl ustivor bo'lishini oldindan aniqlash qiyin. Chunki tashqi fluktasiya muqarrar tasodifiy ta'sirlarga bog'liq bo'lib, tizim bir chegaradan boshqasiga o'tayotganda, qaysi yo'nalishni tanlashiga bog'liqdir. Holbuki, bu bifurkatsiya murvati bizning ongimiz rivojida mutlaqo alohida rol o'ynashini e'tiborga olishimiz lozim.

Agar bu qonuniyatni hisobga olsak, yerimizning taqdiri Aql quvvatining qaysi tomoniga og'ib ketishini belgilaydigan bifurkatsiya

hodisasiga ham bog'liq bo'ladi. Aql va uning hosilasi bo'lgan fan kashfiyotlari, texnika, axborot va nonatexnologiyalardan foydalanishda qaysi tasodifiy yo'nalishlar yetakchi mayl bo'lib qolishiga bog'liq. Odamzot, uning turli uyushmalari (davlati, siyosiy partiyalari, ijtimoiy harakatlari, kasbiy va ijodiy tashkilotlari va h.k.) Aqlni oqilona ishlar, ya'ni umuminsoniy va umumbashariy manfaatlar tomoniga og'dirish uchun harakat qilsalar ayni muddao bo'lar edi. Avvalo milliy, diniy, irqiy, sinfiy va boshqa negizlarda muqarrar chiqadigan ziddiyatlarni o'zaro yon berish, murosqa qilish, muzokaralar yo'li bilan hal etish yo'lini tanlasalar, Ona tabiatimiz va jamiyat o'zini-o'zi tashkil qilish va boshqarishning ravon o'zanidan rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aql quvvatidan g'ayriinsoniy, g'ayritabiiy maqsadlarda foydalanish davom etsa va bu hol davlatlarning geosiyosatida Noosfera davri xususiyatlarini e'tiborga olmaslik ustivor yo'nalish bo'lishda davom etsa, u holatda tabiat va jamiyat halokati muqarrar bo'lib qoladi. Tahsildan kuzatilgan asosiy maqsad: g'oyaviy kurashning oldingi safidan borishi nazarda tutilgan magistrlar ana shu haqiqatlarni chuqur bilib olishlari, kelajakda ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarida faol qatnashib, insoniyat osmonida paydo bo'lgan "qora bulutlar"ni haydab yuborishga munosib hissa qo'shishlari darkorligini ta'kidlab ko'rsatishdan iborat.

**Tahsil vazifalari.** Noosfera to'g'risidagi qarashlar, ta'limotlar XX asr boshlarida ilmiy muloqotga kiritilgan bo'lishiga qaramay, haligacha O'zbekiston xalqlarida bu haqda yetarli bilim bor, deya olmaymiz. Gazeta, jurnallarda maqolalar, risolalar yoziladi. Bular Ona tabiatimiz o'z taraqqiyotining aql sohasi – Noosfera bosqichiga o'tgani, Yer deb atalgan va tirik tabiiy yashashi uchun zarur shart-sharoitlarga ega, bizga ma'lum bo'lgan yakkayu yagona planetani muqarrar halokatdan saqlab qolish uchun odamzot zimmasidagi mas'uliyat ortib ketayotganini teran tushunib, davr talablaridan kelib chiqqan holda faoliyat yo'nalishini belgilashi uchun kifoya qilmaydi. "Noosfera: geosiyosat va mafkura" tahsilining birinchi marta ta'lim tizimiga kiritilishi ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy qarashlarimizdagi bu kemtik joyni to'ldiradi. Shu bilan keng xalq ommasi yangi davr talablarini anglab olishiga yo'l ochish vazifasini bajaradi.

Noosfera davri insoniyat evolyutsion rivojlanishidagi ilgari barcha davrlardan farq qiladi. Avvalo ITT, XX asr o'rtalaridan boshlab shitob

bilan ketayotgan ITI tufayli, odamzot Ona tabiat qiyofasinigina emas, ayni chog'da o'z dunyoqarashi, tafakkur va turmush tarzini ham o'zgartirib yubordi. Jahon miqyosida va har bir mamlakatda, mintaqada oddiy hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, ovchilikka asoslangan iqtisodiyot, tor doiradagi savdo-sotiq, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rniga globallashuv jarayoni kechmoqda. Ilg'or texnika va texnologiyalar yirik ishlab chiqarish korxonalarini vujudga keltirmoqda. Kuchli raqobat maydonida faqat bilimdon, ishbilarmon, tadbirkor kishilargina javlon urish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu hol ma'naviy hayotdagi an'anaviy turmush tarzini izdan chiqardi. Olam va odam to'g'risidagi yangicha qarashlar asosida tafakkur va turmush tarzi to'laqonli ravishda shakllanmayapti. Bu esa jamiyatda ma'naviy dunyosi qashshoq, imon-e'tiqodining tayini yo'q individlar paydo bo'lishi uchun muayyan qulay ijtimoiy muhitni shakllantirmoqda.

Noosfera davri Ona tabiat oldida har bir odam mas'ul ekanligini taqozo qilayotganini, milliy mafkuralar orqali keng targ'ib qilinishi natijasida odam-olam munosabatlarida yangicha dunyoqarash, tafakkur va turmush tarzini shakllantirish funksiyasini ham bajaradi. Inson qalbini munavvar etish, uning ruhini poklash, jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan yalpi umumiy harakat vujudga kelsa, Noosfera davri falsafasiga monand siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa qarashlar negizida yangicha dunyoqarash va ma'naviyat, madaniyat vujudga kelishi mumkin.

Albatta, odamzot yashash uchun kurashda o'z gomeostazisini saqlash va e'zozlash imkoniyatiga ega. Hayvonlarda o'z gomeostazisini saqlash instinkti o'z turini e'zozlashni taqozo etadi. Shuning uchun ham har bir hayvon, hatto sher, yo'lbars, bo'ri kabi yirtqichlar ham o'z turi bilan olishadi, talashadi, bir-birini jarohatlashi ham mumkin. Ammo ular aslo o'z turining go'shtini yemaydi, yoppasiga qirib tashlamaydi. Ulardagi zoologik instinkt bunga yo'l qo'ymaydi.

Odamzot jamoa, jamiyat bo'lib yashay boshlagach, ko'pgina zoologik instinktlar o'rnini axloq maromlari egalladi. Axloqiy qadriyatlar muayyan dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgani uchun ham odamzotda o'z gomeostazisini saqlash tor manfaatlarni himoya qilish va e'zozlash shakliga kirdi. Urug' va qabila manfaatlari, so'ngra elat, millat manfaatlarni himoya qilish asosida individlar o'z gomeostazisini saqlab qolishga intildilar. Natijada hayvonlardan farqli ravishda odamzot o'z

turi gomeostazisiga qarshi urush, janjal, mojaro muhitini vujudga keltirdi. Zaminda qirg'inbarot urushlar kelib chiqdi, shuningdek, hozirgi davrda ham milliy, diniy, irqiy, sinfiy manfaatlarni himoya qilish uchun kurash jarayonida doimiy xavf-xatarda, urush yoqasida turib yashashga majbur bo'lmoqda.

Noosfera falsafasida odamzot nihoyat, o'z turi gomeostazisini saqlash va e'zozlash orqali kurashga o'tishi shart. Faqat shunday ijtimoiy muhitdagina u shaxsiy, guruhiy, etnik-milliy, diniy, irqiy manfaatlarini to'laqonli himoya qila olishi mumkin. Bunday holatda barcha ziddiyatlarni o'zaro yon berish, murosaga kelish asosida hal etish amaliyoti yetakchi maylga aylanishi darkor. Urushlarning insoniyat amaliyotidan butunlay chiqib ketishiga katta ishonch va umid paydo bo'ladi. Demak, Noosfera falsafasi nafaqat davlatlar geosiyosati va milliy mafkuralarda, balki odamzot hayvonlar kabi o'z gomeostazisi – o'z turini saqlash, e'zozlash bosqichiga o'tib olishga da'vat etish funksiyasini ham bajaradi. Ana o'shanda odam odam uchun eng oliy qadriyatga aylanib, ular o'rtasida mehr-oqibat, mehr-muhabbat his-tuyg'ulari chinakam insoniy tus olishi mumkin bo'ladi. Noosfera falsafasi shu tariqa siyosatshunoslikda, sotsiologiyada, dinshunoslikda yangicha yondashuvlarga asos soladi. Demak, u juda katta tarbiyaviy, ma'rifiy-madaniy funksiyalarni ham bajarib, tabiat va jamiyatni asrash yo'llarini ko'rsatadi, unga erishishning yangi metodlari va metodologiyasini shakllantirish imkoniyatini tug'diradi.

**«Noosfera: geosiyosat va mafkura» tahsilining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.** Noosfera to'g'risidagi ta'limot tabiatshunos olimlar, xususan fiziklar, ximiklar, biologlarning ko'p asrlik ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi sifatida paydo bo'lgan va ilmiy muloqotga kiritilgan. Binobarin, u tabiatshunoslik fanlari bilan chambarchas aloqadorlikda rivojlanib, falsafa fanining yangi bir yo'nalishi sifatida ta'lim tizimiga ilk bora kiritilmoqda. Noosfera falsafasi garchi tabiatshunoslik fanlari negizida vujudga kelgan bo'lsa-da, u tabiat va jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi, dunyoqarashi sifatida o'sha fanlarning barchasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu falsafiy yo'nalishga tayangan tabiatshunoslarga o'z tadqiqotlarida umumbashariyatga xizmat qilishni oliy maqsad qilib olish malakasiga ega bo'ladilar. Binobarin, tabiatshunoslik fanlari dasturlari va darsliklarida bu holat o'z ifodasini topa olsa, u fanlarning qadri

benihoya oshadi, o'quvchilar va talabalarda ularga qiziqish, ixlos yanada rivojlanadi.

Bu tahsil texnikashunoslik fanlari yutuqlarini sintez qilib, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash – tabiat, jamiyat va insoniyat tarixiy takomiliga xizmat qilishini ta'minlaydi.

Natijada texnokrotik ongdagi cheklanishlarga barham berib, texnikashunoslikni jamiyatshunoslik, insonshunoslik fanlari xulosalaridan oziq olib rivojlanishi uchun yo'l ochadi. Ya'ni, texnika va axborot texnologiyalari yutuqlari to'raligicha insoniyatga xizmat qilishini ta'minlaydi. Texnikashunoslik fanlari tadqiqotchilari, uning barcha namoyondalari – injenerlari, konstruktorlari, professor-o'qituvchilari Noosfera davri talablarini anglagan holda faoliyat yo'nalishlari belgilab olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Binobarin, zamonaviy texnika va texnologiya inson shaxsini barbod etishga emas, balki yuksak axloqli, ma'naviy go'zal inson shaxsini kamol toptirishga xizmat qilishi kerak. Bundan chiqadigan xulosa shuki, texnikashunoslik fanlari namoyondalari Noosfera davri falsafiy qarashlaridan bahramand bo'lgan taqdirlaridagina bashariyatga ko'proq xizmat qiladilar.

Noosfera davri falsafasi, albatta, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam aloqadagina rivojlana olishi va qadr topishi mumkin. Shuning uchun ham bu tahsil ana shu fanlar dalillari, xulosalariga tayangan holda istiqbolda o'z tushunchalari, kategoriyalari, qonuniyatlariga ega bo'lib qoladi, deyish uchun asos bor. Ayni chog'da bundan buyon ijtimoiy-gumanitar fanlar Noosfera davri falsafasi bilan qurollangan holatlardagina o'z ta'sirchanligini oshira oladilar, ular butun insoniyat manfaatlarini himoya qilish negizida milliy manfaatlarni ham himoya qila oladigan kadrlar yetishtirish ishiga munosib hissa qo'sha oladilar. Ijtimoiy-gumanitar fanlardan tadqiqot olib boradigan kishilar yangi davr talablarini inobatga olgan holda ilmiy ish qilsalar, ularning faoliyati chinakam insoniy tus olishi mumkin. Demak, ijtimoiy-gumanitar fanlar dasturlari va darsliklarida bu holatni hisobga olish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

Ushbu tahsil ko'p qamrovli, yalpi umumiy tasnifga egadir. Ularning barchasini qamrab olishning iloji yo'qligi uchun Noosfera davri falsafasini faqat geosiyosat va mafkura bilan aloqadorligi masalasiga qaratdik. Chunki tabiat va jamiyatni muqarrar halokatdan saqlab qolish umumiy va umumbashariy vazifa bo'lsa-da, ammo avvalo davlatlar geosiyosatida

va milliy mafkuralarda yangicha yondashuvlar vujudga kelgandagina boshqa hamma sohalarida bu davr talablarini anglash va faoliyat belgilash imkoniyati paydo bo'ladi.

*Xulosa:* a) Noosfera davrida odamzotdan bundan buyon ziddiyatlarni murosasiz yo'li bilan hal etish pallasiga kirganligini avvalo yoshlar anglab olishlari zarur; b) ijtimoiy ongning ijtimoiy voqelikdan orqada qolayotgani sabablarini aniqlash jiddiy tadqiqot sohasiga aylanmoqda; v) Aql energiyasini umuminsoniy, umumbashariy maqsadlarga sarflash yo'llarini anglash tahsil predmeti va maqsadidir; g) Ona tabiat oldida odamzot mas'uliyati tobora oshib borayotganini anglatish tahsilning asosiy vazifasidir; d) bu tahsil tabiatshunoslik, texnikashunoslik, jamiyatshunoslik, insonshunoslik fanlari bilan chambarchas aloqadordir.

*Kalit so'zlar:* Sog'lom ijtimoiy muhit, yovvoyilik, insoniylik konsepsiyasi, tarbiya hayot-mamot masalasi, odamni insonga aylantirish, boshi berk "ko'cha", milliy g'oyaning hayotchanligi, ilmiy-falsafiy dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy tanazzul, Tabiat halokati, Noosfera davri falsafasi, texnokrotik ong.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Sog'lom ijtimoiy muhit nimaga bog'liq?
2. Nega tarbiya hayot-mamot masalasi hisoblanadi?
3. Odamzot nega tobora boshi berk "ko'cha"ga kirib bormoqda?
4. Barcha ziddiyatlarni hal qilishning madaniyatli, insonlarga xos yo'li bormi?
5. Nega ijtimoiy ong ijtimoiy voqelikdan orqada qolmoqda?
6. O'zbekiston tarixan qanday mamlakat bo'lib kelgan?
7. "Noosfera: geosiyosat va mafkura" tahsilining asosi nima?
8. Nima uchun Noosfera davrida har bir odamning Ona tabiat oldidagi mas'uliyati oshib ketdi?



NOOSFERA

NOOSFERA – TABIAT TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

*"Tabiat - jamiyat - inson" koevolutsiyasi.* 1924 yil Parijdagi ilmiy anjumanda rus olimi V.Vernadskiyning biosfera taraqqiyoti to'g'risidagi konsepsiyasi muhokamasida fransuz olimi E.Lerua "Noosfera" atamasini birinchi bo'lib qo'lladi. Bu atama turli talqinga ega bo'lsa-da, Aql sohasi sifatida sodda ta'riflash keng tarqalgan. Aslida Noosfera biosferaning shunday bir holatiki, biosferani Aql yordamida insoniyat umumiy manfaatlariga muvofiq rivojlantirish, uning istiqbolini jiddiy o'ylab, yangi dunyoqarashni shakllantirish jarayoni boshlanishini anglab yetishdir. Bunga ko'ra, ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT) va ayniqsa ilmiy texnika inqilobi (ITI) sharoitida Ona tabiatni asrab-avaylash uchun insoniyat mas'uliyati nihoyatda oshib borayotganligini hisobga olib, yalpi umumiy harakat yo'nalishi belgilash zaruratini bilib olishdir.

Ushbu tahsilda "Tabiat - jamiyat - inson" koevolutsiyasini saqlab qolish, uni yangi bosqichga ko'tarishda har bir odam, odamlar uyushmalari faoliyatida, davlatlar geosiyosatida jiddiy o'zgarishlar bo'lishi, mafkuralarning asosiy yo'nalishi insonparvarlik ruhini qaror toptirishga qaratilishi to'g'risida bilim beradi. Uni anglab olish hozirgi zamondagi har bir mutaxassis uchun ham farz, ham qarzdir.

Tabiat tushunchasi tor ma'noda Yer deb atalgan va Quyosh tizimiga kiradigan bir planetani anglatadi, keng ma'noda esa, bizni qurshab turgan gallaktika, undagi bizning quyoshimizdek, undan kichik va juda katta milliardlab yulduzlar, shuningdek, boshqa metagallaktikalarni anglatadi. Demak, olam ma'nosida tabiat cheksiz-chegarasiz bo'lib, u har jihatdan tartibli yaxlit tizimdir. Fan nuqtai nazaridan moddiy narsalarning barchasi o'z-o'zidan mavjud va o'z-o'zidan doimiy harakatda. Bir holatdan boshqa holatga o'tib turish jarayonida mavjuddir. Ilm-fan olamdagi ko'zga ko'ringan va ko'rinmaydigan

barcha moddiy narsa (jism)larni bitta atama – materiya kategoriyasi bilan ifodalaydi.

Sinergetika nuqtai nazaridan barcha narsa, hodisa, jarayonlar tartibsiz (Xaos, yo'qlik) holatidan harakat natijasida tartibli bir tizimlarga kelib, muayyan qonuniyatli harakatga ega bo'lib qoladi. Xaos – yo'qlik, tartibsizlikdan (bu ham materiya harakatining bir ko'rinishi) Koinot  $1,5^{10} - 2^{10}$ , ya'ni 15-20 milliard yil muqaddam vujudga kelib, yetarli strukturaga ega bo'lmagan narsalardan yangi-yangi strukturali jismlar paydo bo'lgan. Ammo bu tartibga tushgan narsalarda barqarorlik va beqarorlik holatlari sodir bo'lib turadi.

Kosmik jism bo'lgan Yer taxminan bundan 6-6,5 mlrd. yil muqaddam vujudga kelgan. 3,8 mlrd. yil muqaddam Yerda hayot alomatlarini paydo bo'lgan. Tiriklik sohasi taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida dastlabki ibtidoiy odamlar 3-5 million yil muqaddam bir tur sifatida paydo bo'lgan. Hozirgi fiziologik va intellektual salohiyatga ega bo'lgan odam zoti – Homo sapiens – Aqlli inson bundan 50-40 ming yillar oldin vujudga kelgan. Bu tipdagi odam miya yarim sharlarida rivojlangan nutq tili markazining vujudga kelishi natijasida uning xotirasi va tafakkuri ilgari odam tiplaridan sifat jihatidan farq qiladigan holga kelgan. Natijada odamlar gala-gala bo'lib yashashdan jamoa-jamoa bo'lib hayot kechirishga o'ta boshlashgan. Odamzotning shu tariqa jamiyat bo'lib yashashga o'tishi oqibatida yer yuzasida Aql sohasi – Noosfera vujudga kelgan. Biosferaga u faol ta'sir ko'rsata boshlagan. ITT va ITI natijasida "Tabiat - jamiyat - inson" koevolutsiyasi buzila boshlab, endilikda Yer deb atalgan tabiatni yana kaos holatiga qaytarish xavfini yuzaga keltirmoqda. Aql tufayli sodir bo'lgan bu xavfning oldi faqat inson tafakkur tarzini o'zgartirish va Aqlni oqilona ishlar tomon burish orqaligina hal qilishi mumkin.

*Ijtimoiy taraqqiyot to'g'risidagi yangi konsepsiyaga ehtiyoj.* Odamzot taraqqiyotining biologik shakli, ya'ni fiziologik va intellektual takomillashishi davri million yillarni o'z ichiga olgan bo'lsa, uning ijtimoiy shakli keyingi 10 ming yilliklarga to'g'ri keladi. Ijtimoiy taraqqiyot haqida turli konsepsiyalar mavjud. Sharq mutafakkirlari jamiyat holati va taraqqiyotini inson aqliy salohiyatining rivoji bilan bog'lab kelganlar.

Forobiy: Jamiyat odamlar o'zlariga kerakli iste'mol mahsulotlarini birlashib, ishlab chiqarish ehtiyojlari tufayli yuzaga kelgan, deydi. U

jamiyatni fozillar va johillar jamoalariga bo'ladi: fozil odamlargina moddiy va ma'naviy boyliklarni ko'paytiradi, natijada jamiyat barqaror rivojlanadi. Johillar hukmron bo'lgan jamoada buning teskarisini ko'rish mumkin. Beruniyning fikricha, jamiyat insonlar tomonidan shartnoma asosida tuzilib, ongli mehnat tufayli takomillashib boradi. Ibn Sino: "Odamlar o'zaro yordamga muhtoj, ular kelishuvga asoslangan adolatli qonunga tayanib, faoliyat belgilashlari kerak", deydi.

G'arbda turli konsepsiyalar yuzaga kelgan. Gegelning fikricha, jamiyat qiyofasi va rivoji "mutloq g'oya" ga bog'liq, shu ma'noda u ijtimoiy taraqqiyotni g'oyalar bilan bog'laydi. Jamiyat rivojini g'oyalarga bog'lab izohlash L.Feyerbaxda ham uchraydi. Uningcha, dinlarni takomillashtirish, yagona "Muhabbat dini" yaratish osoyishtalik va taraqqiyot uchun muhim bo'lishi mumkin.

K.Marks xristian dinidagi bashoratlarga tayanib turib, jamiyat taraqqiyotini formasiyalarga bo'lib, uni qandaydir bir chiziqli hodisa sifatida talqin etadi. Ma'lumki, Injilda xristianlik imon-e'tiqodiga ega bo'lishi uchun odam uch bosqichni bosib o'tishi bashorat qilingan. Ya'ni, xristianlikka o'tishda individ dastlabki bosqichda do'zax azobidan qo'rqib, ibodatlarni majburan bajaradi. K. Marks buni jamiyat taraqqiyotiga tadbiiq etib, bu bosqichni quldorlik formasiyasi, deb ataydi. Xristianlikka o'tishning ikkinchi bosqichida individ Ota xudodan iltifot kutib (yalinib) ibodatlarni, urf-odatlarni o'z vaqtida bajarib, ruhan taskin topadi. Yollanma mehnatga asoslangan bu bosqichni K. Marks kapitalizm, deb tariflaydi. Xristianlik ixlos (e'tiqod), ya'ni Ota xudoga bo'lgan cheksiz sadoqat ruhi 3-bosqichda ro'y berishi, unda individ o'z xristian birodarlari bilan birga Bibliya bashoratlari asosidagi ibodatlar, da'vatlar, yo'l-yo'riqlarni o'z inon-ixtiyori bilan erkin bajaradi. K. Marks xristianlikdagi ma'naviy-ruhiy kamolotning bu uchinchi, yuqori bosqichini kommunistik formasiya, deb ataydi.

Demak, xristian cherkovi otalarining ikki ming yildan beri diniy e'tiqodni mustahkamlash uchun ishlatib kelayotgan "qullarcha", "yalinib" va "o'g'ilchasiga" iboralaridan foydalanib, Marks formasiyalar to'g'risidagi ta'limotni yaratdiki, bu xristianlikka sig'ingan Ovrupo xalqlari ruhiga yaqin bo'lgani uchun ham kommunizm g'oyalarning keng tarqalib ketishiga sabab bo'ldi. Marks fikricha, insoniyat tarixi murosasiz sinfiy kurashlar tarixidan iborat bo'lib, buning natijasida istiqbolda butun dunyoda sinfsiz jamiyat – kommunizm qaror topib,

davlatga ehtiyoj qolmaydi. Marksning bu qarashlari bo'yicha sobiq sovet davrida o'tkazilgan tajriba insoniyat boshiga katta kulfatlar keltirgani ma'lum. Amaliyot Marksning bu xayolotini keskin rad etdi.

Marksning bu ta'limotiga qarshi Shpenglarning sivilizasiyalar almashinuvi to'g'risidagi konsepsiyasi paydo bo'ldi. Ya'ni, bir-biridan ajralgan sivilizasiyalar 1200-1500 yil ichida yashab, boshqasi bilan almashadi. Shpenglarning fikricha, G'arb sivilizasiyasi o'zning oxirgi nafasini olyapti, natijada ma'naviy tanazzulga yuz tutayapti. Frommning mavjudlik to'g'risidagi qarashlaridan ma'lum bo'lishicha, odamzot mavjudlik uchun kurashadi va bu kurash insoniy tus olishi uchun hozirgi dinlar o'rniga aqidalarsiz, qattiq diniy tartiblersiz insonparvarlik dini shakllansa, inson ruhi radikal ravishda namoyon bo'lishi mumkin. Biroq tarixiy haqiqat shundan dalolat beradiki, yagona din yaratish yo'lidagi harakatlar uni boshlaganlarning quvg'in qilinishi va qatl etilishi bilan tugagan.

G'arb individualizmi bilan Sharq jamoachiligi tamoyillari qo'shiluvi natijasida hozir insoniyat osmonida paydo bo'lgan "qora bulutlar" chekinib, porloq kelajak ifodasi bo'lgan ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichiga kirish imkoniyati mavjud.

Odam moddiy jism va ruhiy olam birikmasidan iborat mavjudoddir. Shuning uchun ular nimagadir ishonishi, e'tiqod (ixlos) qo'yishi lozim. Shu jarayonda nafs qurboni bo'lishdan o'zini saqlab qolishi kerak. Buning uchun, aftidan, Zardo'shtning ezgulik ruhi yovuzlik ruhi ustidan tantana qiladi, degan g'oyasi asosida hozirgi zamon ilm-fani, ilg'or falsafiy fikrlariga tayanib, imonli insonlar – yangicha tafakkur tarziga ega bo'lgan insonlar shaxsini shakllantirish, ularning kuch-g'ayrati bilan har bir jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirishni boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu g'oya barcha dinlardagi imon asosini o'zida gavalantiradi. Chunonchi, islomda Alloh ezgulikka boshlovchi, shayton to'g'ri yo'ldan ozdiruvchidir.

Allohga imon keltirgan shaytondan hazar qiladi. Unga qarshi kurash jarayonida poklik martabasiga ega bo'ladi. Xristianlikda ham uch yuzli yakka xudo ezgulikka boshlovchi, yeres esa satana izmiga kiruvchi odam hisoblanadi. Tavrotda odamning ruhi qashshoqlashadi, oliy ruhga intilish esa insonni barkamol qiladi, deyiladi.

Dinlar muayyan bir Oliy g'oya va asosiy g'oyalarni mafkura yo'li bilan insonning imon-e'tiqodiga aylantirishda juda katta tajriba to'plagan. Tarixiy tajribalarga tayanib, yangicha dunyoqarash asosida

insonlar ruhini poklash uchun Zardo'shtning yuqoridagi g'oyasi, shuningdek, barcha bunyodkor g'oyalari asosida ham imon shakllanishi mumkin. Zero, imon inson ongining nodir hodisasi bo'lib, u ma'yan dunyoqarash ifodasi bo'lgan bosh va asosiy g'oyalarni mafkuraviy ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv va mehnat jamoalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, rasmiy va norasmiy uyushmalar) hamda mafkuraviy vositalar, uslublar orqali odamlar ongiga kiritiladi, qalbidan joy oldiriladi. Shu tarzda inson o'z ruhini o'zi poklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Imon diniy yoki ilmiy-falsafiy va madaniy-ma'rifiy yo'nalishda ham insonlar uchun oliy qadriyatga aylanishi mumkin. Imonning falsafiy ma'nosini tan olish, targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish lozim. Odamlarga nafaqat vijdon erkinligi berish, shu bilan birga imon yo'nalishini tanlash erki ham berilishi joizdir. Imon yo'nalishlari xilma-xil bo'lgan holda, maqsad bitta – imon vositasi bilan inson o'z ruhini o'zi poklash amaliyoti yetakchi maylga aylanmog'i darkordir.

Jamiyat va davlat tomonidan barcha odamlarning fe'li-atvori, faoliyati nazorat ostiga olinadi. Qonun-qoidalar, odob-axloq me'yorlariga rioya qilayotgan individlar rag'batlantirilib, uning aksini qilayotganlar jazolanadilar va jamoatchilik nafratiga duch keladilar. Odamning inson (jamiyatlashgan shaxs)ga aylanishi uchun bunday tashqi ta'sir va nazorat, albatta, kerak. Biroq tarixiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, odamning insonga aylanishi uchun bu kifoya qilmaydi. Uning o'z fe'li-atvori, faoliyatiga o'zi baho beradigan mezon ham kerak. Imon ma'lum bir dunyoqarashning aniq shaxslar amaliyotida namoyon bo'lishi tufayli, u ana shunday mezon rolini o'ynaydi. Binobarin, faqat imonli odamlardagina insof-diyonat, adolat, mehr-muruvvat, halol-poklik, vafu-sadoqat kabi axloqiy fazilatlar oliy qadriyatga aylanishi mumkin. Shunda jamiyatda diyonatli, mehr-oqibatli, mehr-muruvvatli, halol-pok, vafu va sadoqatda sobitqadam, ijtimoiy adolat timsoliga aylangan barkamol va sog'lom avlod voyaga yetadi. Shunday insonlar orqali ma'naviyat boshi berk ko'chadan chiqib, odamlar, xalqlar, millatlar tinch-totuv yashashga, muqarrar chiqadigan barcha ziddiyatlarni urushlar, janjallar, fitnalar, terrorlar yo'li bilan emas, balki muzokaralar, o'zaro yon berish, murosaga kelish orqali hal etish pallasiga kirishi mumkin. Shunda tabiat ekologik halokatdan, jamiyat ma'naviy tubanlikdan xalos bo'ladi. Aql va uning mahsuli bo'lgan fan-texnika, texnologiya muvaffaqiyatlaridan

insoniyatning chin ma'noda farovon, baxt-saodatli yashashi, porloq kelajak tamin etilishi mumkin.

*Noosfera to'g'risidagi ta'limot va uning mohiyati.* V.I.Vernadskiyning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, bizning planetamiz bilan kosmos yaxlit bir tizim bo'lib, Yerdagi hodisalar kosmosdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Kosmos avvalo Quyosh energiyasi hisobiga geoximiyaviy sikl deb atalgan hodisalar, boshqacha aytganda, dastlabki materiya yangi-yangi manbalaridan iborat tabiatda narsalar aylanasi hosil bo'lgan. Cho'kma jinslar qatlami yuzaga kelib, so'ngra geologik va geoximik jarayonlar yer sathini o'zgartirib yuborgan.

Yer bilan Oy bir vaqtda vujudga kelgan. Ular yuzasida sodir bo'lgan o'zgarishlar taqqoslanganda, shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, 3 milliard yillar davomida Oy sathida jiddiy o'zgarish sodir bo'lmagan. Yerdagi tiriklik sohasining paydo bo'lishi va uning kosmos va ayniqsa Quyosh energiyasini o'ziga yutish va undan foydalanish qobiliyati natijasida yerdagi narsalarni bir holatdan boshqa holatga o'tkazish imkoniyati vujudga kelishi bilan evolutsion jarayonlarni bir necha marta tezlashtirilib yuborildi. Odam va insoniyat jamiyatining paydo bo'lishi tufayli planeta yuzasida yangi qatlam – Aql sohasi o'z hukmini o'tkaza boshladi. Buning oqibati sifatida "Ikkinchi tabiat" vujudga keldi. Aql sohibi bo'lgan odam zotini yaratgach, Tabiat jahon taraqqiyoti jarayonining yana bitta qudratli katalizatoriga ega bo'ldi. Shundan keyin odamning atrof-muhitga ta'siri shunday kuchli holga kelmoqdaki, u asosiy geologiyani tashkil qiluvchi kuch sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Demak, odamzot endilikda tabiatning bundan keyingi taraqqiyoti mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi va shu nuqtai-nazardan turib, faoliyat yo'nalishini belgilashi lozim bo'lmoqda. Biosfera rivoji endilikda Aql sohasi rivoji bilan bog'liq holga kelgan. Aql va uning mevasi bo'lgan fan-texnika va axborot texnologiyasi muvaffaqiyatlaridan faqat insoniyatning tinch, farovon yashashi manfaatlari yo'lida foydalanish zarurati paydo bo'lib qolmoqda. Bunga yangicha dunyoqarash, yangicha tafakkur va turmush tarzi orqaligina erishish mumkin.

*XX asr – ogohlantirish asri sifatida.* Odamzot million yillar davomida o'z kuchi yordamida yashash uchun kurashib keldi. O'rmonlarni yoqib, chorvachilik va dehqonchilik uchun tekis yaylovlar va maydonlarni yuzaga keltirdi. Yer sathi landshaftlarini o'zgartira bordi. Keskir qurollar,

palaxmon toshlar, nayzalar yordamida hayvonot olamiga qarshi hujum boshladi. Ularning bir qismini o'z hukmiga bo'ysundirib, uy hayvonlariga aylantirdi. Oziq-ovqat sifatida foydalanishdan tashqari o'z og'ir mehnatini shu jonivorlar zimmasiga yukladi. Ov qurollarini takomillashtirib, hayvonot olami ustidan hukmron bo'lib oldi. Hayvonlar yordamida o'zaro qirg'inbarot urushlar tashkil etdi.

G'orlarda yashaydigan va tirikchilik qiladigan odam galalari yashash uchun kurash shakllaridan biri o'z turi – odam zotiga qarshi boradi. Uni bo'ysundirish, ularning ovchilik va dehqonchilik maydonlarini egallab va bo'ysundirilgan odam galalari mehnatidan foydalanish yo'liga o'tdi. Odam guruhlarining odam guruhlariga qarshi urush ochishi jarayonida g'or odamlariga xos tafakkur va turmush tarzi qaror topa bordi. Bir urug' va qabilaning yaxshi yashashi uchun boshqa urug'-qabilalar ularga bo'ysunishi, g'olib odamlar jamoalarining quli sifatida ular uchun mehnat qilishlari shart edi. Bizga ma'lum bo'lgan tarixning keyingi to'rt ming yilida shunday urushlarda 6 milliard odam qoni daryo bo'lib oqdi. Bu qirg'inbarot urushlardan bizning ajdodlarimiz ham chetda qolmadilar. Sharqdan G'arbga qarab qilingan dahshatli urushlar, ularning natijasida yuzaga kelgan juda katta imperiyalar bunga shohid. Biroq Ovrupa mamlakatlarida yuz bergan ilmiy-texnika taraqqiyoti, par mashinalar, so'ngra dvigatellarning paydo bo'lishi odam mehnatini texnika zimmasiga yuklashdan tashqari dahshatli urush qurollarining takomillashib borishiga keng yo'l ochdi. G'arbiy Ovruponing yirik va o'rta davlatlari, buyuk-davlatchilik, buyukmillatchilik shovinizmi g'oyalari bilan ongi zaharlangan xalqlari, millatlari faqat bitta urug', elat va xalq bilan emas, balki butun-butun xalqlar va hatto qit'alarda yashaydigan deyarli barcha elat va millatlar ustidan hukmronlik qiladi. Ularning yer osti va yer usti boyliklarini talash, odamlarni quldek ishlatish orqali boylik to'plash, shu mazlum xalqlar xoruzorligi, bemisl og'ir mehnati evaziga shohona yashash yo'liga kirib oldilar. XVIII-XIX asrlar G'arbiy Ovrupo mamlakatlari davlatlari mustamlakachilik tizimining tantanasi davri bo'lgan bo'lsa, XX asr fan-texnika parvozi va ayni chog'da mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik kurashlarining avj olishi bilan tavsiflanadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT) davrida ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ITI ro'y bergach, axborot texnologiyalarining takomillashuvi va rivoji tufayli misli ko'rilmagan yashash sharoiti vujudga keldi. 2-holatda milliy ong rivoji milliy o'zlikni

anglash tufayli keng quloch yozgan milliy ozodlik urushlari va kurashlari, mustamlakachilik rejimiga asosan barham berdi. Asr oxirida dunyodagi eng yirik mustamlakachilik imperiyasi – sobiq sovet davlati barham topdi. Ilgarigi "Ikki qutbli" dunyoning "Ko'p qutbli" dunyoga aylanishi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarga e'tiborni yanada oshirdi.

Voqelikdagi tub sifat o'zgarishlari individlar ongi, mamlakatlar xalqlari ijtimoiy ongida jiddiy o'zgarishlar sodir etdi. Ammo ana'naviy tafakkur tarzida jiddiy o'zgarishlar sezilmayapti. Ya'ni, bir odam, bir ijtimoiy qatlam, bir xalq, bir millat yaxshi yashashi uchun boshqa odamlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, elatlar, millatlar ham yaxshi yashashi kerak. Aks holda chin ma'nodagi farovonlik bo'lmaydi, degan tafakkur tarzi shakllanishi nihoyatda qiyin kechayapti. Bu hol yana g'or odamlariga xos tafakkur va turmush tarzi, ya'ni kimdir bekamu ko'st yashashi uchun kimlardir xoru zor bo'lishi kerak, degan qarashlar hukm surishi uchun g'oyaviy asos bo'lib qolmoqda. Endilikda boshqa xalqlar, millatlarni urush yo'li bilan asoratga solib, ularning boyligi va kuchidan oshkora foydalanish cheklanmoqda. Ammo katta davlatlar o'rtacha va kichik mamlakatlarni o'z ta'siriga olish uchun g'oyaviy kurash kuchayib, uning oqibati sifatida lokal urushlar uchun yo'l ochilmoqda. Ma'naviy inqirozning kuchayib borishi natijasida inson ruhi va jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhit qashshoqlashib bormoqda. Bu esa har bir mamlakatda nafs qurbonlari – uyushgan jinoyatchilar, toshbag'irlik, insonlar taqdiriga befarqlik qusurlari rivoji uchun qulay ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirib qo'yimoqda.

XX asr o'ziga xos ogohlantirish asri bo'lib, odamzot ikki yo'l – yo najot, yo halokat yoqasiga kelib qolganini rad etish qiyindir. Bu ikki yo'ldan qay birini tanlash uning ixtiyorida. Noosfera – Aql sohasi tantana qilguday bo'lsa, odamzot, uning davlati, barcha ijtimoiy-siyosiy uyushmalari Aql mevasi bo'lgan fan-texnika yutuqlaridan chinakam bunyodkorlik, insoniylik manfaatlari yo'lida foydalanish davriga o'tadi. Og'izda emas, amalda tinch-totuv yashash, boshqalarni asoratga solishdan voz kechish, shu tariqa urushlar, janjallar, terrorchilik harakatlariga barham berib, umuman urushlarni, janjallarni odamzot amaliyotidan chiqarib tashlaydi. Buning uchun inson tafakkur tarzida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi lozim. Binobarin, falsafa yangicha dunyoqarash, yangicha ma'naviyat – Noosfera davrining yetilgan ijtimoiy ehtiyoji bo'lib, barcha davlatlar geosiyosati va mafkurasida o'zgarishlar



bo'lishga e'tiborni qaratmoqda. Ilgarigi tarqoq dunyo yagona bir butun dunyoga aylangani ham siyosatchilar va mafkurachilar, barcha ongi raso kishilarda g'or odamlariga xos tafakkur tarzi barham topishi hamda Noosfera davri tafakkur tarzi shakllanishini zarurat qilib qo'ymoqda. Aks holda ekologiyaning ifloslanishi, inson ruhining qashshoqlanishuvi, g'or odamlariga xos tafakkur va turmush tarzi rivoji uchun qulay ijtimoiy-siyosiy muhitning bo'lishi tufayli insoniyat o'zi yashayotgan Ona tabiatini, u bilan birga o'zini muqarrar halokatga olib keladi. Zero, Noosfera davrida odamzot shunday katta, qudratli texnika va axborot texnologiyasiga ega bo'ldi. U bilan chinakam farovonlikni taminlash yoki butun planetani yo'q qilish quvvati yuzaga keldi.

*Xulosa:* a) "Tabiat - jamiyat - inson" koevolutsiyasi butunlay izdan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarur; b) ijtimoiy hayot va taraqqiyot haqida yangi konsepsiya yaratish muhimdir; v) Noosfera – tabiat taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lib, unda Aql sohasi yetakchi maylga aylanib bormoqda; g) Aql va uning mevasi bo'lgan barcha ilmiy kashfiyotlardan insoniyatning porloq kelajagi uchun foydalanish ijtimoiy va tarixiy zarurat bo'lib turibdi.

*Kalit so'zlar:* Noosfera, "Tabiat - jamiyat - inson" koevolutsiyasi, kaos, kosmik jism, materiya, Homa Sapiens, ijtimoiy shakl, imon, e'tiqod, ezgulik va yovuzlik, geoximiyaviy sikl, "ikkinchi tabiat", katalizator, g'or odami, dvigatel, buyukdavlatchilik, buyukmillatchilik, shaxsiyizm, ma'naviy inqiroz, tafakkur tarzi, geosiyosat, inson ruhi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Noosfera to'g'risidagi ta'limot nimani anglatadi?
2. Koinotimiz hamda Yer qachon va qanday vujudga kelgan?
3. Homa Sapiens – Aqlli odam ilgarigi tarixiy tiplardan nimasi bilan farqlanadi?
4. Sharq va G'arbda jamiyat va uning taraqqiyoti haqida qanday konsepsiyalar ilgari surilgan?
5. Odam inson (jamiyatlashgan individ)ga qanday aylanishi mumkin?
6. Odamning Ona tabiat oldidagi mas'uliyati nega oshib ketmoqda?

## XOTIRA VA UNING GENEZISI

*Genetik xotiraning yuzaga kelishi va takroriy aloqalar.* Ma'lum bo'ladiki, Yerdagi barcha hodisalar Koinotimizda harakat qilayotgan qonun (qoida)lar yagona tizimiga bo'ysunadigan materiya o'zini-o'zi tashkillash umumiy jarayonlarining xususiy ko'rinishlaridan iborat ekan. Biz kuzatayotgan va ishtirok etayotgan yumushlarning barchasi bugungacha egallagan bilimlarimiz va baholash mezonlarimizga muvofiq keladigan yagona sinergetik olamiy jarayonlarning ayrim qismlaridir, xolos.

Yerdagi Olamimiz butun taraqqiyoti turli qarama-qarshi jihatlari va ziddiyatli mayllarining tasodifiy sabablarining uzluksiz harakati vaziyatida muayyan barqaror strukturalarning barbod bo'lishi va yangilarining vujudga kelishi uchun sharoit yaratishdan iborat murakkab kurash sifatida namoyon bo'ladi. Yerdagi notirik jismlar bilan Kosmos o'rtasida bog'liqlik haqida aniq bilimlarimiz yetarli bo'lmasa-da, ammo bundan 3,5-4 milliard yillar muqaddam tashqi quvvat (energiya)ni, avvalo fotosintez ta'siri yordamida Quyosh energiyasini o'zlashtirishga nihoyatda qobiliyatli bo'lgan materiya tashkillanishining sifat jihatidan farq qiladigan shakli paydo bo'lgani isbotlanganini bilamiz. Bu shakllar o'z gomeostazisini\* saqlashda haddan tashqari qobiliyatga ega bo'lgan. Bular fanda prokariotlar deb ataladi. Ular deyarli qaynab yotgan okean, nihoyatda seysmik faollik va qisqa to'liqlik radiatsiyaning juda yuqori darajasi sharoitida, Yerda azon qatlami bo'lmagan chog'da milliard yildan ortiqroq vaqtda mavjud bo'lganlar. Aftidan, yerda mavjud organizmlar ichida prokariotlar eng "hayotchan" bo'lgan ko'rinadi, zero, ular amalda o'lmas bo'lganlar va prokariotlar planetamizda gaz bulutlarini hosil etib, eukariot tipidagi va kislorod bilan nafas oladigan mavjudodlar yashashi uchun sharoit yaratib ketdilar. Bu hol eukariotlar uchun tashqi energiyadan samaraliroq foydalanish imkonini vujudga keltirdi. Eukariotlardan bu shaklning genetik xususiyati sifatida individual o'limning vujudga kelishi natijasida boshqa energiyadan foydalanish samarasi juda ko'pga oshdi. Bu hol tirik organizmlarning o'z rivoji uchun mutlaqo yangi imkoniyatlarni paydo qildi.

Abadiylikni yo'qotish va o'limga dohil bo'lish evolutsiya yangi mexanizmlari shakllanishi va tabiiy tanlanish intensiv tus olishiga sabab

---

\*gomeostazis – o'z turini saqlash, ardoqlash mayli.

bo'ldi. Eukariotlardan boshlab turlarning takomillashuvi tezlashib, ularning xilma-xilligi shiddatli ravishda o'sdi. Individual hayot o'Ichovi bo'lgan mavjudotlarga o'z irsiyatlarini saqlab qolishlari uchun xotiraning maxsus shakli kerak edi. Shu boisdan zarur irsiy informatsiyalarni uzatadigan genetik kod yuzaga keldi. Bu kod to'rtta harf – nukleotdan iboratdir. Genetik xotiraning yuzaga kelishi butun evolutsion jarayonlar intensiv (shiddatli) tus olishiga sabab bo'ldi. Nihoyatda shafqatsiz raqobat va tabiiy tanlanish sharoitiga bardosh berishga imkon tug'dira olmaydigan irsiy informatsiyaga ega bo'lgan turlar, aftidan, o'zidan-o'zi yo'q bo'lib ketdilar. Agar boshqa planetalarda hayot mavjud bo'lsa, ulardagi irsiy xotira Yerdagidan boshqacha bo'lishi ham mumkin.

Hayot evolutsiyasida asab tizimi rivojlanishi tarixi alohida rol o'ynaydi. Chunki bunda o'z barqarorligini, o'z gomeostazisini saqlashga intilishdan maqsad qo'yish va maqsadli faoliyat yuzaga keladi. Tirik organizmlar yoki organizmlar tizimi o'z gomeostazisini saqlashga harakat qilganda, ular mavjudlik chegaralarini kengaytirishga intilishlari bilan tavsiflanadi. Bunga ikki yo'l bilan erishish mumkin:

a) organizm o'zining juda murakkab sharoitlarda yashash, ya'ni o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanib, gomeostazisi doira zonasini kengaytirish hisobiga;

b) xavfli chegaralarni siljitish va tashqi muhit parametrlarini o'zgartirish hisobiga.

Tirik organizmlar o'z gomeostazislarini saqlashlari uchun organizm va tashqi muhit holatlaridan darak berib turuvchi retseptdor – datchikka ega bo'ladi. So'ngra datchik orqali olingan informatsiya qayta ishlanib baholangach, qilingan tahlillar asosida muayyan qarorga kelinadi. Bu funksiyani asab tizimi bajaradiki, uni bemalol organizmni boshqarish tizimi deyishimiz mumkin. Bundan tashqari organizmni boshqarishda endokrin tizim ham ishtirok etadi.

Organizmni boshqarish tizimi funksiyasini tushunish va tadqiq qilishdagi eng qiyin tomon – qaror qabul qilish lahzasi hisoblanadi. Xuddi shu jarayonda takror aloqa ishga tushadi. Asab tizimining shu funksiyasi tufayli organizm "norma"dan keraksiz chetga chiqishni to'ldirish uchun muayyan harakat majmuasini yaratadi.

Organizmlar gomeostazisini saqlash uchun salbiy takror aloqa, albatta, bo'ladi. Shu bilan birga "progressiv" evolutsiya uchun, ya'ni yangi sifatlar paydo bo'lishi, organizmlar murakkablashuvining o'sishi,

xilma-xillik darajasining ko'payishi uchun yana ijobiy takror aloqalar ham kerak. Ular izlanishni kengaytirish, o'zgaruvchanlikning yashirin imkoniyatlaridan yanada ko'proq foydalanishga yordam beradi. Shunday qilib, har qanday organizm ham salbiy, ham ijobiy takror aloqalardan foydalanish imkoniyatiga egadir.

**Refleks boshqaruvi va asab tizimi.** Evolutsiya jarayonida tirik tizimlarda o'z barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan takror aloqalar mexanizmi vujudga keldi. Tirik mavjudodlardagi barcha boshqaruv tizimi, avvalo asab va tarmoq tizimi takror aloqa reaksiyasini tashuvchi hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida organizmlarda o'zini-o'zi boshqarish tizimi takomillashib borib, tabiiy tanlanishning yangi tamoyillari – fe'l-atvor variantlari paydo bo'ldi.

Har qanday o'zini-o'zi tashkillash jarayoni faqat tabiatda mavjud bo'lgan ichki (yashirin) imkoniyatlarnigina amalga oshira oladi. Bu jarayonlarning kengayib borishi darajasiga qarab, uning qismlarida uzluksiz takomillashish ro'y beradi. Binobarin, strukturalar va ular o'rtasidagi aloqalar takomillashib borishi tabiat o'z ixtiyoridagi tanlashning yangi va yangi tamoyillarini harakatga keltiradi. Ya'ni, olamimizdagi tashkillanishning murakkablashuvi aslida kosmosning vujudga kelishida tabiatimiz ato etadigan ehtimol tutilgan imkoniyatlardan yanada chuqurroq foydalanish natijasidir. Buning oqibatida tirik tabiatda notirik tabiatda mavjud bo'lmagan tanlash tamoyili vujudga keldi. Tirik organizmlarning jarayonlarni hisobga olishi, uni takror ishlashi bilan bog'liq barcha hodisalar va shundan keyingi fe'l-atvor (yoki qaror qabul qilish)ni belgilash asab tizimi bilan bog'likdir. Asab tizimining takomillashib borishi tirik tabiatda o'zini-o'zi tashkillash imkoniyalarini namoyish etadi.

Evolutsion jarayon uchun ikkita o'zaro bog'liq qarama-qarshi gomeostazisni saqlash hamda tashqi energiya va moddani eng ko'p o'zlashtirish tamoyili xosligini aytib o'tgan edik. Asab tizimining vujudga kelishi, aftidan, avvalo ana shu ikki tamoyil bilan bog'liq bo'lgandir. Tirik organizm va taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida tashqi energiya va moddani o'zlashtirish darajasi, albatta, past bo'lgan va unda asab tizim tarzida namoyon bo'lmagan. Organizmlarning takomillashib borishi hamda asab tizimining rivoji va murakkablashishi natijasida ahvol o'zgarib boradi, aql nishonalarning paydo bo'lishi esa tashqi modda va

energiyadan foydalanish mexanizmini takomillashtirishning asosiy mas'uliyati asab tizimiga tushadi.

Tiriklikning dastlabki nishonalari – prokariotning 1,5-2 milliard yil mavjudligi uchun Quyoshning arzimagan energiyasi – fotosintezni kifoya qilgan bo'lsa, o'zini-o'zi tashkillash jarayonida kisloroddan nafas olish mexanizmi va uning sohibi eukariotlarni Tabiat vujudga keltirgach, tashqi energiyadan foydalanish koeffitsenti bir necha marta ko'paydi. Bundan keyingi bosqichdagi tirik organizmlar uchun fotosintezlashgan o'simliklar ovqat vazifasini o'tadi. So'ngra boshqa jonivorlar go'shti bilan ovqatlanadigan mavjudotlar vujudga keldiki, bu hol tashqi energiyadan foydalanish samaradorligini yanada oshirib yubordi. Nihoyat, bu jarayonlarning oxir-oqibati sifatida Yer yuzida odam zoti paydo bo'ldi.

Tiriklikning bu turi uchun uni qurshagan tirik tabiatdagi energiya kifoya qilmay, balki yer qaridagi energiya va moddalar ham kerak bo'lmoqda. Bugina emas, odamzot kosmos shakllanayotgan paytda hosil bo'lgan atom yadrosi energiyasidan foydalanishga ham kirishdi. Ana shu jarayonlarda asab tizimi takomillashib borib, Aql yuzaga keldiki, endilikda u tabiat taraqqiyotida hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda.

Bu holatga kelgunga qadar million yillar davomida oddiy reflekslar asosiy boshqaruvchilik rolini bajarib kelgan. Ulardagi informatsiya genetik kodlarda saqlanib, irsiyat orqali avloddan-avlodga uzatilib kelingan. Tashkillanishning tobora murakkablashib borishi jarayonida hayvonlar fe'l-atvori ham takomillashib bordi va boshqaruvning refleks shakli kifoya qilmay qoldi. Chunki tashqi ta'sir bilan organizmlar reaksiyasi o'rtasidagi aloqalarda informatsiyalarni qayta ishlaydigan yana ko'p oraliq zvenolar paydo bo'ldi. Bular ichida rivojlangan hayvonlarda taxminlash ("faxmlash") qobiliyatining yuzaga kelishi alohida ahamiyat kasb etdi.

Hayvonlar fe'l-atvorini o'rganuvchi mutaxassislar – etologlarning tajribasi shuni isbotladiki, yashash sharoitining o'zgarishi bilan turli hayvonlar fe'l-atvorida o'zgarish ro'y berar ekan. Masalan, shaharlarda yashaydigan qarg'alarda fahmlash va ijodkorlikka moyillik kuchli ekanligi kuzatiladi. Ular ovqat topish vazifalarini "hal etishlari" dalada yashagan qarg'alarnikidan farq qiladi. Boshqacha aytganda, ularning asab tizimini o'zini-o'zi boshqarishning refleks tizimiga qo'shib bo'lmaydi, chunki ular fe'l-atvorida aql elementlari aralashadi.

Demak, odam turi paydo bo'lgunga qadar rivojlangan hayvonlarda o'zini-o'zi tashkillashning oldindan belgilangan maqsadga qaratilgan yangi nodir hodisa – taxminlash vujudga kelgan. "Taxminlash algoritmi" qanday vujudga kelganligini anglab olmay turib, sun'iy aql yaratish to'g'risida gap yuritish behudadir. Ammo biz hozirgi taxminlash algoritmi evolutsiyasi haqida juda oz bilimga egamiz. Ushbu bilimlarimizni chuqurlashtirish jarayonida materiyani o'zini-o'zi tashkillash qonuniyatlarini yaxshiroq anglab olamiz va bu hol nafaqat kompyuterlar yangi avlodini yaratish va ulardan foydalanishni takomillashtirish bilan birga, olamni bilish chegaralarimizni kengaytirish amaliyoti xilma-xilligiga ham ega bo'lamiz.

**Kooperatsiya mexanizmi.** Moddiy birlashmalarda uyushmalar (kooperatsiya) sharoitida mavjud bo'lishga intilish mayllari borki, bu ham o'ziga xos tabiiy tanlanish usuli hisoblanadi. Fiziklar va ximiklar uyushmachilik holati hatto notirik tabiatda ham rezonans (jaranglash) tarzida uchraydi, deyishadi. Turlar ichida gomeostazisni saqlash uchun kurash, gomeostazisning tashqi resurslardan foydalanish mayli bilan uyushmachilik mexanizmi o'rtasida mustahkam aloqa bor, deyish mumkin. Dastlabki ko'p hujayrali mavjudodlar uyushmachilik natijasida paydo bo'lganligi haqida taxmin (gipoteza)lar bor. Chunki bunday uyushmalarning, aftidan, barqarorroq va yaxshiroq mavjud bo'lish va tashqi energiyani hazm etishlari osonroq bo'lgan.

Keyinchalik kooperatsiyaning takomillashganroq shakllari paydo bo'lganki, ular asta-sekin yagona organizm tusiga kira boshlagan. Hatto bunday kooperatsiyalar jonivorlarning yaxlit hamjamiyati tusini olgan. Masalan, termitlarda, asalarilarda bu holatni yaqqolroq kuzatish mumkin. Odamzot evolutsiyasiga ham kooperatsiya mexanizmining tobora takomillashib borishi natijasi sifatida qarash mumkin. Shunisi diqqatga sazovorki, tashqi shart-sharoitning salgina o'zgarishi ham halokatni kuchaytirsa-da, yuksak darajadagi ziddiyatlar mavjud sharoitdagina rivojlanish tezlashishi kuzatiladi.

Kooperatsiya natijasida o'z maxsus maqsadi, shu uyushma gomeostazisini butun choralar bilan saqlashga qaratilgan va rivojlanish jarayonida shakllangan umumiy fe'l-atvor bo'ladiki, bu hol ayrim jonivorlar yashash va ko'payishining zarur shartiga aylanadi. Shuni aytish kerakki, kooperatsiya manfaati uni tashkil etgan elementlar manfaatlari

o'rtasida muqarrar ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ammo poda ichida bu ziddiyatlar kelishuv yo'li bilan hal etiladi: poda ichidagi jonivorlar o'z "shaxsiy" manfaati va o'z mustaqilligining bir qismini qurbon qilishga majburlar.

Poda shaklidagi hayvonlar kooperatsiyasi tanlanishi ayrim mavjudodlar o'rtasida emas, balki uyushma darajasida hukm suradi: ko'proq tashkillanishga ega bo'lgan podalargina o'zgaruvchan atrof-muhitga, aniq yashash makoniga tezda moslasha oladilar, o'zlarini-o'zlari turli hujumlardan saqlab qolish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuni ta'kidlash o'rinaligi, tanlanishning qaltisligi, ya'ni ziddiyatlarni hal etishning o'tkirligi har qanday "evolutsiya taraqqiyoti" ning zarur sharti bo'lib, buning oqibatida yanada taraqqiy etish qobiliyati kuchli bo'lgan tag'in ham murakkabroq tashkiliy tuzilma (struktura)lar vujudga keladi. Har qanday tanlanish xotiraning muayyan shakliga ega bo'lgan irsiyatni o'zlashtirish belgilari bilan uyg'unlashishi lozim.

***Xotiraning nogenetik shakli.*** O'zini-o'zi tashkillash mexanizmida genetik xotiradan tashqari nogenetik xotiralar ham muhim rol o'ynaydi. Tirik organizmlar yashash uchun kurash, atrof-muhitga moslashish, o'zini-o'zi himoya qilishda nogenetik xotiralar shakllangan. Xotira shakllari rivoji va o'zini-o'zi tashkillash mexanizmi yagona bir jarayonning turlicha baholanishidir.

Xotira haqida fikr yuritganda, avloddan-avlodga o'tib boradigan axborot (informatsiyalarni yozish-kodlash), uni saqlash va uzatishni ta'minlaydigan tizim tushuniladi. Xotira Yerda hayotning paydo bo'lishi bilan shakllana boshlagan va u tufayli tirik jonzotlar o'zini-o'zi tashkillash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Albatta, genetik xotiraning ko'p shakllari bo'lgandir, ammo tabiiy tanlanish jarayonida faqat bitta shakl – to'rt nukleindan iborat "xavfli"si yashab qolgan, xolos. Shuni ta'kidlash joizki, Kosmik bo'shliqdagi boshqa olamlarda nuklein kislotasini kodlash shakli boshqacha bo'lishi mumkin.

Tirik organizmlar shakllarining takomillashib borishi va hayotiy faoliyatlari xarakterining murakkablashish jarayoni, ular yashash makonlari sharoitlaridagi xilma-xilliklari, o'zgarishlar xotiraning boshqa shakllarini ham vujudga keltirdi. Yashashning kooperativ shakli sharoiti uchun genetik kodlanishdan farq qiladigan o'ziga xos fe'l-atvor

umumiyligi shaklidagi xotira kerak edi. Bu mexanizm o'rgatishga asoslanadi. U rivojlangan hayvonlarda keng tarqalgan mexanizm hisoblanadi. Xususan bunday xotira poda va galaga o'xshagan uyushmalarda keng tarqalgan bo'ladi. Bu mexanizm kattalarning "Men qilganday qil" degan tamoyilga asoslanadi. Ana shu mexanizm o'ziga xos va nihoyatda samarali tilni vujudga keltiradiki, bunda nafaqat shaxsiy namuna, balki rag'bat va jazo ham muhim rol o'ynaydi. Chunki bu holat fe'l-atvorning muayyan standartlarini belgilash mexanizmini vujudga keltiradiki, tirik jonzorlar busiz yashashlari qiyin bo'ladi.

Jonivorlar qachon va qayerdan yemish topishni, nima xavfli-yu, nimaga e'tibor bermaslikni bilishlari shart. Albatta, tajribaga ham ko'p narsa bog'liq. Ammo nisbatan qisqa umr davomida bunday ko'nikma va malakaga ega bo'lish qiyin. Ana shuning uchun ham xotiraning haddan tashqari hayratomiz shakli – tarbiya tizimi vujudga keladi. Ya'ni, bu genetik xotiradan holi axborotni uzatish vositasi bo'lgan yangi til bo'lib, bu stereotip (qotib qolgan bir til)dagi xulq-atvorni anglatadi. Butunlay xotirasiz jonzor yo'q, har bir tirik organizm muayyan hajmdagi axborotni o'zida saqlaydi. Demak, hayvonlarda ham shartsiz reflekslardan tashqari shartli reflekslar elementlari mavjud bo'ladi. Hayvonlardagi asab tizimining bu xususiyati tufayli xususiy tajriba paydo bo'ladiki, uni faqat o'rgatish yordamida keyingi avlodga uzatiladi. Bu yashash joyi va sharoitning o'zgarishi bilan xulq-atvorlarda bo'ladigan o'zgarishni anglatadi.

Ko'pincha irsiyat bilan "xotira" tushunchalari aynanlashtiriladi. Ammo irsiyat "xotira"ga nisbatan kengroq tushuncha ekanini nazarda tutish ma'qul. Xotira axborotni kodlashtirish, saqlash va uzatishning har doim qandaydir aniq mexanizmi bo'lsa, irsiyat o'tmishning hozir va kelajakka ta'siri tasnifini anglatadigan tushunchadir.

Materiyaning o'zini-o'zi tashkillash jarayonida turli-tuman "o'zini-o'zi tashkillovchi", avvalo xotira kabi konstruksiya (qurilma)lar paydo bo'ladi. Bularni bilmay turib, tafakkur xususiyatlarini anglash qiyin. Miya nodir hodisasi – fikrlash qobiliyati ham "o'zini-o'zi tashkillash ijodi"dan boshqa narsa emas. Xotiraning vujudga kelishi va rivojlanishi (genezisi) nafaqat fiziologiya muammosi, balki sun'iy Aql yaratish nazariyasiga ham taalluqli hodisadir. Uni yaratish esa ayniqsa planetamizda sivilizatsiyani asrab qolish muammosi ko'ndalang turgan bir davrda odamzot uchun yangi, keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi.



*Xulosa:* a) genetik xotira va takroriy aloqalarning shakllanishi evolyutsion jarayonlarda katta rol o'ynadi; b) tirik organizmlarning jarayonlarini hisobga olish va uni takror ishlatish bilan bog'liq hodisalar asab tizimi bilan bog'liqdir; v) tirik organizmlarda uyushma (kooperatsiya) sharoitida mavjud bo'lishga intilish o'ziga xos tabiiy tanlanish ko'rinishi hisoblanadi; g) xotiraning nogenetik shakli – tarbiya tizimi xotirani uzatish vositasi sifatida tirik organizmlar birgalikda mavjud bo'lish fe'l-atvorini belgilash imkoniyatini vujudga keltiradi.

*Kalit so'zlar:* prokariot, eukariot, fotosintez, xotiraning mahsus shakli, genetik kod, nukloid, retseptordatchik, endokrin tizim, takror aloqa, tabiiy tanlanish, asab tizimi, refleks, taxminlash (fahmlash) qobiliyati, etolog, sun'iy aql, rezonans (jaranglash), genetik va nogenetik xotira, nuklein kislotalari, stareotip, shartli va shartsiz reflekslar.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Prokariotlar va eukariotlarning yashash shakllarini izohlang.
2. Hayot evolyutsiyasida asab tizimi rivojining roli qanday?
3. Organizmlarning ham salbiy, ham ijobiy takror aloqalardan foydalanish imkoniyati qanday?
4. Tabiiy tanlanishning yangi tamoyillari nimani anglatadi?
5. "Taxminlash algoritmi" deganda nimani tushunasiz?
6. Kooperatsiya sharoitida mavjud bo'lishga intilish mayli uchun qanday zarurat bor?
7. O'zini-o'zi tashkillash murvatida nogenetik xotira qanday rol o'ynaydi?
8. Irsiyat va "xotira" o'rtasidagi o'xshashlik va farq nimada?

### **EVOLUTSIYA VA AQLNING YUZAGA KELISHI**

*Intellekt (aql) nima?* Olam (Yer va boshqa barcha sayyoralar)dagi moddiy jismlar ilm-fanda materiya kategoriyasi bilan ifodalanadi. Materiya modda (zarra) va maydon ko'rinishiga ega bo'lib, ular doimiy harakatdagi jarayonda bir-biriga o'tib turadi. Harakat materiyaning o'z ichidagi ziddiyatlar tufayli sodir bo'ladi. Binobarin, tirik va notirik tabiat o'rtasidagi harakatda prinsipial farq yo'q, faqat ularning namoyon

bo'lishidagi farqlar bizga sirli bo'lib ko'rinadi. Evolutsion jarayonlarda Yerda Aqlning yuzaga kelishiga ham tabiiy holat deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Tirik organizmlarning hammasiga irsiyat xos bo'lib, hayvonlarda miya bilan bog'liq muhit hodisalarda va xotirada u namoyon bo'ladi. Tirik tabiatning o'zini-o'zi tashkillashini xotira rivojida anglab olish mumkin. Yerda hayot paydo bo'lishida tashqi muhitdan olgan axborot (informatsiya)ni saqlash uslubi genetik xotira bo'lgan. Irsiy informatsiyalar 4 harfdan iborat tilda kodlashadi. Shuning uchun ham planetamizdagi barcha tirik organizmlar bir xil shakldagi irsiy xotiraga egadirlar. Agar boshqa planetalarda tirik tabiat mavjudligi aniqlansa, ularning DNK yozuvlari harflari boshqacha bo'lishi mumkin.

Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida xotiraning yangi shakli – o'qitish va tarbiyalash vujudga keldi. "Menday qil" tamoyiliga asoslangan "ta'lim" rivojlangan hayvonlarda kooperativ uyushmalarning shakllanishiga sabab bo'ldi, ya'ni ayrim mavjudodlar o'z fe'l-atvorlarini poda (tur) umumiy fe'l-atvoriga muvofiq moslashtirishi tufayli yashab qolish imkoniga ega bo'ldilar. Boshqacha aytganda, "poda ongi" va unga individual munosabatni muvofiqlashtirish zarurati yuzaga keldi. "Poda ongi"ning xotirasida yaxshi saqlay olgan hayvonlarning yashash (oziq-ovqat topish, tashqi hujumlardan saqlanish) imkoniyatlari keng, buning aksi bo'lsa, ularning yashashi qiyinlashadi, ya'ni och qolish, boshqa hayvonlarga yem bo'lish havfi aniq bo'lib qoladi.

Materiya harakatining muayyan bosqichida ong (aql) paydo bo'ldi. Albatta, Aql odamzot miyasi, ongi bilan bog'liq bo'lsa-da, ammo uning Yer yuzida tug'ilishi yaxlit olam jarayonlaridagi moddiy borliq o'zini-o'zi tashkillashining yangi bosqichi boshlanganini, materiya o'zini-o'zi anglash darajasiga ko'tarilganini anglatadi. Ya'ni, endilikda materiya va uning harakatini prinsipial ravishda boshqarish imkoniyati vujudga keldi. Yer sharoitida odamzotning fiziologik tuzilishi takomillashib bo'ldi, uning aqliy salohiyati fan va texnika taraqqiyoti yordamida yuksalib bormoqdaki, endilikda moddiy borliq – tabiatni boshqarish imkoniyati reallikka aylanmoqda. Albatta, bu imkoniyat qanday voqelik tusiga kirishi odamzot ruhiy olami va jamiyat ma'naviyatining holatiga ham bog'liq bo'lib qoladi.

Yer yuzida Aqlning paydo bo'lishi va uning yordamida moddiy olam o'zini-o'zi taniy boshlashi xuddi hayot paydo bo'lganidek tabiiy

10 qit'avi

jarayondir. Bunda biron-bir mo'jiza, qandaydir sirli kuch borligini izlash samarasiz mashg'ulot bo'lib, odamzot bilish jarayonida o'zligi yoki yalqovligini shu bilan yashirishga, boshqacha aytganda, murakkab jarayonlarni anglab olishdan o'zini-o'zi chetlashtirib, xayolot olamiga g'arq bo'lishni afzal ko'rishdan boshqa narsa emas. Biz endilikda yashashimiz zarur bo'lgan olam Aql imkoniyatlaridan odamzotning insonlardek, inson bo'lib yashash bosqichiga o'tish jarayonini boshlab yuborishni taqozo etmoqda. Odamzot o'zini-o'zi aldashda davom etishni istamasa, u shu Yer deb atalgan va Quyosh tizimiga kiradigan bir planeta materiya harakati yuqori darajasining mahsuli ekanini e'tirof etishi kerak bo'ladi. Bunday e'tirof etish Yer planetasini – Ona tabiat deb og'zida shunchaki tan olib emas, balki uni xuddi onasiga mehribon bo'lgan boladek munosabatlarni shakllanishiga olib kelishi kerak. Bu fikrlarni aytishdan maqsad odamzotning paydo bo'lishi bilan Yerda xotiraning yangi, yuqori shakli vujudga kelganiga e'tiborni qaratishdir. Xotiraning bu shakli osmondan uzilib ham, Yer tubidan otilib ham chiqqan emasligini ilm-fan isbotlagan ekan, uni haqiqat sifatida qabul qilish, ushbu haqiqat – g'oyaga imon keltirish (ishonish va ishonchga sodiq qolish) kerak bo'ladi. Bu ishonch va e'tiqod yangi davr – Aql sohasi va uning xususiyatlarini anglab olish, odamzot istiqbolida paydo bo'lgan va tobora quyuqlashib borayotgan "qora bulutlar" ofatidan saqlanib qolish yo'llari, vositalari, uslublarini izlash va uni topish mas'uliyatini har bir Aql sohibi – odam zimmasiga yuklaydi.

*Antropogenez tarixiga doir.* Odamzotning paydo bo'lishi haqidagi afsonaviy (mifologik) va diniy tasavvurlar ming yillar davomida ijtimoiy va individual ong mazmun-mohiyatini belgilab keldi. Hozirgi davrda ham dunyo aholisining ko'pchiligi o'z "men"ini diniy ong nuqtai nazaridan anglashga intilib keladi, albatta, bu intilish jarayonida inson (jamiyatlashgan individ) sifatlarini o'zida gavdalantrishiga harakat qiladi. Diniy ong tufayli individ muayyan yo'nalish (konfessiya)dagi dinni e'tirof etish, unga e'tiqod qilish doirasi uchun umumiy bo'lgan fe'l-atvorni o'zlashtiradi, ushbu yo'nalishda hayot ma'nosi va maqsad-muddaosini anglab olishga intiladi. Jahon dinlarining muqaddas kitoblarida ilgari surilgan va Oliy ibtido – Xudo nomi bilan aytilgan g'oyalarning asosiy mazmuni odamning insonga aylanishi uchun imkon tug'diradigan fe'l-atvorni shakllantrishga qaratilgandir. Jahon dinlarining

yuzaga kelishi insoniyat tarixiy takomilida g'oyat muhim bosqich bo'lgani shubhasizdir.

Ayni chog'da shuni ham e'tirof etish zarurki, tarixiy xotiradan mahrum bo'lmagan har bir kishi turli diniy e'tiqodlar tufayli odamlar bilan odamlar, xalqlar bilan xalqlar o'rtasida nizolar chiqib, ular katta-katta mojarolarni yuzaga keltirgani, hatto tarixda juda katta qirg'inbarot urushlar kelib chiqqanini esda saqlaydi. Dinlardagi aqidalarni turlicha talqin etish, shu jarayonda dinni siyosiyashtirish natijasida hozirgi davrda xalqaro terrorizm xurujlari dahshatli tus olayotgani bejiz emas. Noosfera davri ilgarigilardan shu jihati bilan tubdan farq qiladiki, barcha sohada, jumladan, odamni, odamlar uyushmasi bo'lgan jamiyatni boshqarish batamom ilmiy asoslarga qo'yilmasa, bugungi dunyo muammolari ko'paygandan ko'payaveradi.

Odamning paydo bo'lishi, uning jamiyat bo'lib yashashga o'tishi har bir tarixiy davr va muayyan mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy qarashlar, bular asosida shakllanadigan munosabatlarni individlarga, o'z navbatida individlarning o'sha munosabatga ko'rsatadigan ta'siri uning dunyoqarashi bilan uzviy bog'lanib ketadi. Binobarin, Noosfera davrida odam va u bilan bog'liq ravishda ongning paydo bo'lishi haqidagi hozirgi zamon fani dalillariga tayanish favqulodda ahamiyatga molikdir.

Ma'lum bo'ladiki, hayvonlarda ham til va "poda ongi" shaklidagi ijtimoiy ong unsurlari mavjuddir. Materiya harakatining muayyan bir hosqichida odam miyasi shakllana boshladi va u bilan bog'liq ravishda ong vujudga keldi. Ko'p vaqt odam maymunning bir turidan kelib chiqqan, buni go'yoki Charliz Darvin isbotlagan, degan fikr fan olamida hukm surib keldi. Ammo bu uydirmalarga Darvinning bevosita aloqasi yo'qligi, u o'z asarlarining biron joyida odam to'g'ridan-to'g'ri maymunning bir turidan kelib chiqqan, demagani endi ma'lum. Hozirgi zamon antropoid (odamsimon)larining o'ttizga yaqin turi bo'lib, shulardan bittasining miya hujayralarida ro'y bergan o'zgarishlar natijasida odam ongi o'zidan-o'zi vujudga kelgani isbotlangan. Ma'lum bo'lishicha, quyi maymunlar miyasi hujayralarida 75-54, yuqorilari – odamsimonlarida 48 ta, odamda esa 46 ta xromosoma bor. Bosh miya peshona qismi filogenetik maydon rivoji odamlarda ko'proq sakrashga moyil; miyadagi 10-maydon maymunlarda butun qobiqning 1,35-2,15 foiz hajmini egallasa, odamda esa u 2,5-3 barovar ko'p. Hozirgi zamon

odamning bosh suyak tepasi ost qismi maydoni quyi maymunlarnikidan 20 barovar, yuqori turdagi maymunlarnikidan 2 barobar keng. Miya yarim sharlaridagi nutq tili bilan bog'liq 44- va 45-maydonda ham odam bilan maymun miyasi o'rtasida juda katta farq bor. Bu uzoq tarixiy davrdagi jarayonlar natijasidir, ammo bunda biz Yer magnit maydonidagi va kosmosdagi radiasiya o'zgarishlari ba'zi turlarning o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketishi, yangi turlarning vujudga kelishiga sabab bo'lishiga e'tibor qaratishimiz zarur. Dastlab oddiy tosh, tayoq, yirik hayvonlar suyagini ovqat topish, o'z galasi bilan birgalikda o'zini himoya qilishga o'rgangan odamsimonlar – Avstralopitek (janubiy maymunsimonlar) deyiladi. Ularning miya hajmi 3-4 million yil davomida 350 kub santimetrdan 750 kub santimetrgacha kengaygan. Pitekantrop (maymunsimon odam) miya hajmi 750-900 kub sm, Sinantrop (Xitoy odami) 915-1225 kub sm, neandertallarda 1610 kub sm gacha miya hajmi bo'lgan. Dag'al tosh qurollar yasash malakasiga ega bo'lganligi uchun odamzotning tarixiy tiplari – pitekantrop, sinantrop va neandertallar Uquvli odamlar deyiladi. Hozirgi odamning dastlabki jasadi Fransiyadagi Kromonon g'oridan topilganligi sababli, ularni kromononlar yoki Aqlli odam, ya'ni rivojlangan nutq tili markaziga ega bo'lgan – Homa Sapiens deb ataladi. Ularning miya hajmi 1000 kub sm dan 2000 kub sm gacha boradi, o'rtacha 1446 kub sm dir. Aql uchun miya hajmining ham ahamiyati bor, albatta. Ammo miya ilang-planglarining zichligi ham Aqlni yuksak darajaga ko'tardi. Bu toifali odamlar bundan 40-50 ming yillar muqaddam tarix maydoniga kelib, ulargina chin ma'noda jamiyat bo'lib yashashga o'ta boshlashgan. Jamiyatda hayvoniy xirslar o'rnini insoniy his-tuyg'ular, instinktlarning ko'pi o'rnini odob-axloq maromlari egalladi va bularga individ tomonidan rioya etib borilishi avval jamoa tomonidan, so'ngra davlat muassasalari tomonidan qattiq nazorat ostiga olina boshlandi.

*Antropogenezisning yakuniy fazasi.* Ruxsat va taqiqlarning vujudga kelishi, uning bajarilishini jamoa, jamiyat va avvalo urug'-qabila boshliqlari o'z nazoratlariga olishlari tufayli, turlar ichidagi kurashlarda endi jismoniy quvvat emas, balki aqliy salohiyat va jamiyatning tashkiliy tuzilishi hal qiluvchi rol o'ynay boshladi. Yer ostidan qazib olingan qadimgi odamlar suyaklari ichida ulkan (gigant)lar ham uchraydi. Ammo aqliy jihatdan cheklanganlik ularni yangi sharoitlarga moslashishga imkon bermagan. Oqibatda ular tarix maydonidan abadiy yo'q bo'lib

ketishgan. Ba'zan neandertallar bilan kromononlarning jasadlari bir joydan topiladi, ularning fiziologik tuzilishida ham jiddiy farqlar uchramaydi. Biroq neandertal toifasidagi odam zoti qolmagan. Demak, bu tur ijtimoiy tuzilmasi juda zaif bo'lganligi, ular o'rtasida kelishuv va ziddiyatlarni o'rtada bahamjihat hal etish usullari takomillashmagani uchun odamzotning bu toifasi yashab keta olmagan. Hozirgi zamon odamining yagona ajdodi kromononlardagina ijtimoiy tuzilmalar takomillashganroq bo'lgan. Ayniqsa go'zal qizlar va barno yigitlar uchun kurashning insoniyroq shakllari ularning jamoalarida mavjud bo'lgan.

Shunday taxminlar ham borki, ortiqcha Aqlga va iste'dodga ega bo'lmaganlar yashab qolishgan va odamzot urug'ini o'shalar belgilagan. Muzlik davri oldidan tashkiliy sohadagi juda jiddiy tanlov biosfera yangi sharoitlariga muzlik davriga muvofiq keladigan turlargina saqlanib qola olgan. Bu sinergetizmning yaqqol namoyon bo'lishidir. Xaos (tartibsizliklar)ning tartibga tushish jarayoni bir tekis shaklda bormagan. Yashash uchun kurashda kuchli urug'lar kuchsizlarni qulay vaziyatdan siqib chiqargach, keyingilar og'ir, murakkab sharoitlarda yashab chiniqqanlar, mehnat, ov qurollarini takomillashtirish mahoratiga ko'proq ega bo'lib qolganlar. Bunday urug'lar muayyan vaqt o'tgach, o'z raqiblaridan ustunlik qilib, tez rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lib qolgach, raqiblarini yaxshi maskanlardan surib chiqarganlar. Boshqacha aytganda, jamiyat stixiyali taraqqiyotidagi notenglik qonuniyati qadimgi davrlarda ham o'z hukmini o'tkazgan. Endilikda antropogenez o'z nihoyasiga yetdi: odamzot hozirgi fiziologik holatida va miya morfologiyasida yana taxminan 25 ming yillar chamasi yashashi aniq. Undan keyingi holatni hozircha taxmin etish qiyin. Ammo axborot qabul qilishning ko'payishi va murakkablashishi natijasida odam kallasining tepa qismi kattalashib, yuz va jag' qismi uzayib borishi kutiladi.

*Yana bitta xotira shaklining vujudga kelishi.* Odamzot mehnat va ov qurollarini yasashga kirishgach, xotiraning yangi shakliga ehtiyoj paydo bo'ldi. Genetik xotira, jamoa xotirasi yangi mehnat faoliyati va uni takomillashtirish uchun aslo kifoya qilmas, ajdodlar to'plagan tajribalarini avlodlar xotirasiga o'tkazish uchun "Ta'lim" xotirasi vujudga keldi. Kannibalizm qoralandi, keksalar o'tgan avlod tajribalarini asrovchi va yosh avlodga yetkazuvchi asosiy "o'qituvchilar" bo'lib qoldilar,

jamoada ularning qadri juda oshib ketdi. Ruxsat va taqiqlar tizimining shakllanishi axloq me'yorlariga so'zsiz va ixtiyoriy rioya qilish mayllarini kuchaytirdi. Ojizlarni himoya qilish, ularni jamoat tomonidan muhofazaga olinishi fidoyilik (alturizm) his-tuyg'ularini rivojlantirdi va buning oqibati o'laroq tabiiy tanlanish o'z harakatini to'xtatdi, oqibatda odamzotning individual fiziologik rivojlanishi barham topdi. Individ endilikda jamoa va jamiyat bag'rida aqliy jihatdan rivojlanib, takomilashib borish bosqichiga ko'tarildi.

Mehnat qurollari uchun munosib toshlarni axtarish, topish, ularga ishlov berish, hayvon terilarini ishlash, go'shtlarni parchalash, o'tni saqlash va undan oziq-ovqat tayyorlashda foydalanish, jamoa orasida odob-axloq maromlariga rioya qilib borishni nazorat etish, ov jarayonlari rejalarini tuzish, g'anim urug'larga qarshi turish imkoniyatiga ega bo'lish kabi ishlar nutq tilining rivojlanishi, u bilan barobar tafakkurning takomillashishiga olib keldi. Til boyligining oshishi mantiqiy tafakkur rivoji uchun qanchalik kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, mantiqiy tafakkur tarzining murakkablashib borishi, til boyligining oshishi, eng nozik narsalarni, hodisalarni ham ilg'ab olish imkonini vujudga keltirdi. Ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchalar paydo bo'lib, ular yordamida dunyoqarash shakllana boshladi. Axloqning shakllanishi, go'zallik va xunuklik to'g'risida dastlabki sodda tasavvurlarning yuzaga kelishi, odamzot o'zini qurshagan olam to'g'risidagi qarashlari, jumladan, nima ezgulig-u, nima yovuzlik ekanini anglab olishga qiziqish – bularning hammasi bilimning fan unsurlari shakllanishiga olib keldi. Odamlar o'z kuzatishlari natijasida yil fasllarining takrorlanishini fahmlab oldilar va yozda qishning g'amini yeyishga aqlari yetib qoldi. Shunday qilib, zarur ma'lumot (informatsiya) larni saqlovchi va donishmandlik xazinachilari sifatida kohinlar va sehrgarlarning jamiyatdagi mavqei oshib ketdi. Ular dastlabki sodda faylasuflar sifatida mifologik dunyoqarashga asos soldilar.

*Xulosa:* a) aqlning paydo bo'lishi bilan moddiy olam o'zini-o'zi anglash bosqichiga ko'tarildi; b) odamzot uzoq tarixiy davr mahsulidir; v) endilikda antropogenez o'z nihoyasiga yetdiki, odamzot hozirgi fiziologik tuzilishda yana 25 ming yillar chamasi yashashi mumkin; g) ongli mehnat faoliyatining xilma-xil tus olishi olam haqidagi tasavvurlarni rivojlantirdi va mifologik dunyoqarash shakllandi.

*Kalit so'zlar:* intellekt (Aql), antropogenez, axborot, irsiy xotira, DNK yozuvlari, "poda ongi", antropoid, filogenetik maydon, Avstrolopitek,

Pitekantrop, Sinantrop, Neandertal, Kromonon, miya ilang-pilanglari, notenglik qonuniyati, "Ta'lim" xotirasi, kannibalizm, alturizm.

### Takrorlash uchun savollar

1. Materiya qanday ko'rinishlarga va xususiyatlarga ega?
2. "Poda ongi" qanday paydo bo'ldi va uning funksiyalari nimadan iborat?
3. Ong qanday paydo bo'lgan, uning oqibatlarini ayting.
4. Odamning paydo bo'lishi haqida hozirgi zamon tabiatshunoslik va insonshunoslik fanlarining xulosalari nima?
5. Jamiyatning paydo bo'lishining qanday tabiiy (biologik) va ijtimoiy asoslari bor?
6. "Ta'lim" xotirasi nima?
7. Rivojlangan nutq tili bilan tafakkur o'rtasida qanday dialektik aloqadorlik bor?

### INSONNING BIOIJTIMOIY MOHIYATI

*Odamda tabiiylik va ijtimoiylik dialektikasi.* Falsafiy fikr tarixida inson va uning olamdagi o'rni hamda ijtimoiy taraqqiyotdagi roli doim diqqat markazida turgan. ITI, jahonda globallashuv jarayonlarining jadal borayotgani, davlat va jamiyatni boshqarishni demokratik uslublariga o'tilishi munosabati bilan yuzaga kelayotgan yangi vaziyat inson muammosiga yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqdaki, uning ayrim jihatlarini bilib olish muhimdir.

Odamzotning yashash sharoiti, avvalo ijtimoiy muhit doimo o'zgarib borishi qonuniy bir jarayon ekan, inson muammosi hamisha dolzarb bo'lib qolaveradi. Muammolar qanchalik bir-biriga o'xshash bo'lmasin, ular har gal boshqacha tarixiy sharoitda, o'zgargan ijtimoiy muhitda yashovchi, binobarin, o'zgacha tafakkur tarziga ega bo'lgan, dunyoni boshqacha his etuvchi va tushunuvchi insonning muammolari bo'lib qolaveradi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, odam tiriklik sohasi evolutsiyasining hosilasi ekanligi fanga ma'lum bo'lgach, hayvon bilan odam o'rtasidagi umumiylik va ayrimlikni tadqiq etish yetakchi mayl bo'lib qoldi.



Hayvon biologik organizm bo'lib, uning barcha fe'l-atvori DNK molekulalarida, genetik dasturida belgilangan va irsiyat tufayli ular avloddan avlodga o'tib boradi. Shuning uchun ham hayvonning xatti-harakati, yashash uchun kurash shakli sayyoramizning hamma joyida bir xildir. Har qanday hayvon juda boy bo'lgan tayyor instinktlar bilan yorug' dunyoga keladi. Ayni chog'da hayot tajribalari ham ma'lum darajada ular fe'l-atvorida aniq vaziyatga qarab o'zgarish qilishga yordamlashadi.

Odamzot individual fe'l-atvorida genetik dasturning roli bor, albatta. Bundan tashqari fanga sotsial genlarning ham xatti-harakat belgilashga muayyan ta'siri borligi ayon bo'lmoqda. Masalan, ajdodlarida o'g'ri, muttaham, lo'ttiboz bo'lmagan avlodda bunday qusurlar yo mutlaqo uchramaydi yoki kam uchraydi. Zero, odam biologik tur bo'lish bilan bir vaqtning o'zida muayyan tarixiy davr va ma'lum mamlakatdagi ijtimoiy muhitning ham farzandidir. Binobarin, odamning qaysi tarixiy davrda, qaysi ijtimoiy muhitda yashashiga qarab fe'l-atvorida jiddiy o'zgarishlar bo'ladi. Ovchi, chorvador, hunarmand, ishchi, tadbirkor, ziyoli, texnokrat kabi ko'plab qiyofalarda u o'zini boshqa-boshqa tusda namoyon qila oladi. Odamning fe'l-atvori, xatti-harakatida tug'ma (irsiy) xususiyatlar bo'lishiga qaramay, umuman olganda, bular asosan muayyan ijtimoiy muhitda (oila, o'quv va mehnat jamoasi, davr ruhi, davlat tuzilishi, ijtimoiy-siyosiy guruhlar, kasbiy va ijodiy uyushmalar va h.k.) hamda mehnat, til, nutq, tarbiya, tajriba orqali o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

*Jamiyat o'z-o'zini tashkillovchi va boshqaruvchi tizim.* Jamiyatning shakllanishi va tarixiy takomilida ijtimoiy mehnat, nutq tili va tafakkur tarzining o'zgarishi bilan birga oila munosabatlarining ahamiyati katta bo'lgan. Odam galalaridagi mavjud betartib jinsiy aloqalarni tartibga tushirishda dastlabki ijtimoiy birliklar – urug'larning ta'siri kuchli bo'ldi. Guruhiy nikohlar o'rniga asta-sekin yakkani nikohlik munosabatlari urug' ichida tarkib topdi. Ammo chiroyli qizlar va barno yigitlar uchun talashish jarayonida urug'ning parchalanib ketish xavfi paydo bo'lgach, urug' boshliqlari bitta urug' ichidagilar nikohlarini taqiqlab qo'ydilar. Bu ijtimoiy munosabatlarning kengayishi va sog'lom avlodga ega bo'lishda inqilobiy bir hodisa bo'ldiki, buni urug' boshliqlarining o'zlari ham sezmay qoldilar. Zero, yaqin qon-qarindoshlar o'rtasida jinsiy aloqaning

taqiqlanishi urug'ni tashkil etgan kishilar o'rtasida ham boshqa urug'lar bilan (erkak yo ayolni almashtirish zarurati tufayli) do'stona munosabatlarni qaror toptirish orqali mayib-majruh, aqliy zaif bolalar tug'ilishi kamayib, urug' jamoasi sog'lom, baquvvat avlod hisobiga miqdor jihatidan ko'payib bordi. Yakkanihlikning tarkib topishi jarayonida mulkiy munosabatlar takomillashdi, bola tarbiyasi uchun nisbatan qulay shart-sharoitlar vujudga keldi.

Ma'lumki, hayvonlarda ichki (tartibsiz) jinsiy munosabatlar (endogamiya) mavjud. Agamiya (yunoncha "a" – yo'q, "xamas" – jinsiy aloqa) yaqin qondoshlik jinsiy munosabatlarni taqiqlanishini anglatga, ekzogamiya (yunoncha "ekzo" – tashqaridan, "xamos" – jinsiy munosabat) nikoh munosabatlarining tashqaridan, qarindoshlikka asoslanmagan bo'lishi ma'nosini anglatadi. Jinsiy aloqalarda hayvonlar instinktlarga tayansa, odamlarda u instinktlar o'rnini asta sekin odob-axloq maromlari asosidagi ruxsat va taqiqlarga tayanish rusum bo'la bordi. Bu holat odamlar jamoalaridagi munosabatlar tartibga tushib borishida ijtimoiy qonunlar amal qila boshlaganidan darak berardi. Axloqiy ijtimoiy ruxsat va taqiqlarning har qanday poda va gala instinktlaridan tub farqi shuki, bular urug' va jamoaning barcha a'zolariga – kuchlilar va kuchsizlarga ham, yoshlar va keksalarga ham birday taalluqlidir. Yovvoyilik muhitida esa "mumkun emas"lik (taqiq) faqat ojizlarga nisbatan amal qilgan, kuchlilar uchun esa ularning barcha istak-xohishlari mumkin, "qonuniy" edi. Urug' va qabilalardagi ruxsat va taqiqlar majburiy bo'lib, ularning butun jamoa va urug' yetakchilari qattiq nazorat ostiga olishgan edi. Urug' yoki qabilaning har bir a'zosi ongiga yoshligidanoq bu ruxsat va taqiqlar muqaddas ekanligi chuqur singdirilar, ularga rioya qilmagan yoki buzgan kishilar, kim bo'lishidan qati nazar, jazolanar edi. So'ngra odamlar fe'l-atvorlarini ko'zga ko'rinmas, ammo hamma joyda hozir bo'lib turadigan ruhlar kuzatib borishi to'g'risidagi tasavvurlar keng yoyilgan bo'lib, odamlar bunga qattiq ishonar va o'z-o'zini boshqarishda bu omil katta rol o'ynardi.

Dinlar, ayniqsa jahon dinlari shakllangach, urug'-qabilachilik munosabatlaridagi ruxsat va taqiqlar o'rnini asta-sekin savob va gunoh tushunchalari orqali belgilanadigan munosabatlar egalladi, ya'ni xudo va payg'ambarlar nomidan diniy kitoblardagi bitilgan talablar, pand-

nasihatlar doirasida faoliyat yo'nalishini belgilaydigan odamlar komil insonlar sirasiga kiritilgan bo'lsa, buning aksini qilganlar g'ayriinsonlar sifatida talqin etilib, bu dunyo va "u dunyo" da jazolanishlari muqarrar ekanligi barcha mafkuraviy vositalar, usullar va shakllar orqali izchil ta'kidlanardi. Demokratik tartibotlar qaror topib borayotgan jamiyatlarda esa endilikda asta-sekin davlat belgilagan qonunlar doirasida faoliyat yo'nalishi belgilaydigan individlar rag'batlantirilib, g'ayriqonuniy ishlar bilan shug'ullanayotganlarni izchil ravishda jazolab borish yetakchi mayl bo'lib bormoqda. Oila, o'quv va mehnat jamoalari, ta'lim tizimi, madaniy-ma'rifiy muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlarining g'oyaviy ta'sir o'tkazib borishi, nazorati va mafkuraviy ishlari orqali odamning insonga aylanib borishi uchun umumiy harakatlar bor. Ayni chog'da diniy jamoalar va tashkilotlarning inson ma'naviy olamini munavvar qilishga qaratilgan faoliyatlari davlat muassasalari va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yuqorida aytilgan holatlarning barchasi o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etadi, ya'ni nutq tili va mantiqiy tafakkursiz odamda burch, mas'uliyat kabi his-tuyg'ular aytarli bo'lmaydi, binobarin, ularda axloqiy va qonun doirasidagi ruxsat va taqiqlarni anglash, ularga rioya qilish haqida gap bo'lishi mumkin emas.

*Odamning insonga aylanib borish jarayoni.* Odamzotdagi tabiiylik va ijtimoiylik o'rtasidagi aloqadorliklarda ijtimoiylik mayllarining yetakchi bo'la borishi odamning insonga, ya'ni jamiyatlashgan individga aylanishi uchun shart-sharoitdir. Genetik jihatdan chegaralangan tabiiy omillarga ijtimoiylik katta ta'sir ko'rsatib, hatto odam hayotining davomiyligi ham uzayib boryapti. Tadqiqotchilarning fikricha, odam o'rtacha 90 yil (ba'zi manba'larda 120 yil) umr ko'rishi mumkin. Ijtimoiylik mayllarining ustivor bo'lib borishi natijasida qadimda odamlar o'rtacha 22 yosh, XVIII asrlarda 30 yosh, XX asr boshlarida 56 yosh umr ko'rgan bo'lsalar, hozir o'rtacha 70-75 yosh yashayptilar.

"Odam" va "Inson" tushunchalarida umumiylik bilan birga jiddiy tafovutlar ham borligini anglash ta'lim-tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega. Odamdagi biologik omil ahamiyatini aslo kamsitmagan holda, uning tabiati va ruhiy olamida ijtimoiylikning muqimlashib borishi natijasida odam zotining insonga aylanib borishi mumkinligini tarixiy haqiqatlar tasdiqlaydi. Odamda biologik omil yetakchi bo'lsa, insonda

ijtimoiylik (ma'naviy) omillar birinchi o'ringa chiqib oladi. Yashash uchun kurash jarayonida inson o'zi mansub bo'lgan jamiyat va madaniyat qadriyatlariga asoslanib, xatti-harakat va faoliyat yo'nalishini belgilaydi, ijtimoiy hayotda tarkib topgan va an'anaga aylangan odob-axloq maromlari, qonun-qoidalar, tartib-intizomlarga qat'iy rioya qiladi, mabodo tashqi ta'sirlar ostida ularni nogahon buzsa, vijdon azobida qolib, o'zini-o'zi sira kechirmaydi. Shu ma'noda hozirgi fiziologik tuzilishga ega bo'lgan barcha ongli mavjudod odam turiga kiradi, ammo ular orasida insonga aylanmagan, ya'ni hayvonlarga xos olg'irlik, bosqinchilik, yovvoyilik qusurlaridan holi bo'lmaganlari ham yo'q emas. Masalan, o'g'ri, ta'magir, yulg'ich, poraxo'r, qotil, fohisha va h.k. nafs qurboniga aylanganlar, albatta, odam, ammo ularni inson qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

Odamning insonga aylanib borishida imon tushunchasining falsafiy idroki muhim ahamiyat kasb etadi. Insonda imon diniy yo'l bilan ham, ilmiy-ma'rifiy yo'l bilan ham shakllanishi mumkin. Imon qaysi yo'nalishda inson ahvoli ruhiyatida muqim bo'lishidan qat'i nazar, xudo yoki oliy ijtimoiy maqsad (oliy g'oya) ga qalban, ruhan ishonch va bu ishonchga har qanday sharoitda ham sodiq qolish uchun ichki ont ichishdan iborat ongning nodir hodisasidir. Imonlilikning yana bir sharti so'z (til) bilan amal (ish) birligidir. Mana shu shartlar asosida imonli insonlarda vijdonlilik, halol-poklik, rostgo'ylik, insof-diyonat, saxovatpeshalik, muruvvatlilik, xalq, Vatan ishq bilan yashash kabi fazilatlar shakllanadi, zero, imonli inson uchun ular muqaddas qadriyatlar bo'lib, hayot ma'nosini belgilaydi. Imonli inson yaqinlari, do'stlari, Vatani, xalqiga har qanday sharoitda ham sodiq qoladi, o'lishga rozi bo'ladi-yu, ammo imoniga xiyonat qilmaydi.

Odam tabiatidagi tabiiylik va ijtimoiylikning o'zaro nisbati haqida gap borganda, ulardan birini ideallashtirish yomon salbiy oqibatlariga olib kelishini e'tiborga olish kerak. Sotsial darvinistlar odam naslini o'zgartirish orqali odamning insonga aylanish jarayonini tezlashtirish mumkin desalar, marksistlar ijtimoiylikni birinchi o'ringa qo'yib, undagi biologik omillar rolini pasaytirishga urinadilar. Har ikki qarash ham ijtimoiy taraqqiyot va inson kamoloti uchun zavol bo'lishini tarixiy jarayonlar tasdiqlaydi. Demak, odamzot biologik va ijtimoiy mohiyatlar birligida mavjud bo'ladi, ammo ijtimoiy mayllarning ustuvor bo'lib borishi uning tabiatidagi biologik imkoniyatlarning voqelikka aylanishini ta'minlaydi.

*Xulosa:* a) odam tabiiy va ijtimoiy muhit ta'sirida muayyan sotsial qiyofaga ega bo'ladi; b) jamiyat o'z ichki qonuniyatlari bilan shakllanadigan va rivojlanadigan tizim; v) odam biosotsial mavjudod bo'lib, muayyan tarixiy davrda mavjud qonun-qoidalar, odob-axloq maromlariga ixtiyoriy ravishda rioya etishga odatlanish orqali insonga aylanadi.

*Kalit so'zlar:* tabiiylik, ijtimoiylik, DNK molekulari, genetik dastur, ijtimoiy mehnat, nutq tili, tafakkur tarzi, endogamiya, agamiya, ekzogamiya, instinkt, odam, inson, imonli inson.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Nega inson muammosi hamisha dolzarb?
2. Odam qanday mavjudot?
3. Qon-qarindoshlikka asoslanmagan nikohlarning afzalligi nimada?
4. Dinlardagi savob va gunoh tushunchalarining ijtimoiy mohiyati nima?
5. Qonuniy yoki qonunsiz xatti-harakatlar davlat yo'li bilan qanday nazorat etiladi?
6. Odam umri qanday omillarga bog'liq?
7. "Odam" va "Inson" tushunchalarining falsafiy mazmuni nima?
8. Odamning insonga aylanib borishida imon qanday rol o'ynaydi?

### **ANTROPOLOGIK G'OYALAR: INDIVID VA SHAXS, INSON OMILI**

*Individ va shaxs tushunchasi.* Falsafa tarixida antropologik g'oyalarning rivojlanishi, odamzot evolyutsion taraqqiyoti hamda uning Yer deb atalgan bir butun tabiatga, shuningdek, ijtimoiy taraqqiyotga hal qiluvchi ta'sir o'tkazish bosqichi – Noosfera davriga kirganini har bir individ anglab olishi zarur.

Muayyan ijtimoiy birlik (butunlik) ichidagi ayrimlik individdir. Ya'ni individ yakka-yolg'iz odam emas, balki betakror (individual) xususiyatlariga ega bo'lgan ayrim kishidir. Individda ayrimlik bilan umumiylik uyg'un holda mavjud bo'ladi. Masalan, Ahmadda odam zotiga xos hamma xususiyatlar bor. Umumiylikdan ayrimlikni farqlash

uchun individ tushunchasi qo'llaniladi. Umumiylikdagi ayrimlik – individuallik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) muayyan ijtimoiy guruh, jamoa, tashkilotni tashkil etgan odamlarning o'ziga xos fe'l-atvorlari;

b) o'zini tashkil etgan muayyan ijtimoiy guruh kishilarining o'zlariga xos ijtimoiy belgilari, sotsial qiyofalari.

Individ va shaxs tushunchalari bir-biriga yaqin. Shaxs betakror (individual) sifatleri bilan, albatta, individ, ammo u faol xususiyatlari tufayli shaxsdir. Individni o'ziga xoslik, betakrorlik sifatlasa, shaxsni shu bilan birga, erkin, ijodiy fikrlash va muayyan vaziyatda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil harakat yo'nalishi olish qobiliyati kabi sifatlar belgilaydi. Shaxs har bir davrda mavjud bo'lgan muayyan ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarni ilg'ab olib, o'zi mansub bo'lgan odamlar guruhi manfaatlarini to'laroq gavdalandiradi va u sotsial guruhga xos fazilat va qusurlarni yorqinroq namoyon etadi. Bunday shaxslar o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh manfaatlarini faol himoya qila oladi va buning uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga dadil ola biladi. Ya'ni muayyan umumiylik ayrim shaxslarda o'zining yorqin ifodasini topadi. Masalan, "Temir xotin" spektaklida Qo'chqor obrazi sobiq sovet kolxoz tuzumida shakllangan individlarning yorqin namunasi bo'lsa, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" romanidagi Saida obrazi shaxsga misoldir.

Ijtimoiy muhit inson shaxsini qay darajada shakllantirsa, shaxslar ham o'sha muhit qanday holatda bo'lishini kafolatlaydi. Biroq shaxslarning barchasi ham ijtimoiy muhit doirasida harakat qiladigan, qotib qolgan turg'un fikrlar asosida hayot yo'nalishi belgilaydigan insonlar emas. Har bir individda genetik dastur asosida qabul qilingan va qayta ishlaydigan axborotli in'ikos turlicha bo'lgani sababli, undagi o'zi yashab turgan ijtimoiy muhit hodisalariga qiziqish darajasi ham turlichadir. Shaxs o'z shaxsiy sifatleri bilan muayyan ijtimoiy harakatga ta'sir ko'rsatish darajasiga qarab qadrlanadi va qadrsizlanadi. Muayyan tarixiy sharoitlarda yirik ijtimoiy harakatlarga boshchilik qilganlar tarixiy shaxs sifatida o'zidan yaxshi yoki yomon nom qoldiradi. Tarixiy shaxslarda jamiyat taraqqiyotini tezlatish yoki sekinlatish, hatto orqaga qaytarish imkoniyati katta bo'ladi. Bunda ulardagi tarkib topgan dunyoqarash va shu asosida vujudga kelgan imon yo'nalishi va darajasi muhim rol o'ynaydi, undagi insoniy fazilatlar va qusurlar o'zi boshchilik qilayotgan harakatga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs va uning erki muammosi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Erkin faoliyat ko'rsatishga ega bo'lish shaxs uchun tarixiy, ijtimoiy va axloqiy qadriyat bo'lib, uning individualligi namoyon bo'lishi va jamiyat taraqqiyoti darajasining mezonidir. Shaxs erkinligini poymol etish, uning ongi va xulq-atvorini bir qolipga solishga intilish, individlarni jamiyat, davlatni boshqarish ishlaridan amalda chetlatish shaxs kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga ijtimoiy taraqqiyotni ham sekinlatadi, turg'un holga keltiradi va hatto tanazzulga olib keladi. Sobiq Ittifoq bunga misoldir.

**Tanlov erki muammosi.** Tirik tabiatda biologik tanlov hayvonlar uchun qanchalik ahamiyatli bo'lsa, ijtimoiy hayotda ham insonlarning tanlov erki shunchalar ahamiyatlidir. Faqat shaxslar uchun tanlov erki bor joydagina taraqqiyot tez va maqsadga muvofiq borishi mumkin. Umuman mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy munosabatlar shaxs erki va kamoloti uchun qanchalik ta'sir ko'rsatmasin, ayni chog'da u munosabatlar qanday bo'lishi ko'p jihatdan shaxslarning bu munosabatlarga amaliy yondashuvlariga ham bog'liq bo'ladi. Sobiq Ittifoqda shaxsiga sig'inish va bu bilan ma'lum darajada bog'liq holda ro'y bergan turg'unlik yillarida adolat o'rnini riyo, haqiqat o'rnini qo'rquv, hadiksirash egallaganini, albatta, nazarda tutish kerak. Ikkiyuzlamachilik kadrlar uchun qadriyatga aylanib qoldi, chunki buningsiz ular o'z vazifalarini bajara olmaydigan holga keldilar. Demak, bizning zamonamizda individlar, ayniqsa shaxslar ijtimoiy-iqtisodiy va davlat tuzumlarining asiri emas, balki ularning ijodkori ham ekanligini nazarda tutib, siyosat belgilagan tarixiy shaxslar o'zlaridan yaxshi nom qoldirishlari, avlodlar xotirasida buyuk kishilar sifatida abadiyatga doxil bo'lishlari mumkin. Buning aksi ham bo'lishi mumkin. Masalan, Chingizxon, Gitler, Lenin va Stalin kabi shaxslar ma'lum qisqa tarixiy davrda o'zlarini qanchalik ulug'lanishlariga erishmasinlar, piravordida ularning nomi bilan bog'langan qarashlar, tuzumlar g'ayriinsoniy tusda ekani ma'lum bo'ldi va ularning nomlari taraqqiyparvar insoniyat tomonidan la'natlanib, tilga olinayotgani tamomila tabiiy holdir. Hatto ularning urug'-aymoqlari ham og'ir ahvolga tushib qolganini, iztirobli hayotni boshlaridan kechirganliklarini unutmash lozim.

**Insonnig ichki olami masalasi.** O'zbekiston xalqlari milliy mustaqillikka erishib, ular jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini topish yo'lida dadil odimlar tashlamoqdalar. Mustaqillikni mustahkamlash manfaatlari

dunyoda integrasiya va globallashuv jarayonlari, milliy zaminda chiqayotgan ziddiyatlar ko'pincha o'z qarama-qarshi tomoniga og'ib ketayotgani va shu kabi hodisalar inson omilini tobora birinchi o'ringa chiqarib qo'ymoqda. Binobarin, odamlarning insonga aylanishida insonparvarlik g'oyalari har bir kishi hayotining maqsad-muddaosiga aylanishiga erishishda falsafa fanininng o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Falsafa fani insonshunoslik fanlari (psixologiya, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, tilshunoslik, pedagogika, dinshunoslik, germlenevtika va b.) bilan shu ma'noda uzviy bog'langanki, har ikki yo'nalish ham insonning ichki ma'naviy olamini munavvar etishga qaratilgan. Inson ma'naviyati uning ruhiy olami bilan mushtarak bo'lib, ruh narsa, buyum sifatida emas, balki so'zlar, fikrlar, nuqtai nazarlar, dunyoqarashlar, an'analar, qadriyatlar, me'yoriy maromlar, munosabatlar sifatida ong va qalbga singadi hamda shunga muvofiq tarzda odam fe'l-atvori, xatti-harakati, faoliyati aniq tus oladi. Odam hayoti fikrlar va his-hayajonlar bilan limmo-lim bo'lib, uni har bir odamning o'ziga xos hayot rejalari, loyihalari, taxminlari, nimanidir kutishlar, nimagadir umidvorlik, ularni ro'yobga chiqarish yo'lidagi omadlar va omadsizliklar belgilaydi. Odam ayni bir vaqtda ham o'zi, ham o'ziga begonadek, ya'ni hozir borlig'i, mavjudligi bilan ertaga, kelajakda qanday bo'lishi zarurligi chegarasi o'rtasida doimo izlanishda bo'ladi. Yashash uchun kurash jarayonidagi bu izlanishlar nihoyatda murakkab, ziddiyatli jarayon bo'lib, qanday va qaysi g'oyalar, dunyoqarash bilan uzviy bog'lanib ketgan imon-e'tiqod yo'nalishlari, fikrlash tarzlari mutanosib ravishda individuallik namoyon bo'ladi.

***Ijtimoiy taraqqiyotda inson omilining oshib borishi.*** Inson va uning muammolari bilan shug'ullanadigan boshqa fanlar masalaning ayrim bir jihati, tomonini tadqiq etsa, falsafa fani odamni bir butun holicha hamda uni qurshagan tabiiy va ijtimoiy muhitning ta'siri va unga javoban odamning munosabatini o'z ichki va tashqi ziddiyatlari bilan o'rganadi. Shunday bo'lishiga qaramay, falsafaga, bu fanga munosabat har bir davrda aytarli darajada ijobiy bo'lavermagan. Biz yashayotgan davrdagi falsafaga munosabat ham quvonarli emas. Biroq insonlar, ular uyushmalarining barcha faoliyatlarini bunyodkorlik, yaratuvchilik tomonga burib yuborish ham milliy, ham umumbashariy zaminda



kechiktirib bo'lmaydigan zarurat bo'lib qolgan bir sharoitda, falsafa fanining individual va ijtimoiy ongga ko'rsatadigan ta'siriga yetarli baho berish ijtimoiy taraqqiyot va inson kamoloti uchun benazir xizmat qilishini ta'kidlab o'tish lozim.

Sharq falsafasi inson ichki olami, ruhiy takomiliga hamisha katta e'tibor berib kelgan. Odamzotdagi hayvoniy qusurlar o'rniga insoniy fazilatlarni shakllantirish bu falsafa tadqiqotining markazida turadi. Umar Hayyomning quyidagi fikrlarini Sharq falsafasining tamal toshi deyish mumkin:

Olamning tilagi – samari ham biz,  
Aql ko'zin qorasi – javhari ham biz.  
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,  
Shaksiz, uning ko'zi – gavhari ham biz.

Forobiy inson barkamolligini jamiyat farovonligi, barqarorligining negizi deb hisoblagan. Fozil odamlar va ularning fazilatlarini ta'riflar ekan, johillikka, jaholatga qarshi ma'rifat uchun kurashish jarayonida barkamol insonlar yetishib chiqishi, jamiyatda adolat qaror topishiga umid bog'laydi, fozil odamlar shaxsining hokimi sifatlarini birma-bir sanab ko'rsatish bilan barkamol insonlar fazilatini tavsiflaydi. Davlat va jamiyatni boshqarish tizimida ishtirok etadigan hokim (rahbar) quyidagi 12 ta fazilatga ega bo'lgandagina u muayyan jamoaning yo'l boshchisi deb tan olinishi mumkinligini qayd etadi. Hokim (rahbar)ning to'rt muchasi sog', kuchli xotiraga ega, o'tkir zehnli, zukko qalb egasi, o'z fikrini boshqalarga aniq-ravshan tushuntira oladigan, ma'rifatga chanqoq, ta'om yeyishda, ichkilikda, ayollarga yaqinlikda ochofatlikdan yiroq, aksincha, o'zini-o'zi tiya oladigan, haqiqatni sevadigan va haqiqatparvar kishilarni yoqtiradigan, yolg'ondan qochadigan, o'z qadrini biluvchi, or-nomusli, mol-dunyo ketidan quvmaydigan, istibdod va jabr-zulmni qoralaydigan, tabiatan adolatparvar, biron maqsadga erishishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur, qo'rqqoqlik va hadiksirashlardan uzoq yura oladigan shaxs bo'lmog'i zarur. Shundagina u odamlarni to'g'ri, bunyodkorlik yo'lidan boshlay oladi, odamlar uchun bunday shaxslar ideal (namuna) bo'lib qoladi.

Milliy mustaqillikni mustahkamlash manfaatlari Sharq falsafasidagi bunday durdona fikrlar asosida sog'lom avlodni tarbiyalashni taqozo etadi. Milliy g'oya va mafkuraning umumiy mazmuni ana shunday

fikrlardan oziq olib, o'z oldiga sog'lom avlodni tarbiyalashdek ulug'vor vazifalarni qo'yadi.

*Xulosa:* a) individ muayyan sotsial guruhdagi ayrim kishi, shaxs esa ma'lum guruh manfaatlari va ehtiyojlarini anglab, o'z shaxsiy qobiliyatlarini shunga muvofiq namoyon etuvchi insondir; b) tanlov erkiga ega bo'lgan individlar ijtimoiy taraqqiyotda faollik ko'rsatadilar; v) inson ichki olami boy va go'zal bo'lganda, uning taqdiri baxtli bo'ladi; g) milliy istiqloq hamda jahonda integrasiya va globallashuv jarayonlari inson omili masalasini tobora birinchi o'ringa chiqarmoqda.

*Kalit so'zlar:* individ, shaxs, ijtimoiy muhit, axborotli intixos, tarixiy shaxs, shaxs erki, biologik tanlov, inson omili, inson ichki olami, ruh, fozil odam, johil odam.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Individdagi ayrimlik va umumiylikka izoh bering.
2. Individning ta'rifi va tavsifini ayting.
3. Shaxs tushunchasining falsafiy mazmuni nima?
4. Individlar, shaxslar bilan ijtimoiy muhit o'rtasida qanday dialektik aloqadorlik bor?
5. Ijtimoiy hayotda individlar uchun tanlov erki nega kerak?
6. Tarixiy shaxslar va ularning taqdiri nimalarga bog'liq?
7. Nega inson omili tobora birinchi o'ringa chiqib bormoqda?
8. Insonning ichki olami va ruhiyati nima bilan belgilanadi?
9. Sharq falsafasining o'ziga xos xususiyatini aytib bering.

### **JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARI**

*Jamiyat va shaxs evolutsiyasi.* Odamlarning ijtimoiy birikmasi bo'lgan jamiyat, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida diniy, badiiy, ilmiy va falsafiy adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. ITI shitob bilan ketayotgan bu jarayon nafaqat insoniyat ongi, shuuri, ruhiy olami, ma'naviy-axloqiy qiyofasining o'zgarishiga o'z jiddiy ta'sirini o'tkazayotgan, shu bilan birga tabiiy hodisalarga ham faol ta'sir ko'rsatish pallasi (Noosfera davri)ga kirgan bir paytda, shaxslarda ijtimoiy hodisalarga ilmiy yondoshuvni qaror toptirish hayot-mamot masalasi bo'lib turibdi.

Jamiyat ham makro va mikro jismlar kabi o'zini-o'zi tashkillashtiruvchi va boshqaruvchi tizimdir. Binobarin, bu tizim muayyan qonunlar asosida mavjud bo'ladi va takomillashib boraveradi.

Ikki jinsning yakkani kohlikka asoslangan oila shaklida yashashga o'tishi urug', qabila, elat (xalq), millatlarning vujudga kelishi va shu birliklarda o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishlari qonuniy jarayonlardir. Jamiyat taraqqiyotining kelib chiqishi, mulkiy munosabatlar, ishlab chiqarish munosabatlari, har bir jamiyatning o'z bazis va ustqurmasi bo'lishi, bozor iqtisodi munosabatlari (bularni iqtisod nazariyasi va satsiologiya fanlari batafsil o'rganadi) ana shu ijtimoiy hodisalar, abatta, ijtimoiy qonunlar ta'sirida tarixan o'z-o'zidan shakllangan.

Tabiat qonunlari bilan jamiyat (ijtimoiy) qonunlar o'rtasida umumiylik va ayrimlik bor. Har ikki yo'nalishdagi qonunlar obyektiv tasnifga ega, ya'ni ular odamlarning ongi, xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amal qiladi. Bu qonunlar orqali har qanday butunlik bir tizim shaklida o'z-o'zidan harakatga kelib, o'z strukturaviy tuzilashiga ega bo'ladi.

Tabiat qonunlari odamzot paydo bo'lmasdan oldin ham mavjud edi, ularga quyosh tizimi va bizning koinotimiz doirasidan tashqaridagi tizimlarda ham amal qiladi. Jamiyat qonunlari faqat Aqlli mavjudod - odamlarning ijtimoiy birliklaridagina mavjud va shu jarayonlardagi ishtirokiga qarab, individlar shaxsga aylanadi, jamiyat qonunlariga amal qilishi odamlar uyushmalarining ongli faoliyati bilan bog'lanib ketadi.

Tabiat qonunlari uzoq tarixiy davrda amal qiladi, jamiyat qonunlari nisbatan qisqa muddat davomida o'z hukmini o'tkazadi. Tabiatning yangi qonunlari kashf etilishi birdaniga ijtimoiy larzalarga olib kelmaydi, ijtimoiy qonunlarning kashf etilishi va unga amal qilinishi esa katta ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin. Har bir tarixiy davr va mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlarga muvofiq ravishda individlar muayyan sotsial qiyofaga ega bo'ladilar. Sotsial guruhlarining tub manfaatlarini va ehtiyojlarini teranroq anglab, ularni aniq-ravshan maqsadlar sari yetaklovchi kishilarda shaxsiy qobiliyatlar rivojlanib, o'sha guruh, butunlik (urug', qabila, elat, millat, sinf, partiya, mehnat va o'quv jamoasi va h.k.) yetakchisiga aylanadi. O'z navbatida shaxslarning dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofalariga monand tarzda o'sha sotsial butunliklar o'zlarini namoyon etadilar.

Tabiat va jamiyat qonunlari o'rtasida farqlar bilan birga yana bir mushtaraklik shuki, biosferaning Noosfera bosqichiga o'tishi qonuniy jarayon bo'lib, buni anglab, faoliyat yo'nalishini belgilash tabiat (Er)ni ham, jamiyatni ham muqarrar halokatlardan saqlab qoladi.

Tabiat va jamiyat qonunlarini bilishning o'ziga xos xususiyati shuki, tabiat va uning hodisalari bilish obyekti, ammo ularning o'zlari bilish subyekti emas. Jamiyat qonunlari ham bilish obyekti, ham subyektidir. Zero, jamiyat bir-biri bilan ehtiyojlar va manfaatlar mushtarakligida uyushgan odamlar va ijtimoiy guruhlarning yaxlit birligi, birlashmasidir. U muayyan ijtimoiy tizimning maromli ishlashi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitni anglatib, narsa va hodisalarga odamlarning aniq munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ehtiyojlar shaxsiy, guruhiy, sinfiy, kasbiy, milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'ladi. Ehtiyoj har bir odam, jamoa, ijtimoiy guruh, sinf, elat, millat yashashi, faoliyati, ravnaqi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvofiqlik, muvozanat holatini saqlashga qaratilgan sog'lom ehtiyojlarni qondirish deb tushinilsa, to'g'ri bo'ladi. Ehtiyojlar qanday tus olishi shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ilmiy-falsafiy anglashga ko'p jihatdan bog'liq.

***Shaxslarning tabiat va jamiyat qonunlarini anglab olib, faoliyat yo'nalishlarini belgilashlari muammosi.*** Ijtimoiy manfaatlar obyektiv bo'lib, uning to'g'ri idroki shaxsning turmush tajribasi, tarixiy xotirasi, ilmiy salohiyati, insoniy sifatlari, dunyoqarashi bilan uzviy bog'lanib ketadigan imon-e'tiqodining g'oyaviy yo'nalishiga ham bog'liqdir. Masalan, milliy manfaatlarni chuqur anglagan odamlar va ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini milliy va umumbashariy manfaatlarga bo'ysundiradilar, chunki ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari ana shu katta manfaatlar doirasida shakllansagina to'laroq va maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Bunday ehtiyojlarni qondirish yo'lidagi barcha faoliyat natijasida ijtimoiy qonunlarning amal qilish yo'llari ravonlashadi. Shu ijtimoiy birlik mohiyatida ma'lum hududda muayyan jamiyat va madaniyat tarkibida uyushgan kishilar o'z tarixini yaratish, o'z taqdirini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agar ular ijtimoiy qonunlarni anglab, ularga amal qilish mayllariga rioya etsalar, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiradilar, aksincha bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot sustlashishi va hatto tanazzulga yuz tutishi mumkin. Biroq ijtimoiy taraqqiyot obyektiv tasnifga ega bo'lgani sababli, qonunlar o'zlariga yo'l

ochib oladilar va albatta, ijtimoiy taraqqiyot pastdan yuqoriga, soddadan murakkabga qarab rivojlanib boradi. Odamlar, ularning guruhlari va yo'lboshchilari ijtimoiy qonunlarga amal qilgan taqdiridagina insoniyat porloq istiqbolga ega bo'la oladi.

***Ijtimoiy hodisalar, ulardagi "yetakchi mayllar"ni shaxslar bilib olishlari mumkinligi.*** Jamiyat qonunlarini ham eng umumiy, umumiy va xususiy (juz'iy) qonunlar tipologiyasiga ajratish mumkin. Falsafa qonunlari va kategoriyalarida o'z ifodasini topgan o'zaro aloqadorliklar, bog'lanishlar ijtimoiy hayotda ham namoyon bo'ladi. Binobarin, bu eng umumiy qonunlar, kategoriyalar, tamoyillarni bilish jamiyatni ilmiy boshqarish imkonini tug'diradi. Insoniyat tarixiy takomilida, sotsial guruhlar, elatlar, millatlar hayotida o'xshash shart-sharoitlarda birdek amal qiladigan qonunlarni umumiy qonunlar deb atash mumkin. Masalan, moddiy ishlab chiqarish bilan ma'naviy boyliklar yaratish o'rtasidagi mutanosiblik qonuni bozor munosabatlarining ikki tomoni o'rtasidagi yoki ehtiyojlar bilan manfaatlar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi.

Muayyan jamiyat taraqqiyoti va tanazzulining aniq bir bosqichlari, holati to'g'risida ravshan tasavvurga ega bo'lish uchun xususiy (juz'iy) ijtimoiy qonunlarni ham anglash zarur. Bunday qonunlarning amal qilish doirasida ma'lum bir makon va zamonda cheklanganligi va ular jamiyat taraqqiyotining faqat ayrim bosqichlarigagina xos aloqadorliklarni ifodalashi bilan farqlanadi. Masalan, sobiq sho'rolar davrida amal qilgan planli-proporsional deb atalgan qonun shu davlat tugashi bilan barham topdi. Yoki talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblik qonuni, roqobatga asoslangan munosabatlar kabi umumiy qonunlar O'zbekiston sharoitida o'ziga xos, betakror amal qilishi u qonunlarga xususiylik baxsh etadi. Prezident Islom Karimov asos solgan O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyiliga barcha qonunlarning amal qilishi o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Umuman olganda, eng umumiy, umumiy, xususiy qonunlar bir-biri bilan dialektik aloqadorlikda bo'lib, ular bir-birini ham iqror qiladi, ham istisno etadi. Shunday qonunlar va qonuniy aloqadorliklar tufayli jamiyat o'zini-o'zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizim sifatida bir butunlikni hosil etadi. Jamiyat qonunlarini bilmaslik yoki ularga amal qilmaslik voluntarizmga, o'zboshimchalikka olib keladiki, bu har qanday jamiyatni va davlatni halokatga olib kelishi muqarrar.

*Tarixiy jarayonlarning subyekti va harakatlantiruvchi kuchlari.* Jamiyat qonunlari obyektiv bo'lganligi sababli ham ularni anglab olish, ulardan ijtimoiy amaliyotda samarali foydalanish shu sohadagi bilimlar turkumi bilan qurollanishni taqozo etadi. Tabiatshunos yoki texnikashunos o'z sohasi bo'yicha kashf etilgan qonunlar va qonuniyatli aloqalarni o'zlashtirib olishi kifoya qilsa, jamiyat qonunlarini bilish uchun falsafa, tarix, sotsiologiya, siyotshunoslik, huquqshunoslik, davlat qurilishi asoslari, ruhshunoslik, dinshunoslik, etnografiya, antropologiya kabi qator fanlardagi umumiy mayllarni anglab olishi zarur bo'ladi. Zero, ijtimoiy qonunlar ko'p hollarda ziddiyatli munosabatlar, manfaatlar ta'sirida amalga oshishi tufayli "yetakchi mayllar" shaklida namoyon bo'ladi. Bunda qonun talabidan kelib chiqadigan ijtimoiy jarayonlar umumiy tekis rivojlanish yo'nalishida to'g'ridan-to'g'ri emas, balki odamlar manfaatlari va maqsadlari yaqinligida uyushgan, ularning turli jamoalari faoliyati ta'sirida ko'plab chetga og'ishlar, orqaga ketishlar, buzilishlar bilan jamiyat muqarrar ravishda o'ziga taraqqiyot yo'lini ochib oladi.

Ijtimoiy qonunlar "sof" holda emas, balki "yetakchi mayl" shaklida va "taxminiy" tasnifda namoyon bo'ladiki, bu hol jamiyat qonunlarini o'rganish alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Har bir tarixiy davrda yetilgan ijtimoiy ehtiyojlarni anglash, bu ehtiyojlarni qondirishdan manfaatdor kuchlarni birlashtirish uchun ana shu "yetakchi mayllar"ni anglab yetgan, uning harakat yo'nalishlariga monand odamlar faoliyatini aniq maqsadlar sari yo'naltirishga qobiliyatli tarixiy shaxslar, ularning g'oyalarini amalga oshirishda kamarbasta bo'lishga uyushgan siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar kerak bo'ladi.

Albatta, tarixiy jarayonlarning subyekti xalq ommasi, ya'ni moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan barcha odamlardir. Shu odamlarning mehnati, izlanishlari tufayli ijtimoiy-siyosiy munosabatlar takomillashib boradi. Masalan, o'tni, g'ildirakni, par mashinasini, elektr dvigatelini kashf etgan odamlar, avtomobil, samolyot yoki murakkab asbob-uskunalarni ijob qilgan yoki islohat dasturlari bilan chiqadigan odamlar shu ishlari qanchalik ijtimoiy oqibatlariga olib kelishini aniq-ravshan tasavvur qilishmagan, oddiy tirikchilik tishvishida yurgan odamlar uchun bularning oqibati bilan qiziqishning zarurati ham yo'q. Biroq ularning ana shu faoliyatlari muayyan qonuniyatli bog'lanishlar bilan vobasta ekanini tarixiy shaxslar (olimlar,

taraqqiyparvar ulamolar, siyosiy arboblari va b.) anglaydilar va shunday faoliyatlarni rag'batlantiradilar. Demak, tarixni xalq ommasi yaratadi, ammo o'sha ommaning yetilgan ehtiyojlarini idrok etishda va obyektiv ijtimoiy manfaatlarni anglashida tarixiy shaxslarning betakror o'rni va roli bo'ladi.

Tarixiy shaxslarni ikki toifaga bo'lish mumkin: a) jamiyatdagi "yetakchi mayllar"ni anglab, ijtimoiy taraqqiyotga boshchilik qiladigan shaxslar; o'z kashfiyotlari jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini sog'lomlashtirish, ijtimoiy adolatni qaror toptirishga yordam beradigan g'oyalar, dasturlar bilan chiqqan olimlar, ulamolar ham tarixiy shaxslar sirasiga kiradi. Masalan, Zardo'sht, Muhammad Ibn Abdulloh, Amir Temur va b. hamda IX-XII asrlar, XIV-XV asrlarda yashagan va arab-musulmon olamida Uyg'onish davrida yashab, ijod qilgan mutafakkirlarni kiritish mumkin, b) "Yetakchi mayl" (ijtimoiy qonunlar)ni nazar-pisand qilmay, ijtimoiy taraqqiyot yo'lini ma'lum bir muddatda to'sib qo'ygan, tarixda o'zlaridan yomon nom qoldirgan Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon, Gitler, Lenin va boshqalarga o'xshash shaxslar hamda ilmiy va diniy bilimlari sayoz bo'lgan, ammo lo'ttibozliklari bilan ma'lum bir guruhni o'z ta'siriga olgan aqidaparast shaxslar ham tarixda o'zlaridan yomon nom qoldiradilar.

Xalq ommasi tushunchasini xalq galasi (olomon) tushunchasidan farqlamoq darkor. Kattami-kichikmi har bir jamoaning o'z yetakchisi bo'lganidagina u muayyan sotsial qiyofaga kiradi. Ana shu shaxsning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, ma'naviy qiyofasi muayyan jamoa faoliyatida moddiy tus oladi. Xalq ham xuddi shu kabi qanday tarixiy shaxsga ergashsa, uning g'oyalarini ro'yobga chiqarishga intilsa, muayyan sotsial qiyofaga kiradi, ya'ni xalq ommasiga aylanadi, aks holda u olomon qiyofasida o'zini namoyon etadi. Demak, xalq ommasi "yetakchi mayllar"ni anglab, ilg'or, sotsial dasturlarga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy yetuk, barkamol shaxslar ortidan borgandagina u tarix ijodkorni, tarixiy jarayonlar subyektiga aylanishi mumkin.

*Xulosa:* a) jamiyat muayyan qonunlar asosida o'zini-o'zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizimdir; b) tabiat va jamiyat qonunlaridagi umumiylik va ayrimliklarni anglab, ulardan ijtimoiy taraqqiyotda foydalanish mumkin; v) ijtimoiy qonunlar odatda "yetakchi mayllar" sifatida namoyon bo'ladiki, ularni anglash orqali jamiyatni ilmiy boshqarish mumkin; g) tarixiy jarayonlarning subyekti va harakatlantiruvchi kuchi

aniq sotsial kiyofaga ega bo'lgan xalq ommasi va ijtimoiy qonunlarga amal qiladigan shaxslardir.

*Kalit so'zlar:* yakkaxonlik, urug', qabila, elat, xalq, millat, jamiyat, tabiat qonunlari, jamiyat qonunlari, sotsial qiyofa, bilish obykti, bilish subyekti, ehtiyoj, manfaat, ijtimoiy taraqqiyot, "yetakchi mayl", "taxminiy" tasnif, xalq ommasi, ijtimoiy adolat, olomon.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Jamiyat qanday tizim?
2. Tabiat va jamiyat qonunlaridagi umumiylik va ayrimlik nimadan iborat?
3. Manfaat nima, uning namoyon bo'lish shakllari qanday?
4. Sog'lom ehtiyoj tushunchasi nimani anglatadi?
5. Tarixiy jarayonlarni harakatlantiruvchi asosiy kuchlarni izohlang.
6. Tarixiy shaxs, ularning tarixdagi o'rni va roli qanday?
7. Jamiyat va ijtimoiy birliklarning sotsial qiyofasini kimlar belgilaydi?
8. Jamiyat taraqqiyotida inson omili qanday rol o'ynaydi?

### **AQL, "SUN'IY AQL" VA INSONIYAT ISTIQBOLI MASALASI**

*Tirik tabiat va ijtimoiy taraqqiyotda axborotning o'rni va rolining oshib borishi.* Ma'lum bo'ldiki, tabiat va jamiyat o'zini-o'zi tashkillash va boshqarish xususiyati bilan bir-biriga o'xshash jarayon. Ammo jamiyatning o'z-o'zini tashkil etishida obyektiv omillardan tashqari subyektiv omillar ham muhim rol o'ynaydi. Voqelikda faol ishtirok etish jarayonida, ayniqsa fan, texnika va axborot texnologiyalari rivoji natijasida individual va ijtimoiy ongda tubdan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Qadim zamonlardan boshlab tabiatni odam zotiga, tabiiylik sun'iylikka – inson aqli va qo'li bilan yaratilgan narsaga qarama-qarshi qo'yib kelindi: go'yoki tabiiy narsalar barchasi yaxshi, sun'iylari yomon, degan tasavvurlar paydo bo'ldi. Aslida tabiiylik va sun'iylik o'zini-o'zi tashkillashning yagona jarayoni bo'lib, unga materiya harakatining oqibati sifatida qaralsa, to'g'ri yondoshuvlar yuzaga keladi. Aqlning paydo bo'lishi biosferaning intensiv rivojlanishi uchun yo'l ochdi. U



tufayli yangi xulq-atvorlar, harakatning sotsial shakli vujudga keldi. Asta-sekin fan paydo bo'lib, uning yordamida odamzot yashash uchun kurashning yangi yuqori bosqichiga ko'tarildi.

Qo'pol va dag'al bo'lsa-da, toshdan birinchi pichoq va bolta yasagan, yoxud dumaloq yog'ochning o'rtasini o'tda teshib, qo'pol g'ildirak ixtiro qilgan "injener" ajdodlarimiz nomini bilmaymiz, albatta. Ammo o'sha ibtidoiy odamlar hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasiga asos solganliklarini hech kim inkor etolmasa kerak. Mehnat va ov qurollari yasash jarayonida nutq tilining vujudga kelishi mantiqiy tafakkurni shakllantirgan bo'lsa, bu o'z navbatida nutq tili tobora boyib borishi uchun imkon yaratdi. Sun'iy qurollar odamzot o'z ehtiyojlarini qondirish uchun sun'iy energiyalardan tobora ko'proq foydalanishga sharoit hozirladi. Hayvonlarni uyga o'rgatish, ulardan mehnat vositasi sifatida foydalanish, suv va shamol energiyasi imkoniyatlarini voqelikka aylantirish, par dvigatellarini yaratish, nihoyat hozirgi zamon texnikasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish – bularning barchasi turmush qulayliklarini yaratish, odamlarning farovon yashashlari uchun xizmat qilishi kerak edi. Lekin sun'iy qurollar o'ziga xos yangi ziddiyatlarni yuzaga keltirdi: yangi texnika va texnologiyalarning paydo bo'lishi aholining asosiy qismi farovonligini yaxshilash u yoqda tursin, balki hayotdan doimo nolib yashash mayllarini kuchaytirib yubordi. Gap shundaki, Aql va mehnat tufayli paydo bo'lgan sivilizatsiya (madaniy hayot) muvaffaqiyatlari, texnika va texnologiya va boshqalar tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar taqsimotidagi notengliklar, ya'ni odamlarning turli guruhlari va sinflari tomonidan bu boyliklarni o'zlashtirish imkoniyatlarining xilma-xilligi, ijtimoiy hayotdagi tengsizlik, bu hayotdan qoniqmaslik va bularning oqibatida noroziliklar vujudga kelmoqda. Bir tomonda ijtimoiy boylik ko'payib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bunga mutanosib tarzda ijtimoiy ziddiyatlar qarama-qarshi tomonlariga og'ib ketmoqda. Bunda, albatta, G'arb madaniyatida ma'naviy tanazzul chuqurlashib borayotgani, hozirgi zamon axborot texnologiyalari va boshqa vositalar orqali u madaniyat boshqa mamlakatlarda ham rak kasali kabi ildiz otib borayotgani muayyan rol o'ynamoqda.

Ammo bunda "sun'iy olam" (yoki tabiat)ni ayblashga asos yo'q. Faylasuflar va sotsiologlar bu ziddiyatlarni hal etish yo'llarini qidirib topishlari zarur bo'lib turibdi.

*Fan axborotni yig'ish, saqlash va takror ishlash shakli sifatida. "Sun'iy Aql" va unga ehtiyojning oshib borishi.* Xotiraning turli shakllari borligi va ularning umumiy evolutsion jarayonlar oqimiga ta'siri beqiyoski, endilikda axborotlarni saqlash va uzatishning yangi mexanizmlari paydo bo'lishi taraqqiyot jarayonlarining butun xarakterini sifat jihatidan o'zgartirib yubordi va "evolutsiya algoritmi" strukturasi (tuzilishi)ning o'zida jiddiy o'zgarishlar sodir etayotgani anglab olinmoqda.

Axborot – informatsiya notirik tabiatga emas, balki tirik tabiatga xos xususiyat ekanini e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Subyekt uchun axborot muayyan maqsadli harakatlarida muvaffaqiyatni ta'minlash uchun kerak. Masalan, olmaxon shoxdan-shoxga sakrash uchun avvalo maqsad qo'yishi va bu maqsadga erishish imkoniyatlarini o'zicha chamalab chiqishga majbur. Aks holda sakrab o'tishga mo'ljallangan shox nozik bo'lishi yoki uzoqligi tufayli olmaxon o'z maqsadiga erisha olmasligi, hatto xavfli vaziyat vujudga kelishi mumkin. Demak, axborot yetarliligi subyekt va uning qobiliyatiga ham bog'liq bo'ladi, ya'ni narsa yoki atrof-muhit to'g'risidagi ma'lum bir qarorga kelishi uchun yordam berishiga qarab axborot sifati baholanadi. Maqsad belgilangan taqdirda, axborotning ahamiyati, qadri va mohiyati to'la namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, unga beriladigan baho faqat subyekt – obyekt munosabatlari kontekstidagina tushunarli bo'ladi.

Odamlar va jamiyat rivojida paydo bo'ladigan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga intilish jarayonida mumkin qadar ko'proq axborotga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu tufayli bundan 6 ming yil muqaddam avval Bobilda, so'ngra Misrda fanning dastalabki kurtaklari paydo bo'ldi. So'ngra, Yunoniston, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoda diniy tasavvurlar bilan bog'liq ravishda fan unsurlari shakllana boshladi. Qadimga Gresiyada hozirgi zamon bir qator fanlarining negizi vujudga keldi. Ammo xristian dinining qattiq tartiblari taqozosi bilan qadimgi Gresiya (Yunoniston)da shakllana boshlagan fan G'arb mamlakatlarida esdan chiqarildi. Faqat IX-XII asrlarda Arab-musulmon olamida islom doirasida vujudga kelgan hur fikrlik doirasida qadimgi grek falsafasi qayta tiklandi va yangi sharoitga muvofiq rivojlantirildi. Bir qator tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarga asos solindi. Biroq islom olamida aqidaparastlik mayllari kuchayishi va Turonning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi ilm-fan rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Temuriylar saltanati davrida ilm-fan yana ravnaq topa boshlagan edi.

Lekin Temuriy shahzodalarning toj taxt uchun olib borgan tinimsiz urushlari, Shayboniylar Volga bo'ylaridan quvilib, bu yerda urushlar olib borishi, nihoyat, Turon uchga: o'zbek xonligi va amirligiga bo'linib ketishi oqibatida ilm-fan rivoji sekinlashdi, ijtimoiy taraqqiyot tanazzulga uchradi. IX-XII va XV-XVI asrlarda juda katta ilmiy salohiyatga ega bo'lgan turonliklar G'arb olamidagi ijtimoiy taraqqiyotda kamida III asr orqada qolib ketdilar. Bunda mustamlakachilik rejimining ham katta salbiy ta'siri bo'ldi. Ayni chog'da XV asrlardan boshlab xristian dini namoyondalarining qattiq qarshiligini yengib, Ovro'poda asta-sekin tabiatshunoslik fanlari rivojlana boshladi. Qadimgi grek fani arab-musulmon olamida qayta tiklanib, yanada rivojlantirilgani ham bunda qo'l kelganini aytish o'rinli bo'ladi. Masalan, Abu Ali Ibn Sinoning tibbiyot faniga doir asarlari bir necha asr mobaynida G'arbiy Ovro'po oliy o'quv yurtlarida asosiy o'quv qo'llanma bo'lgani ma'lum. Shuningdek, Muso al-Xorazmiy algebra faniga, Al-Roziy va Ulug'bek astronomiya faniga, Forobiy falsafa faniga qo'shgan hissalari G'arbiy Ovropo olimlari uchun qo'l keldi.

G'arbiy Ovro'poda tabiiy fanlar va u bilan bog'liq ravishda texnika fanlari rivojlanishi axborot olamida yangi bir davrni boshlab berdi.

Ma'lumki, odamzot hayvonlarga nisbatan ko'proq noaniqlik vaziyatida yashaydi. Bu hol maqsad qo'yish va unga erishish vositalarini tanlashda xatoliklarni keltirib chiqarishi va bu holning o'zi uchun juda qimmatga tushishi muqarrar. Demak, odamzot Aqlga ega bo'lgach, nafaqat yangi imkoniyatlar vujudga keldi, shu bilan birga harakat usulini tanlash mashaqqatlariga ham duch keldi. Bir tomondan ega bo'lgan axborotlari xatti-harakatlari va fe'l-atvorlari natijasini oldindan payqash qobiliyatiga ega bo'lib, ikkinchi tomondan bu xilma-xil axborotlar og'ushida o'zini-o'zi yo'qotib qo'yish holatlarini ham boshidan kechirishga majbur qilmoqda.

Odamzot miyasi xilma-xil axborotlarni o'zlashtirish orqali o'z-o'zidan ularni qayta ishlash, ya'ni atrofida bo'layotgan hodisalar to'g'risida yetarli darajada aniq va to'la xulosalar chiqarishga o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lib, natijada axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlashning maxsus shakli sifatida turli yo'nalishlarda fan yuzaga keldi va u insoniyatni o'z faoliyat yo'lini to'g'ri belgilash, maqsadga erishishning samarali uslublarini tanlash imkonini berdi.

### ***Tabiat strategiyasidan Aql strategiyasi tomon dadil odimlar zarurati.***

Fan rivojining mahsuli va natijasi sifatida kompyuter texnikasi vujudga kelib, ishlab chiqarishni rag'batlantirish va tez moslashuvchan korxonalar tizimi shakllandi. Kompyuter timsolida odamzot mutlaqo yangi tipdagi mashinaga ega bo'lib qoldi. Shundan so'ng grafiklarni tuzadigan murakkab konstruksiyalar, chizmalarning rasmini chizadigan elektron sanoq mashinalari vujudga kelib, ular barcha kompleks texnika loyihalarini yaratish jarayonlarining ishtirokchisi bo'lib qoldi. U texnologiyaga ham kirib, dasturiy-sanoq boshqarish uskunalarning vujudga kelishi bozor iqtisodi talablariga tez moslasha oladigan korxonalar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Kompyuterlar tufayli robotlar yasash yo'lga qo'yildiki, tamaddunimiz butun ishlab chiqarish asoslarini sifat jihatidan yangi izga solish bosqichiga o'tganini ko'rsatmoqda. Elektron mashina ishni nafaqat tez qiladi va ayni chog'da odamdan ham sifatliroq mahsulot tayyorlay oladi. Hozirgi zamon ishlab chiqarishi istiqbolda nafaqat odam qo'lini jismoniy mehnatdan xalos qilib qolmay, shu bilan birga uning miyasi bajaradigan ishlarning ko'pini o'z zimmasiga oladi. Ehtimolki, istiqbolda sun'iy Aql yuzaga kelsa, ne ajab!

Elektronika bilan birga materiya harakatining yangi shakli yuzaga kelib, u mustaqil faoliyat boshlab, odamning o'ziga qarshi harakat boshlab yubormasmikan, degan xavotirlar ham yo'q emas. Bunday xavotirlar fantastik yozuvchilarda paydo bo'lmoqda, ammo u ilmiy asoslarga ega bo'lmasa-da, "Sun'iy Aql" atamasi keng bahs-munozaralar uchun asos bo'lmoqda. "Sun'iy Aql" atamasi elektron sanoq mashinalari kundalik ehtiyojga aylangan mamlakatlardan kelmoqda. Mashina juda yaxshi shaxmat o'ynaydi, uy hisob-kitoblarini yuritadi va soliqlarni to'laydi, turli-tuman ma'lumotnomalar bilan ta'minlaydi. "Aqlli mashina" yaratish sohasidagi muvaffaqiyatlar nechog'li ulkan bo'lmasin, ular qanchilik maishiy hayotimiz, hatto tafakkur tarzimizni nihoyatda o'zgartirib yubormasin, baribir, u yuqori tashkil topgan materiya – miya mahsuli bo'lgan Aqlning o'rnini bosa olmaydi.

Kompyuter qanchilik takomillashgan bo'lmasin, u faqat inson o'z maqsadlari uchun yaratgan mashina bo'lib qoladi, binobarin, har qanday mashina odam o'z oldiga qo'ygan maqsadlari ro'yobga chiqishi uchun foydali bo'lishi yoki bo'lmasligiga qarab baholanadi. Zero, mashinaning o'zida va o'zi uchun hech qanday maqsad bo'lmaydi, u odam qo'ygan dastur asosida harakat qiladi. Masalan, avtopilot takror aloqani yo'lga

qo'yadi, maqsadni amalga oshiradi. Ammo bu maqsad odam tomonidan belgilangan bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, "Su'niy Aql" ning yuzaga kelishi va u inson faoliyatining juda ko'p tarmoqlarini o'ziga qamrab olib borishi sivilizatsiyamiz yangi yuqori bosqichga o'tayotganidan darak beradiki, bu insoniyat oldiga dunyoqarash bilan bog'liq qator muammolarni hal qilish vazifasini yuklaydi. Mafkura esa ana shu yangicha qarashlarni keng xalq ommasiga yetkazishi, unda olam hodisalariga yangicha yondashuvlarni qaror toptirishga da'vat etilgandir. Hozirgi zamon mafkurasi ilm-fan dalillariga tayangan, odamzotning millati, irqi, dini va boshqa sotsial tafovutlaridan qat'i nazar, murosa qilib yashash, mehr-muhabbatli, mehr-oqibatlilik sifatlariga ega qilishga da'vat etilgandir. "Su'niy Aql" ham xuddi shu maqsadlarga xizmat qilishi kerak.

Ma'lum bo'ldiki, materiya harakati uning barcha darajalariga (notirik tabiat, tirik tabiat, jamiyat)da o'zini-o'zi tashkil etish qonuni – sinergetika qonuniga amal qiladi. Ushbu qonun "tabiat strategiyasi" taraqqiyotining ichki mantig'ini anglatadi. Bu jarayonning borishida nafaqat moddiy olam tashkillanishi murakkablashib, materiya mavjudligining xilma-xil shakllari yuzaga keladi, shu bilan birga ziddiyatlarning yangi mayllari ham paydo bo'ladi. Masalan, moddiy olam taraqqiyotining muayyan bosqichida Odam zoti paydo bo'ldi. Million yillik evolyutsion taraqqiyotida, ya'ni hozirgi fiziologik holat va aqliy salohiyatga kelgunga qadar Tabiat bilan Odam o'rtasidagi ziddiyatlar aytarli darajada namoyon bo'lmagan. Hozirgi zamon odam zoti takomillashgan tana tuzilishi, ongning yuqori darajasi, rivojlangan nutq tili va murakkab tafakkur tarziga ega bo'lgan, fanda Homa sapiens – Aqlli odam nomi bilan ataladigan mavjudod tarix maydoniga kelgach, uning jamiyat bo'lib yashashi sharoitida Tabiat bilan Odamzot o'rtasida ziddiyatlar asta-sekin to'planib-to'planib, endilikda u o'zining qarama-qarshi tomoniga og'a boshlab, "Tabiat - jamiyat - odamzot" koevolutsiyasiga jiddiy putur yetmoqda. Bundan keyingi asrlarda fan va texnikaning shitob bilan rivojlanishi va bu yangi shart-sharoitga odam zoti, uning turli uyushmalari (davlati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, ijtimoiy harakatlari, siyosiy partiyalari, kasbiy va ijodiy tashkilotlari) juda sekinlik bilan muvofiqlashayotgani sabab bo'lmoqda.

Fan va texnika taraqqiyoti bir tomondan misli ko'rilmagan turmush qulayliklarini yaratdi va istiqbolda bundanda yuksakroq yashash

imkoniyatlarini vujudga keltirishi ayon bo‘lib turibdi; ikkinchi tomondan, odomzotda yangi sharoitga muvofiq tafakkur va turmush tarzi shakllana olmayotgani, xususan jamiyatda ma‘naviy-axloqiy muhit tobora izdan chiqib borayotgani tufayli Tabiat va jamiyat o‘rtasida juda qaltis ziddiyatlar paydo bo‘lmoqda. Bular: birinchidan, odamzot faoliyati tufayli atrof-muhit – ekologiyaning buzilishi tobora xavfli tus olib borayotganidir. Endilikda odamzot yaratgan texnomassa biomassaga nisbatan oshib bormoqda. Ikkinchidan, fan va texnika yutuqlaridan g‘ayriinsoniy maqsadlar yo‘lida foydalanish mayllari vujudga kelmoqda. Bu esa yangi katta ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Uchinchidan, yadro urushi chiqish xavfi hamon saqlanib turibdi. U va boshqa ziddiyatlarni hal etish ko‘p jihatdan insoniyat aql-zakovati qaysi tomonga og‘ib ketishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Odamzotning bitta umumiy Vatani bor: u Yer deb ataladi. Hozircha odam yashaydigan Yerdan boshqa makon yo‘q. Demak, Ona tabiat inson saxovatiga muhtoj bo‘lib qolgan ekan, "tabiat - jamiyat - odamzot" o‘rtasida tobora buzilib borayotgan koevolutsiyani tiklash joiz. Bu ziddiyatlarning kelib chiqishiga fan va texnika aybdor emas, balki uning muvaffaqiyatlaridan oqilona, insonga monand tarzda foydalanish qobiliyatiga odamzot ega bo‘lmayotgani sabab bo‘layotir. Fan-texnika inqilobi tufayli yuzaga kelgan nomutanosiblikni faqat fan-texnika yordamidagina hal etish mumkin. Buning uchun tabiat o‘z taraqqiyotining Noosfera – Aql sohasi bosqichiga o‘tganini anglash, mafkura vositalari orqali buni butun dunyo aholisiga tushuntirish, Aqlni hamma sohada oqilona ishlarga burib yuborish strategiyasini ishlab chiqib, uni amalga oshirish uchun zarur moddiy resurslarni ishga solish davr talabi bo‘lib turibdi. Ya‘ni tabiat strategiyasidan Aql strategiyasi tomon insoniyat birlashib, yagona kuch sifatida dadil qadamlar tashlash kerakligini anglash vaqti keldi.

**Xulosa:** a) tirik tabiat va ijtimoiy taraqqiyotda axborotning o‘rni tobora salmoqli bo‘lib bormoqda, XXI asr axborot texnologiyalar asriga aylanishi kuzatilmoqda; b) fan axboratni yig‘ish, tartib (tizim)ga solish, saqlash va takrorlash shakli sifatida biosfera taraqqiyotida hal qiluvchi omilga aylandi; v) "Su‘niy aql" va unga ijtimoiy ehtiyoj tobora ortib bormoqda; g) endilikda tabiat taraqqiyotiga ham Aql hal qiluvchi ta‘sir o‘tkazish pallasiga kirdiki, insoniyat Aql va uning mevasi bo‘lgan fan-texnika muvaffaqiyatlaridan faqat insoniyat manfaatlari yo‘lida foydalana olishga o‘zida kuch-qudrat topa olishiga umid bog‘lash mumkin.

*Kalit so'zlar:* tabiiylik, sun'iylik, harakatning sotsial shakli, sun'iy qurol, sun'iy energiya, axborot, fanlarning shakllanishi, Arab-musulmon olami, noaniqlik vaziyati, kompyuter texnikasi, robot, elektron mashina, "Sun'iy aql", avtopilot, mikroorganizmlar.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Aqlning paydo bo'lishi va rivojlanishi tabiatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Sun'iy qurollar yasash va ularni takomillashtirish qanday oqibatlariga olib keladi?
3. Axborotni to'plash, saqlash va uzatish mexanizmi ijtimoiy taraqqiyotga qanday ta'sir etmoqda?
4. Axborot sifati deganda nima nazarda tutiladi?
5. Fan qanday ehtiyojlar tufayli shakllanadi va rivojlanib bormoqda?
6. Ilm-fan ravnaqi va uning oqibatlari qanday namoyon bo'lmoqda?
7. "Sun'iy aql" nima va uni rivojlantirish xavflimi?
8. Atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish mumkinmi?
9. Ona tabiat bilan Aql quvvati (energiya)si o'rtasidagi ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketishi mumkinmi?

### **UCHINCHI VA OXIRGI IMKONIYAT**

*Ziddiyatlar va ularni hal qilish muammosi.* Jahondagi hozirgi zamon ziddiyatlari, ular o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketib, katta halokatlarni keltirib chiqarishiga yo'l qo'ymaslik muammosi paydo bo'ldi. Buning uchun avvalo "g'or odamlari"ga xos tafakkur tarzidan voz kechib, inson (jamiyatlashgan individ)ga xos tafakkur tarzini barchada shakllantirish muhim bo'lib turibdi. Bunga ilgariydek, yuqorining amriga muvofiq emas, balki quyidan, asta-sekin o'zgarishlar tufayli shakllanishi mumkin bo'lgan hamda har qanday ziddiyatlarni yon berish, murosayu madora yo'li bilan hal etishga imkon beradigan yangicha tafakkur tarzini qaror toptirish tarixiy zarurat ekanligini anqlab olish lozim.

Bundan 3,8 milliard yil muqaddam Tabiat – Quyosh tizimi tarkibidagi Yer deb ataladigan planetada tiriklik sohasi (biosfera) o'zidan-o'zi paydo bo'lganini fan isbotlagan. Shu munosabat bilan odamzotning paydo

bo'lishi biosfera taraqqiyotining oliy bosqichi sifatida talqin etilmoqda. U tufayli borliq o'zini-o'zi anglash darajasiga yetdi. Ammo bu anglash endilikda Yerda borliqning o'zini halokat yoqasiga olib kelib qo'ydi. Natijada Yer deb atalgan Ona tabiat yana bifurkatsiya – yangi tanlov qarshisida turibdi. Chunki u o'zi paydo qilgan odamzotdan bezor bo'ldi. Endilikda g'azabnok tabiatdan saxovat kutib o'tirib bo'lmaydi, balki Aql tufayli odamzot Yer deb atalgan tabiatni halokat yoqasiga olib kelib qo'ygan ekan, yana Aql yordamida bu "boshi berk ko'cha"dan chiqib ketish uchun qolayotgan zarracha imkoniyatdan ham foydalanish choralarini izlashi va topishi lozim. Aks holda borliqning oliy timsoli bo'lgan odamzot tur sifatida yo'q bo'lib ketishi aniqligini jahonga tanilgan olimlar isbotlamoqdalar.

Yangi tarixiy davrda tor manfaatlar negizida belgilanadigan maqsadlarni umumplanetar manfaatlariga bo'ysundirish malakasini odamzot o'zida hosil etmasa bo'lmaydi. Buning uchun hozirgi davrning Bosh va Asosiy ziddiyatlarini ravshan tasavvur etish hamda ularni hal etishning insoniy yo'llari va vositalarini izlash va topish lozim. Nazarimizda, tabiat va jamiyat, jamiyat va odamzot o'rtasida paydo bo'lgan ziddiyatlarni Bosh ziddiyat sirasiga kiritish to'g'ri bo'ladi.

Olimlarning aksariyati tabiat bilan odamzot o'rtasida antogonistik (kelishtirib bo'lmaydigan yoki kelishtirish qiyin) ziddiyatlar paydo bo'lganiga e'tiborni qaratmoqdalar. Masalaga yanada jiddiyroq va kengroq yondashsak, odam tabiat va jamiyatga tez moslashuvchan mavjudotdir. Agar har bir jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy muhit umumplanetar muammolarni ham hal etish tomonga burib yuborilsa, odam va uning barcha jamoalari, tashkilotlari yangi muhitga moslasha boshlaydilar. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat, jamiyat va odamzot o'rtasidagi ziddiyatlar ular o'zining qarama-qarshi tomoniga butunlay og'ib ketishiga yo'l qo'ymaslik choralarini izlab topish zarur. Boshqa ziddiyatlar ana shu asosda qadambaqadam hal etib borilaveradi. Masalan, G'arb bilan Sharq o'rtasidagi, milliy va diniy negizdagi, rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi, g'oyaviy yondashuvlardagi ziddiyatlarni hal etib borish yuqoridagi Bosh ziddiyatni qanday bartaraf etish yo'lidagi insoniyat faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Shuni aytish joizki, Bosh, Asosiy va boshqa ziddiyatlarni talqin qilish va hal qilishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatlarda, hatto ilmiy tadqiqotlarda an'anaviylik va turg'un fikrlash



mayllari kuchli. Endilikda "ikki qutbli" dunyo o'rniga «ko'p qutbli», dunyoning vujudga kelishi maskuraviy yondashuvlardagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirib yuborayotgani bunga misol bo'la oladi.

**Milliy xilma-xillik – buyuk ne'mat.** Hozirgi zamondagi asosiy ziddiyatlardan biri milliy negizda chiqayotgan ziddiyatlardir. Hali yaqin-yaqinlarda istiqbolda milliy tafovutlar yo'qolib, qandaydir umumiy til va madaniyat vujudga kelishi haqida "falsafiy" fikrlar ilgari surilar va eng dahshatlisi, bunga ishonuvchilar bor edi. Aslini olganda, har bir etnosning vujudga kelishi va ravnaqi ham tabiat qonunlariga bo'ysunadi. Bunda bifurkatsiya murvati o'zini namoyon etadiki, bu divergensiya qonuni amal qilishiga dalildir. Ya'ni, boshqa o'zini-o'zi tashkil qiluvchi jarayonlardagi kabi etnogenezda ham tasodifiy holatlar (xaos) to'planib-to'planib, muayyan qonuniy aloqadorliklar yuzaga keladi.

Integrativ jarayonlar milliy masalada ham ro'y beradi. Ammo u divergensiya qonunini buza olmaydi. Bunga misollar ko'p. Chunonchi, AQShda amerikacha vatanparvarlik, uyushqoqlik, amerikacha faxr-iftixor his-tuyg'ulari kuchli bo'lgan holda, u yerda yagona millat shakllangan emas. Turkmanistonda asrlar davomida yashayotgan ozarbayjonlar kelib chiqishi jihatidan turkmanlar bilan qon-qarindosh va tillari ham yaqin bo'lishiga qaramay, ular o'zlarini alohida etnos sifatida namoyon etadilar. Volga bo'yi bulg'orlari o'z turk tili, an'analari, islomga e'tiqodini saqlab qolgan holda, etnik nomlari (bulg'or)ni yo'qotib, Volga bo'yi tatarlari nomini qabul qilganlar. Ularning qabiladoshlari Bolqonga ko'chib ketgach, turk qavmiga mansubligini to'laligicha esdan chiqarganlar: ona tillari – turk tilini, turk madaniyati xotiradan faromush bo'lgan holda, bulg'or degan etnos nomini saqlab qolganlar. Mojar (venger)lar haqida ham xuddi shunga o'xshash fikrni aytish mumkin. Yoki arablarni olaylik. Ularning tili, alfaviti, dini, umumiy madaniyati bir bo'lgan holda, yagona arab millati yo'q. Etnik nomlari ham xilma-xil. Yer planetasida milliy xilma-xillik va turli-tumanliliklar tabiat va uning qonunlari tufayli vujudga kelgan buyuk ne'mat sifatida qaralmoqi ma'qul. Bunday milliy xilma-xilliklar xuddi genetik dasturlardagi turli-tumanlilar kabi taqdirning tasodifiy "hazillari"dan Homa sapiensni himoya qilish vositasi ekanini esda tutish zarur. Zero, har bir milliy madaniyat – odamzot tarixiy tajribasining xotirasidir. Milliylikni, binobarin, madaniy rang-baranglikni yo'qotish

go'yoki genetik dastur xilma-xilligidan mahrum bo'lish kabi nihoyatda xavfli, insoniyat kelajagi uchun halokat bilan barobar xatarlidir.

Odamsot uchun etnik jarayonlar mayllarini bilish va oldindan ko'rish muhimdir. Umumbashariy yoki mintaqaviy birlik, ittifoq va milliy rang-baranglik bitta medalning ikki tomoni bo'lib, bu masalaga ilmiy yondashuvlarni qaror toptirmay turib, yopirilib kelayotgan xavf-xatarga qarshi kurashda umumplanetar birlikka erishish umuman mumkin emas. Demak, har bir etnik birlik tarixan to'plagan tajribasi – xotirasi, qadriyatlari negizida umuminsoniy, umumplanetar xotira va qadriyat qaror topishini unutmashlik lozim.

*Dinlar tarixiy, imon esa abadiy hodisadir.* Ming va o'n ming yilliklar davomida etnoslarning individual va ijtimoiy onglari avvalo mifologik dunyoqarash, so'ngra diniy dunyoqarash negizida rivojlanib keldi. Ko'p hollarda milliy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Shuni nazarda tutib, tadqiqotchilar ko'pincha diniy his-tuyg'u odamsotning tabiatidan kelib chiqadi, degan nuqtai nazarda turadilar. Bunda ular "din" tushunchasi bilan "ishonch" va "imom" tushunchalari o'rtasidagi ayniylik va tafovutning farqiga bormaydilar. Ya'ni o'zbek tilida "Odam" (shu ma'nodagi so'z boshqa tillarda ham mavjud) deb ataladigan mavjudot million-million yillar davomida diniy ongsiz yashagan. Ammo u ibtidoiy odamlarning birgalikda yashashlari, yashash uchun kurashlari uchun o'zaro ishonch ruhi zarur edi. Aslini olganda, bunday ruhiy holat unsurlari hayvonlarda ham mavjud. Ana shu tufayli ular o'z gomeostazisini saqlash va yashash uchun birgalikda kurashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunday ishonch unsurlari biologik asoslarga ega ekanligi tufayli, ilgari tabiat qo'ynida gala-gala bo'lib yashagan ba'zi hayvon zotlarini uy hayvonlariga aylantirish, ulardan mehnatda va maishiy hayotda foydalanish imkoniyati vujudga keldi. Hatto eng dahshatli vahshiy hayvon bo'lgan sher va yo'lbarslar ham o'z homiylari bo'lgan, ya'ni ularga mehr bilan qaraydigan xojalariga hujum qilmaydilar, aksincha, ular bilan "umumiy til" topisha oladilar.

Odamsotning qadimgi ajdodlarida tovush, hayqiriq, yuz mimikasi va harakat tillari bo'lgan (Bunday "tillar" barcha hayvonlarda ham mavjudki, shu tufayli ular bir-birlariga axborot uzatish imkoniyatiga egadirlar). Ayni chog'da Uquvli odamlar – Homa habilislarda nutq tili unsurlari ham bo'lganki, shuning natijasida ulardagi xotira va axborot

almashishning biologik asoslari hayvonlarnikiga nisbatan takomillashgan bo'lgan. Oqibatda ular o'rtasidagi o'zaro ishonch ruhi yashash uchun kurashning zarur sharti bo'lgan. Aks holda ular hayvonlarga yem bo'lib ketib, tur sifatida barham topishlari aniq edi. Hayvonlardagi o'zaro ishonch gomeostazisini saqlab qolish instinkti bilan bog'liq bo'lsa, ibtidoiy odamlardagi o'zaro ishonch shu bilan birga ong va onglilikka asoslangani tufayli, shu omil oqibatida odamzotning keyingi ajdodi – kromononlar ijtimoiy hayotning yuqori cho'qqisi – jamiyat bo'lib yashashga o'tganlar. Natijada dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgan va "ishonch"ning eng yuqori bosqichi hisoblangan imon ularning birlashib yashashlari va kurashlarining zarur shartiga aylangan. Binobarin, odamzot jamiyat bo'lib yashashga o'tgach, mifologik dunyoqarash, uning asosida va dastlabki sodda falsafiy qarashlar bilan bog'liq ravishda diniy dunyoqarashlar vujudga keldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, dinlar tarixiy hodisa, odamlar va ularning turli uyushmalari o'rtasidagi ishonch va ishonchsizlikdan iborat ruhiy holat abadiy hodisa ekanligini tan olish kerak. O'zaro ishonch his-tuyg'usining muayyan dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgan va inson ichki ont (qasam)ini ham ifodalaydigan imon individ ongining nodir hodisasi bo'lib, u odamlarning insonlardek hamkorlikda yashashi, o'zining ruhini o'zi poklash vositasi ekanini nazarda tutish muhimdir. Shundagina diniy negizlarda chiqadigan ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketishining oldi olinishi hamda diniy plyuralizm ruhi amalda barqaror bo'lishi mumkin. Hozirgi dunyomizda odamlarda dinga e'tiqod (ixlos) kuchliligini nazarda tutib, ko'pgina ijtimoiy va milliy harakatlar, ularning namoyondalari dinni, ayniqsa islomni siyosiy lashtirish orqali hokimiyatni qo'lga kiritish yo'lini tutmoqdalar. Bu juda xatarli hodisa bo'lib, ularning yo'li to'silmasa, bugungi dunyomizdagi Bosh ziddiyatni hal etish mumkin emas. Chunki odamzot asosiy va noasosiy ziddiyatlarni hal etishga berilib ketib, Bosh ziddiyatni e'tibordan soqit qiladi, natijada u ziddiyatlar ham maqsadga muvofiq hal bo'lmay, tabiat inson faoliyati tufayli halokatga uchrashi muqarrar bo'lib qoladi. Har qanday dinni siyosiy lashtirish avvalo o'sha dinning qadrsizlanishi, u din o'zining asosiy funksiyasi – odamzot ruhini poklash, axloqni barqaror qilishdan iborat tarixiy vazifasini bajarish amaliyotidan maxrum bo'ladi.

Buni anglayotgan diniy arboblardan dindorlar ichida diniy aqidalarga mutaassiblarcha yondashishga qarshi kurash mayllari kuchayib

bormoqda. Shuning uchun ham turli konfessiyalarning vakillari to'planib, diniy va milliy zaminda chiqadigan muqarrar ziddiyatlarni o'zaro yon berish, murosa qilish, umuman ularni tinch yo'l bilan hal etish masalasiga jiddiy e'tibor bermoqdalar. Hozirgi Noosfera davri talablaridan kelib chiqib, diniy bag'rikenglik g'oyasi va shunga asoslangan munosabatlarni qizg'in qo'llab-quvvatlash, diniy aqidaparastlik, fundamentalizm mayllariga qarshi kurashda fan va din, ilm va din ahli birlashishi, umumiy ittifoq tuzishi tarixiy zarurat bo'lib turibdi.

***Yangicha tafakkur tarzining pastdan shakllanib borishi muhimligi masalasi.*** Noosfera – Aql sohasi davri ilgarigi hamma davrlardan shu bilan farq qiladiki, ilm-fan, texnika va axborot texnologiyasi misli ko'rilmagan tezlikda rivojlanib, agar odamzot uning yutuqlari, kashfiyotlaridan insoniyatning tub manfaatleri va olijanob maqsadlari yo'lida foydalanishga batamom o'tib olish uchun million yillar davomida shakllanib qolgan "g'or odamlari"ga xos tafakkur tarzidan voz kechmasa, uning istiqboli yo'q holga kelishi mumkin.

Ma'lumki, avstralopetik, ptikanthrop, sinantron, neandertal toifa(tipi)dagi ajdodlarimiz g'orlarda, iqlimi issiq yoki mo'tadil mamlakatlarda yashab, oziq-ovqat topish yo'lida birgalikda harakat qilganlar. Ular yaxshiroq yashashlari uchun boshqa g'orlarda, o'rmonlarda, suv havzalarida yashagan hamda gala birligi strukturasi mo'rtroq bo'lgan odamlarni kuch ishlatish yo'li bilan maskanlaridan haydab chiqarib, o'zlari yaxshiroq hayot kechirishga intilganlar.

Million yillar davom etgan bu jarayon, odamlar jamiyat bo'lib yashashga o'tgach, yanada g'ayriinsoniy tus olib, boshqalar hisobiga yaxshiroq yashash uchun harbiy yurishlar uyushtirish mayli yetakchi bo'lib qoldi. Natijada shunday tafakkur tarzi va u bilan bog'liq ravishda turmush tarzi qaror topdiki, bunga ko'ra, olg'irlik, bosqinchilik, yovuzlik, toshbag'irlik yashash uchun kurashning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Qaysi elat, xalq, millat g'oyaviy jihatdan uyushgan, mustahkam ijtimoiy-siyosiy strukturaga ega bo'lsa, o'shalar boshqalar yerlari, mamlakatlarini bosib olib, ularning yer osti va yer usti boyliklarini talash, o'zlarini qullardek ishlatish evaziga farovon hayot kechirish mumkin, degan nuqtai nazarda mustahkam turib qoldilar. Boshqacha aytganda, "men yaxshi yashashim uchun boshqalar yomon yashashi shart" degan qarash tafakkur tarziga aylandi.

Bunday tafakkur tarzini o'zgartirishning iloji bormi? Uning o'rniga har bir odam ongida, tafakkur tarzida "o'zgalarning yaxshi, farovon yashashi mening yaxshi, farovon yashashimning zarur sharti" degan nuqtai nazarni qaror toptirib bo'ladimi? Bu qiyin, ammo og'ir vaziyatlarda, umumiy halokat ro'y berganda (zilzila, suv toshqini, Vatanga hujum qilinganda va h.k.) ilgari dushman bo'lgan, hech bir narsada kelisha olmaydigan odamlar umumiy maqsad yo'lida vaqtincha bo'lsa-da, uyushib, ijtimoiy-siyosiy harakatlarni vujudga keltira olganliklariga tarix shohid. Mabodo umumplanetar halokat muqarrarligi, ammo uning oldini olish imkoniyati borligi kuchli, ta'sirchan mafkura vositalari orqali tushuntirilsa, buning uchun turli tadbirlar uyushtirilsa, o'ylaymizki, har bir mamlakat aholisi davrning Bosh ziddiyatini hal etish uchun kamarbasta bo'la oladi. Shu jarayonda yangicha tafakkur tarzi, u bilan birga yashashning yangicha tarzi qaror topib qoladi.

Har doim olimlar falokat, halokatlar bo'lishini oldindan anglab, fahmlab odamzotni, ularning siyosiy arboblarni hushyorlikka da'vat etib keladilar. XX asr boshlarida olimlar insoniyat Noosfera davriga kirgani, bu davrda Ona tabiat taqdiri ham insoniyatning bundan buyongi faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lishini bashorat etgan edilar. Biroq katta siyosat tepasida turgan arboblarni tor milliy, sinfiy, shaxsiy manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yib, uchinchi jahon urushi orqali ziddiyatlarni hal etmoqchi bo'ldilar. Mavjud moddiy va odam resurslari, Aqliy salohiyat to'laligicha vayronalik, buzg'unchilik ishlari maqsadlariga bo'ysundirildi. Bu ikki qarama-qarshi g'oya, ikkita turmush tarzi uchun kurashning oqibati bo'ldi: "milliy sotsializm" g'oyasi bilan "kommunizm" g'oyasi o'rtasidagi hayot-mamot kurashida kommunistik zo'ravonlikka asoslangan mafkura vaqtincha tantana qildi. Biroq taraqqiyot tezda shuni ko'rsatdiki, mulkni davlat monopoliyasiga aylantirish, rejali xo'jalik yuritish uchun xususiy mulkchilikka barham berish, davlatni yo'qsillar qo'liga topshirib, uning "o'limi"ni tezlashtirish, milliy tafavutlarga barham berib, "baynalminalchilik" shiorlari ostida yagona "sovet xalqi"ni shakllantirish siyosati va uni ko'klarga ko'targan mafkura barbod bo'ldi. Hayot shuni isbot etdiki, antogonizm va uni rivojlantirishga asoslangan tarafkashlik siyosati va mafkurasi tarixiy jihatdan zavolga uchradi. Biroq shunday bo'lishiga qaramay, eskicha tafakkur tarzi o'zining yashovchanligini ko'rsatib turibdi, shuning uchun ham Noosfera davriga muvofiq tafakkur tarzi ijtimoiy-siyosiy piramidaning ustki qismida avvalo

sodir bo'lishiga umid bog'lash qiyin. Binobarin, yangicha tafakkur va turmush tarzini pastdan, quyi tabaqalardan o'zgartirib borish yo'lini tutish samaraliroq bo'ladi, deb hisoblash mumkin. Chunki oddiy ishchi, dehqon, hunarmand, tadbirkor, o'qituvchi, shifokor – umuman ziyolilarning barcha quyi tabaqalarida hamkor, hamnafas bo'lib, o'zaro ishonch asosida yon berib murosa-yu madora bilan yashash mayli kuchli. Ana shuning uchun ham Noosfera davri mafkurasi avvalo e'tiborni bevosita moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchilar tafakkur tarzini o'zgartirishga qaratmog'i maqsadga muvofiqdir. Shunday muhitda tarbiyalangan yosh avlod, siyosat va mafkura maydoniga kelgach, geosiyosatda ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga umid bog'lash mumkin.

Yuqorida aytilganidek, nazariya masalasidagi jaholatparastlik natijasida tabiatni saqlab qolishning birinchi imkoniyati qo'ldan boy berildi. Moddiy va ma'naviy resurslarni g'ayriinsoniy maqsadlar yo'lida foydalanishni tanlab olish insoniyat uchun behad kulfatlar, mahrumliklar keltirdi. XX asrning 80-yillarida ikki qarama-qarshi lagerga bo'linib ketgan mamlakatlar birlashib, umummanfaatlar asosida faoliyat yo'nalishini belgilash imkoniyati vujudga kelgan edi. M.S.Gorbachevning yangicha tafakkur tarzini shakllantirish, qayta qurish, demokratik islohotlar o'tkazish siyosati shunday imkoniyatni voqelikka aylantirishi mumkin, degan fikr jahon afkor ommasida qaror topib bormoqda edi. Biroq yana "g'or odamlari"ga xos tafakkur tarzi o'zining yashovchanligini ko'rsatdi. Aqlni oqilona izga burib yuborishning ikkinchi imkoniyati ham qo'ldan boy berildi.

Umuman tarixiy xotirani esdan chiqarmasak, tafakkur tarzini o'zgartirish zarurligi to'g'risidagi yuqoridan bo'ladigan "tashabbus" ne chog'li jozibador tuyulmasin, ular tor siyosiy maqsadlar iskanjasida yo'q bo'lib ketishi, amalga oshmasligi tarixiy tajribadan ma'lumdir. Binobarin, Noosfera davriga xos tafakkur tarzini shakllantirish uchun tabiat insonga uchinchi, oxirgi imkoniyatni berdi. Bu, endi pastdan boshlanishi, "ekologik imperativ", "Axloq imperativi" umumplanetar halokatning oldini olib qolish zaruratini keng xalq ommasiga tushuntirish yangicha tafakkur tarzini shakllantirish, umumjahon xalq akademiyasi, uning har bir mamlakatda umumplanetar milliy uyushmalarini tashkil etishdan boshlash maqsadga muvofiqdir, degan fikrlar olimlar tomonidan ilgari surilmoqda. Ehtimol, shu bitta maqsad uchun odamlar, xalqlarni birlashtiradigan va buning uchun zarur mablag' resurslariga ega bo'lgan

"jahon hukumati" vujudga kelar, tabiat in'om etgan o'zini-o'zi saqlash instinktidan foydalanib, XXI asr odamlari, elatlari, xalqlari, millatlari murosa bilan yashash yo'liga uzil-kesil o'tib olsalar, inson faoliyati tufayli yopirilib kelayotgan halokatning oldini olib qolish g'oyasi umumplanetar ijtimoiy harakatini vujudga keltirsa, ajab emas.

*Xulosa:* a) tabiat bilan jamiyat, jamiyat bilan odamzot o'rtasida ziddiyat Noosfera davrining bosh ziddiyatidir; b) milliy xilma-xillik tabiat va uning qonunlari tufayli vujudga kelgan buyuk ne'matdir; v) din ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, imon insonga xos abadiy ruhiy hodisa ekanini nazarda tutish zarur; g) "g'or odamlariga" xos tafakkur tarzidan jamiyatlashgan odamga xos yangicha tafakkur tarziga o'tish orqali Noosfera davri muammolarini hal etish mumkin.

*Kalit so'zlar:* umumplanetar manfaatlar, antogonistik ziddiyat, etnogenez, integrativ jarayonlar, milliyluk, umumplanetar birlik, umuminsoniy xotira, uquvli odamlar, "g'or odami"ga hos tafakkur tarzi, mulkning davlat monopoloyasi, "Milliy sotsializm" g'oyasi, tarafkashlik siyosati va mafkurasi, umumjahon xalq akademiyasi, "jahon hukumati", umumplanetar ijtimoiy harakat, "ekologik imperativ", "Axloq imperativi".

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Jahondagi Bosh, Asosiy va noasosiy ziddiyatlar nimani anglatadi?
2. Yerdagi odamzotning paydo bo'lishi qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Tor manfaatlar nima va ularni qanday qilib umumplanetar manfaatlarga bo'ysundirish mumkin?
4. Tabiat bilan jamiyat, jamiyat bilan odamzot o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish mumkinmi?
5. Bifurkatsiya murvati va divergensiya qonuni nima?
6. Milliy rang-baranglik nimaga kerak?
7. "Din", "ishonch", "imom" tushunchalaridagi umumiylik va ayrimlikni anglash nega juda muhim?
8. Nega dinlarni siyosiyashtirish o'ta xavfli?
9. Noosfera davrida ilm va din ahli, fan va din ittifoqi nega zarurat bo'lib qoldi?
10. "G'or odamlari"ga xos tafakkur tarzi nima va uni bartaraf etish imkoniyati mavjudmi?

## GEOSIYOSAT

### GEOSIYOSAT, UNING EVALUTSIYASI VA SHAKLLANISHI

*An'anaviy geosiyosat va uning umumiy yo'nalishi.* Insoniyat o'z taraqqiyotida turli tarixiy davrlarni bosib o'tdi. XX asrga kelib, ayniqsa birinchi jahon urushidan keyin, olimlar odamzot ilgarigidan tubdan farq qiladigan yangi – Noosfera (Aql sohasi) davriga qadam qo'ygani uchun hamma sohada – ilmiy-tadqiqot ishlarida ham, siyosiy konsepsiyalar ishlab chiqilayotganda ham bu holatga jiddiy e'tibor berish kerakligiga e'tiborni qaratdilar. Biroq ilmiy-tadqiqotlar sohasida ham, siyosat va mafkurada ham tabiat o'z taraqqiyotining yangi bosqichi – Noosfera davriga qadam qo'yganligi munosabati bilan yangicha tafakkur tarzi, yangicha dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan jiddiy yondashuvlar bo'lmadi.

Jahon hamjamiyati va xalqaro munosabatlar muammolari ko'pgina ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, siyosat tarixi, diplomatiya tarixi, sotsiologiya, geosiyosat doirasida ham o'rganib kelinadi. Endilikda ularni mafkuraning ham alohida qismi sifatida o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda. Chunki geosiyosiy maqsadlar mafkuraviy siyosat bilan uzviy bog'lanib ketmoqda. Bunda odamlar, xalqlar, davlatlarga mafkura orqali g'oyaviy ta'sir ko'rsatish geosiyosatning ta'sirchan vositasi bo'lib qolmoqdaki, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda ham xavfliroq tus olmoqda.

"Geosiyosat" tushunchasidagi "Geo" – yer (shar), "siyosat" esa shu Kurrai zaminga doir siyosat yurgizish demakdir. Ya'ni, u muayyan davlat yoki davlatlar guruhining geografik yoxud makoniy-hududiy aspektda olib boradigan siyosati bo'lib qolmasdan, shu bilan birga, umuman jahon hamjamiyatining ham, ayrim davlatlar ittifoqlari, bloklarining umumjahon miqyosida belgilaydigan parametrlari,



o'lchovlari, fe'l-atvorlarini ham anglatadi. Geosiyosatga doir nazariy qarashlar XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab G'arbiy Ovro'poda vujudga kelib, geografik muhit xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynashi to'g'risidagi qarashlarni muqimlashtirishga harakat qiladi. Bunday qarashlar go'yoki yangicha yondashuvlar sifatida talqin etilsa-da, ammo ular qadimgi grek olimlarining asarlarida uchraydi. So'ngra o'rta asr mutafakkiri Ibn Haldun bunday g'oyalarni ilgari surgan.

XVIII asrga kelib fransuz faylasufi Sh.L.Monteskye taraqqiyot to'g'risidagi omillar o'rniga xalqlarning axloqi, urf-odatlarini, ularning xo'jalik va siyosiy tuzumlarini yo'lga qo'yish to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surdi. Biroq geosiyosat to'g'risidagi nazariy qarashlar vujudga kelmay turib, ming yillar davomidagi siyosiy faoliyatda u yetakchi yo'nalish bo'lib kelganligi ma'lum. An'anaviy geosiyosat geografik muhit bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, ingliz tadqiqotchisi Makinder "Tarix – geografik markazi"ni Markaziy Osiyoda ko'radi. Shu tufayli u Chingizxon o'zining otliq askarlari qudratiga tayanib, Osiyo va Ovro'poning talay qismini egallashga muvaffaq bo'ldi, deb hisoblaydi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli kuchlar nisbati okeanlar bilan qurshalgan Buyuk Britaniya foydasiga hal bo'lgani, yangi transport vositalari (temir yo'l) paydo bo'lishi bilan kuchlar nisbati tekis yerli davlatlar foydasiga hal bo'lganini asoslashga intiladi Makinder. U kimki Sharqiy Ovro'poni nazorat ostiga olsa, tarixning geografik markaziga ega bo'ladi, degan g'oyani ilgari surgan. Makinder jahon bozorida erkin raqobat urushlarni keltirib chiqaradi, deb hisoblardi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda jismoniy kuch ishlatish (zo'ravonlik) kerakligi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Bunga ko'ra, kuchsizlar ustidan kuchlilarning g'olib kelishi hayot qonunining asosini tashkil etishi kerak edi. Bu g'oyalardan kelib chiqib, Germaniyada kuch ishlatish bilan hukmronlik qilish birinchi o'ringa qo'yila boshlandi. Nemis siyosiy arbobi O. Bismark Germaniyaning yakkayu yagona hududi uning armiyasidir, degan fikrni ilgari surdi.

***Geosiyosatda g'arbparastlik mayllari va uning oqibatlarini.*** "Geosiyosat" tushunchasi G'arb tadqiqotchilarining faoliyati tufayli XIX asr bilan XX asr oralig'ida ilmiy muloqotga kiritildi. G'arbiy Ovro'poning bir qator mamlakatlaridagi texnika taraqqiyoti imkoniyatlari tufayli jahon

maydonlarini bo'lib olish siyosati va uning oqibatlari ta'sirida tadqiqotlar boshlandi. Ma'lumki, bu davrga kelib, Angliya, Ispaniya, Fransiya, Rossiya, Portugaliya, Italiya, Germaniya, Gollandiya kabi davlatlar tomonidan jahon maydonlari taqsimlab olinib, globallashuv boshlanishi tufayli asrlar davomida o'z etnik qobig'ida hayot kechirib kelgan xalqlar, davlatlar o'z mustaqilliklaridan mahrum bo'ldilar va umumplanetar muammolar girdobiga tortildilar. Tabiiyki, tadqiqotchilarda bu muammoni g'arbparastlik ruhida hal etish mayli yetakchi yo'nalish bo'lib qoldi. Demak, geosiyosiy g'oyalar davlat ekspansiyasi va imperiyachilik maqsadlari asosida vujudga keldi. Bunga ko'ra: a) global bozorni asta-sekin shakllantirish, oykumen (er sharining odamzot yashaydigan qismi)ni zichlantirish va jahon maydonlarini taqsimlab olishni "nihoyasiga yetgan" deb hisoblash; b) sof hududiy makon ekspansiyasi tugab, dunyoni bo'lib olish amalda oxirlangani; d) buning natijasida Ovró'po davlatlari o'rtasida paydo bo'lgan omonat barqarorlikni boshqa qit'alardagi "bekik" olamga o'tkazish; e) tarix Ovró'po tarixi bo'lishdan to'xtab, endilikda u umumjahon tarixiga aylana boshlagani; d) shunday omillarga binoan, keyinroq tamal toshiga aylangan siyosiy realizm uchun xalqaro maydonda kuch ishlatishga (zo'ravonlikka) tayangan siyosatning nazariy asoslarini yaratish ko'zda tutilgan edi.

Boshqacha aytganda, hayvonot olamida tabiiy tanlanishga o'xshash munosabatlar ijtimoiy hayotda ham qaror topishi mumkinligini "ilmiy jihatdan" asoslash kerak edi. Ya'ni, sher taslim qilgan o'ljasini sherbachchalar nimta-nimta qilib taqsimlab olib, har tomonda g'ajib yeya boshlagach, ularning qorinlari to'yganligi tufayli yuzaga kelgan xotirjamlikka o'xshash bir manzarani gavdalantirish tadqiqotlar markazida tura boshladi. Biroq qorni yana ocha boshlaganini his qilgan sherlar yangi o'ljalarni qo'msab qolgani kabi vaqtinchalik yuzaga kelgan barqarorlik o'z o'rnini yanada dahshatliroq beqarorliklarga bo'shatib berishga majbur bo'ladi. Jahonga hokim bo'lish siyosati 1812-yilda Fransiya – Rossiya o'rtasida o'sha davr uchun nihoyatda katta hisoblangan urushni keltirib chiqardi. Natijada Fransiya sharmandalarcha mag'lub bo'lib, ilgari nasibalaridan ham mahrum qilindi.

Shimoliy Amerikada mustamlakachilikka qarshi boshlangan urush G'arb mamlakatlarning mag'lubiyati bilan tugab, AQSh nomi bilan yangi qudratli davlat tarix maydoniga keldi. Amerika tarixchisi A.T.Maxen mamlakatlar va xalqlar tarixiy taqdirini dengizdagi qudrat

belgilaydi, degan g'oyani "asosladi". Unga ko'ra, chor tomonlari okeanlardan iborat Amerikada qudratli davlat barpo bo'lishi kerak edi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda jismonan kuch ishlatish kerakligi haqida g'oyalar paydo bo'lib, mafkura vositalari orqali Germaniyada bosqinchilik, kuch ishlatish va hukmronlik qilish qahramonlik darajasiga ko'tarildi. F. Nauman markazi Germaniya bo'lgan Ovro'po ittifoqi kerakligi, u "Planeta qo'shma shtatlari" uchun asos bo'lishi to'g'risidagi konsepsiyani ilgari surdi. Xausxof davlatning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi uning hayotiy "bo'shliqlar bilan ta'minlanishi bilan bog'liq", degan g'oyani ilgari surdi. U Markaziy Ovro'poni Germaniyaning tayanchi hisoblab, Sharqni german hududiy ekspansiyasining asosiy yo'nalishi, deb hisobladi. U dengiz davlatlarining zaiflashuvi Germaniya yetakchi bo'lgan Ovro'po tartiblarini o'rnatish imkoniyatlari vujudga keltirganini, bu g'oyalar jahon tartibotlari tizimi uchun negiz bo'lishi kerakligini "isbotlamoqchi" bo'ldi.

Geosiyosatdagi g'arbparastlik mayllari XX asrda 2 ta jahon urushi kelib chiqishi uchun g'oyaviy turtki bo'lib, million-million odamlarning yostig'i qurishi, shahar va qishloqlarning vayronaga aylanishiga olib keldi. Bundan ma'lum bo'ladiki, har qanday g'oya, jumladan vayronkor, yovuz g'oyalar ham kuchli, ta'sirchan mafkura orqali odamlarda harakat birligini vujudga keltirib, insoniyat boshiga behad kulfatlar solishga sabab bo'lishi mumkin ekan.

### ***Ikkinchi jahon urushidan keyingi geosiyosatning asosiy yo'nalishlari.***

Ikkinchi jahon urushi davrida AQShda tashqi siyosat va jahon tartibotlarining yangi nazariyasini yaratish kuchaydi. Bunday yondoshuvlar markazida Amerika jahonda alohida rol o'ynashga da'vat etilgan, degan konsepsiya yotardi. An'anaviy qarashlardan kelib chiqib, AQSh tadqiqotchilari "Geosiyosatda yetakchi kuch omili" bo'lishi kerak, deb hisobladilar. F. Straus -Xyupe "Geosiyosat harbiy stratekka qay yo'l bilan osonroq nimani va qanday qo'lga kiritilishini anglashga yordam beradigan, sinchiklab ishlab chiqilgan rejani tavsiya etishdan iboratdir", dedi. "Gitlarning global tafakkurining kaliti, – dedi u, – German geosiyosatidir". U AQSh tashqi siyosatida butun Yevroosiyo bilan munosabat yotishi zarurligini aytadi.

Spaykman Shimoliy Amerika havzasi, Ovro'po sohillari va Ovro'poosiyo Uzoq Sharqidan iborat jahonda uchta yirik markaz bo'lishi

to'g'risida fikr yuritadi. U Hindiston timsolida 4-markaz bo'lishi ehtimoli borligini nazarda tutadi. AQSh tadqiqotchilari ikkinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniya bilan mustahkam ittifoqda bo'lishdan boshqa iloj yo'qligiga e'tiborni qaratadi. "Kimki Fimlendni nazorat qilsa, u Yevraziyani nazorat qila oladi, kimki Yevraziyani nazorat qila olsa, u butun dunyo taqdirini nazorat etadi", deydi u. G. Uaytjert "Urushdan so'ng Amerika Yevraziyani imperializmning barcha shakllaridan ozod etishi va u joyda, albatta, amerikacha erkinlik va demokratiyani qaror toptirishi kerak", deydi.

Ikkinchi jahon urushida ko'pchilik geosiyosat bo'yicha mutaxassislar Gitler rejimini qoraladilar, shu asnoda geosiyosat "Sovuq urush" tutquniga aylandi. 2 ta harbiy - siyosiy blok o'rtasidagi qarama-qarshilik g'oyaviy-mafkuraviy tus oldi. Natijada geosiyosatning hududiy aspekti noto'g'ri talqin etildi va u ma'lum darajada 2 tizim va blok kurashining mafkuraviy imperativiga bo'ysundirildi. Yangi vaziyat geografik-hududiy determinizmning jiddiy tahririni taqozo etadi, degan xulosaga kelindi.

A. P. Soverski geosiyosiy qarashlarida jahon teng kuchga ega bo'lgan 2 ta davlat o'rtasida taqsimlanganiga e'tiborni qaratdi. Biroq bu qarashlarga o'zgarib borayotgan voqelik o'z ta'sirini o'tkazdi. 60-yillarda tadqiqotchilar ikki qutbli (okean – kontinental) dunyo o'rniga ko'p qutbli dunyo shakllanayotganini ta'kidlashga o'tdilar. Jumladan, S.B.Koen jahon miqyosida geostrategik va geosiyosiy mintaqa vujudga kelganini aytib, dengiz davlatlari va Yevraziya kontinental olamni bunga misol qilib ko'rsatdi. U Hind okeani havzasida mustaqil mintaqa paydo bo'lish ehtimoli ham yo'q emas, dedi. 70-yillarga kelib, 4 ta jahon markazi – AQSh, Ovro'po sohili, sobiq Sovet Ittifoqi va Xitoydan iborat yirik kuchlar markazi borligini aytdi. Ushbu global doiralarda global muvozanat kafolat bo'lgan yana ko'pgina jahon markazlari ham borligini ta'kidladi. Ammo o'sha bipolyar tafakkur tarzi hukmron bo'lgan yillarda Koening yuqoridagi qarashlari e'tiborsiz qoldi.

70-90-yillarda xalqaro munosabatlar geosiyosati talqinlarini metodologik asoslarni qayta qurib chiqishga intilishlar paydo bo'ldi. Masalan, amerikalik tadqiqotchi L. Kristof "Hozirgi zamon geosiyosatchisi tabiat odamzotga ato etgan narsani emas, balki u o'zi mo'ljallagan narsani topish maqsadida xaritaga nazar tashlaydi", deydi. "Geosiyosat, – deydi Grey, – xalqaro siyosiy qudrat bilan geografik omillarning o'zaro aloqadorligiga tayanadi". Fransuz generali va

tadqiqotchisi P.Gallua hozirgi zamon dunyosidagi geosiyosat o'lvovlarining eng muhim parametrlari makoniy – hududiy tasnifi bilan birga raketa – yadro quollarining paydo bo'lishi va tarqalishi omiliga ham e'tiborni qaratadi hamda unga ega bo'lgan davlatlar geografik ahvoli, bir-biridan yaqin-uzoqligidan qat'i nazar, kuchlar nisbatini tenglashtiradi, deydi. Shu bilan birga u ommaviy axborot vositalari va telekommunikasiyalar rolining kuchayib borayotganiga, shuningdek, aholining bevosita siyosiy jarayonlarga aralashuvi oshayotgani omillari insoniyatning geosiyosiy istiqbolida favquloddagi oqibatlarga olib kelishiga e'tiborni qaratadi. Gallua quruqlik, dengiz va havo bo'shliqlaridan tashqari geosiyosatning muhim parametrlari sirasiga kosmos kengliklarini o'zlashtirishlarni ham kiritadi.

*XX asr: mag'lubiyatlar, muvaffaqiyatlar va yangi-yangi muammolar.*

XX asr boshlarida jahondagi mashhur olimlar tabiat o'z taraqqiyotininng yangi yuqori bosqichi – Noosfera (Aql sohasi) davriga kirgani, bu davrning ilgari barcha davrlardan farqli xususiyatlariga e'tiborni qaratib, ilmiy-texnika yangiliklarini to'la insoniyat manfaatlariga bo'ysundirishga siyosatchilar e'tiborini qaratdilar. Endilikda Aql sohasi tabiat qonunlari harakat yo'nalishlariga ham o'z ta'sirlarini ko'rsatish pallasiga kirganini hisobga olmay siyosat belgilash halokatli oqibatlarga olib kelishini olimlar oldindan bashorat qilgan edilar.

Ikkinchi jahon urushida fashizim g'oyalarining g'ayriinsoniy jihatlarini jahon afkor ommasi anglab yetdi. Ammo bu g'oyalarga asoslangan mustabid tuzum ba'zi G'arb davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlangani faktidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Tarix shundan dalolat beradiki, ayrim davlat arboblari tor milliy manfaatlarini himoya qilish shiori ostida o'z xalqlari istiqboliga zavol bo'lishdan ham tap tortmaydilar. Masalan, XX asr boshida bolshevizm g'oyalari Rossiya imperiyasini halok etishiga ko'zi yetgan nemis siyosatchilari V.I.Lenin boshliq partiya siyosatini qo'llab-quvvatlab, hatto uni mablag' bilan ham ta'minladilar.

Oqibatda podsho rejimining qulashi bilan Rossiyada boshlangan demokratik harakatlar mag'lub bo'lib, uning o'rniga bolshevizm nomi bilan yana bitta mustabid hokimiyat qaror topdiki, bu tarixiy xato yana boshqacharoq shakllarda qaytarilmasligi uchun kafolat kerakdir.

Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro bitimlar bilan mustahkamlangan geosiyosiy tartibotlar barham topib, jahon

hamjamiyati globallashuv jarayonlariga muvofiqlashish yo'liga kirgan bo'lsa-da, biroq xalqaro siyosiy fikrlarda eskicha yondashuvlar saqlanib turibdi. Eng dahshatlisi shuki, tabiat o'z taraqqiyotining yangi – Aql sohasi bosqichiga kirgani, bunda butun insoniyat aqliy salohiyati, uning natijasi bo'lgani fan-texnika va axborot texnologiyasi yutuqlarini batamom bunyodkorlik tomon burib yuborish hayot-mamot masalasi bo'lib qolgani siyosiy qarashlarda, siyosiy maydonlardagi kurashlarda e'tiborga olinmayotir. Holbuki, bu masalalar har bir mamlakat, xalqlar va davlatlar ittifoqi va butun insoniyat siyosiy voqeligining tubli negizlarini tashkil etadi.

Marksizm-leninizm ilmiy-nazariy va mafkuraviy qarashlari asosida shakllangan hamda Rossiya va boshqa bir qator mamlakatlar XX asr oxirigacha belgilab kelgan geosiyosati to'lasicha inkor etildi. Bu hol hozirgi zamon dunyosi realliklariga muvofiq keladigan geosiyosiy tafakkur tarziga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Ammo XIX asrdagi siyosiy qarashlar saqlanib turibdi. XX asrdagi o'zgarishlar insoniyat taraqqiyotining bir necha asrlariga teng keladi. Juda ko'p agrar mamlakatlar industrlashtirish bosqichidan postindustrial va axborot jamiyatiga sakrab o'tdilar. Insoniyat Aqliy salohiyatining parvozi natijasida bu asrda nisbiylik nazariyasi, atom kashfiyotlari va texnika yangiliklari sodir bo'ldi. XX asr oxirgi choragida axborot telekomunikatsiya inqilobi ro'y berdi. Juda ko'p mamlakatlarda bozor iqtisodi munosabatlari va liberal demokratik yo'lga o'tish jarayonlari tezlashdi, insonni himoya qilish va xalqlarning o'z taqdiralarini o'zi belgilash tamoyillarini e'tirof etish yetakchi tamoyilga aylandi.

XX asr yana shunisi bilan e'tiborliki, milliy mustaqillik mafkurasida amaliyoti tantana qilib, mustamlakachilik imperiyalari halokatga uchrab, uning xarobalari ustida juda ko'p mustaqil davlatlar vujudga keldi. Million-million odamlar hayotiga zavol bo'lgan ikkinchi jahon urushi ham shu asrda ro'y berdi. XX asrda fashizm, bolshevizm nomi bilan tanilgan nihoyatda dahshatli mustabid hokimlik rejimi ham hukm surdi. ITN tufayli insoniyatning o'zi mavjudligini omonat qilib qo'ygan yadro qurollari va uning mo'ljalga eltish vositalari vujudga keldi.

Bir tomonda AQSh, ikkinchi tomonda sobiq sovet ittifoqi bosh bo'lgan ikki qutbli olam ko'p sohali olamga o'z o'rnini bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Har qanday davlat butun dunyo hamjamiyati faoliyatiga tortildi. Demak, yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ldiki,

an'anaviy geosiyosatning asosiy qoidalari hozirgi dunyo voqeligiga muvofiq kelmay qoldi. Mohiyat e'tibor ila zo'ravonlikka asoslangan geosiyosatning tarixiy ildizlari qadimga borib taqaladi. Geosiyosat nazariyasi va amaliyotida go'yoki yangicha yondoshuvlar sifatida ilgari surilgan o'sha g'oyalarning tag zaminida, nazarimizda, vahshiyona hayot kechirgan ibtidoiy ajdodlarimizning tafakkur va turmush tarzi unsurlari yotadi. O'sha gala-gala bo'lib yashagan ajdodlarimizning hali rosa takomiliga yetmagan miyalarining mahsuli bo'lgan ong darajalari, zo'ravonlik yo'li bilan o'z turlari bo'lgan boshqa odamlar galalari hayotiy makonlarini egallash, o'zlarini asoratga solish yo'li bilan yaxshiroq yashashga intilishdan iborat vahshiyona turmush tarzlari o'zining yashovchanligini namoyon etayotganligiga tarix shohid. Demak, odamlar, avvalo siyosat va mafkura maydonlaridagi kishilarning g'or odamlariga xos tafakkur tarzlarini o'zgartirmay turib, geosiyosat yo'nalishlarida jiddiy o'zgarishlar bo'lishiga umid bog'lash qiyin. Chunki hozirgi davrda jahon voqeligi shu darajada o'zgarib ketdiki, uni boshqa asrlarda shakllangan tafakkur tarzi metodi bilan tahlil etish umuman mumkin emas. Geosiyosat fanining markazida hozirgi zamon hamjamiyatining muammolari turadi, shuning uchun ham endilikda aniq mamlakat hududi, tutgan o'rni va geografiyasini jahon miqyosida sodir bo'lgan sifat o'zgarishlari asosida tahlil etish kerak. Bu o'zgarishlar avvalo tafakkur tarzi, so'ngra nimalar ustivorligini aniqlash, unga erishish metodlari, vositalarini tanlash hamda ushbu reallikka muvofiq keladigan tushunchalar, kategoriyalarni tadqiq etishni taqozo etadi.

*Xulosa:* a) geografik determinizm (sababli bog'lanish) an'anaviy geosiyosatning negizini tashkil etadi; b) geosiyosatda g'arbparastlik mayllari yetakchi bo'lib keldi; d) ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan ikki qutbli dunyoda ham Ovro'poparastlik mayllari kuchli bo'lgan holda Osiyoda ham yetakchi markazlar paydo bo'layotganini tan olishga to'g'ri keldi; e) XX asr mag'lubiyatlar, muvafaqqiyatlar bilan birga yangicha muammolar asri, ogohlantirish asri bo'lib tarixda qoladi.

*Kalit so'zlar:* an'anaviy geosiyosat, geografik determinizm, geografik omil, aykumen, ekspansiya, tarixiy geografik markaz, "hayotiy bo'shliq", g'arbparastlik, Yevroosiyo, ikki qutbli dunyo, ko'p qutbli dunyo, global muvozanat, industrilashtirish bosqichi, postindustrial bosqich, liberal-demokratiya, fashizm, bolshevizm, ogohlantirish asri.

## Takrorlash uchun savollar

1. Tarixan amaliyotda qaror topgan geosiyosat nimani anglatadi?
2. G'arbda paydo bo'lgan geosiyosat konsepsiyalari yetakchi mayllari nimadan iborat?
3. Geosiyosiy determinizm g'oyalari va ularning oqibatlarini izohlang.
4. "G'or odamlari"ga xos tafakkur tarzining yashovchanligining sabablari nimada?
5. Xalqaro maydonda chiqadigan ziddiyatlarni zo'ravonlik yo'li bilan hal etishga intilish nega zavolga yuz tutmoqda?
6. AQSh davlati geosiyosatining asosida qanday g'oyalar yotadi?
7. "Sovuq urush" mohiyati va oqibati nimadan iborat?
8. Geosiyosat yo'nalishi to'g'risidagi xilma-xil fikrlar va ularning nazariy jihatdan biryozlamaligini izohlang?
9. Noosfera davriga muvofiq keladigan geosiyosatni belgilash mumkinmi?
10. Nega XX asrni ogohlantirish asri deyish mumkin?

## XX ASR – "MAFKURA ASRI" SIFATIDA

*Siyosat globallashuvining asosiy yo'nalishlari.* XX asrga kelib jahon hamjamiyatining dunyo miqyosidagi aloqalari intensiv tus ola boshladi. Davlatlar, ayniqsa yirik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ishida geosiyosatning ta'siri bo'ldi. Bu siyosat o'z navbatida tarafkashlik mafkurasini shakllantirdi. Natijada milliy o'zlikni anglash milliy mafkuralarga zo'r ehtiyojni paydo etib, siyosatdagi g'arbparastlik mayllari inqirozga uchradi.

Siyosat va mafkura go'yoki egizaklar kabi bir-birini taqozo etadi. Mafkuralarning barchasi hokimiyat nufuzi va hokimlik munosabatlari muammosi bilan uzviy ravishda bog'lanib ketadi. Chunki har qanday hokimiyat yoki siyosiy partiya o'z maqsad-muddaolariga keng xalq ommasini ishonirish uchun kuchli, ta'sirchan mafkuraga muhtoj bo'ladi. Mafkura ommani muayyan maqsad sari harakat birligini vujudga keltirish, ayni chog'da boshqa partiyalardan ajratib olish funksiyalarini bajaradi. Mafkuraning yana bir muhim funksiyasi shuki, u odamlar o'rtasidagi institutsional munosabatlar ahamiyatini ko'rsatishga da'vat etadi: siyosat subyektlari sifatida ijtimoiy institutlar, partiyalar,



hamjamiyatlar va boshqalarning tarixiy sharoitdagi siyosiy qarashlarini ma'qullaydi yoki inkor etadi. Mafkuraning muhofaza funksiyasi tufayli real siyosiy voqelikka boshqacha qaraganlar timsolida dushman obrazini yaratib, ularga qarshi xalq ommasida nafrat his-tuyg'usini vujudga keltiradi. Muayyan guruhning birlashish darajasi mafkura yordamida shakllantirilgan dushman obrazining dahshatli qiyofasiga muvofiq keladi.

Odamsot muayyan tarixiy davrda yashovchi mavjudodgina emas, shu bilan birga u o'z orzu-armonlari, o'z xayoliy tasavvurlari bilan notarixiy davrda ham yashaydigan xilqatdir. Boshqacha aytganda, odam, jamiyat, davlat va jahon hamjamiyati (demak, odamlarning muayyan jamoalari) umuman olganda dunyoqarashlik mezonlariga ega bo'ladi. Aynan ana shu mezon muayyan tarixiy davrdagi hukmron paradigma mazmunini tashkil etadi. Nemis faylasufi F.Nitsche XX asr falsafiy tamoyillar nomi bilan turli guruhlarining jahonga hokimlik uchun kurash asri bo'ladi, degan edi. Ammo u biroz adashgan ekan: XX asrda mafkuraviy tamoyillar falsafiy tamoyillardan ustun keldi. Mohiyatan arzon xomashyo va ishchi kuchiga hamda keng bozorga ega bo'lish maqsadlarini g'oyaviy pardalarga o'rab, xalq ommasida bosib olish nazarda tutilgan mamlakat aholisi timsolida dushman obrazi yaratish uchun kuchli mafkuraviy ijtimoiy institutlar, g'oyaviy ta'sir o'tkazish vositalariga ega bo'lish kerak edi.

Asr boshida sodir etilgan birinchi jahon urushi va undan keyingi voqelik Ovro'poliklar uchun qimmatga tushdi: ular o'zlarining ilgarigi mavqeidan mahrum bo'lib, AQSh va Yaponiyani ham jahon taqdirini hal etuvchi buyuk davlatlar sifatida tan olishga majbur bo'ldilar. 30-yillarga kelib jahon maydonida Sovet Ittifoqi degan buyuklikka da'vogar yana bitta davlat paydo bo'ldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin kuchlar nisbati AQSh va Sovet Ittifoqi boshliq davlatlar foydasiga hal bo'ldi. Natijada, dunyoqarash jihatidan ham, ijtimoiy-siyosiy tuzum jihatidan ham xalqaro munosabatlarda bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki qutbli dunyo paydo bo'ldi.

Bu davrda hukmronlik qilgan g'oyaviy-siyosiy oqimlar – marksizm, milliy sotsializm, liberalizm va boshqalar funksional jihatdan buyuk diniy tizimlar – katolisizm, protestantizm, islom va boshqalar tarixan bajarib kelgan vazifalarni ado etdilar. Shu ma'noda ular yuqoridagi siyosiy-falsafiy oqimlar dunyoviy dinlar tusida o'zlarini namoyon etdilar. Dunyo ikki qarama-qarshi harbiy-siyosiy guruhga bo'linib ketgach, odamlar ongi va qalbi uchun kurash xalqaro siyosatning tarkibiy qismiga aylandi.

XX asrning dastlabki o'n yilliklarida sotsial-islohotchilar, fashistlar va bolsheviklar singari siyosiy-mafkuraviy kuchlar o'rtasida beomon g'oyaviy kurash borgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin ikki jahon tizimi o'rtasida hayot-mamot kurashi boshlanib, u "sovuq urush" nomini oldi. Bu "urush"da sobiq sovet ittifoqi boshliq harbiy-siyosiy blok mag'lub bo'lishining asosiy sabablaridan biri rejali xo'jalikka asoslangan iqtisod va buyukdavlatchilik shovinizmiga tayangan siyosat inson huquqlari va erkini barbod etib, insonni davlat mashinasi oddiy vintchalariga aylantirib qo'ydi. Mafkura esa ana shu dahshatli siyosatni nechog'lik insoniy etib ko'rsatmasin, baribir, g'ayriinsoniy mohiyatga ega bo'lgan siyosat barbod bo'ldi.

*XX asrdagi tarafkashlik mafkurasining ildizi.* Ikkinchi jahon urushidan keyin yirik davlatlar va ular bilan hamkorlikda bo'lgan davlatlarning geosiyosati haddan tashqari mafkuralashtirilib, G'arb va Sharq dunyosi xalqlarida o'zaro dushmanlik va ishonchsizlik ruhini kuchaytirdi. "G'arb" va "Sharq" tushunchalarida sof geografik mazmun o'rnini g'oyaviy-siyosiy mazmun egalladi. Aynan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda mafkuraviy mezonlar yetakchi mayl bo'lib, davlatlar shu g'oyaviy yaqinliklar doirasida birlashdilar. Masalan, Yaponiya uzoq Sharqda joylashgan bo'lsa-da, u "G'arb" davlatlari sirasiga kiritildi. Amerika qit'asida joylashgan Kuba "Sharq" davlatlari guruhiga mansub etib ko'rsatildi.

Siyosiy qarashi, turmush tarzi va iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga qarab jahon hamjamiyati uchta olamga bo'lindi: a) iqtisodiy jihatdan rivojlangan Ovro'po, Shimoliy Amerika, shuningdek, Yaponiya va ayrim Osiyo mamlakatlari; b) SSSR, Sharqiy Ovro'po mamlakatlari, Xitoy va Osiyodagi ba'zi mamlakatlar va Kuba; v) iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'z ta'sirlariga olish uchun kurashdilar. Oqibatda Sharqiy-Janubiy Osiyoda, Afrikada lokal va hududiy urushlar kelib chiqdi.

Ovro'po, Amerika, Osiyo qit'alaridagi ziyolilar orasida markscha-lenincha dunyoqarash tarqalishi natijasida jahondagi ko'p kulfatlar sarmoyadorlarning vahshiyona ekspluatatsiyasi va ularning manfaatlari asosida mustamlaka xalqlarini talash oqibatidir, degan fikr muqimlashib bordi. Senegal rahbari L.Sengor 1959-yilda "Bugungi ijtimoiy dalolat

shuki, faqat Osiyo va Afrika xalq ommasi turmush darajasini yomonlashtirish hisobigagina Ovro'po aholisining turmush darajasi yuksak bo'lishga erishildi", degan edi.

Biroq vaqt o'tishi shuni ko'rsatdiki, G'arb va Osiyo sarmoyadorlari bilan yaqinlashgan mamlakatlarga tezda iqtisodiy yuksalishga ega bo'ldilar. "Sotsialistik lager" deb atalgan mamlakatlar va ularga ergashgan davlatlarda iqtisodiy o'sish nisbatan yomonlashib bordi. "Jahonda G'arb kapitalidan uzoqlashganlarga eng qashshoq mamlakatlar bo'lib qoldilar", dedi J.Puchala.

Aslida G'arb mamlakatlaridagi iqtisodiy o'sish nafaqat arzon xom ashyo va jahon bozorigina emas, avvalo ulardagi ilmiy-texnika taraqqiyoti edi.

70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshiga kelib jahon aholisining to'rtidan bir qismi industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlarda, 37 foizi (26 ta mamlakat) sotsialistik lagerda, aholining qolgan qismi "uchinchi dunyo"da yashardi.

Ikki blok o'rtasida ta'sir doirasini kengaytirish uchun boshlangan "sovuq urush" tarafkashlik mafkurasini shakllantirdi. Sovuq urush o'z mohiyati bilan salb yurishi tusini oldi va dunyo go'yoki ezgulik va yovuzlik, yaxshi yigitlar va yomon yigitlar, erkin olam va ezuvchilar olamiga bo'linib ketdi, degan edi o'sha davr tadqiqotchilaridan biri S.Xofman. Beshqacha aytganda, "sovuq urush" tushunchalarida nafaqat ikki tomon o'rtasidagi qaltis munosabatlarni va tarafkashlikni, balki bu tizimlardan birining g'alabasi, boshqasi yo'q bo'lib ketishini anglatuvchi muqaddas urush ma'nosi ifodasini topgan edi. Har ikki tizim tarafdorlarining har biri mafkura yordamida xalq manfaatlari va orzu-armonlarining himoyachisi sifatida o'zini namoyon etishga harakat qilardi. O'z nuqtai nazarini g'oyaviy jihatdan asoslash uchun AQSh o'zini erkin dunyo himoyachisi, SSSR esa o'zini tinchlik, demokratiya va sotsializm tayanchi deb e'lon qildi. Natijada xalqaro munosabatlarda ikki qutbli struktura yuzaga keldi. Sharq va G'arb o'rtasida beomon kurash o'ta diniy salb yurishi sifatida baholandi. AQSh davlat arboblari "sovuq urush" tushunchasini ochiqdan-ochiq "Kommunizmga qarshi salb yurishi" ma'nosida qo'lladilar.

Ikki qutbli dunyoda jahon xalqlari doimo urush xavf-xatari bilan yashashga majbur bo'ldilar. Chunki bloklardan birining xalqaro maydondagi biron-bir muvaffaqiyati ikkinchi tomonni darg'azab qilar

va xalqlar go'yoki urush girdobiga tortilgandek vaziyat vujudga kelardi. Bu hol "g'or odamlari"ga xos tafakkur tarzini rivojlantirib, tomonlarning o'zaro kelishuvi va murosayu madora bilan yashashlarini istisno etardi.

*G'oyaviy parokandalik va uning oqibatlari.* Sobiq sovet davlatining barham topishi va "sovuq urush"ning tugashi ikki qutbli dunyoning barbod bo'lishiga olib keldi. G'arb va Sharq tarafkashligining ma'nosi qolmadi. Ayni chog'da noaniqlik, umidsizlik va xayolotlardan mahrum bo'lish davri boshlandi. O'tgan asrlardagi buyuk diniy ta'limotlar kabi diniy qarashlardan xoli bo'lgan g'oyaviy-siyosiy qurilma (struktura)lar va xayolot ko'p jihatdan o'z jozibasini yo'qotdi. Odamlarda na islohotchilarga va na inqilobchilarga nisbatan ishonch qoldi. Buyuk dasturlar, buyuk taqiqlar va buyuk mahrumliklar odamlarni bundan buyon ilhomlantirmaydigan va qo'rquv his-tuyg'ularini uyg'otolmaydigan holga keldi.

Mohiyat e'tibori ila mafkuralashgan sobiq sovet davlati halokati marksizm-leninizm g'oyalariga bo'lgan umidlarni puchga chiqardi, dunyodagi juda ko'p sotsial ta'limotlarning tag-tomiri zil ketdi. Sotsial tenglikdan darak bergan sotsialistik jamiyat to'g'risidagi afsonalarga bo'lgan ishonch har qanday dolzarblikdan mahrum bo'ldi. "Sotsialistik lager" deb atalgan mamlakatlar deyarli ko'pchiligi hayotning g'arbcha modelini qabul qilib olib, bozor iqtisodi munosabatlari tamoyillari va ularning siyosiy demokratiyalarini go'yoki qabul qilgandek bo'lgan chog'da, G'arb mamlakatlarining o'zida ma'rifatchilar merosi va uning hosilasi bo'lgan individualizm, taraqqiyot va siyosiy demokratiyani tanqid ostiga olish kuchayib ketdi. Odamlarni, xalq ommasini yuksak ideallarga safarbar etuvchi yangi g'oyalar topilmagani sababli, hayotdan qoniqmaslik, undan norozilik alomatlarini yalpi umumiy tus olib ketmoqda. Dinlardan xolilik dinamikasining o'zi hayot ma'nosini shaxsiy chegarasiz ehtiyojlari va istaklarini qondirishdan iborat deb tushungan is'temolchi odamlar shaxsini shakllantirmoqda. Odamzotga G'arbcha keragidan ortiq erk berish faqat o'zini-o'zi sevadigan, yaqin kishilari, jamiyat oldidagi har qanday mas'uliyat his-tuyg'usidan mahrum individlar avlodi shakllanishi uchun qulay ijtimoiy muhitni vujudga keltirdi. Bunday individ ijtimoiy hayot rishtalarining barchasiga qarshi, chunki uning nazarida ijtimoiy ruxsat va taqiqlar go'yoki uning oyoq-qo'lini kishanlab qo'yadigandek tuyuladi. Bunday odamlar galasi barcha xatoliklar,

kamchiliklar uchun o'zi yashayotgan jamiyatni qoralashdan, undan norozi bo'lishdan nariga o'ta olmaydilar. Ular na tartib-intizomni, na hayoboni, na an'analarni va na o'zini-o'zi idora etishni tan olishadi. Chunki ana shunday individlar uchun davlat va jamiyat ularning chek-chegarasiz ehtiyojlarini va ehtiroslarini qondirishi, jiddiy o'qimay va mehnat qilmay huzur-halovat bilan yashashlarini ta'minlashi kerak. Shuning uchun ham postmodernizm tarafdorlari hozirgi G'arb turmush tarzi (modeli)ni "jamiyatdan qoniqmaslik" ruhining qaror topishi sifatida tavsiflamoqdalar.

Tadqiqotchilarning ba'zilar G'arbiy Ovro'poda shakllangan jamiyatlar quyoshi so'nib bormoqda, bu sivilizatsiya ma'naviy tanazzulga uchrab, o'zining oxirgi nafasini olmoqda, demoqdalar. Chunki odamlarga hayot ma'nosini bergan, kelajakka umid va ishonch ruhini singdirgan buyuk dinlarga ixlos susayib ketgan, dindan xoli bo'lgan g'oyaviy-siyosiy qurilmalar to'qigan afsonalarning qadri tushgan bir vaziyatda inson shaxs sifatida barbod bo'lishi uchun ijtimoiy muhit vujudga kelmoqda. Boshqa bir tadqiqotchilar qattiq tartiblar va cheklashlar hamda behad ko'p urf-odatlardan xoli qandaydir dunyoviy dinga o'xshash bir yo'nalish, boshqacha aytganda, taraqqiyot dini yaratish haqida fikr bildirmoqdalar. Amerikalik tadqiqotchi P.Berger "Xudosiz olamda chor tomonga tarqalayotgan zerikish ro'y bermoqda", deydi.

Bunday vaziyatda odamlar, jamiyatlar, hamjamiyatlar uzoq muddatli istiqbolga ega bo'la oladilarmi? Yangi infrastrukturning ma'naviy tayanchi bo'la oladigan g'oyalar va ideallarni topib bo'ladimi, degan savollar ko'ndalang bo'lib turibdi. Natijada an'anaviy dinlar yoki dinlardan xoli g'oyaviy-siyosiy strukturalar o'rniga afsonalar, g'oyalar, xayollar ifodasi bo'lgan turli-tuman mazhablar yoki milliy bolshevizm, milliy-fashizm kabi uyushmalar paydo bo'lmoqda. Nafaqat islomda, balki pravoslaviya, protestantizm, liberalizm va yangi bolshevizmda dunyoni "o'zimizniki" va "begonalar"ga bo'lish mayli paydo bo'lib, yangi tarfakashlik mafkurasiga yo'l ochilmoqda.

***Millat va milliy mafkura.*** Shunday sharoitda milliy g'oya va mafkura bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Chunki u muayyan mamlakatda istiqomat qilayotgan titul millat bilan turli-tuman millat va elat namoyondalarining umumiy maqsad yo'lida harakat birligini vujudga keltirishi mumkin. Bu jarayondagi izlanishlardan ma'lum

bo'lmoqdaki, ba'zi mamlakatlarda millatni amalda birlashtira oladigan, muayyan davlat tarkibiga kirgan odamlar, elatlar, xalqlarni, ularning namoyondalarini o'ziga jalb eta oladigan g'oyalarni topish mashaqqatlarini boshlaridan kechirayotgan bo'lsalar, boshqalar umumbashariy maqsadlar va g'oyalarni milliy g'oya sifatida tasvirlashga intilmoqdalar.

Ma'lumki, bifurkatsiya hodisasiga ko'ra, hatto hayvonlar ham yashash uchun kurash jarayonida o'zlari uchun umumiy bo'lgan poda yoki gala fe'l-atvorini shakllantirib, birgalikda yashash va vahshiy hayvonlardan o'zlarini muhofaza etishga harakat qiladilar. Odamzot jamiyat bo'lib yashagandan boshlab umumiy fe'l-atvor va harakat birligini shakllantirish hayot-mamot masalasi bo'lib qolgan. Natijada individ avval urug' va qabila, so'ngra elat va xalq ichida o'zini bexavotir yashashi, g'animlariga qarshi kurashish imkoniyatiga ega bo'lgan. Sanoat inqilobidan so'ng milliy davlatlar vujudga kelib, muayyan millat shu doirada o'zligini anglab, o'z manfaatlarini yaxshiroq, izchilroq himoya qila olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada birinchi jahon urushi, ayniqsa ikkinchi jahon urushidan so'ng jahonda milliy-ozodlik harakatlari avj olib, qator milliy davlatlar vujudga keldi. Sovet davlatining qulashi oqibatida uning xarobalari ustida yana ko'pgina milliy davlatlar barpo bo'ldi va ko'pgina millatlar buyukdavlatchilik shovinizmi ta'siridan chiqib, o'z taqdirларini o'zlari belgilash huquqiga ega bo'ldilar.

Millat va millatchilik muammosi voqelikdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy o'zgarishlar bir-biri bilan tutashgan joyda vujudga keladi. Tom ma'noda milliy tillar shakllanishini kitob nashr etish miqyoslarining kengayishi, ommaviy axborot vositalari va ommaviy ta'lim rivoji bilan bog'lash mumkin. Millatchilik tarixan shakllangan milliy madaniyatni batamom o'zlashtirish, markazlashtirishga tayangan va har biri o'z davlati muhofazasiga olingan sotsial tashkillanishning chindanda yangi shakli natijasidir. Umuman millionlab odamlar nazarida millatchilik o'z jozibadorligini saqlab, shu ma'noda u milliy manfaatlarni anglab, uni himoya qilishga millatdoshlarni safarbar etuvchilik funksiyasini bajaradi. Millatchilik milliy buzuqlik, milliy mahdudlik tusiga kirs va bu jarayon mafkura orqali rag'batlantirilib borilsa, hozirgi tarixiy sharoitda unday millat jahon hamjamiyatidan ma'lum darajada ajrab qoladi va o'z taraqqiyotiga zavol bo'ladi. Bir tomondan, bozor iqtisodi munosabatlari, erkin savdo maydonlarining kengayishi

mamlakatlar integratsiyasi va yaqinlashuviga olib kelayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, u millatlar va etnik guruhlar o'rtasida muqarrar paydo bo'ladigan ziddiyatlar o'z qarama-qarshi tomoniga og'ib ketishiga ham rag'bat bo'lmoqda. Shunday qilib, millatchilik g'oyalari xalqlar ozodligi va milliy davlatlarni qaror toptirish uchun safarbar etuvchilik, ijodiy jasoratlar manbai bo'lish bilan birga, ayni chog'da u turli-tuman mojarolar, "sovuq" va "issiq" urushlar katalizatori sifatida ham o'zini namoyon etishi mumkin.

Hozirgi tarixiy sharoitda millatchilik milliy bag'rikenglik tusiga kirib, milliy birliklar timsoli sifatida hududiy hamjamiyatlar shakllanmoqda va milliy mahdudlik ruhi tobora chekinmoqda. Chunki odamzot uchun endilikda o'z gomeostazisini tor milliy qobiqda emas, balki milliy xususiyatlar saqlanishini kafolatlaydigan umumjahon birlashmalarida yaxshiroq, muqimroq saqlab qolish imkoniyati borligi ayon bo'lib bormoqda. Hozirgi dunyo paradoksi (mantiqsizligi) shuki, uning yorqin namoyon bo'lishi fonida bir millatli davlatning o'zi yo'q. Manba'lardan ma'lum bo'lishicha, lahjalarni hisobga olmaganda, dunyoda 8000 ta til mavjud. Milliy mafkurada milliy mutaassiblik ruhi yetakchilik qilgan milliy harakatlar ko'pincha o'z safarbar etuvchilik salohiyatidan mahrum bo'lib, milliy negizda avtoritar va totalitar tuzumlar qaror topib qolishi uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirib qo'ymoqda.

Shu o'rinda milliylik va millatchilik tushunchalari o'rtasidagi umumiylik bilan ayrimlik farqiga borishni ta'kidlash o'rinli. Milliylik ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi va u milliy mentalitetning shakllanishida muhim bir omil bo'lgani aniq. Millatchilik va uning g'oyasi keyingi asrlar mahsuli bo'lib, u milliy kalondimog'lik (shovinizm) va milliy mahdudlik (cheklanganlik)ning g'oyaviy asosi bo'lib kelgan. Qaysi millat yoki etnik guruh boshqa davlatlar yoki millatlar tomonidan kamsitilsa yoki haq-huquqlari poymol etilsa, o'shalarda millatchilik kayfiyati keng quloq otib, buning oqibatida qirg'inbarot urushlar kelib chiqqani tarixdan ma'lum.

Millatchilik tushunchasiga baho berganda, unga aniq tarixiy nuqtai nazardan yondashgan ma'qul, deb hisoblaymiz.

*Xulosa:* a) XX asrga kelib siyosatning global tus olishi kuchaydi; b) ushbu asr o'rtalaridan boshlab ikki qutbli dunyo vujudga kelib, tarafkashlik mafkurasi xalqlarni dahshatga soldi; d) asr so'ngida vujudga

kelgan g'oyaviy parokandalik odamlarda nochorlik, noaniqlik, umidsizlik ruhini kuchaytirmoqda; e) bunday sharoitda milliy g'oya va mafkuraga kuchli ijtimoiy ehtiyoj sezilmoqda.

*Kalit so'zlar:* mafkura funksiyalari, dushman obrazini yaratish, hukmron paradigma, mafkuraviy tamoyillar, marksizm, milliy sotsializm, liberalizm, katolitsizm, protestantsizm, islom, odamlar ongi uchun kurash, o'zaro ishonchsizlik ruhi, iqtisodiy o'sish, salb yurishi, noaniqlik va umidsizlik davri, sotsial ta'limotlar, yangi g'oyalar taqchilligi, iste'molchi odamlar shaxsi, postmodernizm, milliy bolshevizm, milliy fashizm, millatchilik, milliy bag'rikenglik, milliy mahdudlik, mantiqsizlik (paradoks).

### **Takrorlash uchun savolllar**

1. Davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar nega o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketmoqda?
2. Siyosat bilan mafkura o'rtasidagi dialektik aloqadorlik qanday namoyon bo'ladi?
3. Dushman obrazi yaratishda mafkuralarning o'rni va roli qanday bo'lgan?
4. Urush uni tashkil etuvchilar uchun nega zavol bo'lmoqda?
5. "Sovuq urush"da nega sobiq ittifoqi boshliq harbiy-siyosiy blok mag'lubiyatga uchradi?
6. Xayolatlardan mahrum bo'lish davri va uning oqibatlari nima?
7. Tadqiqotchilar G'arb ma'naviy madaniyati va uning istiqbollari haqida nima demoqdalar?
8. Nega barcha mamlakatlarda milliy g'oya va mafkuraga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda?
9. Milliylik va millatchilikka qanday munosabatda bo'lgan ma'kul?

### **IKKI QUTBLI DUNYODAN KO'P QUTBLI YAXLIT DUNYO SARI**

*"Sovuq urush" xotimasi natijasi va AQSh davlati geosiyosati.* "Sovuq urush" davri barham topib, ikki qutbli dunyo o'rniga ko'p qutbli dunyo vujudga kelgach, paydo bo'lgan yangi ijtimoiy, siyosiy muhitda yirik davlatlarning buyuklikka da'vosi munosabati bilan geosiyosatda jiddiy



o'zgarishlar sodir bo'lmayapti. Holbuki voqealarning rivoji "sovuq urush" davridagi qarashlar, andozalar bilan yangi reallikka yondashish o'zini-o'zi aldashdan boshqa narsa emasligini ko'rsatdi. Ma'lumki, sobiq sovet davlatini boshqarishga kelgan yosh avlod ichki tizimning yomonligi va tashqi siyosat barbod bo'lib borayotganini angladi. Berlin devorining qulashi aslida kommunizm g'oyasiga bo'lgan ishonchning barbod bo'lishidan darak berardi. Tarixdan ma'lumki, barcha imperiyalar tashqi kuchlar tazyiqi ostida emas, balki dastavval ichki ahvolning yomonlashib borishi tufayli qulagan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh boshliq G'arb davlatlari sobiq ittifoq boshliq "sotsialistik lager" davlatlariga qarshi "sovuq urush"ni boshlashgan bo'lsa, bu urushning tugashi uchun har ikki tomon o'z hissasini qo'shdi, zero, ular Noosfera davri talablarini mutlaqo e'tibordan soqit qilgan bo'lsalar-da, ammo yadroviy-kosmik asr voqeligi bilan hisoblashishga majbur edilar. Chunki jahon miqyosida yopirilib kelayotgan yalpi umumiy planetar xavf-xatar kuchlarni tarafkashlik tomonlarga parchalanib ketishni emas, balki birlashish, murosa yo'li bilan yaqinlashuvni taqozo etardi. Masalan, xolera, tif, hatto vabo kabi an'anaviy kasalliklarning milliy-davlatchilik chegaralari doirasida zarur chora-tadbirlar belgilab, oldini olib qolish mumkin edi. Ammo XX asr vabolari OITSni, ayniqsa radiatsiyani, ekologik ifloslanib borish baloqazolari milliy chegaralarni bilmas edi. Bu xatarlarning oldini faqat davlatlarning birgalikdagi faoliyatlari orqali olish mumkin edi.

Aslida olimlarning XX asrning 1-choragida yopirilib kelayotgan umumplanetar xavfni daf etishga davlatlariga o'sha davrdagi yirik davlatlarning siyosatchilari ko'zlarini ko'r, quloqlarini kar qilish bilan javob qaytarishmaganda, ya'ni Noosfera davri boshlangani va aql-idrokni buzg'unchilik, urushlar tomon burib yuborish o'rniga undan bunyodkorlik maqsadlari yo'lida foydalanish strategiyasini birgalikda ishlab chiqib, uni amalga oshirishga kirishganlarida, mehnat ahli peshona teri bilan to'plangan salohiyatdan vayronagarchiliklar uchun emas, balki Ona tabiat ifloslanishining oldini olib qolish, ma'naviy-axloqiy buzilishlar tufayli odamzotda hayvoniy xirslar rivojlanishi yo'llarini to'sib qo'yish mumkin bo'lar edi.

Biroq kech bo'lsa-da, yirik davlatlarning siyosiy arboblari yopirilib kelayotgan umumplanetar xavf-xatar borligini anglab yetdilar. Agar shunday bo'lmaganda, 60-yillar boshida uchinchi jahon urushi boshlanib

ketishi mumkin edi. Ammo mamlakatlar va xalqlar o'rtasida rivojlanib borayotgan tarafkashlik o'rnini o'zaro bir-birlariga bog'liqlik mayllari egallab borayotgandi. Barcha xalqlarning iqtisodiy, milliy va boshqa manfaatlarini umumbashariy manfaatlar yaxlit zanjiri bilan chambarchas bog'lanib ketayotganini anglash qiyin emas edi. Ana shuning uchun ham 1962-yildagi Karib dengizi krizisi AQSh bilan sobiq ittifoq rahbarlarining o'zaro murosa yo'lini tutishi bilan hal bo'ldi va aynan ana shu davrdan boshlab avvalo yirik davlatlar va jahon hamjamiyati "sovuq urush" yaxshilikka olib kelmasligini anglay boshladilar. Aslida bu tarix g'ildiragining insoniyat urushsiz yashash davriga kira boshlaganidan darak edi. Biroq oldinda katta sinovlar turganligini ko'pchilik his qilarmikan?

*Bir qutbli dunyo tartibotlari to'g'risidagi munozaralar.* Sobiq ittifoq davlati qulab, Varshava shartnomasi harbiy-siyosiy blok barham topgach, ikki qutbli dunyo tugadi. Shundan so'ng XXI asr AQSh asri bo'ladi, degan bashoratlar paydo bo'ldi. Darhaqiqat, bir qarashda bunday yondashuvlar asosidek bo'lib tuyuladi. Amerikaliklarning moddiy, mafkuraviy, ruhiy va geosiyosiy imkoniyatlari kattaligi shunday fikrlarni ilgari surishga va amerikacha turmush tarzi afzalliklarini ko'z-ko'z qilishga izn berardi. Masalaga jiddiy qaraladigan bo'lsa, muammolarga to'lib-toshgan bu xilma-xil madaniyatlar olamini biron-bir yoki bir necha yirik davlat boshqara olmasligi ayon bo'ladi. Shuning uchun ham XX asr Amerika asri bo'lgani va XXI asr ham shunday bo'lib qolishi to'g'risidagi g'oyalarning asosi puchdir. Chunki, birinchidan, XX asr aslo AQSh asri bo'lgan, deyish mumkin emas. Bu asr o'rtalarida SSSR degan imperiya AQShning ko'p masalalarda yon berishga majbur etgani ma'lum. Asrning oxirgi choragidan boshlab, G'arbiy Ovro'po davlatlari ham qaddi-qomatlarini tiklab oldilar, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlar jahon iqtisodi va siyosatida muhim o'rinni egallay boshlashdi.

XX asrning keyingi yillarida AQShning dunyodagi hodisalarni yakka-yolg'iz o'z nazoratiga olish imkoniyati cheklandi. To'g'ri, AQSh dunyodagi iqtisodiy va harbiy, siyosiy jihatdan eng qudratli davlat. Yer yuzidagi odamlarning ko'p avlodi uchun Amerika moddiy qiyinchiliklarsiz va siyosiy erksizliklardan qutilish yo'lini ko'rsatuvchi mash'al bo'lib ko'rinadi. Shimoliy Amerika juda katta hududlarni tezda o'zlashtirib olish, rivojlanayotgan ilg'or sanoat va qishloq xo'jaligiga

ega bo'lish, tarixda misli ko'rilmagan aholining aksariyati moddiy farovonligini ta'minlash, tezda jahon davlati maqomini olish – bularning barchasi jahon afkor ommasida amerikacha hayotga ixlosni oshirib yubordi. Ana shu asnoda, erk, demokratiya, moddiy farovonlik va'da qilgan Amerikaning alohida roli haqidagi g'oyalar o'rtaga tashlandi. Buning uchun jahon xalqlari amerikacha turmush tarzi qadriyatlarini qabul qilishga rozi bo'lishlari shart qilib qo'yildi. Ancha yillar AQSh bunday vazifani bajarib keldi. Biroq boshqa g'oyalar kabi bunday qarashlarning yuqori cho'qqisi "sovuq urush" yillari bo'ldi. Chunki antisovetizm va antikommunizm g'oyasini fosh etish, uning g'ayriinsoniy mohiyatini ko'rsatish davrlarida yuqoridagi fikrlar jahon xalqlarini o'z tomoniga og'dirib yuborishi nisbatan oson edi.

*Yangicha tartibotlar uchun kurash.* Darhaqiqat, deyarli yarim asr davomida antikomunizm AQSh ning nafaqat tashqi strategiyasi, balki ichki siyosiy kurashlarida ham yetakchi g'oya bo'ldi. "Sovuq urush" tugagach, Amerika jamoatchiligi e'tiborini tortib kelgan maqsadlar qolmagach, uning o'rnida bo'shliq va noaniqlik holati paydo bo'ldi. Zero, antikommunizm erk va demokratiya to'g'risidagi amerikacha qadriyatlarni qaror toptirish uchun qo'l kelar edi. Sovet jamiyati modelining asossizligi va u haqda gapirish ortiqcha ekanligi ayon bo'lgach, amerikacha modelning kamchiliklari yuzaga qalqib chiqib qoldi.

G'oyaviy-siyosiy va mafkuraviy sohada paydo bo'lgan noaniqlik va maqsadsizlik bo'shlig'ini to'ldirish uchun yangi dushman qidirish lozim bo'lib qoldi. Dastavval Yaponiya yomon otliqqa chiqarila boshlandi. Keyinroq esa qayta tiklanayotgan Rossiya, shuningdek, Xitoydan xavf-xatar borligi aytili. Shimoliy Koreya, Eron va Iroq xalqaro xavfsizlikka putur yetkazayotgani haqida jar solindi.

Bunday qarashlar asta-sekin rivojlanib borib, "Sovuq urush" o'rmini "Issiq urush" egallay boshladi. Ma'lumki, Afg'onistondan sobiq ittifoq qo'shinlari olib chiqib ketilgach, u yerda islom aqidaparastligi g'oyalaridan oziq olib shakllangan Tolibonlar deb atalgan harakat paydo bo'ldi. Hokimiyat uchun boshlangan fuqarolar urushida ular ustunlikka ega bo'lgach, qo'shni davlatlar va dunyodagi barcha demokratik kuchlarga qarshi yangi xavf-xatar o'chog'i paydo bo'layotgan edi. AQSh boshliq ittifoqchilar Tolibonlar harakatiga asosan barham berib, Afg'onistonda tinchliksevar davlat tartibotlari qaror topishi uchun yo'l

ochdi. Bu bir tomondan, AQSh nufuzini oshirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Islom dunyosida unga qarshi harakatlarni kuchaytirib yubordi. Bu o'rinda shuni aytish o'rinliki, Tolibonlar harakati O'zbekiston janubiy chegaralari uchun jiddiy xavf tug'dira boshlagan edi. Shuning uchun ham o'z strategik maqsadlarini nazarda tutib, O'zbekiston davlati AQSh ning Afg'onistonga nisbatan o'sha davrdagi siyosatini qo'llab-quvvatladi.

Ammo AQSh siyosatchilari yangi dushman obrazi yaratish orqali ichki barqarorlikka erishish yo'llarini davom ettirdilar. Nishonga Iroq olinishiga sabab, mamlakat Prezidenti Saddam Husainning Yaqin Sharqda Amerika manfaatlariga to'g'ri kelmaydigan siyosat olib borishi edi. Shuning uchun Iroq ommaviy qirg'in qurollari ishlab chiqarishga kirishdi, bu jahon hamjamiyati uchun juda xavfli, degan g'oyalar tarqatilib, Amerika grajdanlari nazarida Saddam Husain rejimi tarafdorlari timsolida dushman obrazi yaratilgach, u mamlakat bombardimon qilinib, Amerika boshliq ittifoqchilar Iroqni okkupatsiya qilib oldilar va o'zlariga muvofiq keladigan hukumatni u yerda o'rnatdilar.

Saddam Husain diktaturasiga barham berildi. Ammo Yaqin va O'rta Sharqda xavf-xatarga to'la vaziyat vujudga keldi. Endilikda Eron atom bombasi yaratib, jahonga xavf tug'dirayotgani haqidagi qarashlar AQSh va uning ittifoqchilarining mafkuralari orqali jahonga dahshatli axborotlarni tarqatmoqdalar. Eronning hozirgi davlati va hukumati timsolida dushman obrazi yaratish tobora keng tus olmoqda.

Shunday qilib, sobiq sovet davlati kabi davlatlar ustidagi davlatning barham topishi aslo bir qutbli dunyoni shakllantirmadi. Umuman davlatlar ustidagi davlat tushunchasi qadrsizlandi. Sovet imperiyasi o'zi bilan birga tarix arxivlariga faqat komunistik g'oyanigina emas, aftidan, amerikacha turmush tarzi g'oyasini ham olib kirib ketdi. Bugina emas, istiqbolda AQSh, G'arbiy Ovro'po va Yaponiya iqtisodiy markazi bo'lgan olam haqidagi fikrlar xam o'zining asosiga ega emas. "Sovuq urush" yillarida bu uch markaz o'rtasidagi mavjud ziddiyatlar endilikda yangi mezonlarda o'zini namoyon etmoqda. Bu dastavval dunyoning yangicha tartiblarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan hamda XIX va XX asr boshlaridan tubdan farq qiladigan siyosiy o'yinlarga dahldor gaplardir. Yuqoridagi fikrlar yaqin kelajakdagi AQSh ning jahon ishlaridagi salmog'i va ta'sirini aslo pastga urmasligi kerak. Tinchlik va xavfsizlikni mintaqaviy va global darajada saqlash Vashington belgilaydigan stretegiyaga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Biroq buni AQSh

yakka o'zi emas, balki u yangi jahon tartiblarini bir qancha tayanchlari bilan birgalikda hal etishga majbur bo'ladi.

## OVRO'PO INTEGRATSIYASI

*Yangicha geosiyosatga ehtiyoj.* Ikkinchi jahon urushiga qadar Ovro'po jahon siyosatining eng muhim markazi hisoblanib kelinardi. Biroq urushdan u nihoyatda ojiz bo'lib chiqdi va dastlabki o'n yilliklarda AQSh va sobiq ittifoq o'rtasidagi tarafkashlik maydoniga aylandi va uning tarixi Atlantika hamjamiyati tarixi tusini oldi. Ammo eski qit'a tobora o'zini rostlab bormoqda va istiqbolini Ovro'po mamlakatlari birligida ko'rmoqda. Ovro'po bemorligi va uning quyoshi so'nib borayotgani to'g'risidagi g'oyalarga qarshi Fransiya Tashqi aloqalar vaziri F.Dyuma bunday ruhiy tushkunlikka asos yo'qligini ta'kidladi. Zero, AQShning "qo'pol va noaniq" modeliga nisbatan Ovro'po modeli yuzaga keladigan muammolarni hal etishda o'z ustivorligiga egadir, dedi u. Darhaqiqat, Ovro'poliklar o'zlariga xos tafakkur va turmush tarzini saqlab qolgan holda, hozirgi olamda o'zining muhim o'rniga ega bo'lib oldi. Ovro'po xalqlari tarixiy taqdiri, qadriyatlar tizimi, moddiy meros va boshqalardagi umumiylik ularni birlashib harakat qilishlarini osonlashtirmoqda. Shuning oqibatida Ovro'po Ittifoqi yuzaga kelib, unga kirayotgan davlatlar soni yildan-yilga oshib borib, hududiy jihatdan tobora kengayib bormoqda. Shunisi taajjublanarliki, bunday ittifoq bir tomondan ayrim olingan mamlakatlar mustaqillik miqyoslarini qisqartirib qo'ysa, ikkinchi tomondan bunday mustaqillikni mustahkamlab qo'ymoqda. Urushdan keyingi o'n yillikda ham Ovro'po davlatlari AQSh geosiyosatining oddiy yugurdagi bo'lishdan o'zlarini saqlab keldilar. Keyingi 20-30 yilliklarda ular iqtisodiy va ijtimoiy-texnik salohiyatlarini oshirdilar va birlashuvchilik jarayonini chuqurlashtirdilar. Natijada Ovro'po xalqaro maydonda o'z mustaqil o'rni va so'ziga ega bo'lib qoldi. Buni AQSh Angliya bilan birga Iroqqa qarshi jazo urushini ochganligida yaqqol ko'rish mumkin bo'ldi. Fransiya va Germaniya kabi yiriq davlatlar AQShning bu siyosatiga qo'shilmadilar. Istiqbolda Ovro'po iqtisodiy, texnologik, xavfsizlik va boshqa masalalarda xalqaro maydonda o'z manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mustaqil siyosat olib borish

imkoniyatiga ega bo'lib qoldi. Endilikda Ovro'poning yangitdan tug'ilishi Ovro'pocha o'ziga xoslik, Ovro'pocha yangi dinamizm, Ovro'po Qo'shma Shtatlarini vujudga keltirish haqida gap boryapti.

Ovro'po siyosatini Ovro'polashtirish harakati natijasida NATO doirasida va undan tashqarida mudofaaning Ovro'pocha mezonlarini qaror toptirish mayli paydo bo'lib, Vashingtonning yakka hukmronligi ta'siridan chiqish to'g'risidagi fikrlar muqimlashib bormoqda. Ovro'poliklar "sovuq urush" davrida shakllangan ittifoqni qayta ko'rib chiqish masalasini o'rta tashlab, Rossiyani xotirjam qilish yo'lini tutishmoqda. Bunda G'arbiy Ovro'po ittifoqi rolini oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblamogdalar. G'OI doirasida tashqi siyosat va harbiy siyosat institutlarining shakllanishi va o'z funksiyalariga ega bo'lishi ayrim davlatlarning ittifoqqa kirgan barcha davlatlarning manfaatlariga zid alohida siyosat olib borishiga chek qo'ydi. AQShdan xoli bo'lgan G'arbiy Ovro'po umumiy yadro kuchlarini vujudga keltirish yo'lida dastlabki qadamlar qo'ymoqda. Bilaks, Ovro'po keksaygan, ammo qarimagan, deyish mumkin.

Jahonda AQSh iqtisodi panjalariga dahl qiladigan yangi iqtisodiy gigantlar, masalan, Ovro'po iqtisodiy ittifoqi, Germaniya, Yaponiya, Xitoy va nihoyat Rossiya kabi mamlakatlar ham o'z ta'sir doiralari va o'z ovozlari ega bo'lib bormogdalar. Osiyo-Tinch okean havzasi tobora katta kuch to'plamoqda. Bunday sharoitda o'rta va kichik davlatlarni o'z tomoniga og'dirib olish uchun raqobat kuchayishi tabiiy. Demak, o'rta va kichik davlatlar va mamlakatlarning ovozigam ham yirik davlatlar quloq solishgama majbur bo'lakilarki, endilikda bir, ikki qutbli dunyo emas, balki ko'p qutbli dunyo uchun maqbul geosiyosatgina ta'sirli bo'lishi mumkin.

*Xulosa:* a) "Sovuq urush" G'arb mamlakatlari foydasigama hal bo'ldi, ammo AQSh geosiyosatida jiddiy o'zgarishlar sezilmayapti; b) AQSh boshliq bir qutbli dunyoning vujudgama kelishi to'g'risidagi afsonalar o'z asosigama emas; d) yangichama jahon tartibotlari uchun kurash davom etmoqda; e) Ovro'po Qo'shma Shtatlarini shakllantirish jarayoni ketmoqda.

*Kalit so'zlar:* yadroviy-kosmik asr, planetar xavf-xatar, amerikachama turmush tarzi, noaniqlik vaziyati, Tolibonlar harakati, Ovro'po modeli, Ovro'po Qo'shma Shtatlari, o'rta va kichik davlatlar.

## Takrorlash uchun savollar

1. "Sovuq urush"ning tugashi oqibatlari qanday bo'ldi?
2. Nega "bir qutbli" dunyo vujudga kelmadi?
3. "Karib krizisi" nima va nega uchinchi jahon urushi boshlanmadi?
4. Keksa Ovro'po hali qarigan emas, deganda nima tushuniladi?
5. AQSh uchun dushman obrazi topish nima uchun kerak?
6. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovro'po nega tarafkashlik maydoniga aylandi?
7. Ovro'po ittifoqi davlatlarining geosiyosati nimaga qaratilgan?
8. Nega o'rta va kichik davlatlarni o'z tomoniga og'dirib olish uchun siyosiy raqobat ketyapti?
9. Nega AQSh geosiyosatida buyukdavlatchilik shovinizmi ustivor?

## URUSH INSON TABIATIGA ZID HOLAT SIFATIDA

*"Sovuq urush"dan keyingi mo'rti olam.* G'arbcha tafakkur tarzining mahsuli sifatida keng tarqalgan va mohiyat e'tibori ila urushlar muqarrar ijtimoiy hodisa degan g'oyani go'yoki "ilmiy" jihatdan asoslashga qaratilgan konsepsiyalar ilmiylikdan uzoqligini isbotlash nihoyatda muhimdir. Urushlar, mojarolar, janjallar odamzot tabiatining o'zidan kelib chiqadi, deb hisoblash odamni insonga aylantirish jarayoni sohasida to'plangan tarixiy tajribalarni bilmaslik oqibati ekanligini, Noosfera – Aql sohasi tantana qiladigan davrlar kelishi to'g'risidagi nuqtai nazarlarni asoslash davr talabidir.

XX asrdagi tarixda misli ko'rilmagan ikkita qirg'inbarot jahon urushi shuni ko'rsatdiki, bundan buyon urush davlatlararo va xalqaro ziddiyatlarni hal etish, qurolli kuchlar yordamida siyosiy maqsadlarga erishish vositasi bo'lmay qoldi. Urushga tayyorgarlik ko'rgan va uni tashkil etgan asosiy kuchlar o'z siyosiy maqsadlariga erishish u yoqda tursin, ular xalqaro maydonda sharmandayu sharmisor bo'ldilar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi boshlangan "sovuq urush"da Sovet davlati va uning asosiy ittifoqchilari mag'lubiyatga uchrab, AQSh boshliq harbiy-siyosiy guruh g'alaba qozongandek bo'lsa ham, ammo aslida dunyo yangi katta muammolar qarshisida yanada mo'rt bo'lib bormoqda.

Gap shundaki, yadroviy raketa qurollari ma'lum ma'noda siyosat va urush o'rtasidagi an'anaviy aloqalarni uzib, "sovuq urush" davrida u ikki tarafkash guruh davlatlarini tiyib turish vositasiga aylandi. Bunday

dahshatli ommaviy qirg'in qurollarning paydo bo'lishi va to'planishi urushlarni olib borish taktikasi va strategiyasini o'zgartirib yubordi; yashab qolish va Yer yuzini yo'qotib yuborishdan ehtiyot bo'lish instinktlarini kuchaytirdi. Ayni chog'da yadroviy qurollar davlat qudratini namoyon etuvchi, boshqalarni tiyib turuvchi omil bo'lib qoldiki, "sovuq urush"dan keyin qurol-aslaha ishlab chiqarish yanada ko'payib bormoqda.

"Sovuq urush" davridagi ikki qutbli dunyoda dushman aniq edi: NATO blokiga kirgan davlatlar uchun Varshava shartnomasidagi davlatlar guruhining barchasi dushman hisoblanar, aholiga va albatta, armiyaga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish oson edi. Ko'p qutbli dunyoda aniq-ravshan dushman qolmadi, ammo xavf-xatar yanada dahshatliroq tusga kirmoqda. AQSh siyosatshunosi S.Xantington XX asr mafkuralar to'qnashuvi asri bo'lgan esa, XXI asr sivilizatsiyalar yoki diniy to'qnashuvlar asri bo'ladi, degan fikrni ilgari surmoqda. "Sovuq urush"dan so'ng, deydi u, jahonda xalqlar o'rtasidagi eng muhim tafovut mafkuraviy, siyosiy yoki iqtisodiy sohada emas, balki madaniyat sohasiga o'tdi". Uning fikricha, asrlar davomida shakllangan tamaddunlarga xos madaniyatlar siyosiy mafkura va siyosiy rejimlardagi tafovutlardan ko'ra mustahkamroqdir. Dinlar etnik mansublikka nisbatan odamlarni kuchliroq ajratib yuboradi. Xantington sivilizatsiyalarni hind, islom, yapon, pravoslav, xitoy va G'arbga bo'ladi hamda Afrika va Lotin Amerikasi sivilizatsiyasini ham ularga qo'shib qo'yadi.

Marksizm-leninizm va liberalizmga o'xshash universal mafkuraviy tizimlardagi ma'naviy qadriyatlar va mezonlar qadrsizlanishi natijasida har bir tamaddun qadriyatlari ular o'rnini egallaydi deyishdan maqsad shuki, G'arb dunyosi uchun yangi dushman obrazini yaratish mamlakatlar ichida ham, xalqaro maydonda ham ular o'z mavqelarini mastahkamlash uchun kuchli g'oyaviy asos bo'ladi. Shu tariqa G'arb mamlakatlarining siyosatchilari va mafkurachilari urushlarning muqarrarligi, u odamzot tabiatidan kelib chiqishi to'g'risidagi o'z qarashlarini kuchli mafkuraviy vositalar orqali keng tarqatmoqdalar.

***Odami tabiatidagi zo'ravonlikning tarixiy ildizlari. G'arb\* mamlakatlarida urushlar, janjallar, mojarolar chiqishi odamzotning***

---

\* "G'arb" tushunchasiga Ovro'po mamlakatlaridan tashqari AQSh va Kanada ham kiradi.



biosotsiologik va psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqadi, binobarin, odam o'z biosotsial mohiyatini o'zgartirishi uchun qanchalik urunmasin, baribir, u insonga aylanib qolmaydi, chunki unday holatda o'zi odamlilik xususiyatini yo'qotadi, degan fikrlar keng tarqalgan. Chunki, ularning fikricha, antropogenez (odamning biologik jihatdan takomillashuvi) hali davom etmoqda.

Odamning kelib chiqishi va tarixiy takomili to'g'risida jiddiy tadqiqotlar olib borgan olimlarning ta'kidlashlaricha, kromonon tipidagi hozirgi odamlar tana tuzilishi va ruhiy olamini belgilaydigan fiziologik omillarda loaqal yana 25000 yil jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmaydi. Ya'ni, odamzot o'z hayvonlardek turmush tarzidan allaqachon vidolashgan.

U holda nega hech bir hayvon, masalan, sher, bo'ri, burgut va boshqa vahshiy hayvonlar o'z turini yemaydi, uni yalpi qirib tashlashdan o'zini tiyadi, ammo odamzot ming-minglab yillar davomida o'z turiga qarshi urush e'lon qilib, faqat bizga ma'lum bo'lgan tarixning keyingi 4 ming yili ichida bo'lib o'tgan urushlarda 6 milliarddan ortiq odamni, asosan yosh, navqiron yigitlarni qirib tashladi? Hatto sovuq urush yillarida (1946-1991-y.) ham 25-30 million odam urushlarda halok bo'ldi. Darhaqiqat, urush xuddi o'yin, ashula va salbiy his-tuyg'u (stress)larni tushirishga bo'lgan ishtiyoq kabi odamzot uchun tabiiymi? Urushlarsiz, mojarolarsiz odamzot yashay oladimi yoki urush muqarrarmi? Bu savollarga javob berish yoki javob topish juda mushkul. Ammo odam bundan buyon Yer deb atalgan tabiatda bir tur sifatida yashab qolishni istasa va tirik tabiatning o'zini ham butunlay yo'q qilib yuborish mayllari yo'lini to'sishga ahd qilsa, bundan buyon yuqoridagi savollarga javob qidirib topishadi. Albatta, yopirilib kelayotgan halokatning oldini olib qolish uchun birgalashib kurashishi, butun moddiy va ma'naviy resurslarni ishga solib, o'z tabiatidagi qusurlardan xoli bo'lishi, yashash uchun kurashda loaqal hayvonlardan ibrat olishi lozim.

Gap shundaki, antropogenez juda tahlikali muhitda sodir bo'ldi. Odamning dastlabki tiplari fiziologik jihatdan juda ojiz edi. Ular yashash uchun kurashda o'z ixtiyorlarida bo'lgan barcha vositalardan, jumladan, och qolganda o'z turi – odamni yeyishga ham majbur bo'lgan. Bu tarixda kannibalizm deb ataladi.\* Ajdodlarimiz g'orlar, daryo sohillarida oila-

---

\* Odam go'shtini yeyuvchi qabilalar Indoneziya orollarida hamda ayrim joylarda yashaydigan o'z insoniy qiyofasini yo'qotgan kishilar hamon uchraydi.

oila, gala-gala bo'lib yashagan kezlarda boshqa galalarga hujum qilib, ularning ovchilik maskanlarini egallab, o'zlarini o'ldirishgan yoki qul sifatida ishlatishgan. Million yillarni o'z ichiga oladigan bunday sharoitda odamzotning tafakkur tarzi shunday shakllanib qoldiki, hatto ular jamiyat bo'lib yashashga o'tgach ham bir xalq yoki millat yaxshiroq, farovonroq yashashi uchun go'yoki boshqa mamlakatlarni zabt etish, u yerdagi odamlardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish, yer osti va yer usti boyliklarini arzon garovga olish va bozorlaridan o'z tovar (mol)larini sotishda foydalanish uchun urushlar, mojarolar, janjallarni keltirib chiqarish zarurdek tuyuladi. Yashash tamoyiliga aylanib qolgan bunday yondashuvlar odam tabiatida o'zidan-o'zi kelib chiqmaydi, balki u o'zining uzoq tarixiga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Urushlarni, ayniqsa katta urushlarni tayyorlash va o'tkazish uchun juda ulkan moddiy resurslar hamda intellektual salohiyat kerak bo'ladi. Ammo bularning o'zi kifoya qilmaydi. Eng muhimi, hujumga mahkum etilgan mamlakat aholisi timsolida dahshatli dushman obrazi yaratib, armiya va fuqarolarda ma'lum vaqt davomida ularga nisbatan nafrat hislarini rivojlantirish uchun mafkura yordamida g'oyaviy ta'sir ko'rsatish zarur bo'ladi.

Ruhshunos va publitsist S.Kin shunday deydi: "Dastavval biz dushman obrazini yaratamiz. Obraz qurol-aslahadan xabardor etadi. Biz boshqalarni fikran o'ldiramiz. Shundan keyin jismoniy jihatdan o'ldirish uchun gurzi yoki ballistik raketalar ixtiro qilamiz. Texnologiya oldida tashviqot boradi" (Gadjiyev K.S. Vvedeniye v geopolitiku. 394-bet). Buning uchun, albatta, g'oyaviy nuqtai nazar va kuchli, ta'sirli mafkuraviy vositalar zarur. G'oyaviy jihatdan mustahkam bo'lgan kam sonli armiya g'oyaviy tayyorgarligi yetarli bo'lmagan ko'p sonli va yaxshi qurollangan armiya ustidan g'alaba qozonishi mumkinligi tarixdan ma'lum.

Urushsiz davrlar kelishi uchun avvalo siyosiy va harbiy arboblarning hamda mafkurachilarning tafakkur tarzini o'zgartirish lozim, shundan keyin odamzotning tabiati ham asta-sekin o'zgarib boradi. Biroq buning uchun uzoq yillar kerak bo'ladi. Chunki tafakkur tarzini o'zgartirishni quyidan – moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi va xalq ommasi deb ataluvchi qatlamdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Odamzot o'z turi (gomeostazisi)ni saqlab qolishi va insonlardek murosas bilan yashashga o'tishi uchun oilada, mehnat jamoalarida g'oyaviy ta'sir o'tkazishni

boshlash muhimdir. Chunki 7 yoshgacha bola ongiga kirgan va mustahkam o'rin olgan g'oyani chiqarib yuborish juda qiyin ekanligini fan isbotlagan.

Insoniyat har doim tinchlikda, xotirjamlikda, murosayu madora bilan yashashni qo'rsaydi, ammo shaxsiy, guruh, sinfiy, milliy manfaatlarni to'g'ri anglamaslik, ularni umuminsoniy manfaatlarga bo'ysundirib yashash malakasiga ega emaslik, ko'pincha o'zaro janjallar, mojarolar, urushlarni vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, odamzot tinchlikni har doim ham farovonlik omili, deb hisoblamaydi. Ba'zilar boshqalar ustidan hukmronlik qilishni (masalan, sherlar barcha boshqa turdagi jonivorlar ustidan hukmronlik qilgani kabi), yana bir guruhlar harbiy shon-shuhratni qo'rsab, boshqalari esa tiz cho'kib yashagandan ko'ra tik turib o'lishni afzal bilganliklari uchun urushadilar. Barcha asrlarda urushlarni madh etish, odamlarni urushga g'oyaviy jihatdan tayyorlash, uni romantikaga aylantirib qahramonlik, jasoratlilik namunasi etib ko'rsatish rusum bo'lgan. Chunki hayvonlar o'z turlarini avaylab-asrash, ehtiyot qilish o'z gomeostazisini saqlab qolishning birinchi va asosiy sharti ekanini instinktiv tarzda anglasalar, odamzot o'z turini emas, balki o'z elati, millati doirasida gomeostazisini saqlab qolishga intiladi. Mantiqsizlik shundaki, ilmiy-texnika inqilobi shitob ketayotgan, globallashuv jarayoni borayotgan bir davrda ham odamzot o'z turini e'zozlash, odam uchun odam eng oliy qadriyat ekanligini anglab yetmayapti. Chunki odamzot jamiyat bo'lib yashashga o'tgach, odob-axloq normalari, qonun-qoidalar asosida fe'l-atvor, xatti-harakat, faoliyat ko'rsatishga o'tib, hayvoniy instinktlarining ko'pidan mahrum bo'lib qoldi. Ammo uning jamiyatlashgan odam – inson bo'lib insonlardek yashashga o'tishi nihoyatda qiyin kechyapti.

Odamzot, uning mutafakkirlari, siyosatchilari demokratik tartiblarga o'tib yashash, ehtimol, urushlarning oldini olib qolar, degan umidda edilar. Biroq sobiq sovet ittifoqi, Yugoslaviya, Afrikadagi hodisalar bir tizimdan boshqasiga o'tish nihoyatda azobli holat ekanini ko'rsatdi. Avtoritar va totalitar tuzumlarni yo'qotish va demokratik izga tushish jamoalar va etnik guruhlar o'rtasida qonli mojarolarni keltirib chiqardi. Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Polsha va demokratiya tayanchlari bo'lgan boshqa mamlakatlarda etnik mojarolar va millatchilik tug'ilishi milliy davlatlar ham o'z fuqarolariga tinch yashash, hayotlari va mulklarini saqlash uchun ishonchli kafolat bo'la olmayotganliklarini

ko'rsatadi. Hatto ayrim davlatlar demokratiyani qaror toptirish shiorlari ostida qonli urushlar chiqarmoqdalarki, bu holatdan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

*Ijtimoiy mavjudot sifatida insonning asl mohiyati.* Ijtimoiy mavjudot sifatida inson tabiatan ezgulik oshuftasi, bunyodkor bir qudrat. Moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi, ya'ni tarix ijodkori bo'lgan xalq ommasi tinch-totuv yashashdan astoydil manfaatdordir. Zero, tinchlik sharoitidagina ular unumli mehnat qilib, o'z oilalarini boqish, farovon yashashlarini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Barcha mamlakatlar xalqlarining donishmand (faylasuf)lari har doim tinchlikni qadrlab, odamlarni murosayu madora bilan yashashga da'vat etib kelishlarining negizida mehnat ahlining tub manfaatleri yotadi. Har qanday odam, hatto qotil va janjalkash individning ham qalb to'rida qandaydir ezgulikka moyillik yotadi. Ana shu his-tuyg'uni qo'zg'atish, uyg'otish qiyin, ammo bunga erishish mumkin. Dinlar, xususan jahon dinlari tarixiy tajribalari shundan dalolat beradi. Diniy arboblar, ruhoniylar, diniy tashkilotlar odamlar ongini muayyan maqsadlar yo'lida boshqara oladilar. Diniy aqidalar, pand-nasihatlar kuchli, nihoyatda ta'sirli mafkura yordamida odamlar ongidan joy olib, ularning qahr-g'azabga to'lgan qalblarini yumshata oladi. Shundan keyin ularning xatti-harakatlarida o'z-o'zidan insoniy sifatlar namoyon bo'la boshlaydi. Ko'p odamlarni o'ldirgan, yovuzlikni kasb qilgan battol odamlarga diniy mafkura orqali ta'sir etib, ularni insof-diyonat yo'liga kiritish mumkin. Ana shu sababdan dindorlik odam tabiatidan kelib chiqadi. U ijtimoiy hodisa ekanini inkor etuvchilar ham bor. Shu nuqtai nazardan hozirgi muammolarni diniy yo'llar bilan hal etish mumkin, degan fikrlarga qo'shiluvchilar ko'payib bormoqda. Ko'zga ko'ringan olimlar ham shu fikrlarga qo'shilib, hatto qandaydir yangi din yaratish zarurati borligini isbotlamoqchi bo'ladilar. To'g'ri, diniy yo'l bilan odamlarga ruhiy ta'sir ko'rsatib, ulardagi tajovuzkorlik, zo'ravonlik, agressivlik, mol-mulka osonlikcha ega bo'lishga intilishlariga ma'lum darajada chek qo'yish mumkin. Biroq odamzot o'z xulosalarida adashmasligi uchun tarixiy xotiraga ega bo'lishi lozim. Tarixdan shu narsa ma'lumki, dinlar davlat dini maqomiga ega bo'lgan davrlarda ham hech bir mamlakatda uzoq muddatli tinchlik bo'lmagan. Chunki har bir din va diniy mazhabga ixlos qo'ygan odamlar uchun o'zga dindagilar dushman sifatida namoyon

bo'ladi. Bu odam tabiatidan emas, har bir jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlardan kelib chiqadi. Bir yo'nalishdagi diniy e'tiqod barqaror bo'lishi uchun boshqa dinlar yomonotliqqa chiqarilishi, ularga ishongan, ya'ni imon keltirganlarga g'ayridin, kofir degan tavqilanat ilib qo'yilishi shart. Tarixda diniy negizda juda ko'p nizolar, qonli urushlar kelib chiqqan faktlaridan ko'z yumush xatodir.

Odam qalbini insoniylashtirish, uning ruhini poklab, butun faoliyatini bunyodkorlik, yaratuvchilik tomonga burishda dinlarning imkoniyatidan foydalanish kerak. Ammo texnologik inqilob ketayotgan va odamzot endilikda tor etnik, milliy yoki diniy qobiqda faoliyat ko'rsatishga intilishi uning taqdiri uchun zavol bo'lishi mumkinligini anglab yetaveradi. Shu tufaylidan diniy omillar bilan birga madaniy-ma'rifiy omillarni ham jiddiy e'tiborga olib, odamzot ruhini poklash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish hozirgi zamon talabi bo'lib, har bir kishi ongidan joy olishi uchun mafkurani yangi izga solish, milliy mafkuralarda umumbashariy g'oyalarga keng o'rin berilishi maqsadga muvofiqdir.

*Aqlni oqilona yumushlarga burib yuborish muammosi.* Urushdan va qonli mojarolardan xoli dunyo eng aqlli-zakovatli kishilarning orzusi bo'lib kelgan. Bunga erishish yo'llarini qidirib, turli g'oyalarni ilgari surgan mutafakkirlar deyarli barcha mamlakatlarda bo'lgan va hozir ham ko'p uchraydi. Chunki bunday donishmand odamlar urush, janjallar odam tabiatidan emas, balki ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy munosabatlarning takomillashmaganidan deb biladilar. Bobokolonimiz Zardo'sht odamzot qalbida ikki ruh – ezgulik va yovuzlik ruhi mavjud bo'lib, Axuramazda (xudo) odamlarga ezgu amallar yo'lini ko'rsatsa, yovuzlikni tashuvchi Dev (Axrimon, ya'ni shayton) odamlarni yomon amallarga boshlab, ularning ruhini qashshoqlashtiradi, deb hisoblaydi. Shu ikkitasidan birini tanlab olish odamzot ixtiyorida bo'lib, Komil Aql egalari (A'lo odam) yovuzlikka qarshi beomon kurashlarda ezgulik timsoliga aylanishi mumkinligiga Zardo'sht Sepitamo e'tiborni qaratadi. Odamzot qalbida yovuzlikka nisbatan ezgulikka intilish mayli ustuvorligiga qattiq ishongan Zardo'sht qachonlardir dunyo miqyosida ezgulik qaror topib, odamlar o'zaro tinch, farovon yashash imkoniyatiga ega bo'lishlarini bashorat qilgan edi. U zoti boborokatning bu bashoratlari to'g'riligini Lotin Amerikasi kinorejissyorlari isbotlash uchun seriallar yaratib, yovuzlikka qarshi mislsiz kurashda ezgulik kuchlari g'olib kelishi

muqarrarligiga odamlarda ishonch va umid xislarini rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

Abu Nasr Forobiy – fozil va johil odamlar shahri misolida fozillar ko‘p bo‘lgan joyda johillarga o‘rin qolmasligini uqdirgan hamda fozil odamlar shahri hokimining 12 ta fazilatiga e‘tiborni qaratgan edi. Alisher Navoiy urushlarsiz mamlakatni adolatli podshohlar timsolida ko‘rib, bunday ideal shoh obrazini yaratishga harakat qilgandi. Nemis faylasufi I.Kant "Abadiy tinchlik" (1795-y.) loyihasida boshqarishning respublika shakli tinchlik davrini boshlab berishga ishongan edi. AQSh prezidenti V. Wilson birinchi jahon urushi oxirida demokratiya uchun dunyoni saqlash lozimligini aytgan.

To‘g‘ri, odamlar bilan odamlar, xalqlar bilan xalqlar, millatlar birlashmalari bilan millatlar birlashmalari o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘pincha yovuzlik va xasadgo‘ylik o‘zini yorqin namoyon etgani sababli, tadqiqotchilar sog‘lom kuchlarning oxir-oqibatda yovuzlik kuchlari ustidan g‘alaba qazonishlariga shubha bilan qaraydilar. Chunki ezgulik, yaxshilik inson ongida, his-tuyg‘ularida yovuzlik kabi ta‘sirchan iz qoldirmaydi. Shuning uchun ham kundalik hayotda yomon fe‘l-atvorli, yovuzlikka moyil odamlarga nisbatan halol-pok, saxiy, muruvvatpesha odamlarning ko‘pligini sezmay qolamiz. Aslida dunyomiz shu kunga qadar turgan, turmush qulayliklari yildan-yilga ko‘payib borayotgan ekan, demak, olamimiz ustuni ishonchli qo‘llarda deyishga asosimiz bor.

Noosfera davri ilgarigi davrlardan shu bilan tubdan farq qiladiki, endilikda nafaqat jamiyat, balki Ona tabiat ham qaysi yo‘nalishda rivojlanishi ko‘p jihatdan Aql sohibi inson va uning faoliyatiga bog‘liq bo‘lib qolgani aniq. Yangi texnologiyalardan yovuz niyatli ham, ezgu niyatli ham, totalitarizm tarafdorlari ham, demokratiya tarafdorlari ham, uyushgan jinoyatchilar ham, ularga qarshi kurashayotganlar ham birdek foydalanishlari mumkin. Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi ziddiyatlar o‘z vaqtida bartaraf etilmasa, ular o‘z qarama-qarshi tomoniga og‘ib ketishi ehtimoldan xoli emas.

An’anaviy turmush tarzining izdan chiqishi va yangi davrga monand turmush tarzining shakllanishi qiyin kechayotgani ma’naviyatning qashshoqlanishi va ba’zi odamlar ruhida yovuzlikka moyillik kuchayishiga, agressivlik, zo‘ravonlik ularning turmush kechirish tarziga aylanib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bugina emas, Kanada tadqiqotchisi T. Gomer-Diksonning fikricha, qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar,

o'rmonlar, suv va baliqchilik havzalari yaroqsiz holga kelishi iqlimning o'zgarishi va azon tashliklarining paydo bo'lishiga nisbatan ham oldindan aytish qiyin bo'lgan o'zgarishlarga olib keladi. Tabiiy resurslarning qashshoqlashishi fan va texnologiya rivoji hal qila olmaydigan juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi. Aholining tinimsiz o'sib borishi, qochoqlar va ishsizlarning ommaviy ko'chib yurishi, turli etnik, diniy, mintaqaviy va boshqa mojarolarni keltirib chiqarmoqda.

Endigi olamda geografik va hududiy omillar, o'z ahamiyatini yo'qotdiki, geosiyosatni belgilaydigan arboblardan bu yangi holatni e'tiborga olishlari zarur. Har bir oila, mahalla, tuman, shahar, viloyat va mamlakatda odamlar tinch-totuv, murosayu madora bilan yashash malakasini o'zlarida hosil etishlari uchun davlat va jamiyat tomonidan juda ko'p madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishlariga to'g'ri keladi. Milliy mafkuraning butun yo'nalishi insonlar qalbidagi ezgulik, bunyodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirishga, yovuzlikning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashga qaratilishi lozim. Buning uchun juda katta moddiy resurslar kerak bo'ladi. Shuning uchun ham dunyo miqyosida qurollanish poygasini amalda to'xtatish, jahon miqyosida har bir davlat harbiy soha uchun sarflayotgan yillik harajatlarini dastlabki qadam sifatida 10 foizga qisqartirib, u mablag'ni madaniy-ma'rifiy tadbirlarga sarflanishi maqsadga muvofiqdir. Har bir mamlakatda va butun dunyoda Aqlni oqilona ishlarga - bunyodkorlik, yaratuvchilikka burish uchun juda katta-katta ishlar, tadbirlar o'tkazishga to'g'ri keladi. Shu mo'rt olamimizni saqlab qolish uchun har bir odam, avvalo davlat va jamiyatni boshqarish sohasida ishlayotganlar qo'llaridan kelgan va o'zlariga bog'liq bo'lgan barcha ishlarni qilishni hayot ma'nosi, deb bilishlari zarur.

*Xulosa:* a) "Sovuq urush" tugagach, olamimiz xavf-xatardan xoli bo'lmadi; b) odam tabiatidagi zo'ravonlik, toshbag'irlik uning biologik mohiyatidan emas, balki tarixan shakllangan tafakkur tarzidan kelib chiqadi; d) ijtimoiy mavjudot sifatida insonda yovuzlikka nisbatan ezgulikka moyillik ustivordir; e) bugungi mo'rt olamimizni muqarrar halokatdan saqlab qolish uchun Aql va uning hosilasi – texnika va texnologiya muvaffaqiyatlaridan oqilona ishlar uchun foydalanish hayotiy zarurat bo'lib turibdi.

*Kalit so'zlar:* yadroviy raketa qurollari, tiyib turish, taktika, strategiya, instinkt, universal mafkuraviy tizimlar, biosotsial, psixofiziologik,

antropogenez, stress, tahlikali muhit, odam tabiati, intellektual (aqliy) salohiyat, demokratik tartiblar, ta'sirli mafkura, hasadgo'ylik, yangi texnologiya, madaniy-ma'rifiy tadbirlar.

### Takrorlash uchun savollar

1. Olamimiz "Sovuq urush" tugagach, nega yanada mo'rt bo'lib qoldi?
2. XXI asr madaniyatlar yoki diniy to'qnashuvlar asri bo'ladimi?
3. Urushlar odamzotning biosotsial mohiyatidan kelib chiqadimi?
4. Nega odamzot o'z gomeostazisi (turi)ni loaqal hayvonlardek qadrlamaydi?
5. Odam – odam uchun oliy qadriyat degan ruhni singdirish uchun nima qilish kerak?
6. Odamzotning tafakkur tarzida urushlarga, janjallarga moyillik ruhi rivojlanishi nimaga bog'liq?
7. Hozirgi dunyomizda dushman obrazini yaratishning qanday yo'llari, usullari, vositalari bor?
8. Urushsiz zamonlar kelishi mumkinmi?
9. Nega diniy yo'l bilan tinchlikni barqaror etish mumkin emas?
10. Aql-zakovatli kishilar nimani orzu qilganlar?

### JAHON SIYOSAT MAYDONIDA MARKAZIY OSIYO

*Milliy mustaqillik va mintaqaviy xavfsizlik masalasi.* Markaziy Osiyo davlatlari Ovro'po va Osiyo mamlakatlari oralig'ida joylashgan bo'lib, xalqaro maydonlarda juda ko'p davlatlar, ayniqsa yirik davlatlar bu mintaqaga alohida ahamiyat bilan giosiyosat belgilaydilar. O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan mintaqada davlatlari ularning olib borayotgan siyosatlarini hisobga oladi. Albatta, mustaqilliklarini mustahkamlash maqsadlaridan kelib chiqib, geosiyosat belgilashlari tabiiy holdir.

Odamzot o'z gomeostazisini saqlab qolish uchun birlashadi va shu jarayonda yashash uchun kurash olib borib, farovonlik va xavf-xatarsiz yashashga intiladi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, jahonda 8 mingta til va undan ham ko'proq lisoniy lahjalar bor. Hatto 200-300 kishidan iborat etnoslar ham borki, ularning tili, tarixan tarkib topgan madaniyati, urf-



odatlarining yo'qotilishiga umumbashariy ma'naviy mahrumlik sifatida yondashish lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir etnos, xalq, millatning mustaqilligi bu umuminsoniy ma'naviy madaniyatni saqlab qolish, shu bilan birga tenglar ichida teng yashashga tabiiy ehtiyoj sifatida qaralmog'i lozim. Noosfera davrida milliy munosabatlarga mana shunday yondashuv jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishi uchun kafolat bo'lishi mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari 1991-yilda mustaqillikka erishdilar. Ammo bungacha o'lkada milliy mustaqillik uchun juda jiddiy kurashlar, qurolli qarshilik ko'rsatishlar bo'lgani, vatanparvar, millatparvarlarning qonlari daryo bo'lib oqqaniga tarix shohid. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mustaqillik Markaziy Osiyo xalqlari uchun juda qimmatga tushgan. Binobarin, uni saqlab qolish, mintaqada barqaror tinchlik va xavfsizlik uchun kurashga hissa qo'shish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Ma'lumki, sobiq ittifoq qulagach, Markaziy Osiyoda o'ziga xos geosiyosiy bo'shliq paydo bo'ldi. Shu paytlarda AQSh, Rossiya, Ovro'po davlatlarining bu mintaqaga nisbatan aniq siyosiy doktrinasini yo'q edi. Natijada bu mintaqada Turkiya, Eron, Xitoy kabi davlatlarning ta'siri kuchayib bordi. Arab-musulmon olamidagi rasmiy va norasmiy tashkilotlarning g'oyaviy ta'sir o'tkazish yo'lidagi sa'y-harakatlari ham beiz qolmayotgan edi. Ayniqsa, XX asr 80-yillarining o'rtalaridan musulmonchilikni targ'ib qiluvchi rag'batchilar islom aqidaparastligi g'oyalarini avom xalq orasida keng yoyishga kirishdilar. Ular Tojikistonda ma'lum darajada o'z maqsadlariga erishib, u yerda Islom davlatini o'rnatish siyosiy harakatini vujudga keltirish uchun fuqarolar urushini boshlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Xalqaro xavfsizlikning qat'iy tuzilmasi shakllanmaganligi sababli, mintaqada sobiq sovet davrida yetilib qolgan ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketishi uchun shu tariqa sharoit vujudga keladi. Farg'ona va O'shdagi xunrezliklar shundan dalolat berardi. Chunki bolsheviklar bu o'lka xalqlari orasiga raxna solish oson bo'lishi uchun tarixan og'a-inilardek yashashga intilib kelgan xalqlarni sun'iy ravishda beshta qo'g'irchoq davlatga bo'lib yuborishga muvaffaq bo'lgandilar.

Bu esa hududiy mojarolar chiqarishni osonlashtirib qo'ygan edi. Shunday qilib milliy mustaqillikni mustahkamlash va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash dolzarb masala bo'lib qoldi.

*Markaziy Osiyo mintaqasi va yirik davlatlar geosiyosati.* Umuman, xorijiy davlatlar, ayniqsa yirik davlatlar Markaziy Osiyoda "orani buz-u, hukmroklik qil" tamoyiliga asoslanib, geosiyosat olib borishlari, muvaffaqiyat qozonishlari uchun qulay sharoit mavjud edi. Ayniqsa qo'shni Afg'onistondagi voqealar tobora tahlikali tus olayotgan edi. Chet eldan juda katta moliyaviy yordam olib turgan hamda giyohvandlik savdosidan behisob foyda olayotgan Tolibonlar harakati kuchayib bormoqda edi. O'rta asrchilik tartibotlarini o'rnatishga qaratilgan Tolibonlar harakati qo'liga hokimiyat o'tkudek bo'lsa, Markaziy Osiyo doimiy tahlika ostida qolishi aniq edi. Buning ustiga Markaziy Osiyo chegaralarining himoyasi mo'rtligi tufayli giyohvandlik va boshqa yashirin savdolar kuchaydi. VICH infeksiyasining yoyilishi real xavf tug'dirib, u Rossiya va G'arbiy Ovro'po mamlakatlariga ham tarqala boshladi.

Mintaqaning yer osti va yer usti boyliklari ko'pligi, arzon xom ashyo va ishchi kuchiga hamda katta ichki bozorga egaligi, albatta, barcha davlatlar, ayniqsa yirik davlatlarni qiziqitirmay iloji yo'q. Natijada bu yerda Rossiya yo'qota boshlagan o'z ta'sirini tiklash uchun faol geosiyosat yurgiza boshladi. 2001 yilda AQShda sodir etilgan yirik terrorchilikdan so'ng, Amerikaning bu mintaqaga e'tibori yanada kuchaydi. Markaziy Osiyo (bu tushunchaga endilikda Afg'oniston ham kiritilmoqda) AQSh, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, shuningdek, Ovro'po Ittifoqi davlatlari geosiyosatida alohida o'ringa ega bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyo geostrategik jihatdan ikki yirik qit'a – Ovro'po va Osiyo o'rtasiga joylashgani geostrategik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham turli davlatlarning manfaatlari bu yerda o'zaro chatishib ketadi. Masalan, Kaspiy dengizi va uning atrofidagi neft zahiralarning ko'pligi davlatlarni qiziqitirmay iloji yo'q. Nisbatan arzon neft va gaz ishlab chiqarish uchun transportirovka qilish ishlarida qatnashib, katta foyda olish imkoniyatlari bor. Ayniqsa, neft qazib olib, chetga chiqarish bo'yicha Qozog'iston salmoqli o'ringa ega. Shuning uchun ham AQSh bilan Qozog'iston o'rtasida energetik hamkorlik bo'yicha ikki tomonlama komissiya tuzildi. Turkmaniston o'z tabiiy gazini eksport qilish bo'yicha Rossiya bilan 25 yillik shartnomaga imzo chekdi.

Keyingi yillarda Xitoy, Yaponiya va Koreya respublikasi manfaatlari Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kuchaytirishni taqozo etdi. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash ehtiyojlari Markaziy Osiyo davlatlari bilan Xitoy va Rossiya o'rtasida hamkorlikni

kuchaytirib, Shanxay hamkorlik tashkiloti tuzilishiga olib keldi. Iqtisodiy aloqalarni kengaytirish manfaatlari Yevroosiyo ittifoqini shakllantirdiki, hozir unga Rossiya, Belorusiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, keyinchalik O‘zbekiston ham kirgan bu tashkilotning kelajagi borligidan darak beradi. Delaver universiteti professori Sergey Lopatnikovning fikricha, Rossiyani Markaziy Osiyodan siqib chiqarish siyosati Vashington yo‘l qo‘ygan jiddiy xato bo‘ldi. Natijada mintaqa respublikalarining Rossiya federatsiyasi atrofiga birlashish mayli kuchaydi.

*Markaziy Osiyo davlatlari geosiyosatining asosiy yo‘nalishlari.* Hozirgi zamonda globallashuv jarayoni Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-madaniy, axborot-mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olmoqda. Bu mayl, bir tomondan, barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun har tomonlama rivojlanish imkoniyatini tug‘dirsa, ikkinchi tomondan, ularning xavfsizligiga muayyan darajada putur yetkazishi ham mumkin.

Markaziy Osiyoning madaniy-tamadduniy xususiyati uning geografik joylashuvi bilan qo‘shilib, Yevraziya maydonida uning alohida geosiyosiy maqomga ega qiladi. Zero, bu mintaqa atrofida yadro quroliga ega 4 ta davlat (Rossiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston) bor hamda jahonning kuchli markazlari manfaatlari chatishib ketgan. Markaziy Osiyo o‘z mohiyati jihatidan har doim geosiyosiy ahamiyat kasb etib kelgan, ammo hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida ularning roli va mavqei yanada oshib bormoqda. Xususan 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan keyin Markaziy Osiyo jahon hamjamiyati e‘tiborining markazida turib qoldi. Bu yalpi umumiy xavf-xatar xalqaro maydondagi kuchlarni birlashtirishi kerak edi, ammo vaqt o‘tgan sayin yirik davlatlar geosiyosatida eskicha turg‘un fikrlar qaror topib, mintaqa vaziyatiga o‘z salbiy ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Bu hol Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning geosiyosati mintaqa xalqlari birligi, hamkorligi uchun kurashga birinchi darajali ahamiyat berishni taqozo etmoqda. Turonzamin tosh bitiklarida kelajak avlodga qarata yozilgan falsafiy fikrlar bugungi voqelik uchun yanada dolzarblik kasb etmoqda. Ya‘ni, o‘sha tarixiy bitiklarda, ushbu maskan elatlari birlashsalar, qudratli bo‘ladilar va boshqalarga qul bo‘lmaydilar, aks holda, ya‘ni g‘oyaviy parokandalik sharoitida g‘animlarga tiz cho‘kib, ularning xizmatkorlariga aylanadilar, deyilgani ma‘lum.

Yirik davlatlarning bu joydagi manfaatlari uyg'unlashuvi ham tarafkashlikni kuchaytirib yuborishi mumkin. Mabodo ularning geosiyosatida eskicha andozalar ustuvorlik qilib qolguday bo'lsa, mintaqadagi barcha xalqlarning milliy mustaqilligi xavf ostida qolib, boshqa davlatlar ta'siri bo'yicha parchalanib ketishi va davlatlar o'rtasidagi "qalqon zona"lar vujudga kelishi ham mumkin. Demak, Markaziy Osiyo davlatlari o'z geosiyosatlarida bu holatni e'tibordan soqit qilishga aslo haqlari yo'q. Ularning barisi tarix oldida, kelajak avlodlar taqdiri oldida katta mas'uliyatli ekanliklarini doimo yodda tutishlari zarur. To'g'ri, yirik davlatlar geosiyosati, ya'ni voqelikka muvofiq shakllanishi uchun BMT, NATO, OBSE, SHOS, ODKB, YevrAzES, YeEP kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar o'z ta'sirlarini ko'rsatishlari mumkin. Ammo ushbu institut mexanizmlar faoliyatini tahlil etish shundan dalolat berib turibdiki, ularning ba'zilari yirik davlatlarning tarafkashlik siyosatini o'tkazish quroliga aylanib qolmoqdalar. Bu hol mintaqaviy hamkorlik ishlarini qiyinlashtirib qo'yishi aniq.

Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari har qanday shakl-shamoyildagi ixtiloflarni bir chekkaga qo'yib, yana yirik davlatlar siyosiy o'yinlarining yugurdagiga aylanib qolmasliklari uchun kuchlarini birlashtirishlari tarixiy zarurat bo'lib turibdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari strategiyasida quyidagi yo'nalish mavjud: a) mustaqillikni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan butun choralar bilan mustahkamlash; b) mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash; d) bozor munosabatlari va demokratik islohatlarni izchillik bilan amalga oshirish; e) mintaqaviy hamkorlikka birinchi darajali ahamiyat berish.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, mintaqada hozirgidek chegaralar tarixda bo'lmagan. Turkiston uchta davlatga bo'linib ketgan davrlarda ham iqtisodiy, savdo-sotiq va ma'daniy aloqalar uchun chegaralar deyarli ochiq bo'lgan. Biroq hozirgi vaqtda mintaqada davlatlari o'rtasidagi hamkorlik, hamjihatlikka ma'lum darajada putur yetgani sababli, suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati cheklanib qolyapti, ekologik vaziyatga putur yetyapti. Hududiy va chegaraviy muammolar paydo bo'lib, natijada demokratik jarayonlar rivoji yo'lida sun'iy to'siqlar paydo bo'lmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, demokratiya konsepsiyasi o'rniga mintaqaviy birlashtiruvchilik

demokratiyaga qaratilgan geosiyosat yurgizish ma'qul ko'rinmoqda. Bu yo'lga dastlabki qadamlar qo'yilmoqda, istiqbolda ushbu odimlar izchilligi ta'minlanishiga umid bog'lash mumkin.

*Mustaqil O'zbekiston davlatining geosiyosati.* Falsafa fani nuqtai nazaridan olamdagi barcha narsa, hodisa, jarayonlar o'zaro aloqada, bir-biriga ta'sir o'tkazishda, bir holatdan boshqa holatga o'tib turadi. Dunyoda bir nuqtada qotib qoladigan, o'zgarimas narsalar yo'q. Shu nuqtai nazardan davlatlarning geosiyosati ham voqelikdagi o'zgarishlarga mutanosib tarzda o'zgarib boradi. Muayyan davlatning tashqi siyosiy yo'nalishi avvalo o'z mamlakati oldiga qo'ygan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-marifiy maqsadlar bilan belgilanadi. Ya'ni tashqi siyosiy va geostrategik maqsadlar mamlakat aholisining tinchlik va xavfsizlik sharoitida bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishi kerak.

Islom Karimov boshchilik qilayotgan mustaqil O'zbekiston davlatining geosiyosati jahondagi hamma davlatlar bilan teng huquqli, barcha turdagi aloqalar o'rnatish va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgandir. U geosiyosat istiqbolda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rniga ega bo'lishi, tenglar ichida teng va erkin faoliyat ko'rsatishi, istiqbolda porloq, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga qaratilgandir. Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston davlati tashqi siyosati tamoyillarini quyidagicha izohlaydi:

Birinchidan, o'zining milliy davlat manfaatlari ustun bo'lgani holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O'zbekiston yana kimgadir bo'ysunish uchun mustaqil bo'lgani yo'q.

Ikkinchidan, respublika odamlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo'yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun harakat qiladi. O'zbekiston yadrosiz hudud bo'lib qoladi, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaydi.

Uchinchidan, respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik

qoidalari asosida quriladi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligida, bugun tashqi siyosatda ham bizning shiorimiz – tenglar orasida teng bo'lish, "katta og'a"ning qosh-qavog'iga qarab ish tutishdan uzil-kesil va abadul-abad xalos bo'lishdir.

To'rtinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar, tashqi siyosatda ochiq-oydinlik tamoyilini ro'yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatishga intiladi.

Beshinchidan, o'zining milliy-huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan mustaqil O'zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro me'yorlarning ustuvorligini tan oladi. Bizning mustaqil davlatimiz o'z qiyofasini yo'qotmay, jahon hamjamiyatiga kirar ekan, xalqaro talablarga rioya qilishga tayyordir.

Oltinchidan, O'zbekiston to'la ishonch tamoyillari asosida ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish uchun, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun harakat qiladi.

Shu tamoyillardan kelib chiqib, O'zbekiston davlati MDH tarkibiga kirgan davlatlar, Markaziy Osiyo hamda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi davlatlari, Arab davlatlari, Janubiy-Osiyo davlatlari, G'arbiy, Markaziy va Sharqiy Ovro'po davlatlari, Rossiya, AQSh davlatlari bilan hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatdorlik asosidagi aloqalarni rivojlantirishga intilmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni saqlab qolish, Tojikiston va Afg'onistondagi fuqarolar urushiga barham berish uchun faol siyosat yurgizdi. Xalqaro terrorism, diniy ekstremizm va narkobiznesga qarshi kurashning oldingi saflarida bormoqda.

*Xulosa:* a) Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash bu o'lkadagi barcha davlatlar milliy mustaqilligi uchun kafolatdir; b) yirik davlatlar mafkuraviy yo'llar bilan Markaziy Osiyo davlatlarini o'z ta'sirlariga olishdan manfaatdordir; v) Markaziy Osiyo davlatlari geosiyosatida mustaqillikni mustahkamlash, mintaqaviy barqarorlikka erishish, demokratik islohotlarni amalga oshirish, mintaqaviy hamkorlikka birinchi darajali ahamiyat berish ustivor yo'nalish bo'lishi lozim; g) O'zbekiston davlati olti tamoyilga asoslanib, o'z geosiyosatini amalga oshirmoqda.

*Kalit so'zlar:* Markaziy Osiyo mintaqasi, etnos, islom aqidaparastligi, fuqarolar urushi, VICH infeksiyasi, giyohvandlik, geostrategiya,

Yevroosiyo ittifoqi, suv resurslari, mintaqaviy birlashish, institutual mexanizmlar, Shanxay hamkorlik tashkiloti, "qalqon zona", O'zbekiston davlatining geosiyosati.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Markaziy Osiyo qanday mintaqada joylashgan?
2. Har bir etnos madaniyatiga qanday munosabatda bo'lgan ma'qul?
3. Sobiq ittifoq qulagach, Markaziy Osiyoda nega geosiyosiy bo'shliq paydo bo'ldi?
4. "Orani buz-u, hukmronlik qil" tamoyili nimani anglatadi?
5. Nega yirik davlatlar Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqib qaraydilar?
6. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi samarali kurash olib borish nimani taqozo etmoqda?
7. Jahonda ketayotgan globallashuv jarayonining Markaziy Osiyoga qanday ta'siri bor?
8. "Tosh bitiklari" nimani eslatadi?
9. O'zbekiston davlatining geosiyosati qanday asoslarga ega?

## MAFKURA

### MAFKURA FALSAFIY YO'NALISHDAGI FAN SIFATIDA

#### *Falsafa bilan tabiiy fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va ta'sir.*

Falsafa har bir jamiyatdagi donishmand, dono odamlarning fikrlari, g'oyalari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va muayyan dunyoqarashlari sifatida tarixan ijtimoiy hayotning ilk davrlaridayoq paydo bo'lgan nodir hodisadir. Mafkuraviy hayot tufayli odamlar jamiyat bo'lib yashash, muayyan manfaatlar doirasida umumiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun birlashib mehnat qilish va kurashish imkoniyatiga ega bo'lganlar, shu jarayonda ulardagi hayvoniy instinktlarning ko'pchiligi o'rnini odob-axloq me'yorlari egallaydi. Ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyati kengayib bordi. Ijtimoiy hayot talablari taqozosi falsafiy fikrlar rivojlanib, fanning qator yo'nalishlari paydo bo'ldi va takomillashdi. Ayni paytda muayyan dunyoqarash va ijtimoiy-siyosiy qarashlarni odamlar ongiga singdirish, ularni imon-e'tiqodga hamda etnoslarning maslagiga aylantirish vositasi sifatida mafkura shakllandi. Odamlarning jamoa va jamiyat bo'lib yashashlari uchun muayyan dunyoqarash bilan o'zviy bog'liq holda ma'naviyat qaror topishi, muayyan ma'naviy-axloqiy qarashlar qadriyatga aylanishi shart. Ammo ma'lum bir yo'nalishda ma'naviyat va qadriyatlar tizimi jamiyatda barqaror bo'lishi uchun muayyan Bosh va Asosiy g'oyalar bo'lishi lozim. Ular individlar ongiga singishi va xalq ommasi maslagiga aylanishi uchun mafkuraviy ijtimoiy institutlar, ta'sir o'tkazish vositalari, shakllari, usul-uslublari mavjud. Har qanday mafkura tarixan uchta unsurdan iborat bir butunlikda o'z ta'sirini o'tkazib keladi: a) Bosh va Asosiy g'oyalar asosida hayot ma'nosi va turmush tarzini belgilayotganlarni jamiyat va davlat tomonidan rag'batlantirib borish; b) bu g'oyalarga qo'shilmagan va unga qarshi turganlarga nisbatan jamoatchilik nafratini qo'zg'otish; v) mafkuraviy ijtimoiy institutlar (oilalar, istiqomat joy – mahalla, o'quv va mehnat



jamoalari, davlat va nodavlat tashkilotlari), siyosiy partiyalar, ijtimoiy uyushmalar madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishlari uchun yetarli moddiy va moliyaviy resurslarga ega bo'lishlari zarur.

Falsafiy fikrlar rivoji tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnikashunoslik fanlarining tarixan vujudga kelishi va takomillashuvi uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi. Ayni chog'da u dunyoqarashlik funksiyasini ham bajarib keldi. O'z genezisi va rivojining tarixi davomida falsafiy bilimlar mazmun jihatidan tabiiy bilimlar bilan omuxta bo'lib ketdi. Ularning tarkibida tabiiy fanlar ma'lumotlari, tushunchalari, kategoriyalari, qonunlarining mavjud bo'lishi falsafani ilmiy asoslarini kuchaytirdi. Uning fan darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Tabiiy fanlar ravnaqi texnikashunoslik fanlarining yuzaga kelishi va ravnaq topishiga olib keldi.

Falsafa negizida qator fanlarning tarixan shakllanishi uni "fanlar fani", "fanlar onasi" maqomiga ko'tardi. Bunday qarashlar tarixan jamiyatda falsafa qadrini oshirish, unga qiziqishlarni kuchaytirdi. Shuning uchun ham antik davrda va arab-musulmon olamidagi Uyg'onish davrida yashagan olimlar ko'p jihatdan qomusiy mutafakkirlar hisoblanib, ularda falsafiy fikrlar, tabiiy-ilmiy qarashlar bilan birgalikda namoyon bo'lganiga shohidimiz.

Agar gorizontalar tarzda falsafa fanga mansub bo'lsa, vertikal tarzda u mafkura bilan bog'lanib ketadi. Falsafa jamiyat ma'naviy hayotining "vertikali" va "gorizontali" kesishuvi nuqtasida turib, bu fanlarning umumiy xulosalari, qoidalari, tamoyillari negizida ilmiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi. Olam va unda odamning o'rni to'g'risida dinlar ham o'ziga xos dunyoqarash tizimini yaratadi. Bu dunyoqarashni tarixning qaltis sinovlaridan o'tgan ta'sirli mafkuraviy vositalar orqali individlarning imoni va e'tiqodiga, xalq ommasining maslagiga aylantiradi. Falsafiy dunyoqarash olam, unda odamning o'rni to'g'risida tabiatshunoslik, texnikashunoslik, jamiyatshunoslik, insonshunoslik fanlarining dalillariga tayanadi, shu ma'noda u fan sifatida o'zini namoyon qiladi.

Falsafaning gorizontalar sohadagi xususiyati faqat uning predmetiga munosabatlardagi xilma-xil qarashlarga sabab bo'ladi. Ayni chog'da uning mafkuraga daxldorligida ham o'zini namoyon qiladi. Falsafa fanining predmeti masalasi hozirgacha bahsli bo'lib turibdi. Ma'naviy nodir hodisa sifatida falsafaning vertikal safdagi xususiyati shuki,

subyektning voqelikni in'ikos ettirish vositasi sifatida u siyosat va mafkura bilan bog'lanib, ular uchun nazariy asos bo'ladi. Binobarin, o'zining ilmiy salohiyati hamda tarixan shakllangan boy kategorial va tushunchaviy bazasi tufayli falsafa endilikda mustaqil fan holatiga kelganligi bilan qadrlidir. Shu ma'noda uni "fanlar fani" deyish ilmiylikdan o'zoqlashish, falsafa fanlar tizimidagi mustaqil fan ekanligini tan olmaslikka sabab bo'lib, noto'g'ri, noilmiy qarashlarni tarkib toptiradi.

Falsafa fan sifatida olam, uning vujudga kelishi, tabiiy-tarixiy rivoji, harakat tufayli notirik va tirik tabiat hamda odamzotning o'z-o'zidan vujudga kelgani, jamiyat o'zini-o'zi tashkil qiluvchi va boshqaruvchi tizim ekanligini boshqa fanlar dalillariga suyangan holda isbotlaydi. Shu ma'noda muayyan subyekt (individ, jamoa, davlat, ijtimoiy-siyosiy harakatlar va h.k.) manfaatlarini eng ko'p va ishonchli darajada ifodalaydi. Binobarin, falsafiy yunalishda tarkib topadigan mafkuragina ilmiylikka yaqinlashadi va shunda milliy, sinfiy, diniy, irqiy va boshqa negizlarda muqarrar chiqadigan ziddiyatlarni payqab olish, ularni o'z vaqtida hal etib, har bir jamiyatda va butun dunyoda odamning inson (jamiyatlashgan individ)ga aylanish jarayonini tezlashtiradi. Ayni chog'da inson aql-zakovati va uning mevasi bo'lgan fan-texnika va texnologiya muvaffaqiyatlaridan faqat bunyodkorlik, ezgulik uchun foydalanish yo'llarini ko'rsatadi, unga erishishning vositalarini aniqlaydi.

***Falsafaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.*** Ma'lumki, ilmiylik obyektivlik (xolislik), ratsionallik (aqlga muvofiq dalillash), alohida tizimga solinganlilik, amaliyotda tekshirish tamoyillariga asoslanadi. Falsafa fan sifatida bu tamoyillarga qat'i amal qiladi. Tarixiy jarayonlarning har bir burilishi falsafiy fikrlarning turli tomonga og'ishi bilan o'ziga xoslik baxsh etadi. Falsafiy fikrlar, g'oyalar nisbatan ilmiy-dunyoviy yo'nalish olgan davrlarda barcha tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar ham rivojlanib, jamiyat taraqqiyoti sur'atlari tezlashgan, xalq farovonligi nisbatan oshgan. Ijtimoiy-siyosiy sohalarda erkin fikr yuritish imkoniyati kengaygan, shaxslarda ijtimoiy faollik sezilarli darajada oshgan. Falsafiy fikrlar rivoji yo'liga g'oyaviy to'siqlar qo'yilgan davrlarda ijtimoiy hayotda turg'unlik mayllari kuchaygan, bu hol ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda turg'unlik, hatto orqaga ketishlar sodir bo'lganiga tarix shohid. Shuning uchun ham tarixiy burilish

davrlarida falsafaga munosabat jiddiy tus olgan. Unga munosabatda turli nuqtai nazarlar ilgari surilgan. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgach, aytish mumkinki, ba'zi olimlar tomonidan unga munosabat salbiy tomonga qarab o'zgardi. Chunki ular falsafaning ijtimoiy jihatlariga asosiy e'tiborni berib, uni sobiq sovet davri mafkurasi bilan aynanlashtirdilar. Tarixan falsafiy yo'nalishlar, maktablar xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'lgan. Bundan bizning davrimiz ham mustasno emas. Masalan, siyosat falsafasi, huquq falsafasi, diniy falsafa, milliy falsafa kabi yo'nalishlarda tadqiqot olib boruvchi, albatta, ilmiylik tamoyillariga yetarli darajada amal qila olmaydi. Chunki tadqiqot mazmun-mohiyati bu tamoyillarni taqozo etmaydi. Siyosat falsafasi yo'nalishida tadqiqot olib boruvchi ma'lum bir davrdagi siyosatni yo ma'qullashi yoki uni yomonotliqqa chiqarishi kerak bo'ladi. Diniy falsafa doirasida fikr yurituvchi ma'lum bir din aqidalarini haqiqatning oliy nuqtasi etib ko'rsatishga majbur. Yoki milliy falsafa yo'nalishida tadqiqot o'tkazmoqchi bo'lgan kishi muayyan bir millat qadriyatlarini ideallashtirmay iloji yo'q. Agar bunday falsafiy oqimlar falsafa fani o'rmini egallab qolgudek bo'lsa, unda falsafiy tadqiqotlarda yuqoridagi ilmiy tamoyillarga amal qilish qiyinlashadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar muayyan tarixiy davr va mamlakatdagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, falsafiy qarashlar ta'sirida bo'lganligi sababli, ular ma'lum darajada ilmiylikdan uzoqlashadilar. Shuning uchun ham falsafaning ijtimoiylik jihatlari bilan shug'ullanganimizda, uning noilmiyligi muayyan g'oyalar tizimi bo'lgan mafkura bilan bog'liqligiga beixtiyor duch kelamiz. Bunday holatda uning boshqa ijtimoiy tomonlarini mutloqlashtirish natijasida falsafani mafkura bilan almashtirish sodir bo'ladi.

*Falsafa va mafkura o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik.* Mafkura tarixan ijtimoiy borliqni siyosiy-guruhiy yoki sinfiy manfaatlar ko'zgusi orqali in'ikos ettirish vositasi sifatida tavsiflanadi. Mafkuraning vazifasi ma'lum bir dunyoqarash bilan bog'liq ravishda qadriyatlar tizimini ishlab chiqish, muayyan g'oyaviy nuqtai nazar bo'yicha ijtimoiy hayotda nima bo'lishi keragu va nima bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarurligini asoslashdan iborat bo'ladi. Ba'zan bunday qarashlarni kengaytirib, mafkura obyektiga esa faqat ijtimoiy borliqni, ayni chog'da tabiatning o'zi ham qo'shib yuboriladi. Natijada mafkura ijtimoiy-guruhiy manfaatlar asosida

borliqni o'zgacha in'ikos ettirish tusiga kiradi. "O'zgacha"da mafkura borliqni nafaqat ilmiy jihatdan ta'rif-tavsif etadi, aksincha, uni soxtalashtirishi ham mumkin. Mafkura har doim jamiyatning bir qismi manfaatlarini butun jamiyat manfaatlari etib izohlaydi, ya'ni unsur (element) va qism butun o'rnini egallaydi. Uning asosiy tamoyili partiyaviy-sinfylik bo'lib qoladi. Individual va ijtimoiy ong g'ayriilmiy yo'nalishda biryoqlama shakllanadi. Binobarin, siyosiy g'oyalar tizimi va shunga muvofiq amaliy harakat dasturi mafkuraning asosiy mazmunini tashkil etadi. Olamning bir butunligi to'g'risidagi falsafiy qarashlar ayro-ayro holdagi siyosiy maqsadlarni "yalpi umumiy", ya'ni odamzotning tub manfaatlari etib ko'rsatish uchun g'oyaviy tasir ko'rsatishning samarali vositasiga aylanadi. Natijada muayyan sotsial guruh manfaatlari umumiylik kasb etadi. Boshqa guruhlar manfaatlari bilan uyg'unlashish tusiga kiradi. Manfaatlarning bu tarzda chatishib ketishi qismni butun, xayolotni reallik etib ko'rsatish uchun kifoyadir. Mafkura shunday yo'nalish olgandagina jamiyatda g'oyaviy jipslik vujudga keladi. Turli manfaatlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar o'rtasida vaqtincha bo'lsa-da, harakat birligi yuzaga keladi.

Partiyaviylik subyekt ijtimoiy nuqtai nazari ma'lum maqsad yo'lida aniq g'oyaviy yo'nalish olishi bo'lib, u individning muayyan siyosiy partiyaga yoki ijtimoiy harakatga rasman mansubligini anglatmaydi. Partiyaviylik tushunchasi keng ma'noda turli ijtimoiy guruhning g'oyaviy-siyosiy qarashlariga qo'shilmaydigan individlarga ham xosdir. Muayyan mafkuradagi dunyoqarash mohiyati individlarning dunyoqarashiga yaqin yoki o'zoq bo'lishi mumkin. Obyektivlikning subyektiv bilish manfaatlari bilan chatishib ketishi sababli mafkura "tub" manfaatlar ifodasi tusini olishi ham ehtimoldan xoli emas.

Ma'lumki, falsafa jamiyatshunoslik ilmi va umuman olam to'g'risidagi g'oyalar tizimi sifatida har doim jamiyatda g'oyaviy-mafkuraviy bahslar va siyosiy to'qnashuvlarga tortilmasdan iloji yo'q. Mafkuraning falsafaga ta'siri natijasida alohida-alohida falsafiy yo'nalish (maktab) lar o'rtasida qarama-qarshiliklar kuchayishiga olib keladi. Aynan shunday murosasiz g'oyaviy-nazariy kurash falsafani badnom etib, birlikka putur yetgan joyda abadiy ajralish va dushmanlik mavjuddir. Demak, bunday joyda haqiqatni izlab topish qiyinlashadi, degan xulosalar chiqariladi. Falsafa mafkura bilan qanchalik bog'liq

bo'lishi darajasiga qarab, uning mazmuni shunchalik mafkuralashadi. Aynan shu ma'noda falsafa tarixan mafkuraviy tus oladi.

*Falsafani fan sifatida rivojlantirish muammosi.* Gorizontalar tarzda falsafaning fanga mansubligini hisobga olib va mafkurada ham ilmiylik salohiyati yetakchi bo'lishi uchun unga fan sifatida yondashishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Zero, falsafaga fan sifatida yondashuv, birinchidan, unga qo'yiladigan malomatlardan xalos etadi, ikkinchidan, olamni falsafiy idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi, uchinchidan, mafkuraviy (noilmiy) yondashuvlardan uni saqlaydi, to'rtinchidan, mafkuraning umumiy yo'nalishi va mazmuniga faol ta'sir ko'rsatib, uning ilmiy salohiyatini oshiradi. To'g'ri, ilgariydek turlicha falsafiy qarashlar, maktablar vujudga kelib, ularda mafkuraviy yondashuvlarga keng o'rin berilaveradi, ammo falsafaning fan sifatida tan olinishi va unga shunday munosabatda bo'lish ijtimoiy taraqqiyot va inson kamoloti uchun keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Falsafa bilan jiddiy shug'ullanmay, u haqda fikr bildiradigan ziyolilarimiz "falsafa" tushunchasi bilan "falsafa fani" tushunchasi o'rtasida tarixan umumiylikdan tashqari ayrimlik (tafovut) ham mavjudligini e'tibordan soqit qiladilar. Falsafaning endilikda fan sifatida shakllangani, albatta, falsafiy fikrlar rivoji bilan uzviy bog'liq. Biroq "falsafa" tushunchasida unga ijtimoiy ongning nazariy shakli ma'nosi bo'lsa, "falsafa fani" tushunchasida olamni bir butun bog'liq holida bilish, undagi yalpi umumiy o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir, o'zaro taqozodagi munosabatlar o'rnini aniqlashning muayyan tizimi ma'nosi bor. Boshqacha aytganda, falsafiy fikrlar majmuasi muayyan bir tizim – fan holiga kelishi, bunda boshqa fanlar qamrab olmaydigan o'z sohasi borligi, u o'z predmetiga ega ekanligi e'tirof etiladi.

ar qanday fan muayyan sohada insoniyat tarixan to'plagan tajribasi bilimlarini muayyan tizimga solinishi bo'lib, ma'lum bir sohani ilmiy anglashga imkon tug'diradigan o'z uslub, tushunchalari, kategoriyalari, qonunlari, tamoyillari bo'lishini taqozo etadi. Bular o'z navbatida tarixan chuqurlashib, kengayib, mazmunan boyib borishi natijasida fan takomillashadi. Bir fan yo'nalishida bir necha tarmoqlar ham vujudga kelib, ular muayyan fanni mazmunan boyitadi.

Falsafa "donishmandlikni sevish" yoki "donishmanlarcha fikrlash" ma'nosida ertaklar va ashulalarda ham o'z ifodasini topadi. Inson o'z-

o'zini anglashga yordam beradigan g'oyalarda ham falsafiy qarashlar bor. Har bir fanda olamning turli sohasidagi ichki va tashqi aloqadorliklarni ilg'ab olishga yordam beradigan falsafiy fikrlar mavjud. Ammo bu degani ertaklar, ashulalar, xususiy va ijtimoiy fanlar falsafa fanining o'rmini bosa oladi, degan ma'noni anglatmaydi. Falsafa fan sifatida boshqa barcha fanlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi uning kategoriyalari, qonunlari, uslublari, tamoyillari yalpi umumiy tasnifga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham har bir fan sohasining tadqiqotchisi falsafa fanidan yaxshiroq ilimga ega bo'lsa, uning ilmiy izlanishlari samarali yakunini topishi tajribalardan ma'lum.

*Xulosa:* a) falsafa bilan boshqa barcha fanlar o'rtasida aloqadorlik va o'zaro ta'sir mavjud; b) gorizontal tarzda falsafa tabiiy fanlar bilan o'zaro aloqada bo'lsa, vertikal holatda u ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'lanib, ijtimoiy fan tusiga kiradi; v) bu hol falsafaning tarixan mafkuraviy qarashlar bilan aloqasini kuchaytirib, uning mafkuraviy tus olishiga sabab bo'ladi; g) falsafa fan ekanini tan olish uning mafkuraga faol ta'sir etib, mafkurada ilmiylik ustivor yo'nalish olishi uchun imkon tug'diradi.

*Kalit so'zlar:* donishdmandlik, mafkuraviy hayot, Bosh va Asosiy g'oyalar, qadriyat, "vertikal", "gorizontal", falsafiy dunyoqarash, "falsafa", "falsafa fani", ilmiylik, obyektivlik, aqlga muvofiqlik, tizimga solinganlik, amaliyotda tekshirish, erkin fikr yuritish, turg'unlik, partiyaviy-sinfiylik, metodologik asos.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. "Falsafa" tushunchasi tarixan qanday ma'noda ishlatilib kelindi?
2. Nega muayyan ma'naviyatni qaror toptirish uchun mafkura lozim?
3. Mafkura uch unsurdan iborat bir butunlik, deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Nega har qanday mafkurada Bosh va Asosiy g'oyalar mavjud?
5. Falsafa fani vertikal va gorizontal tarzda qaysi fanlar bilan tutashadi?
6. Ilmiylik qaysi tamoyillarga asoslanadi?
7. Falsafaga fan sifatida yondashishning zarurati nimada?
8. Mafkura ijtimoiy borliqni qaysi nuqtai nazardan ifodalashga intiladi?
9. Partiyaviy-sinfiylik nimani anglatadi?

*Mafkuraviy jarayon tushunchasi.* Noosfera davri mafkurasi tarixiy tajribalarga tayangan holda yangicha tafakkur tarzini va shu asnoda ilmiy-falsafiy dunyoqarashni barqaror qilishi ijtimoiy-tarixiy zaruriyatdir. Tarafkashlikka asoslangan siyosat hamda milliy mahdudlik va diniy mutaassiblikni targ'ib qiluvchi mafkuralar insoniyatni holdan toydirdi. Noosfera davrida odamzot insonlardek, chinakam jamoa va jamiyat bo'lib yashash qobiliyatini o'zida hosil etishi, jamiyatdagi barkamol insonlar shaxsini shakllantira oladigan kichik va katta muhit vujudga kelishi zarurligi ma'lum bo'ladi.

Odamlar moddiy ne'matlar yaratish uchun o'zaro muloqotga kiradilar. Ma'lum maqsadlar yo'lida birlashadilar. Birlashish, hamkor-hamnafas bo'lish uchun muayyan dunyoqarash ifodasi bo'lgan Bosh g'oya, uni to'ldira oladigan asosiy va yordamchi g'oyalari kerak bo'ladi. Shunday ijtimoiy ehtiyojlar tufayli butun dunyoda bir-biridan shaklan farqlanadigan, ammo ma'no-mazmun jihatidan yaxlit ta'limotlar o'z-o'zidan shakllangan. Bular mifologik va diniy dunyoqarashlar ifodasi bo'lgan g'oyalardir. Bu g'oyalarni odamlar ongiga singdirish, ularda imon va e'tiqodni mujassamlashtirish uchun juda ta'sirli mafkuraviy ijtimoiy institutlar, vositalar, uslublar qaror topdi.

Ayniqsa jahon dinlari ilohiyotchilari, ruhoniylari mafkura orqali odamlar ongini muayyan maqsadlar yo'lida boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni ham shu dunyoqarash negizida shakllantirishda boy tarixiy tajribaga egalar. Hozirgi ilm-fan, texnika va axborot texnologiyasi rivojlangan jamiyatlarda mifologik dunyoqarash elementlarini saqlagan holda diniy dunyoqarashni qaror toptirish mayllari kuchlidir. Bu hol Noosfera davri mafkurasini shakllantirishda ham asqotishi shubhasiz. Odamzotning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy va siyosiy faoliyati g'ayriinsoniy tomonga og'ish mayli kuchayishi tufayli Ona tabiat zaharlanishi tobora kuchayib, insoniyat va uning jamiyatlari ma'naviy inqirozga uchrayotgani sir emas. Bunday sharoitda umumbashariy g'oyalardan oziq olib shakllanadigan milliy mafkuralarga ehtiyoj kuchayib boraveradi.

Tabiat va jamiyatdagi hozirgi holat uchun ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalari javobgar emaslar. Balki Noosfera davriga batamom muvofiq keladigan, odamlar kuch-g'ayratini halokatning oldini olib

qolishga birlashtiradigan yaxlit dunyoqarash yo'qligi, bu dunyoqarash g'oyalarni individlar imoni va e'tiqodiga aylantira oladigan mafkuraviy jarayonlarning bir butun tizimi shakllanmaganidan izlash maqsadga muvofiqdir.

Mafkuraviy jarayon deganda muayyan dunyoqarash ifodasi bo'lgan Bosh va Asosiy g'oyalarni individlar ongiga singdirish, shu jarayonda umumiy fe'l-atvor, ko'nikma va harakat birligini vujudga keltirish tushuniladi. Odam jamiyatda yashar ekan, unda o'z-o'zidan muayyan dunyoqarash shakllanaveradi va uning fe'l-atvori, xatti-harakati yo'nalishi shunga muvofiq shakl tusiga kiradi.

Odam zoti tirik tabiat tarkibiga kiradi. Binobarin, unda o'simliklar va hayvonlar dunyosiga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, yovvoyi o'tlar o'z-o'zidan yerda unib chiqib rivojlanaveradi. Ammo madaniy o'simliklar parvarishlanmasa, ular yovvoyi o'tlardan muhofaza etilmasa, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Agar odam o'z holiga tashlab qo'yilsa, unda yovvoyilikka xos fe'l-atvorlar, xatti-harakatlar rivojlanib borgan sari jamiyatdagi munosabatlar g'ayriinsoniy tomonga og'ib ketishi ham mumkin. Tarixiy tajribalarga tayanib, Prezident Islom Karimov: "Inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'otib yuborish oson", deganlarida, individ ma'naviy dunyosi qashshoqlansa, unda o'z-o'zidan vahshiyona instinktlar qo'zg'alishi mumkinligini nazarda tutadi. Ma'naviyat har bir individ uchun suv bilan havodek zarurligi, shunday falokatlarining oldini olish uchun zarur. Ma'naviyat esa mafkurasiz qaror topa olmaydi. Madaniy o'simlikni yovvoyi o'tlar, zararli hashoratlardan muhofaza qilish, uning mo'ljaldagi hosil berishi uchun mohir dehqon va zarur mehnat qurollari, vositalari qanchalik kerak bo'lsa, ma'naviyatni qaror toptirish uchun ham muayyan ma'naviyat negizidagi dunyoqarashga e'tiqod qo'ygan, o'sha g'oya uchun kurashishni hayot ma'nosi deb bilgan, maxsus tayyorgarlikka ega, tili burro, notiqlik san'ati yuksak targ'ibotchilar hamda moddiy-ma'naviy resurslar bilan yetarli darajada ta'min etilgan ta'sirli mafkura kerak bo'ladi.

Mafkuraning tarixiy vazifasi shuki, o'zining diniy yoki ilmiy negizlari bo'lgan va dunyoqarashlilik mohiyatiga ega g'oyalarni individlarning imoni, e'tiqodi hamda xalq ommasining maslagiga aylantirib, harakat birligini vujudga keltira oladi. Shuning uchun ham mafkuraning nazariy asosi konsepsiyasi, amaliy falsafasi, g'oyaviy kurash yo'llari va vositalari



bo'lishi kerak. Hozirgi biz yashab turgan dunyoni Noosfera davri deb e'tirof etiladigan bo'lsa, bu davr mafkurasi ilmiy-falsafiy konsepsiyasini yaratish, uning amaliy jihatlarini ishlab chiqishga har bir mamlakatda turli tarzda mavjud bo'lgan milliy mafkuralar o'z hissasini qo'shishi lozim. Noosfera mafkurasida Ona tabiatni muqarrar halokatdan saqlab qolish uchun Aqlni to'la-to'kis insoniyat tub manfaatlariga burish Bosh g'oya bo'lgani ma'quldir. Bu mafkuraning asosiy g'oyalarini izlab topish galdagi vazifalar sirasiga kiradi.

***G'oyaga qarshi g'oyaviy kurash masalasi.*** Biz yashayotgan davr axborot kommunikatsiyalari juda rivojlangan, dunyoning hamma joyidagi ma'lumotlar zudlik bilan tarqalishi bilan farqlanadi. Bunday fikrlar, g'oyalar, qarashlar xilma-xilligi, rang-barangligi sharoitida yashash bir tomondan quvonchli, ikkinchi tomondan ayanchlidir. Zero, jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga xizmat qiladigan g'oyalar bilan birga xalqlar, millatlar orasiga raxna soladigan, odamlarni, ayniqsa yoshlarni to'g'ri yo'ldan ozdiradigan, ularda hayvoniy xirslarni qo'zg'atadigan, toshbag'irlik, inson taqdiriga befarqlik his-tuyg'ularini rivojlantiradigan qarashlar tezda qaror topmoqda. Bunday sharoitda milliy g'oya va mafkuraga ehtiyoj oshib boradi. "Albatta, – deydi Prezident Islom Karimov, – biz fikrlar va qarashlar rang-barangligi prinsipi tarafdormiz. Ammo bu fikr va qarashlarni birlashtiradigan, ularning mushtarak jihatlarini uyg'unlashtiradigan yagona mezon borki, bu milliy g'oya va milliy mafkuradir" ("Hushyorlikka da'vat". "O'zbekiston ovozi", 1999-y. 26.06).

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillarida g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun milliy mafkurani shakllantirish bo'yicha respublikamizda qizg'in bahs-munozaralar bordi. Bunda Prezidentimiz Islom Karimov faol ishtirok etdi va milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirish konsepsiyasini yaratdi. Bu konsepsiyaga aqidaparastlarcha munosabatda bo'lmaslik kerakligini nazarda tutib, Islom Karimov mutassaddi tashkilotlar rahbarlari "etarli ilmiy salohiyatga ega va tajribali pedagogik kadrlari mavjud bo'lgan ta'lim muassasalaridan iborat mamlakat miqyosida "eksperimental maydonchalar"ini belgilasinlar va ekspert ishchi guruhlarini tashkil qilsinlar", deb Farmoyish chiqardi. Bunday maydonchalar, ekspert guruhlari rasman tashkil etildi-yu, ammo ularning to'playotgan tajribalari, tavsiya etayotgan takliflari

inobatga olinmadi. Islom Abdug'aniyevich milliy g'oya va mafkuraning jamiyat hayotidagi ahamiyatini ta'kidlab: "Biz uning mazmun-mohiyati ufqlarini umumiy tarzda oldik. Endi ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg'or fikrli ziyolilar bu boradagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy xulosalarni ishlab chiqishlari" zarurligiga e'tiborni qaratdi. Chunki faqat shunday yo'l tutgandagina g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurasha oladigan kadrlar yetishib chiqishi mumkin.

Ma'lum bir g'oyaga, mafkuraviy yondashuvlarga qarshi kurashadigan shaxs avvalo o'zi o'sha g'oya shakllangan mamlakat va xalq tarixini yaxshi bilishi, u g'oyaga qarshi asosli dalillangan g'oyaviy nuqtai nazarda mustahkam turishi va unga qarshi tura oladigan g'oyani boshqalarga singdira oladigan mahoratga ega bo'lishi lozim. Masalan, vahhobiylik g'oyasi bilan zaharlangan odamlarni ular tutgan yo'l noto'g'ri ekanligini asoslash uchun vahhobiylik g'oyasi yuzaga kelgan Saudiya Arabistonining XVIII va XX asr boshidagi ahvoli, u xalqning Xanbaliya shariat mazhabi ta'sirida shakllangan mentalitetidan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Aks holda vahhobiylik e'tiqodiga aylangan yoshlarni xato yo'ldan qaytarish amrimahol. Boshqa har qanday g'oyalarga qarshi kurashlar ham xuddi shunday yo'l tutishni taqozo etadi. Jaholatparastlikka qarshi kurashadigan odam uni ma'rifatparvarlikdan farqlay olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Tarix shunga shohidki, hech qaysi davrda va hech qaysi mamlakatda jaholatparastlik yaydoq holda o'zini namoyon etmagan va etmaydi ham. U har doim "ma'rifiy" pardalarga o'ralgan holda taqdim etilib kelinganki, faqat muayyan davrlar o'tgach, bu qarashlar asosida shakllangan munosabatlar individlar va ularning jamiyatlari boshiga behad kulfatlar tushishiga sabab bo'lganligi anglab yetilgan. Masalan, sobiq sho'rolar davrida davlat va jamiyatni boshqarishni ma'muriy buyruqbozlik tizimi jaholatparastlikning amalda namoyon bo'lishi ekanligi, u inson huquqlarini poymol etadigan, individlar tashabbuskorligini har qadamda bo'g'ib turadigan ijtimoiy murvat ekani endilikda, ya'ni insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishga kirishilgach, ma'lum bo'ldi. Yetmish yil badalida kommunistik mafkura o'sha manfur tizimni chinakam ma'rifatparvar, insonparvar etib ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan edi. Yoki sobiq sovet davri saylov tizimini olaylik. Xalq ommasi haq-huquqlarini barbod etish asosiga qurilgan va totalitarizmni mustahkamlashga qaratilgan o'sha tizim mafkura orqali

dunyoda eng demokratik tizim deb talqin etildi. Aytish mumkinmi, uzoq yillar xalq ommasi shu gumrohlikka ishonib keldi. Uni ma'rifatparvarlik nishonasi sifatida qabul etib, munosabat belgiladi.

Ta'kidlash zarurki, har qanday g'oyani individlar ongiga singdirishning tarix tajribasidan o'tgan usuli kuchli, ta'sirli mafkura vositalaridan samarali foydalana bilishdir. Masalan, Gitlarning "milliy sotsializm" g'oyasi qanchalik yovuzlik ifodasi bo'lmasin, uning "haqligiga" XX asr o'rtalaridagi nemis xalqining aksariyati ishongan va e'tiqod qilgan. Unda moliyaviy jihatdan yetarli darajada ta'minlangan va u g'oyani targ'ib qilish uchun maxsus tayyorgarligi bor kadrlarga ega, kuchli, ta'sirli mafkura hal qiluvchi rol o'ynadi. Yoki sobiq sovet davrida soxta g'oyalarga odamlar ishonishgan, unga e'tiqod qilishgan. Bu bilan shug'ullanadigan butun bir tizim shakllangan bo'lib, "jamiyatning eng yuqori bo'g'inidan eng quyi qatlamigacha bu tizim o'zining kuchli ta'sirini o'tkazar edi" (I.A.Karimov). Chunki mafkuraning butun vositalari o'sha g'oyalarni odamlar ongiga singdirishga qaratilgan bo'lib, individlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lib qolmasligiga butun e'tibor qaratilgan edi.

Mustaqil O'zbekistonning Asosiy Qonunida hech bir mafkura davlat mafkurasi maqomiga ega bo'lmasligi kerakligi ta'kidlandi. Buning ma'nosi shuki, jamiyatda turli partiyalar, ijtimoiy harakatlar, diniy tashkilotlar, milliy markazlar bor ekan, ularning ham harakat dasturlari va shunga muvofiq g'oyalari, bu g'oyalarni targ'ib etadigan mafkuralari bor. Agar biron-bir mafkuraga davlat maqomi berilgudek bo'lsa, davlat o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, boshqacha fikrlashga yo'l qo'ymaslik, o'zgacha mafkuralar yo'lini qat'iy to'sib qo'yish huquqiga ega bo'lib qoladi. Natijada davlat o'zining demokratik huquqiy maqomidan mahrum bo'lib, totalitarizm va avtoritalizm botqog'iga botib, o'zini-o'zi halok qiladi. Bunga tarixda misollar ko'p. Masalan, sobiq ittifoq taqdiri bunga yaqqol misol bula oladi.

O'zbekistonda hozir 5 ta siyosiy partiya, qator ijtimoiy harakatlar, milliy markazlar, adliya vazirligi ro'yxatidan o'tgan 16 ta diniy tashkilot bor. Ular o'z matbuot organlari, dasturlari va boshqa mafkuraviy vositalariga ega bo'lib, o'z dasturlari va nizomlaridan kelib chiqib, aholiga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadirlar. O'z navbatida davlat ham o'z ichki va tashqi siyosatini, amalga oshirayotgan tadbirlarini mafkuraviy vositalar orqali ommaga yetkazib, odamlarni milliy

manfaatlarni anglab olishlari, shu yo'l uchun fidoyilik ko'rsatishlariga da'vat etadi.

Milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi o'tish davri qiyinchiliklarini mardonavor yengib borayotgan xalqimizga ma'naviy madad bermoqda. Bu g'oya va mafkura O'zbekistonda yashayotgan barcha millatlar, elatlar, diniy e'tiqod egalarini birlashtirish, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi uchun kurashning aniq yo'llarini ko'rsatib bermoqda.

*Tarafkashlikka asoslangan siyosat va mafkuraning inqirozi.* Ijtimoiy mavjudod sifatida odamzot tarixan tarkib topgan muayyan bir jamiyat bag'rida yashab, undagi kichik va katta muhitdagina o'z qobiliyatlari, iste'dodlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, shunday shart-sharoit yaratib bergan jamiyatga yuksak hurmat va ehtirom ona allasidan tortib, ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlaridagi tarbiyaning umumiy mazmunini tashkil etmog'i muhimdir. Toki, o'sib kelayotgan yosh avlod o'zi yashayotgan jamiyat qonun-qoidalari, odob-axloq me'yorlari doirasida yashash ko'nikmalarini hosil etish uchun kurash jarayonida komillik martabasiga erishishi mumkinligini anglab yetsin. Bugina emas, balki individ Yer deb atalgan tabiat oldida hamisha qarzidor ekanini unutmasligi lozim. Odam tiriklik olamidagi bitta tur ekanini bilib olsa va o'z turi butun tarixi davomida unga behisob moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib berganini to'la idrok etsa, shu turini qadrlash va e'zozlash orqali chin ma'noda insoniy sifatlarni o'zida gavdalanitira olishga aqli yetsa, butunlay yangicha dunyoqarash shakllanishi shubhasiz. Bugungi bola istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda javlon urish darajasiga qarab jamiyatda muayyan o'ringa ega bo'ladi, shu jarayonda siyosiy hayotga tortilab, u siyosiy yo'nalishlarga ham faol ta'sir o'tkazadi. Agar biz har bir jamiyatda va butun dunyoda yoshlar ongiga Yer, Odam, millat, elat deb atalgan butunliklarning bir unsuri ekanini mafkura orqali anglata olsak va faqat shu butunliklarni saqlash va e'zozlash tufayli Noosfera davri muammolarini hal etishimiz mumkinligiga ularda ishonch hosil etishimiz mumkin. Bu g'oyalarni ilgari surishdan maqsad shuki, dunyoda tarafkashlikka asoslangan geosiyosat endilikda yangicha shakl-shamoyillarda o'zini namoyon qilib, bu siyosatni mafkuraviy vositalar orqali insoniy etib ko'rsatish davom etmoqda. Faqat endilikda moddiy resurslari va harbiy imkoniyatlari kattaroq bo'lgan davlatlar, ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi boshqa mamlakatlarni to'g'ridan to'g'ri bosib

olib, ularning yer osti va yer usti boyliklari, arzon ishchi kuchi va bozorida foydalana olmaydilar. Shuning uchun ham mafkuraviy vositalar orqali ular g'oyaviy ta'sir ko'rsatib, endilikda yashirin tusga burkangan eski tajovuzkorlik siyosatlarini (ya'ni jaholatparastlikni) davom ettirmoqdalar.

Buyukdavlatchilik, buyukmillatchilik shovinizmi, irqchilik, diniy mustasnovik g'oyalarni pardalangan holda mafkuraviy vositalar orqali keng yoyib, o'z maqsadlariga erishish yo'lini tutmoqdalarki, ularni nihoyatda "go'zal parda"larga, "insonparvarlik" libosiga o'ragan holda tashviqot qilmoqdalar. Bu tajovuzkorlikni nazariy ong darajasi yetarli bo'lmagan individlar, avom xalq buning mazmun-mohiyatini dafatan tushunib olishi qiyin. Bularga qo'shimcha ravishda G'arbnig tanazzulga uchragan ma'naviy madaniyatini ko'z-ko'z qilish orqali individlardagi vahshiylikka moyil qarashlar turmush tarzini singdirishga katta e'tibor berilmoqda. Shunday usullar bilan ham yoshlar ongini zaharlash, ularda tajovuzkorlik mayllarini rivojlantirishda mafkuraga katta umid bog'lamoqdalar. Keyingi paytlarda inson huquqlarini himoya etish shiorlari ostida g'arbcha demokratik tartiblarni zo'ravonlik yo'li bilan boshqa mamlakatlarga eksport qilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bunga erishish maqsadida o'zlari totalitar, avtoritar hisoblagan davlat arboblarni qoralash, ularning o'rniga buyukdavlatchilik shovinizmi g'oyalarga ehtirom bilan qaray oladigan qo'g'irchoq hukumatlar tuzishga zeb berilmoqda.

Demak, garchi tajovuzkorlikka asoslangan geosiyosat barbod bo'lgan esa-da, rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi mavjud ziddiyatlarni mafkuraviy tadbirlar orqali o'z qarama-qarshi tomoniga og'dirib yuborish, milliy, etnik va diniy zaminda mojarolar chiqarish uchun chetdan turib aralashish geosiyosati davom etmoqda. Agar bugungi tobora rivojlanib borayotgan axborot kommunikatsiya imkoniyatlarini hisobga olsak, shunday g'oyalarning kirib kelishi, odamlar, ayniqsa yoshlar ongiga singishi, ularda o'z turmush tarziga muvofiq kelmaydigan individlar timsolida dushman obrazini tasavvur etish mayllarini kuchaytirish mumkinligiga shubha yo'q. Shu boisdan dunyoning hozirgi mafkuraviy manzarasi Noosfera davri talablariga mutlaqo to'g'ri kelmasligini keng xalq ommasiga izchillik bilan tushuntirish, shu jarayonda yangicha tafakkur tarzini shakllantirishni milliy mafkuralarda yetakchi maylga aylantirish favqulotda ahamiyatga egadir.

*Geosiyosat va mafkuraviy jarayonlarda Noosfera davri xususiyatlarini hisobga olish muammosi.* Olimlarning XX asr birinchi choragida tabiat o'zining Noosfera bosqichiga kirgani, endilikda davlatlarning ichki va tashqi siyosati shu yangi davrga muvofiqlashtirilmasa, ya'ni o'zini endilikda oqlay olmay qolgan an'anaviy geosiyosat tub-tubi bilan isloh qilinmasa, Yer deb atalgan tabiat halokat yoqasiga kelib qolishi mumkinligi to'g'risidagi ogohlantirishlarini hali hanuz ba'zi davlatlar inobatga olmayaptilar. Bunday sharoitda tarixan sulhparvarlik, tinchlikparvarlik ruhi ustivorroq bo'lgan xalqlar, ularning davlatlari siyosatiga umid bog'lashga to'g'ri keladi. Garchi mustaqil O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosati o'z ifodasini topgan adabiyotlarda Noosfera tushunchasi uchramasa-da, ammo amaliy siyosatda tahlikali holatlar hisobga olinganiga guvoh bo'lamiz. O'zbekiston davlatining geosiyosati Prezidentimiz Islom Karimovning qator asarlarida, xususan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitoblarida o'z ifodasini topgan.

Ularda ta'kidlanishicha, O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirib kelinayotgan tashqi siyosat tamoyillariga amal qiladi. Prezidentning fikricha, tashqi siyosat oqilona maqbullikka hamda davlatimiz, jamiyat va insonning uzoqni ko'zlovchi manfaatlariga asoslanadigan eng muhim tamoyillarga qat'iy rioya etishi davr taqozosi bo'lib, XXI asr xalqaro munosabatlarda yangi asr bo'lishiga umid bog'lash his-tuyg'ularni rivojlantiradi.

Prezident Islom Karimov nafaqat ayrim mamlakatlarga, shuningdek, butun dunyo xalqlari xavfsizligiga tahdid solib turgan xavf-xatarlar sirasiga quyidagilarni kiritdi: mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyukdavlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari va ekologik muammolar. O'zbekistonda mustaqillik yillarida sodir bo'lgan ba'zi fojiali vaqealar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar va millatlararo totuvlikni izdan chiqarishga urinayotgan ichki va tashqi buzg'unchi kuchlar mavjud. Shuning uchun ham Prezident ravshan o'zini namoyon etib turgan ikkita xavf-xatar borligiga e'tiborni qaratadi. Birinchisi, mamlakat tashqarisidagi tajovuzkor aqidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun muqaddas

qadriyat ekanidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga intilmoqdalar. Ikkinchisi, hali hanuz bizning mustaqil yo'limizni ko'rolmaydigan, turli bahonalar bilan O'zbekistonga o'z siyosatini, ta'sirini o'tkazish va hukmronlik qilishga urinayotgan kuchlarning mavjudligi. (Karimov I. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». T.: "O'zbekiston", 1999. 11-b.)

Demak, davlatlar va ekstremistik tashkilotlarning tajovuzkorlikka, milliy mustaqillikni iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan mustahkamlash yo'lidagi harakatlarimizga raxna solishga qaratilgan faoliyatlarini o'z vaqtida payqab olish hamda yot qarashlarga qarshi individlar va xalq ommasida milliy mafkura orqali g'oyaviy immunitetni hosil etish uchun izchil kurash olib borish zarurati paydo bo'lmoqda.

*Xulosa:* a) muayyan mamlakatda olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlari kompleksi mafkuraviy jarayon hisoblanadi; b) g'oyaga qarshi faqat g'oyaviy kurash olib borish mafkurachilardan katta nazariy tayyorgarlikni talab etadi; d) tarafkashlikka asoslangan geosiyosat va mafkuralar inqirozga uchragan bo'lsa-da, ba'zi davlatlar "orani buz-u, hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan an'anaviy geosiyosat va mafkuraga tayanib ish ko'rishni afzal bilmqdalar; g) har bir davlat va mamlakatda Noosfera davri talablariga muvofiq yangicha geosiyosat va mafkura belgilanishini zamon taqozo etmoqda.

*Kalit so'zlar:* mafkuraviy ijtimoiy institutlar, insoniylik, vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ma'naviyat, axborot kommunikatsiyalari, yagona mezon, "eksperemental maydoncha", vahhobiylik, Xanbafiya, ma'muriy buyruqbozlik tizimi, kichik va katta muhit, komillik martabasi, buyukdavlatchilik, irqchilik, diniy mustasnoqlik, mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, agressiv millatchilik, urug'-aymoqchilik.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Noosfera davri mafkurasi qanday yo'nalish olishi kerak?
2. Dinlar odamlar ongini muayyan maqsadlarga yo'naltirishda qanday tajribalar to'plagan?
3. Odam o'z holiga tashlab qo'yilsa, unda qanday qusurlar tobora shakllanib borishi mumkin?
4. Nega ma'naviyat har bir odam uchun xuddi suv bilan havodek zarur?

5. Mafkuraning tarixiy vazifasi nima?
6. Kimlar g'oyaga qarshi g'oyaviy kurash olib bora oladi?
7. Axborot kommunikatsiyalari rivojlangan hozirgi davrda yashash qanday kechadi?
8. Nega milliy g'oya va mafkuraga ijtimoiy ehtiyoj ortib bormoqda?
9. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi va uning oqibatlarini izohlang.
10. Hech bir mafkura davlat mafkurasi bo'lmasligi kerakligini qaysi ma'noda tushunish kerak?
11. Tarafkashlikka asoslangan geosiyosat va mafkuralar endilikda qanday tusga kirmoqda?
12. Mustaqil O'zbekiston davlatining geosiyosati va mafkurasi nimaga asoslangan?

## **MAFKURAVIY IJTIMOY INSTITUTLAR VA G'OYAVIY IMMUNITETNI HOSIL ETISH MUAMMOSI**

***Oila muhiti va g'oyaviy tarbiya mas'uliyati.*** Ilmiy muloqotda o'z mustahkam o'rniga ega bo'lmagan, ammo tarixan amaliyotda g'oyaviy ta'sir ko'rsatish, g'oyaviy immunitet hosil etishning qudratli vositasi bo'lib kelgan mafkuraviy ijtimoiy institutlar – oila, mahalla (istiqomat joy), norasmiy uyushmalar, o'quv va mehnat jamoalari haqida gap boradi. Zero, Noosfera davrida Aqlni ezgulik va yovuzlik tomonga og'dirishda muhim ijtimoiy murvat rolini o'ynaydigan ana shu uyushmalarda individlar har kuni fikr almashadilar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy masalalarga o'z munosabatlarini bildirib, individual va ijtimoiy ong muayyan yo'nalish olishiga o'z ta'sirlarini o'tkazadilar.

Yakkanikohlikka asoslangan oilalarning tarixan o'zidan-o'zi shakllangani juda katta ijtimoiy ahamiyatga molik bo'ldi. Faqat shunday oilalargina yosh avlod har jihatdan sog'lom rivojlanishi, kamol topishi uchun zarur moddiy-maishiy va ma'naviy-axloqiy shart-sharoitlarga ega bo'ladi. Bunda oilalarda milliy ruh hukmronlik qilib, bobolar va momolar o'giti, ota ibrati va ona mehr-muhabbati, aka-ukalar, opa-singillar o'rtasidagi mehr-muruvvat asosida kichik ijtimoiy muhit shakllanadi.

Shu boisdan oila har qanday jamiyatning dastlabki asosi, negizi hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar insoniy yoki



g'ayriinsoniy tomonga og'ib ketishida oila o'ziga xos o'ringa ega ekanini nazarda tutish lozim. Har bir mamlakat va mintaqada ma'lum bir tarixiy davr ruhi avvalo oilaviy munosabatlarda o'z ifodasini topadi. U ruh asosida odamlarning muayyan maqsadga qaratilgan umumiy harakatini yuzaga keltiradi. Shu ruh mafkura orqali oilaga kirib boradi.

Noosfera davri, uning boshqa davrlardan tubdan farqi haqida hozircha deyarli barcha oilalarda tasavvur yo'q, deyish mumkin. Chunki mafkura vositalari, avvalo ommaviy axborot vositalarida bu davr haqida juda kam, sayoz fikrlar onda-sonda uchrab turganini hisobga olmasa, umuman Aqldek ulkan quvvat (energiya)ni bunyodkorlik tomonga to'la-to'kis burib yuborish, shu asosda har bir odam qalbining eng to'rida joylashgan ezgulik ruhi rivojiga keng yo'l ochish muammosi o'z yechimini kutib turibdi.

Oilada bosh tarbiyachi va hakam ota va onadir. Binobarin, oilada ota va onaning insoniy sifatleri, bilim saviyasi, ularning sog'lom turmush tarziga muhabbati, dunyoqarash yo'nalishi yosh avlodda g'oyaviy immunitet hosil etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, desak mubolag'a qilmaymiz.

Oila go'yoki bir mevali daraxtga o'xshaydi. Agar ko'chat yaxshi, yumshoq, unumdor yerga ekilsa va uni doimo parvarishlab borilsa, ildizlar yer qa'ridan mustahkam o'rin oladi. Bunday daraxt o'z mevalari bilan hammani bahramand etadi. Aksincha bo'lsa, ko'chat unib-o'smaydi, mazali meva bera olmaydi. Shuning uchun ham oila, undagi munosabatlar shaxsiy ish emas, balki ijtimoiy mohiyatga molik masala ekan, mustahkam, sog'lom turmush tarziga asoslangan oilalar – mafkuraviy ijtimoiy institut sifatida milliy va davr ruhi asosida yosh avlodni tarbiyalay olishini nazarda tutish muhimdir. Oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishda barcha davlat muassasalari, ijtimoiy-siyosiy harakatlar faol ishtirok etishlari, xususan "ommaviy madaniyat" deb atalgan tamaddunning g'ayriinsoniy, g'ayritabiyy ta'sirlaridan saqlab qolishlari darkor.

Ilgarigi mavzularda hozirgi davlatlarning geosiyosati Noosfera davriga muvofiq kelishi uchun bu ishni oiladan boshlash muhimroqdir. Yetti yoshgacha bola ongi va qalbidan mustahkam joy olgan g'oya butun umrga yetar ekan, demak, oilaviy kitoblar nashr ettirib, unda Noosfera davri va uning talablari ifodasi bo'lgan g'oyalar ruhida yosh avlodni tarbiyalash masalasi yetakchi mayl bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

**Norasmiy uyushmalar va ularning yoshlar tarbiyasiga ta'siri.** Hamma davrlarda va har bir jamiyatda qon-qardoshlik aloqalari, yoshga, jinsga xos, ma'lum bir sohaga qiziqishga muvofiq yoki muayyan g'oyalarga e'tiqoddan kelib chiqadigan norasmiy uyushmalar mavjud bo'ladi. Shu doirada ham g'oyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati mavjud ekanini, albatta, hisobga olish lozim.

Sharq xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda kichik oiladan tashqari katta oilalar ham bo'ladi. Bu o'sha urug'-qabiladoshlik munosabatlarida yetakchi mayl bo'lgan qon-qardoshlik aloqalaridir. Odatda o'zbek oilasining keksa avlodi bunday qon-qardoshlik munosabatlarini e'zozlab, rivojlantiradi va shu asosda yosh avlodga – alohida mustaqil oila bo'lib chiqib ketgan bolalari, ularning farzandlari (nabiralar, evaralar, hatto chevaralar)ni ham o'z ta'sir doirasida ushlab turishga harakat qiladilar. Shu jarayonda qon-qarindoshlikka asoslangan norasmiy uyushmalar vujudga kelib, ular ham g'oyaviy ta'sir o'tkazishda faol ishtirok etadilar. Katta oila boshida turgan keksa odamlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, g'oyaviy nuqtai nazari u yoki bu darajada ana shu uyushma doirasiga kirgan odamlar qadriyatiga aylanadi. Demak, bunday norasmiy uyushmaning ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga ta'siri unga boshchilik qiladigan shaxslarning ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazarlariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Aksariyat istiqomat joylarida va umuman jamiyatda yosh xususiyatidan yoki jinsga mansublikdan kelib chiqib, norasmiy uyushmalar o'zidan-o'zi shakllanadi. Chunki odamzot fikrlovchi mavjudod bo'lgani sababli, u ijtimoiy muhitda o'z o'rniga ega bo'lish uchun kurashadi. Bunda yosh xususiyati bilan bog'liq uyushmalar, ularning "lider" (boshliq)lari vujudga kelib, ma'lum bir harakatga boshchilik qiladilar. Masalan, Rossiya va qator xorijiy mamlakatlarda nosog'lom oilaviy muhitdan bezor bo'lib qolgan yoshlar o'z uyushmalarini tashkil etayotganligi, "bomj" deb ataladigan, hatto tilamchilarning norasmiy tashkilotlari O'zbekistonda ham borligi shundan dalolat beradi.

Mahallalarda ayollar va erkaklarning norasmiy uyushmalari bo'lib, ular o'z yig'inlarida davlat siyosati, xalqaro hamjamiyatdagi munosabatlarga doir fikrlar bilan o'zaro muloqot qilib, shundan kelib chiqib muayyan munosabatlar shakllanadi. U avvalo oila, mahalla doirasida, so'ngra boshqa joylarga tarqaladi.

Chet ellarda vujudga kelgan hamda o'z Nizomlariga ega bo'lgan tashkilotlar, masalan, Hizbut-tahrir, islomiya, vahhobiylik va shu kabilarning O'zbekistonda norasmiy (yashirin) tashkilotlari mavjud. Andijonda "Akromiya" degan norasmiy tashkilot o'zining g'ayridiniy, g'ayriinsoniy g'oyalarini oila va mahalla kabi mafkuraviy ijtimoiy institutlar orqali ayrim kishilar ongida qaror topishiga erishib, dahshatli fojialar ro'y berishga sababchi bo'ldilarki, bunday hollalarni hisobga olib, milliy g'oyani keng targ'ib etish, ayniqsa Noosfera davrida tarafkashlikka asoslangan har qanday ko'rinishdagi mafkuralarga qarshi g'oyaviy immunitetni hosil qilish ijtimoiy zarurat bo'lib turibdi.

*Mahalla (istiqomat joy)larning ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi o'rni.* O'zbekistonda mahalla tuzilmasining tarixiy ildizlari bag'oyat chuqur va purviqordir. U sharqona demokratiya instituti shakllaridan biri sifatida jamoatchilik fikri va milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda aholiga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish mafkuraviy ijtimoiy instituti vazifasini ham bajarib keladi. Mustaqilikka erishilganidan so'ng mahalla tuzilmasi o'zini-o'zi boshqaruvning milliy modeli sifatida tan olinib, u O'zbekiston Konstitutsiyasi va Prezident Farmonlari bilan mustahkamlandi. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" shiorlari ostida mahallalarga davlatning birqator funksiyalarini asta-sekin berib borish siyosati izchil amalga oshirib kelinmoqda.

G'oyaviy ta'sir deganda faqat og'zaki, yozma yoki ko'rgazmali tashviqot va targ'ibotni tushunmaslik kerak. Xayrli an'anaga aylangan turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar yo'li bilan aholiga kuchli g'oyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati mahallalarda ko'p. Bundan tashqari, mehr-oqibat, saxovat va insonparvarlikka qaratilgan tashkiliy ishlar yo'li bilan ham aholining kam ta'minlangan qismida davlatga, jamiyatga, xalqqa nisbatan ijobiy his-tuyg'ular rivojlantirib boriladi.

Tarixan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda mahalla salmoqli o'rin egallab kelgan. Ana shu boisdan ham "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan aqida xalqimiz ongida o'rnashib qolgan. To'g'ri, sobiq sho'rolar davrida individualizm mayllari uchun yo'l ochilgani mahallalarning g'oyaviy tarbiya sohasidagi rolini anchayin pasaytirib qo'ygan bo'lsa ham, mustaqillik yillarida u qayta tiklanmoqda. "Insonning oilada shakllangan imon-e'tiqodi, odobi, oriyati va vijdoni, g'urur-iftixori, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib,

xalq irodasi, o'zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg'unlashib, jamiyatda sog'lom munosabatlarning shakllanishiga, milliy istiqlol g'oyalarining mustahkamlanishiga olib keladi".\*

Mahalla oqsoqollar kengashi va aholi har doim tashkiliy-tarbiyaviy ishlarda yordamga, maslahatga, yo'l-yo'riqqa muhtoj bo'ladi. Agar hozirgi tarixiy davr Aqlning Ona tabiatga kuchli ta'sir o'tkazish – Noosfera bosqichiga o'tgani isbotlanib, bu sohada mahallaning vazifalari aniq-ravshan ifodalab berilsa, istiqomat joylarida g'oyaviy ta'sir ko'rsatish yangi bir asosda rivojlanishi shubhasizdir. Xususan mahalla (istiqomat joy)larda yuzaga keladigan har qanday tushunmovchilik, ziddiyatlar taraflarning yon berishi, murosayu madoraga kelish asosida tarixan hal qilinish kelinganini e'tiborga olsak, Noosfera davrida mahallalar umumbashariy muammolarni ham hal etishda salmoqli o'ringa ega bo'lishlari mumkin.

O'quv va mehnat jamoalari mafkuraviy institut sifatida "Ta'lim" keng tushuncha bo'lib, uning doirasiga ta'lim tizimining barcha bosqichlaridan tashqari oila, mahalla, mehnat jamoalari, davlat va nodavlat tashkilotlari ham kiradi. G'oyaviy ta'sir ko'rsatishda o'quv jamoalarining alohida o'rni bor. Shu jamoalar yoshlarda ilmiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantiradilar. Olam va unda odamning o'rni to'g'risida izchil bilim berib, unda fuqarolik nuqtai nazarini hosil etadilar.

Har bir odam uchun oila muhiti nechog'li qadrli bo'lsa, o'quv va mehnat jamoasi ham shu darajada qadriyatdir. Zero, shu muhitda odam individ va shaxs sifatida shakllanadi. Moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish jarayoniga tortiladi. "Demak, kasb tarbiyasi, bolani yoshlikdan el-yurtga foydasi tegadigan mehnat faoliyatiga yo'naltirish ham mafkuraviy ahamiyatga egadir".\*

O'quv va mehnat jamoasiga uyushgan odamlar tor kasbiy bilimlardan tashqari olamiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlari g'oyaviy tarbiyada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ana shu jamoalarda o'zaro fikr almashuvlar, hozirgi davr, davlat va mamlakatlar, insoniyat taqdiri va istiqboli haqidagi mulohazalar jamiyat a'zolarida narsa, hodisa va jarayonlar to'g'risida aniq-ravshan tasavvurlar hosil etadi va ularga

---

\* «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». –T.: "Yangi asr avlodi", 2001. 146-b.

\* «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». 167-b.

individual munosabatlar, shundan kelib chiqadigan baholarni vujudga keltiradi.

Albatta, fikrlar xilma-xilligiga yo‘l qo‘yish (plyuramizm) va inson huquqlari muqaddasligi sharoitida individlarga e‘tiqod tanlash erki berilgan. Ammo endilikda ularning umumiy taqdiri Noosfera – Aql sohasining qanday yo‘nalish olishiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib qolganini anglab yetsalar, shubhasiz, tafakkur tarzlarida, u bilan bog‘liq ravishda turmush tarzlarida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. "Odam odam uchun oliy qadriyat" degan aqidaga ishonish, shundan kelib chiqib munosabat belilash malakasini har bir individda hosil etish ishiga mehnat jamoalari salmoqli hissa qo‘sha oladilar.

Bu davrda barcha mehnat jamoalari inson ruhini poklash orqali olamda tobora ko‘payib, hatto aksariyat hollarda g‘ayriinsoniy tusga kirib borayotgan muammolarni hal etish mumkinligiga ishonishlari muhimdir. Chunki bugungi muammolarga bunday yondashuv har bir odamda o‘z kelajagiga va insoniyat istiqboliga umid his-tuyg‘ularini rivojlantirib, individual va ijtimoiy ongni bunyodkorlik tomonga burib yuborish omiliga aylanadi.

Buning uchun esa o‘quv va mehnat jamoalarining avvalo g‘oyaviy ta‘sir ko‘rsatishning mafkuraviy ijtimoiy institutlari sifatida tan olinishi va albatta, shunday yondashuvlardan kelib chiqib, imkoniyat darajasida turgan salohiyatdan foydalanish yo‘llari, usullarini izlab topish uchun bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yishga to‘g‘ri keladi. Ilmiy-tadqiqot ishlarining xulosalari va tavsiyalariga tayanib, Noosfera davri talablari asosida o‘quv va mehnat jamolari faoliyatlarini inson ruhini poklash, odamzotda o‘z turini qadrlash orqali qadr topish, har bir jamiyatda ma‘naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirishga yo‘naltirib yuborish ham milliy, ham umumbashariy mohiyat kasb etmoqda.

*Xulosa:* a) oilalar g‘oyaviy ta‘sir ko‘rsatishning mafkuraviy ijtimoiy instituti ekanini nazarda tutib, munosabat belgilash lozim; b) aholi yashaydigan joylarda o‘zidan-o‘zi shakllanadigan norasmiy tashkilotlar ham odamlar faoliyati turli tomonga burish imkoniyatiga ega ekanligini nazarda tutish muhimdir; d) mahalla (istiqomat joylari)ga uyushgan aholining jamiyatda ma‘naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirishdagi o‘rni salmoqli bo‘lib qolishi mumkin; e) o‘quv va mehnat jamoalari g‘oyaviy ta‘sir ko‘rsatishning mafkuraviy ijtimoiy instituti sifatida odamzot ruhini poklashda ulkan salohiyatga egadir; j) Noosfera davrida

Aqlni batamom yaratuvchilik tomonga burishda yuqoridagi omillardan foydalanish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini keng yo'lga qo'yish zarurati paydo bo'lmoqda.

*Kalit so'zlar:* oila, mahalla (istiqomat joy), o'quv jamoasi, mehnat jamoasi, mafkuraviy ijtimoiy institut, davr ruhi, bosh tarbiyachi va hakam, "ommaviy madaniyat", norasmiy uyushmalar, kichik oila, katta oila, boshliq (lider), sharqona demokratiya, "Ta'lim", "Ta'lim tizimi", plyuralizm.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Yakkanihlikka asoslangan oilalarning afzalligi nimada?
2. G'oyaviy ta'sir ko'rsatishda oila qanday imkoniyatga ega?
3. Mahalla (istiqomat joy)larda milliy g'oyani odamlar ongiga singdirish qay ahvolda?
4. Norasmiy uyushmalarning g'oyaviy ta'sir ko'rsatishdagi o'rni qanday?
5. Norasmiy jamoalar lideri (boshlig'i) dunyoqarashi va e'tiqod yo'nalishining aholiga ta'siri qanday bo'ladi?
6. O'quv jamoasida yoshlarga g'oyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati va undan foydalanish ahvoli qanday?
7. Mehnat jamoalari g'oyaviy ta'sir ko'rsatish mafkuraviy ijtimoiy institut sifatida o'z rollarini qanday bajarmoqdalar?
8. "Ommaviy madaniyat" nima va uning O'zbekiston xalqlari tafakkur va turmush tarziga g'oyaviy ta'siri qanday?
9. Nega milliy manfaatlarimizga va e'tiqodlarimizga zarar yetkazadigan g'oyalar ba'zi yoshlar ongiga singib, ularning milliy mustaqillikni mustahkamlashga xilof faoliyat yo'nalishini belgilashlariga sabab bo'lmoqda?

### **G'OYAVIY TA'SIR KO'RSATISH VOSITALARI, SHAKLLARI, USLUBLARI**

*So'z – g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning mafkuraviy vositasi sifatida.* Noosfera davri odam-olam munosabatlarida ilmiy haqiqatlarga asoslangan yangicha dunyoqarash, shu asosda yangicha tafakkur va turmush tarzi shakllanishini taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda geosiyosat va mafkurada ham yangicha yondashuvlar qaror topishi, insoniyat

nihojat milliy, irqiy, diniy va boshqa negizda muqarrar chiqadigan ziddiyatlarni zo'rvonliklarsiz, urushlarsiz, terrorlarsiz, tarafkashliklarsiz hal etish bosqichiga o'tishiga umid qilish mumkin. Shundagina ilmiy-texnika va texnologiya muvaffaqiyatlari va globallashuv jarayonlaridan har bir elat, millat, mintaqa xalqlari va butun bashariyat manfaatlari yo'lida to'la-to'kis foydalanish imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Bu ulug' maqsadlarga erishishda mafkura vositalari, shakllari, uslublari haqida yoshlarimiz zarur bilimga ega bo'lishlari tarixiy zaruriyatdir.

Muayyan dunyoqarash ifodasi sifatidagi g'oyalarni odamlar ongiga yetkazish, ularning qalbidan mustahkam o'rin olishida so'z asosiy mafkuraviy vosita hisoblanadi. Binobarin, odamzot jamiyat bo'lib yashashga o'tgach, ma'naviyatni qaror toptirish, shu asosda jamoa va jamiyatga uyushgan odamlarda o'zaro hamkorlik, hamdo'stlik ruhini qaror toptirishda so'zdan o'z o'rnida va bilib foydalanishga katta e'tibor berilgan. Masalan, "Avesto"da so'zning qudratiga yuksak baho beriladi va ezgu so'z odamning komillik maqomiga erishishining zarur sharti hisoblanib, shu jarayonda unda ezgu niyat va ezgu amallar vujudga kelishiga e'tibor qaratiladi. Qadimgi Yunonistonda ritorika maktablarida maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan voizlar tayyorlangan. Maktabni muvaffaqiyatli bitirganlar omma oldiga chiqib so'zlash huquqiga ega bo'lganlar. O'rta asrlar, shuningdek, keyingi davrlarda ham islom dini va shariatlaridan yetarli bilimga ega bo'lgan odamlarni voiz deb ataganlar. Ular omma oldiga chiqib, olam-odam munosabatlari haqida gapirganlarida, barcha uning so'zlarini butun vujudi bilan tinglagan. G'arb mamlakatlarining ba'zilarida maxsus germenevtika fani o'tilib, unda bo'lajak mutaxassislarni so'zlarni o'z o'rnida va o'z ma'nosida ishlatishga o'rgatiladi.

Hozirgi davrdagi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, odamzot kundalik shaxsiy kuzatishlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy-siyosiy qarashlariga muvofiq keladigan g'oyalargagina ishonar ekan, bunda mantiqiy bog'lanishlar ifodasi bo'lgan fikrlarga nisbatan kundalik ong darajasidagi o'tkinchi qarashlarga qiziqish katta bo'ladi. Agar voizning bilimi chuqur, notiqlik mahorati yuksak bo'lsa, kundalik ong darajasida keng yoyilgan fikrlarga tayanib, mantiq kuchi bilan o'z qarashlariga ishontira oladi va tinglovchini jiddiy o'ylash va mulohaza qilib ko'rishga da'vat etib, ilmiy-falsafiy jihatdan asoslangan fikrlarga ishonch tuyg'usini vujudga keltira oladi. Demak, notiq yoki voiz nutqida ishlatiladigan,

jamiyat va xalq manfaatlarini ifodalovchi ijtimoiy ramzlar – so‘zlar, iboralar, shiorlar, narsa va hodisalar o‘sha tinglovchi talab-ehtiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga bevosita aloqador bo‘lgandagina ta’sirchan va ishonchli bo‘ladi.

So‘z – dil gavhari, jon ozig‘i deganda, xalqimiz har qanday iborani emas, odamda komillik sifatlarini tarbiyalaydigan, unda o‘z Vatani, millati sha’n-shuhratiga shuhrat qo‘shishi uchun ilhom manbai bo‘ladigan dono fikrlar, ijtimoiy hodisalarga donishmandlarcha baho berish va munosabat belgilash qobiliyatini vujudga keltiradigan ilmiy qarashlarni nazarda tutadi. Ta’lim tizimidagi barcha fanlar o‘qituvchilari yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo‘shadilar. Demak, ularning har bir so‘zi ma’lum ma’noda mafkura bilan vobosta bo‘lib ketadiki, buni nazardan soqit qilmaslik kerak. So‘zga e’tibor – elga e’tibor, degan naql ular uchun dasturulamal bo‘lmog‘i lozim. Insoniyat Noosfera davriga kirgan va ko‘p yirik davlatlarning geosiyosatida an’anaviylik davom etib, tarafkashlik ruhini qaror toptirish mayllari hamon kuchli ekan, har bir o‘qituvchi bu holatni hisobga olib, yoshlarda ilmiy dunyoqarashni qaror toptirish, ularda olamiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berishi lozim. Zero, so‘zga, fikrga, g‘oyaga mafkura vositasi sifatida qaragan shaxs ijtimoiy-siyosiy jihatdan salmoqli so‘zlar orqali yoshlarda istiqlol va taraqqiyot uchun kurash, fidoyilik namunalarini ko‘rsatish ishtiyoqlarini rivojlantirgan bo‘ladi.

***Ta’lim tizimi va g‘oyaviy tarbiya.*** "Ta’lim" va "ta’lim tizimi" tushunchalarida ayniyat va tafovut mavjud. Ayniyat shundaki, yosh avlodga, umuman odamzotga ta’lim berish bilan ota-onalardan tortib, qarindosh-urug‘, yor-birodar, do‘stlar – boringki, muayyan jamoa va jamiyatga uyushgan individlarning barchasi ishtirok etadi. O‘zbeklarda "Bitta bolaga yetti mahalla ahli ota-ona" degan hikmatli so‘z tarixan qaror topganligi bejiz emas. Chunki tarbiya ko‘rgan, jamiyatda yashash ko‘nikmalarini o‘zida hosil etgan insonlar qancha ko‘p bo‘lsa, oila, mahalla, qishloq va boringki, butun mamlakat aholisi tinch-totuv, bir-biri bilan hamkor, hamnafas yashaydilar. Milliy an’analar ruhida tarbiyalangan cho‘pon o‘z halol mehnati, shaxsiy namunasi bilan jamiyatda ma’naviyatni qaror toptirishga munosib hissa qo‘shadi. Boylikka ruju qo‘ygan, olg‘irlik kasaliga mubtalo bo‘lgan, halol bilan xaromning farqiga bormaydigan olim, siyosiy arbob jamiyatda o‘z



"namunasi" bilan muayyan jamoa va umuman jamiyatni izdan chiqarsa, milliy manfaatlariga xiyonat qilsa, cho'pon jamiyat va uning taraqqiyoti, inson kamoloti uchun benazir xizmat qiladi. Shu ma'noda "Ta'lim" ma'lum bir mamlakatda, mintaqada tarixan qaror topgan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar orqali muayyan dunyoqarashni qaror toptirish, milliy o'zlikni va odam o'z-o'zini anglash ruhini singdirishda barcha shaxslarning ishtirok etishini nazarda tutadiki, shu jihatdan "Ta'lim tizimi" u tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

"Ta'lim tizimi" tushunchasi muayyan tizimga tushganligi, aniq bir maqsadga qaratilganligi hamda barcha zamonlarda mafkura vositasi bo'lib kelganligi bilan "Ta'lim"ga nisbatan chuqurroq va aniq-ravshanroq tushunchadir. Har bir ta'lim tizimi muayyan tarixiy davr ruhini o'zida ifodalab, aniq davlat va jamiyat oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviyat-ma'rifiy vazifalarni bajarish maqsadlariga bo'ysunadi. "Beshikdan tobutgacha ilm izla!" hikmatiga asosan, O'zbekistonda ta'lim tizimi uzluklilikning uzluksizlik tamoyiliga asoslangan. Ya'ni, bog'cha, boshlang'ich va o'rta maktab, oliy o'quv yurti (u bakalavriyat va magistratura bosqichlariga ega), so'ngra aspirantura, doktorantura hamda malaka oshirish institutlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimida g'oyaviy tarbiya markaziy o'rinlarda turadi. Chunki ta'lim tizimining barcha bosqichlarida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar "dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol topshirishga yo'naltirilgan bo'ladi".\* Ta'lim berish jarayoni tarbiyani o'z ichiga oladi, ammo tarbiya ko'p qirrali va yuqorida aytganimizdek, umumxalq ishtirokini toqozo etgani sababli, ta'limni ham nazarda tutadi. Shuning uchun ham tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi to'g'risidagi talablar avvalo ta'lim tizimida ishlayotgan barcha toifadagi individlarga ham va albatta, xalqning hamma tabaqalariga ham taalluqlidir.

Biroq g'oyaviy tarbiya bevosita dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgani sababli, zamonaviy ta'lim tizimida mafkura vositasi sifatida har qanday dunyoqarashni emas, balki odam-olam haqida ilmiy jihatdan asoslangan, falsafiy mazmun bilan boyitilgan dunyoqarash ruhida yoshlarni, butun

---

\* «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». 167-b.

xalq ommasini tarbiyalashga harakat qiladi. "Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqallangan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod maxsulidir".\* G'oyaviy tarbiyada ijtimoiy-gumanitar fanlarning alohida o'rni bor bo'lib, ular muayyan jamiyat oldida tarixan turgan murakkab vazifalar hamda ularni bajarish yo'llari, usullarini ham ko'rsatadi, individlar shaxs bo'lib kamol topishlari uchun yordam beradi. Falsafa shu jihati bilangina vertikal tarzda ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan tutashib, mafkura tusiga kiradi va g'oyaviy tarbiyada markaziy o'rinni egallaydi. Falsafa gorizontalar tarzda tabiiy va texnikaviy fanlar bilan bog'langani uchun fan sifatida u ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Tabiiy fanlar tadqiqotchilari XX asrda Yer deb atalgan kichik olam va unda odamning paydo bo'lishi va evolutsiyasi haqida salmoqli dalillarni to'pladilar, moddiy olam o'z-o'zidan vujudga kelgani va o'z-o'zidan harakatdaligini rad etib bo'lmaydigan misollar bilan isbotladilar. Ayniqsa fizik va ximik olimlarning Tabiat o'z taraqqiyotining Noosfera bosqichiga o'tgani, bunda uning taqdiri o'zi yaratgan va "Odam" deb ataladigan mavjudotning aql-zakovati, faoliyatiga bog'liq bo'lib qolganini isbotladilarki, buni e'tibordan soqit qilish juda katta gumrohlik bo'lur edi. Demak, barcha mamlakatlar xalqlari, ayniqsa ularning siyosiy arboblari ilmiy-texnika va axborot texnologiyalari muvaffaqiyatlarini to'la-to'kis insoniyat va Yer deb atalgan tabiat manfaatlariga bo'ysundirishlari zarur. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida Noosfera davri yangicha dunyoqarashga muhtoj bo'lib turganiga asosiy e'tiborni qaratishga da'vat etilgan. G'oyalarni odamlar ongiga singdirish, ularni yangi zamon talablari ruhida tarbiyalash milliy mafkuralarda ustivor yo'nalish bo'lib qolsa, insoniyatning porloq kelajagi g'oyaviy jihatdan mustahkamlangan bo'ladi.

***Ommaviy axborot vositalari va g'oyaviy ta'sir.*** G'oyaviy ta'sir ko'rsatish, individlar fikrini, qarashlarini muayyan maqsadlarga yo'naltirish, jamiyatda g'oyaviy jipslikni qaror topshirish, imonli komil insonlar shaxsini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari (OAV) – televideniye, radio, gazeta va jurnallar, nashriy kitoblarning betakror o'rni bor. Mafkuraning ta'sirli vositalari sifatida ular odamlarga, butun ommaga milliy mafkuraning Bosh va Asosiy g'oyalariidan kuzatilgan

---

\* Yuqoridagi og'quv qo'llanma. 168-b.

maqsadlarni tushuntirishda, shu jarayonda xalqning energiyasidan yaratuvchilik, bunyodkorlik yo'lida foydalanish imkoniyatini kengaytirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ommaviy axborot vositalari ta'lim tizimida 1-blok fani sifatida o'qitilayotgan hamda respublikaning 19 ta oliygohida tashkil etilgan "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedralarida shu ixtisoslik bo'yicha kadrlar tayyorlash sohasida to'plangan tajribalarni o'rganib, ularni ommalashtirish, mavjud kamchiliklar, ayniqsa o'quv adabiyotlari tanqisligining tub sabablarini aniqlab, ular va boshqa kamchiliklar, nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy maqolalar berishga da'vat etilgan. Davr va zamon, uning boshqa zamonlardan farq qiladigan jihatlari to'g'risida ta'sirli maqolalar berishlari, shu jarayonda individual va ijtimoiy ongning ma'lum bir o'zonlarga burib yuborish imkoniyatlari ularda ulkan, xususan, Noosfera davri, bunda Aqlning va uning mevasi bo'lgan fan-texnika va texnologiya muvaffiqiyatlaridan foydalanishni oqilona, bunyodkorlik, yaratuvchilik, ezgulik tomonga burib yuborish ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga molik hodisa ekanini avvalo bu soha ijodkorlari o'zlari yaxshi anglab olishlari, shu yo'nalishda ta'sirli ko'rsatuvlar, eshittirishlar, salmoqli maqolalar berishlari mumkin.

Maqsad shuki, g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning mafkuraviy vositalaridan biri bo'lgan ta'lim tizimi orqali milliy istiqloq, milliy tiklanish va umuman milliy g'oyani odamlar imon va e'tiqodiga, xalq ommasining maslagiga aylantirish amri mahol. Binobarin, mafkuraning boshqa vositalari, jumladan, OAVda ham milliy g'oya, uning tarixiy va falsafiy ildizlari, millatni jipslashtirishda, milliy mustaqillikni mustahkamlash, milliy qadriyatlar ruhini singdirishda uzoqqa mo'ljallangan maqsadli ishlar amalga oshirilishini zamonamiz voqeligi taqozo etib turibdi. Gap shundaki, biz g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning barcha vositalaridan samarali foydalanish, ularning hammasi to'la kuch bilan ishlashiga erishmay turib, odamlarda, xalq ommasida "g'oyaviy immunitet" hosil qila olishimiz qiyin. Demak, bunday vaziyatda mamlakatimizning o'zida va chetdan yot, begona g'oyalarning kirib kelish imkoniyati kengayadiki, bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

*G'oyaviy tarbiyada xayrli an'analarning o'rni.* Ma'lumki, har bir xalq, millatning tarixan o'z-o'zidan shakllangan va an'anaga aylangan rasm-rusumlari, udumlari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari bo'ladi.

An'analarni 2 turga bo'lish mumkin: birinchisi, yangi zamon ruhiga mos keladigan va shu tufaylidan millat sha'n-shavkati, g'urur va iftixorini rivojlantiradigan, xalqni – xalq, millatni – millat bo'lib uyushishga madad beradigan xayrli an'analar; ikkinchisi, yoshini yashab, oshini oshab bo'lgan, shu tufaylidan ijtimoiy taraqqiyot va inson komolatiga zavol bo'ladigan, milliy parokandalikka yo'l ochadigan zararli an'analar.

An'analar mafkuraviy vosita sifatida individual va ijtimoiy ongga faol g'oyaviy ta'sir ko'rsatishini inobatga olib, ularga tabaqaviy munosabatda bo'lgan ma'qul. Chunki xayrli an'analarni zararli an'analardan farqlay bilish uchun nazariy ong darajasida muhokama yuritish lozim bo'ladi. Real voqelikda ular bir-biriga qorishib ketgan bo'ladiki, xayrlisi bilan zararlisini ajratib olish amrimaholdir. Masalan, to'y marosimlari o'zbeklarda alohida tantana bilan o'tkazilishi rasm bo'lgan. Chunki ular mustahkam oilani barpo qilishda, oilaviy munosabatlar chinakam insoniy tusda rivojlanishida alohida ahamiyatga molik. To'ylarda milliy va diniy bag'rikenglik uchun keng yo'l ochiladi. Shu ma'noda to'ylarimizni xayrli an'analar sirasiga kiritish mumkin. To'y marosimlari tarkibida juda ko'p udumlar, rasm-rusumlar, urf-odatlar bo'ladi. Shular ichida qiz uchun qalin yoki "sut puli" va haddan ziyod ko'p tog'oralar berish urf-odatlari ham bor. Bular yangi shakllanayotgan oila ravnaqi va ayniqsa qudalar o'rtasidagi munosabatlar insoniy bo'lishiga nisbatan ko'pincha ikki yosh va quda-andalar o'rtasida sovuq munosabatlar shakllanib qolishiga ham sabab bo'ladi. To'ylardagi dabdababozlik va isrofgarchilikka yo'l ochadigan udumlarni asl, xayrli an'analar sirasiga kiritib bo'lmaydi.

Odamlarning bir-birini tushunishlari, mehr-oqibatli bo'lishlari, hamkor, hamnafas bo'lib yashashlari uchun ma'naviy-ruhiy vaziyatni yuzaga keltiradigan xayrli an'analarni qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlantirish uchun zarur choralar ko'rish milliy manfaatlarimizga muvofiq keladi. Chunonchi, "Har bir o'zbek oilasida muqaddas sanaladigan mehmonnavozlik, qiz va o'g'il bolalar tarbiyasi borasida maxsus xayrli an'analarning mavjudligi, yil mavsumiga ko'ra barcha oila a'zolari ishtirokida o'tkaziladigan xasharlar, chaqaloqning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar – hamma-hammasi ezgulikka, ya'ni sog'lom g'oyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi".\*

---

\* «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». 177-b.

Mustaqillik yillarida Navro'z, Milliy mustaqillik bayramlari, O'qituvchilar va murabbiylar kuni, "Xotira va qardlash kun" jamiyat a'zolarini milliy g'oya ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda. Bularni o'tkazishda davlat va jamoat tashkilotlari bosh-qosh bo'lib kelmoqdalar.

Demak, an'analarga milliy mafkura vositalaridan biri sifatida yondoshadigan bo'lsak, ular qanday g'oyaviy yo'nalishda va qanday maqsadlarga xizmat qilish masalasiga befarq qarab bo'lmaydi. Ko'p urf-odat, marosimlar oila va mahalla doirasida bo'lishini bahona qilib, ularni tashkil etish va boshqarishni tasodifiy kishilar ixtiyoriga tashlab qo'yish milliy manfaatlarimizga to'g'ri kelmaydi. Masalan, o'lim bilan bog'liq marosimlarni o'tkazishda ham ayrim oilalarni qiyin ahvolga solib qo'yadigan urf-odatlar mavjud. U marosimlar islom nuqtai nazaridan ma'qullanmasa-da, ammo madrasa yoki islom mahadi (oliy o'quv yurti)ni bitirmagan va bu muqaddas dinning asl mohiyatini anglab yetmagan kishilar ko'pincha ularga boshchilik qiladilarki, buni nazardan soqit qilish mumkin emas.

*Madaniy-ma'rifiy muassasalar g'oyaviy tarbiya maskani.* Madaniy-ma'rifiy muassasalar sirasiga madaniyat saroy (uy)lari, kutubxonalar, klublar, muzeylar, teatrlar, kinoteatrlar, sport tashkilotlari, shuningdek, ba'zi kasbiy va ijodiy uyushmalar kiradi. Ular ham milliy ongni rivojlantirish, milliy o'zlikni va qadriyatlarni anglash, odamlarga milliy faxr va g'urur ruhini singdirish, milliy g'oyani targ'ib va tashviq etishda, uni odamlar qalbi va ongiga singdirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ular orqali va ular vositasi ila odamning ham ongiga, ham his-tuyg'usiga g'oyaviy ta'sir etib, muayyan dunyoqarashga ixlos (e'tiqod) tarbiyalanadi. Individlar shundan kelib chiqib, milliy o'zlikni anglaydilar, millat tarixi bilan oshno bo'ladilar. Ularda qadriyatli ong shakllanadi.

Demak, ular faoliyati muayyan dunyoqarash bilan bog'liq ravishda g'oyaviy yo'nalish olganda, individual va ijtimoiy ong aniq bir maqsadli tusga kiradi. Binobarin, g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning muhim vositalaridan hisoblangan bu imkoniyatlardan keng va maqsadli foydalanish, individlar dunyoqarashi ilmiy yo'nalish olishi, odamlarga ma'naviy-ruhiy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin. Masalan, teatr sahnasida Ona tabiat o'zini yaratgan va odam deb ataladigan mavjudotning saxovatiga muhtoj bo'lib turgani badiiy obrazlarda o'z

ifodasini topsa, uning dunyoqarashlik ahamiyati naqadar purviqor bo'ladi. Bunday asarlarning yuzaga kelishi va kinoteatrlar repertuarlaridan keng o'rin olishi zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, individlarda toshbag'irlik hislarini rivojlantiruvchi, ularda hayvoniy xirslarni qo'zg'atadigan filmlarga chek qo'yilishiga yo'l ochgan bo'lur edi.

Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida milliy ongni xiralashtirish, shu jarayonda milliy madaniyatni yo'qotish siyosatiga xizmat qilgan mafkura ta'sirida ijodkorlarimiz 1918-1923-yillarda mustaqillik uchun milliy-ozodlik urushi olib borgan vatandoshlarimizni qonxo'r, zo'ravon, bosmachi etib ko'rsatish uchun chakana mehnat sarflamadilar. Mustaqillik sharofati bilan o'sha g'oyaviy tajovuzkorliklar xato ekanini asosli ravishda porloq obrazlarda ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq milliy g'oyaga ixlos yetarli bo'lmagani uchun na sahnalarda va na kinoteatrlarda xalqimizga bunday asarlar taqdim etilmayotganiga taajjublanasan. Tarixchilarning ba'zi asarlarida hayotini millat ozodligi va istiqboli uchun bag'ishlagan vatandoshlarimiz timsolida hanuz "bosmachi" gavdalanayotgani, ehtimol, unga sabab bo'layotgandir. Shuning uchun ham bu muassasalar jamoalarining o'zini avvalo milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularda yangi zamon ruhini anglash his-tuyg'ularini rivojlantirib, "g'oyaviy-badiiy sayoz, qadriyatlarimizga yot bo'lgan asarlarni sahnaga olib chiqmaslik ham juda zarur ish hisoblanadi".

Yakka mafkurachilik hukmron bo'lgan sobiq sovet davrida o'sha davlat siyosatiga zid asarni sahnalashtirish umuman mumkin emas edi. Fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yish Asosiy Qonunimizda o'z ifodasini topgan ekan, o'z millati manfaatlariga, uning mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan asarlarni sahnaga olib chiqish yoki kinofilmlar ekraniga chiqarish har bir san'atkorning vijdon amriga havoladir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarining boshqa yo'nalishlari ham mafkuraviy vositalar sifatida milliy g'oyani tashviqot qilish, uni odamlar ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga egadirlar. Faqat ularga uyushgan jamoalarning nazariy ong darajalari zamon talablariga muvofiq yuksaklarga ko'tarilishiga, millatimizning g'oyaviy jipsligi yo'lida o'zlariga bog'liq ishlarni qilishlariga bog'liq.

*G'oyaviy tarbiyada adabiyot va san'at.* G'oyaviy ta'sir ko'rsatishda adabiyot va san'at tarixan mafkuraning qudratli vositasi bo'lib kelgan. Milliy mustaqillikni mustahkamlash yillarida milliy xotirani tiklash va rivojlantirish, ijtimoiy adolat va uning tamoyillarini keng xalq ommasi anglab olishi uchun adabiyotchilar va san'atimiz ahli holi baqudrat harakat qilib kelmoqdalar.

Mafkuraning bu ommaviy vositasi shu bilan yanada e'tiborliki, Sharq xalqlari, jumladan, o'zbeklarning tafakkur tarzi badiiy obrazlar orqali shakllanib keldi. "Avesto"dan tortib, Qur'oni Karim, xalq og'zaki ijodi, hatto ilmiy-falsafiy asarlarning aksariyati nazm shaklida yozilganligi ma'lum. Ana shu boisdan ham badiiy adabiyot va san'at asarlari orqali ilgari surilgan g'oyalar, dunyo va odamga qarashlarga doir fikrlarni xalqimiz tezda ilg'ab oladi. Ularni qabul qilish va miyada takror mulohaza etib ko'rish osonlashadi.

Agar yozuvchi va san'atkor Noosfera davri, uning insoniyat oldiga qo'yayotgan yuksak mas'uliyati talablarini chuqur anglab yetsa, ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga molik asarlarni yaratishga kuchli ishtiyoq paydo bo'lishi, bunday mayl odamlar qalbining to'rida yashirinib yotgan ezgulik his-tuyg'ularini qo'zg'atishi, odamlar va xalqlarni yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlarida yanada faolroq qatnashishga da'vat etishi aniq. Kichkina she'rdan tortib, yirik romanlargacha, oddiy havaskorlik rasmlaridan tortib, butun insoniyatga qaratilgan polotna asarlarigacha Noosfera davri imkoniyatlarini yorqin badiiy lavhalarda aks ettirsa, bunda milliy ong yangicha dunyoqarash yo'nalishida rivojlanadi. Undagi umumbashariy mazmun esa millatimiz ravnaqiga ravnaq qo'shishiga xizmat qiladi.

Bu fikrlarni aytishdan maqsad shuki, milliy mafkura umumbashariy muammolarni anglatish, ularni hal etishga mafkuraviy vositalar, jumladan adabiyot va san'at salohiyatidan foydalanish izmiga solinsa, milliy qadriyatlar zavolga uchramaydimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Bunday xavotirliklar bo'lishi tabiiy. Ammo shuni ta'kidlash o'rinliki, umumbashariy jihatlari yuksak bo'lgan milliy madaniyatninggina istiqboli porloq, mazmun-mohiyati purviqor bo'ladi. Masalan, Shekspirning "Gamlet", "Otello" dramatik asarlari shuning uchun asrlar davomida yashab, turli milliy sahnalarda katta olqishlarga hanuz sazovor bo'lib kelayotganining tub sababi avvalo unda ilgari surilgan g'oyalar umumbashariy ahamiyatga molikligidadir. O'sha asarlarda

umumbashariy g'oyalar milliy shaklda nihoyatda ta'sirli obrazlarda o'z ifodasini topganligini inkor etish qiyin.

**G'oyaviy ta'sir o'tkazish shakllari.** Muayyan g'oyani individlar ongiga singdirish, ularda bu g'oyaning haqligiga ishonch ruhini qaror toptirish va uni e'tiqod (ixlos)ga aylantirishda mafkuraviy shakllarning ham o'ziga xos o'rni bo'ladi.

G'oyaviy ta'sir o'tkazishning og'zaki, yozma, tasviriy va texnikaviy mafkuraviy shakllari mavjud. Ta'sir o'tkazishning og'zaki shakli bevosita va bilvosita muloqot ko'rinishiga ega.

Tarixan g'oyaviy ta'sir o'tkazish shaklining bevosita muloqot ko'rinishidan keng foydalanib kelingan. Chunki turli darajadagi bilimga ega bo'lgan, dunyoga va odamlarga munosabatda individual qarashlar mayli kuchli odamlar bilan yuzma-yuz turib, bevosita o'z fikr va mulohazalarini bayon etish eng ta'sirchan va hayajonli bo'ladi. Buning uchun notiqning o'zi muayyan dunyoqarashga qattiq ishongan, qalban va ruhan o'sha dunyoqarash ifodasi bo'lgan g'oyalarni odamlar ongiga yetkazishga o'zini-o'zi tayyorlagan, bu yumushni shaxsiy hayoti ma'nosi deb anglagan voizlar kerak bo'lgan. Davlat va jamiyat yo'li bilan maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar shakllantirilgan. Ular o'zi targ'ib qilmoqchi bo'lgan dunyoqarashning chuqur bilimdoni, auditoriya xususiyatiga qarab turib darhol tinglovchilarga muvofiq keladigan so'zlar, iboralar, qochirim gaplarni topishga mohir, notiqlik san'atini puxta egallagan tajribali shaxslardan iborat voizlar bo'lgan. Voizlar og'zaki muloqotning monolog, dialog, bahs-munozara, imo-ishora, qo'l va mimika harakatlari usullaridan o'z o'rnida foydalana olganlar. Bular nafaqat g'oyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirib qolmay, ayni chog'da tinglovchilarga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatib, ularning his-tuyg'ularini ma'lum bir o'zanga burib yuborishga ham xizmat qilgan.

G'oyaviy ta'sir ko'rsatuvchi minbarda o'zini erkin tutishi, o'rinni xatti-harakatlari bilan tinglovchilarni o'ziga qaratib olish hislatiga ham ega bo'lishi muhimdir. "Bu ham notiqqa nisbatan ishonch va e'tiqodni oshiradi. Yoshlar auditoriyasida, voizning murojaatiga e'tibor jiddiyroq bo'ladi. Ziyoli kishilar, olimlarning auditoriyada mantiqiy, ilmiy taxlillarga asoslangan fikr va mulohazalari katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi".\*

---

\* «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». 159-b.



G'oyaviy ta'sir ko'rsatishning og'zaki shakli keng qo'llaniladi. Oilada, istiqomat joylarida, o'quv va mehnat jamoalarida, davlat va nodavlat tashkilotlarida, ta'lim tizimida, turli yig'inlar va anjumanlarda bu shakl keng ravishda qo'llaniladi. Albatta, odamlar, avvalo yoshlarning muayyan dunyoqarashiga ixlos qo'yishlarida g'oyaviy tarbiya shaklining bevosita muloqot ko'rinishidan samarali foydalanishning ahamiyati katta. Aytaylik, Noosfera davri xususiyatlari, Ona tabiat taqdiri ko'p jihatdan odamlar aql-idroki qay tomonga burilishiga bog'liq ekanligi to'g'risidagi qarashlar oila, mahalla, o'quv va mehnat jamoalarida, g'oyaviy ta'sir ko'rsatadigan boshqa barcha muassasalarda o'z ifodasini topib qolsa, g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning og'zaki shakli bunda nihoyatda qo'l keladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash o'rinliki, bugungi bola, o'quvchi yoki talaba kelajakda siyosat maydonida ham faoliyat ko'rsatadi. Ehtimolki, u geosiyosatni belgilovchi shaxs darajasiga ko'tarilar. Yoshligidan Noosfera davri va uning insoniyat oldiga qo'yayotgan talablarini anglab yetgan shaxsning siyosiy hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

G'oyaviy ta'sir ko'rsatishining bilvosita shakllari ommaviy axborot vositalari, nashriy risolalar va kitoblardir. Ular orqali olimlar, tadqiqotchilar, yozuvchilar, siyosiy arboblardan, mashhur ulamolarning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, mulohazalar odamlar ongiga yetib borib, ularda muayyan dunyoqarashni qaror toptiradi.

G'oyaviy ta'sir ko'rsatishning tasviriy shakliga turli aholi maskanlari, ko'chalarning bo'ylariga katta-katta harflarda qo'yiladigan turli chaqiriqlar, rasmlar, plakatlar va boshqalar kiradi. Bunday shakllardan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ham foydalaniladi. Hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy reklamalar odamlar ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Hatto daftar, kitoblarning muqovalari, kiyimlardan ham g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning tasviriy shakllaridan keng foydalanib kelinmoqda. Dollar yoki yevro kabi pul banknotalari ham ma'lum darajada ijtimoiy reklama rolini bajarmoqda.

G'oyaviy ta'sir ko'rsatishning texnikaviy shakllariga hozirgi paytda e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Internet, turli video va audio kassetalar, disketlar orqali muayyan g'oyalarni odamlar ongiga singdirishga katta e'tibor berilmoqda.

*G'oyaviy ta'sir ko'rsatish usul va uslublari.* G'oyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirish ko'p omillarga bog'liq. Zero, yangi dunyoqarash

bilan bog'liq g'oyalari asrlar davomida ma'lum bir xalq, millatga mansub kishilar ongida qaror topgan dunyoqarash ifodasi bo'lgan g'oyalarga duch keladi. O'sha an'anaviy qarashlarning zamon talablariga javob beradigan jihatlari vorislik sifatida saqlagan va ularga tayangan holda yangicha dunyoqarash hamda shunga muvofiq tafakkur tarzini shakllantirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Masalan, ilmiy-texnika inqilobi tufayli yuzaga kelgan hamda Ona tabiatni halokat yoqasiga keltirib qo'ygan qator muammolar faqat ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarning yangi yo'nalishlari bo'yicha izlanishlarni izchil davom ettirishni taqozo etadi.

Hozirgi davrda deyarli barcha mamlakatlarda diniy qarashlarga e'tiqod qo'ygan odamlar yonma-yon yashab, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish yo'lida og'a-inilardek mehnat qilmoqdalar. Milliy, irqiy, diniy tafovutlar ishlab chiqarish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Faqat oilaviy-maishiy sohalarida o'zini turli tarzda namoyon etishi mumkin. Ammo ijtimoiy-siyosiy hayotda milliy, irqiy, diniy tafovutlardan foydalanib, o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshiradigan kuchlar hamma davrlarda bo'lgan. Milliy g'oya aynan mana shunday buzg'unchi kuchlarga qarshi kurash jarayonida individlar ongidan va qalbidan o'rin olib, jamiyatda g'oyaviy parokandalikning oldini olib qolishi mumkin. Buning uchun faqat ta'sirli mafkura kerak bo'ladi. Shundagina g'oyaviy ta'sir samaradorligini oshirish imkoniyati real voqelikka aylanadi.

Milliy g'oya va mafkura o'z mohiyat e'tibori ila ilmiy-falsafiy qarashlarga tayansa-da, ammo u barcha dinlardagi inson ruhini poklashga yordam beradigan qadriyatlarga vorislik sifatida yondashadi. Bu ham milliy g'oya ta'sirchanligi va samaradorligini oshirilishiga yordam beradi.

Milliy g'oya va mafkura bo'yicha respublikamizda ilmiy-tadqiqot ishlari boshlanib, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlanmoqda. Tadqiqot natijalari milliy mafkurani ilmiy negizda takomillashib borishi, undagi g'oyalari boshqa yot, zararli g'oyalarga qarshi kurashda katta ilmiy salohiyatga ega bo'lishi, binobarin, g'oyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy fikrni o'rganish, unga tayanib turib, barcha mafkuraviy ijtimoiy institutlar va vositalardan g'oyaviy ishlarni ilmiy asosga qo'yishda samarali foydalanish mumkin. Masalan, mahalla ijtimoiy fikrni o'rganishda alohida o'ringa ega. "Mahalla ahli har bir oilada ro'y berayotgan hodisalarni biladi, insonlar taqdiriga befarq bo'la olmaydi,

faollar orqali ijtimoiy hayotdagi har bir o'zgarish, odamlar ongi va qalbidagi xis-kechinmalar o'rganiladi".\* Binobarin, g'oyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirishda mafkuraviy ijtimoiy institutlarda faoliyat ko'rsatayotgan individlar orasida sotsiologik tadqiqotlarni keng yo'lga qo'yib, ularning natijalari negizida aniq tadbirlar belgilash muhimdir.

Sotsiologik tadqiqotlarni yo'lga qo'yishda mutaxassislar ishtirokida anketa tuzish va so'rovlar o'tkazish aniq holatni aniqlashda qo'l keladi. Odamlarning turli toifalaridan intervyular olish ham ijtimoiy fikrni o'rganishga yaxshi yordam beradi. "Umuman, milliy g'oyalarning inson ongidagi monitoringini aniqlashda, ma'lumotlilik darajasiga ko'ra, ochiq savollar bilan yozma fikrlarni to'plash, intervyu yo'li bilan xilma-xil fikrlarni o'rganish samaraliroq bo'ladi".\*

Joylarda "ishonch pochталari" tashkil etilib, aholining xatlari, xabarları orqali ham ijtimoiy hayotdagi ba'zi salbiy holatlar, uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash mumkin. Hujjatlar, yozma manbalar, xatlarning mazmuni, OAV materiallarini tahlil etish orqali ham g'oyaviy ta'sir samaradorligini oshirish mumkin.

Mahalla, tuman, shahar va viloyatlarda g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning ahvolini o'rganishda ma'lum bir hisobot yilida o'sha joylarda sodir etilgan jinoyatchilik, oilaviy mojarolarning ahvoli, ularning yildan-yilga kamayib yoki oshib borishiga qarab baho berish ham g'oyaviy ta'sir samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

*Xulosa:* a) o'ylab va o'z o'rnida ishlatiladigan so'z g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning qudratli vositasidir; b) ta'lim tizimi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishning muhim mafkuraviy vositasi hisoblanadi; v) ommaviy axborot vositalarining g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari keng; g) g'oyaviy tarbiyada mafkura vositasi sifatida xayrli an'analarning o'rni va roli ulkandir; d) madaniy-ma'rifiy muassasalar g'oyaviy ta'sir ko'rsatish maskanidir; e) g'oyaviy tarbiyada adabiyot va san'atning betakror o'rni bor; j) g'oyaviy ta'sir ko'rsatish shakllarini anglash, ulardan o'z o'rnida foydalanish muhimdir; z) g'oyaviy ta'sir samaradorligini oshirish usul-uslublari borki, ulardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

---

\* «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». 164-b.

\* «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». 164-b.

*Kalit so'zlar:* so'z qudrati, ritorika, germeneytika, voiz, notiq, ramzlar, mafkura vositalari, OAV, g'oyaviy immunitet, xayrli an'analar, zararli an'analar, madaniy-ma'rifiy muassasalar, mafkuraviy vositalar, milliy xotira, nazm, obrazli tafakkur, mafkuraviy shakllar.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. So'z qudrati deganda nimani tushunasiz?
2. G'oyaviy ta'sir ko'rsatish vositalaridan g'oyaviy immunitet hosil etishda qanday foydalanilmoqda?
3. "Ta'lim" va "ta'lim tizimi" tushunchalaridagi ayniqlik va tafovut nimadan iborat?
4. Ommaviy axborot vositalarining milliy g'oyani ommaning ongiga singdirishdagi faoliyatlarini qanday baholaysiz?
5. G'oyaviy ta'sir ko'rsatishda nega an'analarga tabaqaviy yondashuv kerak? .
6. Madaniy-ma'rifiy muassasalar g'oyaviy ta'sir ko'rsatishdagi o'z imkoniyatlaridan qanday foydalanyaptilar?
7. G'oyaviy tarbiyada adabiyot va san'atning o'rni va roli qanday?
8. G'oyaviy ta'sir ko'rsatish usul va uslublari deganda nimalar tushuniladi?

### **NOOSFERA VA BARQAROR TARAQQIYOT STRATEGIYASI**

***Barqarorlik uchun har bir xalq va mamlakat mas'ul.*** Odamzot boshqa mavjudotlardan farqli ravishda tabiat (yer muhiti)ga moslashibgina qolmay, balki aql hamda uning samarasi bo'lgan fan va texnika yordamida o'zining tobora o'sib boradigan ehtiyojlarini qondirishda unga faol ta'sir etadi. Keng hajmdagi ilmiy, texnikaviy va texnologik taraqqiyotdan foydalanishni oqilona izga, ya'ni butun insoniyat manfaatlariga muvofiq keladigan faoliyatlarga burib yuborish muammosi Planetar ong va yangicha tafakkur tarzini shakllantirishni taqozo etib turganini anglash lozim.

Noosfera – Aql sohasi bevosita har bir individ faoliyati bilan uzviy bog'liq ijtimoiy hodisadir. Shu ma'noda u har bir xalq va mamlakat aholisidan o'zi yashab turgan tabiiy muhit ifloslanishi, ya'ni tuproq, suv, havo zaharlanmasligi uchun qayg'urish, shu sohada o'ziga bog'liq

bo'lgan amaliyot bilan shug'ullanishni taqozo etadi. Biroq bu faqat bir odamning o'ziga yoki butun mamlakat aholisiga bog'liq bo'lganda edi, bu muammoni hal etish nisbatan oson bo'lardi. Chunonchi, suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik natijasida keyingi 30 yil ichida hayvonlarning 20 turi yo'qolib ketdi, o'rmon maydonlari keskin qisqardi, sahro va tog' o'rmonlari zavolga uchradi. Bunga bir misol 1923-yildan beri benzinga tetratil-svinets qo'shish natijasida havoning zaharlanishi nisbatan oshib ketdi. Buning oqibatida tirik organizmda modda almashinuvi buzilmoqda, masalan, aqliy zaif bolalar tug'ilishi ko'paymoqda, miyaning doimiy og'rig'i paydo bo'lmqda. U zararli modda suyakdagi kalsiyning o'rmini egallash qobiliyatiga ega, oqibatda uzoq vaqt davomida uni zaharlamoqda. Albatta, olimlar mavjud vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini qidirayptilar. Boshqa joylardagi kabi O'zbekistonda ham atrof-muhitni muhofaza etish, biologik xilma-xillikni asrab qolish bo'yicha Milliy dastur ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra, atrof-muhitni sog'lomlashtirish va mamlakatning barqaror rivojlanish yo'liga solib yuborish nazarda tutilgan.

Barqarorlikning ikkinchi jihati borligiga e'tibor bergan ma'qul.

Unga natijadorlik va jarayon nuqtai nazaridan qarash lozim. Agar jamiyat Noosfera davri talablarini hisobga olib, jiddiy ratsional bilimlarga tayansa, natijadorlik nuqtai nazaridan insoniyat barqaror rivojlanish pallasiga kirib oladi. Jarayon nuqtai nazaridan jamiyat va tabiat koevolutsiyasi ta'minlangandagina taraqqiyot barqarorlik izmiga tushib ketadi.

Barqaror rivojlanish xalqaro hamjamiyat qabul qilgan umumiy strategiya (uzoqqa mo'ljallangan maqsad rejasi)ning nomidir. Ushbu strategiya atrof-muhit (ekologiya), demografiya (aholishunoslik), iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdan iborat uch muammoni hal etishni nazarda tutadi. Bu g'oya hozirgi va kelajak avlod uchun yuksak hayotiy standartlarni ta'minlash hamda yashash muhitini muhofaza etish va yaxshilashga qaratilgan. Zero, barqaror taraqqiyot o'zgarish jarayoni bo'lib, uning oqibatida tabiiy resurslardan va mablag'lardan foydalanish, fan, texnologiya va ijtimoiy struktura (tuzilish)lardagi o'zgarishlar hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarni hisobga olgan holda kelishuv, muosalarni nazarda tutadi. Odamzotning barqaror taraqqiyot yo'lidagi faoliyati natijasida Noosfera – Aql sohasi insoniyatning butun amaliyotini qamrab olishi kerak. Shundagina

atrof-muhit musaffoligida yashashni maqsad qilib olgan bilimdon inson shaxsi shakllanadi. Bunday jarayon har bir mamlakatda boshlanib, butun dunyoni qamrab olgandagina, individual va ijtimoiy ongda o'zgarish sodir bo'lib, o'z navbatida u ijtimoiy voqelikni ham tubdan o'zgartirib yuboradi.

*O'zgalarni o'zingdek hurmat qilish muammosi.* Yer biologik evolutsiyasi sifatida Noosfera ilm, g'oyalari, maqsadlar, ma'lumotlar, fikrlar, ideallar, obraz (timsol)lar, fahm-farosat va idrok kabi ruhiy hodisalarni o'z ichiga oladi. Binobarin, u insoniyat faoliyatini yagona, yaxlit biosfera doirasida qayta fikrlab chiqishni taqozo etadi. Chunki insoniyat faoliyati ko'p hollarda nafaqat ekologiyani ifloslantiryapti, shu bilan birga fan-texnika va axborot texnologiyasi kashfiyotlaridan g'ayriinsoniy ishlar uchun ham foydalanib, aqlning nooqilona tomonga og'ishi, axloqning o'z tarixiy o'zanidan chiqib borishi natijasida odam va olam munosabatlari ba'zi hollarda dahshatli tus olmoqda. Davlatlar bilan davlatlar o'rtasida kelib chiqadigan ziddiyatlarni hal etishda zo'ravonlik, harbiy kuch ishlatish mayllari hamon uchramoqda. Chunki geosiyosatda an'anaviy tamoyillardan voz kechilmayapti. Milliy, irqiy, diniy, sinfiy, guruhiy negizda chiqadigan ziddiyatlarni qadam-baqadam murosaga kelish yo'li bilan hal etish, muammolar yechimini oqilona izlab topish o'rniga ko'pincha his-hayajonlar, kibru havo, manmanlikka berilish tendensiyalari yetakchilik qilmoqda.

V.I.Vernadskiy ta'limoti bo'yicha, Noosfera asosida quyidagi omillar yotadi:

- a) aql sohibi bo'lgan odamning butun planetaga yoyilishi;
- b) odamlarni bir tur sifatida birlashtiradigan aloqa va muloqot vositalarini rivojlantirish;
- d) geologik o'zgarishlar miqyoslari bilan bog'liq odam faoliyati uchun energiyaning yangi manbalarini kashf etish;
- e) davlat tuzilmalarini global miqyosda demokratlashtirish;
- f) o'z oqibatlarini jihatidan geologik miqyoslari bo'lgan jamiyatni to'lasicha axborotlashtirish va ilmiy ijodga keng yo'l ochish.

Odam va uning turli jamoalari faoliyati faqat ularning aql-idrokiga bog'liq emas. Ularning faoliyati qanday yo'nalish olishi aniq tarixiy sharoitda davlat tomonidan belgilanadigan va izchillik bilan amalga

oshiriladigan siyosatga hamda bu siyosatning mafkuraviy vositalar orqali qanday tushuntirishga ham bog'liq. Mana shu holatda muayyan siyosatni belgilaydigan shaxs, uning atrofiga uyushgan jamoaning bilim darajasi, hayotiy tajribasi, tarixiy xotirasi, insoniy sifatlari va albatta, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Aslida har qanday jamoa va mamlakat xalqlari shaxslar tufayli aniq sotsial qiyofaga kirib, muayyan maqsadni ro'yobga chiqarish jarayonida birlashadilar va harakat birligini vujudga keltiradilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, odam bilan tabiat o'rtasida emas, balki avvalo jamiyat bilan tabiat o'rtasida kooevolutsiya buzildi. Aytaylik, individ yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishdan ham, atrof-muhitni ifloslashtirayotgan zavodda ham ishlashni istamas. Ammo yashash, oilani boqish uchun u ana shunday yumushlar bilan shug'ullanishga majbur. Buning uchun alohida individni, oddiy ishchi yoki xizmatchini ayblash adolatdan bo'ladimi!? Yoki zavod atrof-muhitni ifloslantirishida u yerda ishlayotgan oddiy ishchilarni ayblash insofdan bo'lmas, balki ishlab chiqarish jarayoni ustida turgan shaxs ongida o'zgarish bo'lsa, ular Noosfera talablari asosida fikrlash darajasiga ko'tarilsalar maqsadga muvofiq bo'lardi.

Noosfera konsepsiyasi asosida Aql – idrokka muvofiq fikr yuritadigan odam to'g'risidagi tasavvurlar mujassamlashgan. Ammo davlat tuzilishi va jamiyatda tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlar doirasida faoliyat ko'rsatadigan individlar, shaxslar ba'zan o'z aql-idroklari va irodalariga xilof yumushlar bilan shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Binobarin, odam muayyan ijtimoiy muhitning mahsuli sifatida o'sha sharoitga moslashishga majbur. Biroq ijtimoiy muhit qandaydir qotib qolgan turg'un holat emas, balki aynan shu odamlar faoliyati orqali yoki ratsional yoki irratsional tomonga og'ib ketadigan jarayondir, ya'ni individlar muayyan muhit mahsuli bo'lish bilan bir vaqtda ularning o'zlari muhitning o'zgartiruvchi asosiy kuch ham hisoblanadilar. Aqlning rolini haddan tashqari oshirib yuborishning ham foydasi yo'q. Chunki Aql qanday yo'nalish olishi muhimdir. Shu ma'noda odam ham yaratuvchi, ham buzg'unchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Hayotiy vaziyatlarda axloqiy tanlov muammosi odam va jamiyat aloqalari butun tizimiga tayanadi. Jamiyatdagi mafkuraviy negiz esa jamiyat a'zolarida qandaydir ko'nikmalarni hosil etadi, uning yordamida hayotda sodir bo'ladigan hodisalar allaqanday turg'un vaziyatlar bilan

tutashib, bunda axloqiy qarashlar u yoki bu darajada ishtirok etadi. Mafkuraning bunyodkorlik yoki vayronkorlik tomonga og'ishi unda ilgari surilayotgan g'oyalar real voqelikka qanchalik yaqin yoki uzoqligi, aloqalarning nechog'lik to'g'ri belgilanishi yoki belgilanmasligi, axloq mohiyatining o'ziga xilof emasligi yoki xilofligi bilan belgilanadi.

*Umumplanetar ong va yangicha tafakkurga ehtiyoj.* Jamiyat va tabiat o'zaro aloqadorligi muammosini hal etish maqsadida ayrim olimlar tabiatni o'zgartirish amaliyotidan voz kechib, tabiatga moslashishni taklif etmoqdalar. Ammo bunga ularning o'zlarida ham qat'iy ishonch yo'q, negaki, odamzot tabiatni o'zgartirmasdan yashashi qiyin. Aftidan, tabiatni hozirgidek pala-partish tarzda emas, Aqlni to'lasincha oqilona ishlarga burib yuborish orqali o'zlashtirish kerak. Ya'ni jamiyat bilan tabiat o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatni hal etish jarayoni dunyo bo'yicha, jahon hamjamiatlari, avvalo Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahbarligida rejali va izchil boshlanishi, shu asosda jahon dinlarining tarixiy tajribalariga tayanib, ruhi pok, imoni butun, hayotini Ona tabiatni insonga monand tarzda o'zgartirishga bag'ishlay oladigan va albatta, Planetar ongga ega individlarni kamolga yetkazish darkor. Bunday insonlarning tafakkur va turmush tarzi to'lasincha Noosfera davri talablariga muvofiq kelishi, ularda yangicha ijtimoiy ideallarga asoslangan boshqacharoq qadriyatlar tizimi shakllanishi, globallashuv hodisasi bilan birga insoniylik, bag'rikenglilik, sabr-qanoatlilik, mehr-oqibalik, ozodalik va albatta, ezgulik kabi fazilatlar unda mujassamlashuvi lozim. Bunday tipdagi individlar atrof-muhitni izdan chiqarish, xalqlarni doimo urush xavf-xatari girdobida ushlab turish, turli yuqumli kasalliklarni tarqatish, terrorchilik bilan shug'ullanishni eng razolatli amallardan hisoblabgina qolmay, ana shunday yovuzliklarga qarshi murosasiz kurashadilar. Zero, hozirgi zamon jahon muammolarining yechimini faqat tor egoistik qarashlardan, jangari elitarizmdan, zo'ravonlik psixologiyasi va mafkurasidan xoli kishilargina topa olishlari mumkin, xolos. Ana shunday insonlar masalalarga yondashuvlarda mavhum fikrlar, texnokratik qarashlar, fikr turg'unligi, milliy mahdudlik va diniy mutaassiblikdan yiroq bo'lishlari zarur.

*Odamzot ma'naviy-ruhiy olamini munavvar etish va aqlni oqilona izga burib yuborish muammosi.* Ona tabiat evolutsion taraqqiyoti natijasida



aqli mavjudot – odam deb ataladigan bir tur vujudga kelib, u avvalo hayvonlar ustidan o'z hukmronligini to'la o'rnatdi. Endilikda Yer biosferasini keskin o'zgartirish pallasiga kirdi. Bu hol odamzotning biosfera istiqboli va o'z taqdiri oldida mas'uliyati nihoyatda oshib ketishiga sabab bo'ldi. Binobarin, Ona tabiat taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanganini har bir individ anglashi, shunga muvofiq faoliyatini belgilay olishi uchun inson ruhini poklash yalpi umumiy harakatini vujudga keltirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Odamzot o'zini ijtimoiy mavjudot sifatida namoyon etishi uning biologik mohiyatidan kelib chiqadi: a) odam miya hajmi o'z tanasiga nisbatan barcha hayvonlarnikidan katta; b) miya ilang-pilanglari zich; d) miya hujayralari xromosomalari har qanday rivojlangan hayvonlarnikidan yirik; e) til, tafakkur va mehnat tufayli uning ongi progressiv rivojlanish mayliga ega bo'lganligi bilan farq qiladi.

Hayvonlar birgalikda yashash uchun kurash jarayonida "gala ongi" shakllanib, ular fe'l-atvori, xatti-harakatlarida umumiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ibtidoiy odamlar ham gala-gala bo'lib yashash uchun kurashish oqibatida, yuqoridagi biologik omillarga ko'ra, hayvonlarnikidan yuqoriroq "odam galalari ongi" vujudga kelib, tovush, qiyofa, tana harakati, hayqiriq tillari orqali rivojlanib bordi va nutq paydo bo'ldi. Natijada uzoq tarixiy davrda instinktlar o'rmini asta-sekin odob-axloq maromlari egallay boshladi. Miya hajmidagi miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlarini hosil etdi va odam zoti shu palladan boshlab chin ma'nodagi ijtimoiy mavjudotga aylana boshladi.

Ijtimoiy mavjudot sifatida odamning faoliyat ko'rsata boshlashi ibtidoiy jamiyatlarni vujudga keltirdi. Odam zoti jamiyat bo'lib yashash uchun xatti-harakat, fe'l-atvor va faoliyatda umumiy axloq maromlari belgilanishi, uning bajarilishini nazorat qila oladigan samarali ijtimoiy murvat (sotsial mexangizm)lar kerak edi. Shu ijtimoiy ehtiyojlar tufayli bifurkatsiya hodisasi sifatida dunyoning turli mintaqalarida bir-biridan ajralgan holda va bir-biridan shaklan farqlanadigan ma'naviy-axloqiy muhit vujudga keldi. Urug'-qabilachilik munosabatlarini tartibga solishda ruxsat va taqiq tizimlari mifologik dunyoqarash asosida shakllandi. Urug'-qabila a'zolari shaxsiy, guruhviy manfaatlarini umumiy manfaatlarga bo'ysundirishlari ularning shu tizim tarkibida yashashlarining sharti ekanligi ularning ongiga mafkuraviy vositalar orqali singdirildi. Oqibatda urug'-qabilachilikka asoslangan jamiyatlar

ma'naviy-axloqiy muhiti ta'sirida shakllangan individlar ruhiy olami o'sha munosabatlarga monand tarzda qaror topdi.

Turli elatlarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish oqibatida odam-olam munosabatlariga yangicha qarashlar vujudga kelib, yakkaxudochilik g'oyalari ilgari surildi. Bu g'oyaning mafkura vositalari orqali odamlar ongiga singdirilib, dinlarning muqaddas kitoblarida belgilangan odob-axloq maromlariga rioya qilinishi oqibatidagina odam bu dunyo va "u dunyo"da o'z baxtini topa olishi to'g'risidagi tasavvurlar mustahkamlandi. Har bir jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhit asosan diniy jamoa va ruhoniylar rahbarligida belgilanadi.

Biroq avvalo ITT, XX asrning boshlaridan asta-sekin rivojlanib, ushbu asrning o'rtalarida keng quloch yozish pallasiga kirgan ITI tufayli turli mintaqalardagi xalqlar, elatlarning an'anaviy turmush tarzi ta'sirida shakllangan jahon dinlari asosida qaror topgan ma'naviy-axloqiy muhit izdan chiqq boshladi. Endilikda G'arb olamida boshlangan va "ommaviy madaniyat"ga asoslangan turmush tarzi SHarq xalqlari hayotiga ham shitob kirib kelmoqda. Iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq, texnika va texnologiya hamda madaniy aloqalarning intensiv tus olishi natijasida globallashuv jarayoni tobora kengayib bormoqda.

Aql-idrok salohiyatini faqat umumbashariy manfaatlarni ro'yobga chiqarish tomonga og'dirib, inson ruhini poklash uchun mafkuraviy imkoniyatlardan to'la foydalanish muammosi insoniyatdan o'z yechimini topishni kutmoqda.

### ***Birlashgan Millatlar Tashkilotiga hukumat vakolati berish zarurati.***

Ajdodlarimizning individlar odob-axloq maromlariga qat'iy rioya qilib faoliyat yo'nalishi belgilash borasida tarixan to'plagan boy tajribalariga tayanib, endilikda tor qobiqda emas, balki planetar miqyosda "Odam – odam uchun eng oliy qadriyat" tamoyiliga asoslangan axloq maromlarini yaratib, individlarda unga rioya qilish malakasini hosil etishda jahon dinlari tajribasidan foydalanish lozim. Odamzotning biologik populyatsiyasida "gala ongi" o'z imkoniyatlarini tugallab bo'lgani, endilikda populyatsiyaning ijtimoiy shakliga batamom o'tib olish algoritmi boshlangani munosabati bilan umumiy negizda umumbashariy axloq maromlarini yaratish muhim bo'lib qolganini anglash lozimdir. Chunki har bir jamiyatning tinch-totuvlik sharoitida barqaror rivojlanishi jahon hamjamiyati fe'l-atvoridagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ya'ni odamzot istiqboli qanday holatda bo'lishi har bir individ o'z ongi va xulq-atvorida axloqning asosiy tomoyillariga nechog'liq rioya etishiga bog'iq bo'lib qolmoqda.

Ayni chog'da yuqoridagi harakat shaxs sotsial jihatdan muhofaza etilishi, sotsial adolat to'g'risidagi tasavvurlarning boyishi bilan uzviy bog'langan holda rivojlanishi muhimdir. Faqat shundagina har bir jamiyat, mintaqa xalqlari va jahon hamjamiyati barqaror rivojlanib, odamzot Yer deb atalgan olamdagi bir ongli tur sifatida o'z populyatsiyasini nafaqat etnik va diniy jihatdagina emas, yaxlit bir butunlikdan iborat ijtimoiy shakliga o'tib olishi mumkin. Jamiyat va davlat ijtimoiy-siyosiy shakli qanday nom bilan atalmasin, unda ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun kurash axloqning asosida yotmog'i zarur. Mulkning muayyan shakliga o'tish pirovard maqsad bo'lib qolmasligi, balki mulk shakli odamlarda yuksak axloq egalari bo'lishlariga xizmat qiladigan holatga o'tib olish yetakchi maylga aylanishiga asosiy e'tiborni qaratish, bu ruhni barqaror etish mafkuralarning asosiy vazifasiga aylanmog'i darkor. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga xuddi shu masala bo'yicha hukumat vakolati berish zarurati paydo bo'lmoqda.

Odamning asosiy qadri mehnat va unga munosabat bilan belgilanadi. Jamiyat va davlat tomonidan odam mehnatiga beriladigan munosib baho adolatning amalda namoyon bo'lishi, axloqning barqaror tus olishi omilidir. Zero, ijtimoiy adolat to'g'risidagi tasavvurlar shu baho bilan uzviy bog'langandir. Binobarin, davlat yoki davlat aralash mulkmi, yoxud xususiy mulkmi, bundan qat'i nazar, ularning barchasida individlarning jismoniy va aqliy mehnatini adolat mezonlari asosida baholash va taqdirlash yetakchi maylga aylanishi uchun bu masalada qattiq nazorat bo'lmog'i lozim. Toki, teng mehnat jamiyat a'zolariga nisbatan teng yashash imkoniyatini vujudga keltirishi ijtimoiy adolatni qaror toptirish shartiga aylansin.

Bunday tamoyilda yashashga o'tish oson ish emas, ammo u Noosfera davri talabi taqozosidir, Aqlning oqilona izga burish omilidir. Jamiyatdagi ijtimoiy mavqeidan foydalanib, ijtimoiy boyliklarni firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega bo'luvchi shaxslar davlat belgilagan qonunlar asosida mehnat qilayotgan halol-pok odamlardan yaxshiroq yashashlari ijtimoiy adolatsizlikning amalda namoyon bo'lishi sifatida qoralanishi zarur. Chunki bunday holat jamiyatning barqaror rivojlanish yo'lidagi bir to'siq bo'lishi bilan birga

Aqlning g'ayriinsoniy tomonga og'ishidir va u odob-axloqning izdan chiqarish omili hamdir. Gap teng ijtimoiy imkoniyatdan foydalanishda odob-axloq maromlariga qat'iy rioya etish haqida boradiki, bunda individlar qanday qiyofada o'zlarini namoyon etishlari jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va ma'naviy-axloqiy muhitga bog'liqdir.

Jamiyatlarning an'anaviy tuzulmasi piramidasi ustida tarixan podsho yoki prezident, so'ngra davlat, jamiyat, odam turib keldi. Ya'ni ijtimoiy bosimning asosiy yukini mehnat ahli ko'tarish tendensiyasi yetakchi bo'ldi. Endilikda jamiyat strukturasi piramidasi asta-sekin o'zgarib, uning ustida odam va so'ngra jamiyat, davlat va prezident odamzot manfaatlarini himoya qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Istiqbolda esa bu piramida ustki qavatining ostida jahon hamjamiyati ham turishi zaruriyatini anglash mayli kuchayib, natijada jahon muammolari bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilotlar soni tobora ko'payib bormoqda.

*Insonshunoslik faniga ijtimoiy ehtiyoj.* Noosfera davri hozirgi falsafiy nazariyalar, kategoriyalar, qonunlar, tamoyillar, metodlarga tayangan holda ijtimoiy hodisalarga boshqacha tilda yondoshuvlar hosil etishni taqozo etmoqda. Noosfera davri falsafasi hozirgi zamon ilg'or tabiiyotshunoslik fanlari dalillariga tayanib, olam va odamning paydo bo'lishi, bifurkatsiya hodisasi tufayli jamiyat o'zidan-o'zi shakllanishi, endilikda aql nafaqat jamiyat, balki tabiat taraqqiyoti qanday yo'nalishda rivojlanishiga ham hal qiluvchi ta'sir o'tkaza boshlaganini jiddiy ilmiy-tadqiqot obyektiga aylanganini dalillash lozim. Bu falsafa bitta tur sifatida odamzot murosa bilan yashay olish yo'llarini izlab topishi, barcha ziddiyatlarni kelishuv asosida hal qilish amaliyoti to'g'risida nazariy qoidalar ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shu asosda odamni yaxlit bir tur sifatida o'rganishga ilmiy negiz yaratishi mumkin. Natijada turli fanlar, jumladan fiziologiya, miya morfologiyasi, antropologiya, etnografiya, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va boshqa fanlar tadqiqotlaridagi odam va jamiyatning ayrim jihatlarini o'rganishdan Odamni bir butun tizim, u jamiyatning tabiiy unsuri sifatida o'rganadigan insonshunoslik fanini shakllantirish imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Jamiyat va inson xususiyatini bog'lab o'rganish, odamzot xususiyati orqali jamiyatni, odam fe'l-atvori, xatti-harakatini belgilash xususiyatini muayyan tarixiy davrdagi aniq jamiyat xususiyatidan keltirib o'rganish zarurati kun tartibida turibdi.

Genetik dastur asosida o'z biologik ehtiyojlarini qondiradigan hayvonlarning xatti-harakatini o'rganib, ular fe'l-atvoridagi qonuniyatli aloqalarni anglash, shu asosda ma'lum bir vaziyatda aniq va ma'lum xatti-harakatlar qilishlarini oldindan aytish va bilish mumkin. Ammo Aql sohibi bo'lgan Odam faoliyati ma'lum bir vaziyatda qanday yo'nalish olishini oldindan aytish mushkul. Odamning hamma faoliyatini aqllilik nishonasi deb bo'lmaydi, aksincha, unda aql bovar qilmaydigan buzg'unchilikka moyillikni har doim kutish mumkin. Holbuki, odamning barcha fe'l-atvori va faoliyati uning Aqli orqali belgilanadi.

Odam nafaqat Aql sohibi, balki yana u o'z ruhiy olami bilan ham boshqa mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Ilm-fan uchun odamzot ruhiy olamini o'rganishdan murakkab hodisa bo'lmasa kerak. Binobarin, odamzot ruhiy olamini o'rganib, undan qanday qilib jamiyat ma'naviy olami paydo bo'lishini aniqlash muhimdir. Aql barobarida vujudga kelgan ruhiy olam biz o'ylagandan ko'ra ham chuqurroq mazmunga ega bo'lgan bifurkatsiya hodisasi natijasidir.

Odamzot Aql yordamida Olam va Koinot sirlarining ichiga tobora kirib borishga harakat qilyapti. Bizgacha o'tgan mutafakkirlar Koinot pardasini ko'tarishga erishgandirlar. Ular inson ruhiy olamini o'rganish, uni boshqarish yo'lida ham katta meros qoldirganlar. Xususan dinlar, ayniqsa jahon dinlari odamzot ongini oldindan belgilangan maqsadlar sari yo'naltirishda katta tajribalar to'plagan.

Biz odam ruhiy olamini munavvar etishda fan bilan din, olimlar bilan ulamalar ittifoqi kerakligini anglab yetganimizcha yo'q. Bugina emas, fanlar bilan san'atni birlashtiradigan ko'prik yasab, odamzot ichki olamiga kirib borish vazifasini ham maqsad qilib qo'ygan emasmiz. Ammo dinlardagi tarixiy nuqson shuki, bir dinning bosh g'oyasi haqligiga o'z qavmlarini ishontirish, ular ruhiy olamini boshqara olish uchun boshqa barcha dinlarni yomon otliqqa chiqarish, ularga ixlos qo'yish "gunohi azim" ekanligini muntazam ravishda pisanda qilib borish kerakdir. Bu esa diniy zaminda turli ixtiloflar chiqishi, ular siyosiy tus olishi uchun tarixan bir turtki bo'lgan. Endilikda dinlardagi insonparvarlik g'oyalaridan yuz o'girmagan holatda, inson olamini qanday qilib olamiy koinot bilan qo'shib, makrokosm barpo etish haqida jiddiy tadqiqot ishlari olib borish kerak. Bunday tadqiqotlar boshlangan, masalan, imon inson ruhiy olamini poklash vositasi ekanligi, u ilm-fan, madaniy-ma'rifiy yo'llar bilan ham odam ongiga singishi, qalbini munavvar etishi birinchi marta O'zbekistonda ilmiy jihatdan asoslangan.

uchun aybdor emaslar. Ayni chog'da qizg'anchiq, olg'irliklari uchun ha ularni koyib bo'lmaydi. Zero, ulardagi bu fazilat va qusurlar Hon Sapiens biologik taraqqiyoti va ularni boshqarib kelayotgan evolutsiya algoritmining o'zi shunday. Gap shu algoritmni o'zgartirish haqida boris zarur. Fizik olim N.Moisseyev birinchi qadam sifatida "axloq imperativ"ni qaror toptirish uchun umumjahon ma'rifatparvarlik dastu asosida yalpi umumiy harakatni vujudga keltirishni tavsiya etadi.

***Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashuvchi ommaviy harakatni vujudga keltirish.*** Odamlar va uning uyushmalari faoliyati tufayli yuzaga kelayotgan muammolarning barchasini birdaniga hal qilib bo'lmaydi. Ammo qiyinligi, murakkabligi uchun ularni hal etishdan yuz o'giri ham mumkin emas. Biz ko'p masalalarda nima qilishni bilmaymiz, bircunima qilmaslik zarurligini anglaymiz. Jamiyatning barqaror rivojlanishi inson kamoloti uchun to'siq bo'lib turgan narsalarni olib tashlashda ish boshlash, ehtimol, to'g'ri bo'lar. Biosfera parametrlarini o'zgartirishning yo'l qo'ysa bo'ladigan chegarasidan o'tib ketadigan odamlar faolligi beqarorlik va turg'unlikka olib kelishini anglab olishim muhimdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida "Murosa instituti" tashkil etilib, tabiatda ham, jamiyatda ham yo'l qo'ysa bo'ladigan chegaralar aniqlash uchun ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, bu institut ma'lumotlar bankini shakllantirish lozim. "Murosa instituti" nafaqat tabiatni floslantirishning oldini olish, shu bilan birga, ijtimoiy sohalarda muammolarni ham hal etish yo'llarini qidirib topishi lozim bo'ladi. Milliy, sinfiy, irqiy, diniy va boshqa negizlarda ehtimolda tutilgan ziddiyatlarni oldindan hal etish, Aql quvvati g'ayriinsoniy yumushlar qurilib ketishining oldini olib qolish uchun ham tavsiyalar tayyorlash zarur bo'ladi.

Birinchi navbatda xalqaro terrorizmga, davlat terrorizmiga qarshi qanday samarali kurash olib borish yo'llarini qidirish muhimdir. Astay-sekin qurollanish poygasiga barham berib, barcha ziddiyatlarni yon berib nurosaga kelish orqali hal etish yo'lidan borishni har tomonlam rag'batlantirish ma'qul bo'ladi. Tarafkashlik mafkurasi mavjud bo'lgan haroidda bunday insonparvarlik, ma'rifatparvarlik tadbirlarini amalga oshirish amrimahol. Shuning uchun ham milliy mafkuralar, Noosfer

davri talablaridan kelib chiqib, yangicha yondashuvlar asosida o'z ishlarini qayta ko'rib chiqishlari, aytish mumkinki, hayot-mamot masalasidir.

*Xulosa:* a) barqaror rivojlanish konsepsiyasi butun insoniyat faoliyatini yaratuvchilik tomonga og'dirib yuborishi zarur; b) har bir odam o'zgalarni o'zi kabi hurmatlash, qadrlash ko'nikmasiga ega bo'lgandagina u inson (jamiyatlashgan individ)ga aylanishi mumkin; d) Noosfera davri umumplanetar ong va yangicha tafakkur tarziga muhtoj bo'lib turibdi; e) odamzot ma'naviy-ruhiy olamini munavvar etish va Aqlni oqilona izga burib yuborish umumbashariy harakatini vujudga keltirish Noosfera davri talabidir; d) BMTga ba'zi masalalarda hukumat vakolati berish zarurati paydo bo'lmoqda; j) insonshunoslik faniga kuchli ijtimoiy ehtiyoj mavjud; z) jaholatga qarshi ma'rifat uchun kurashuvchilar ommaviy harakatini vujudga keltirish, barcha ziddiyatlarni murosa yo'li bilan hal etish yo'llarini qidirib topish Ona tabiatni muqarrar halokatdan saqlab qolish omili bo'lib turibdi.

*Kalit so'zlar:* planetar ong, tetratil-svinets, barqarorlikning ikkinchi jihati, umumiy strategiya, demografiya, his-hayajonga berilish, zo'ravonlik, ijtimoiy muhit, kamformizm, tor egoistik qarashlar, jangari elementarizm, texnokratik qarashlar, miya ilang-pilanglari, xromosoma, manaviy-axloqiy muhit, yakkaxudochilik g'oyalari, sotsial adolat, piramida, Noosfera davri falsafasi, genetik dastur, ruhiy olam, "murosa instituti", qurollanish poygasi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Barqaror taraqqiyot omillari nimalardan iborat?
2. Ruhiiy hodisa deganda nimani tushunish kerak?
3. Endilikda ziddiyatlarni qanday usullarda hal etishga kirishish lozim?
4. V.I. Vernadskiy ta'limoti nimani anglatadi?
5. Odam va uning uyushmalari faoliyati endilikda qanday yo'nalish olishi zarur?
6. Nega odamlar o'z aql-idrokklariga xilof ishlar bilan shug'ullanishga majburlar?
7. Tabiat bilan jamiyat, jamiyat bilan odamzot o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish mumkinmi?

8. Odam-olam munosabatlariga texnokratik qarashlar qanday oqibatlarga olib kelmoqda?

9. Odamzot aqlini to'la bunyodkorlik ishlariga burib yuborish mumkinmi?

10. Nega BMTga ba'zi masalalarda hukumat statusi berish zarurati paydo bo'lmoqda?

11. O'zining tarixiy ildizlaridan uzilib qolayotgan turmush tarzini yangi o'zamlarga burib yuborish mumkinmi?

12. Nega Noosfera davri falsafasini yaratish zaruriyati paydo bo'lmoqda?

13. Odamzot ruhiy olamini munavvar etish imkoniyatlari bormi?



# MUNDARIJA

<b>Muqaddima</b> .....	3
<b>"Noosfera, geosiyosat va mafkura" taxsilining tadqiqot sohasi, predmeti va vazifalari</b> .....	6
<b>I bo'lim. Noosfera</b>	
Noosfera – Tabiat taraqqiyotining yangi bosqichi.....	17
Xotira va uning genezisi.....	26
Evolutsiya va Aqlning yuzaga kelishi.....	33
Insonning bioijtimoiy mohiyati.....	40
Antropologik g'oyalari: individ va shaxs, inson omili.....	45
Jamiyat va shaxs munosabatlari.....	50
Aql, "Sun'iy aql" va insoniyat istiqboli masalasi.....	56
Uchinchi va oxirgi imkoniyat.....	63
<b>II bo'lim. Geosiyosat</b>	
Geosiyosat, uning evolutsiyasi va shakllanishi.....	72
XX asr – "Mafkura asri" sifatida.....	80
Ikki qutbli dunyodan ko'p qutbli yaxlit dunyo sari.....	88
Ovro'po integratsiyasi.....	93
Urush inson tabiatiga zid holat sifatida.....	95
Jahon siyosiy maydonida Markaziy Osiyo.....	104
<b>III bo'lim. Mafkura</b>	
Mafkura falsafiy yo'nalishdagi fan sifatida.....	112
Noosfera davri va mafkuraviy jarayonlar.....	119
Mafkuraviy ijtimoiy institutlar va g'oyaviy immunitetni hosil etish muammosi.....	128
G'oyaviy ta'sir ko'rsatish vositalari, shakllari va uslublari.....	134
Noosfera va barqaror taraqqiyot strategiyasi.....	148

**O'quv-uslubiy nashr**

**I. KARIMOV**

**Noosfera: geosiyosat va mafkura  
O'quv qo'llanma**

<b>Muharrir</b>	<b>N. Yusupova</b>
<b>Musahhih</b>	<b>Sh. Nazarova</b>
<b>Tex. muharrir</b>	<b>E. Demchenko</b>
<b>Kompyuter ustasi</b>	<b>M. Jumaboyeva</b>

**Kitob muqovasi "Artlol" dizayn markazida tayyorlandi**

**Bosishga 10.07.2008 y.da ruxsat etildi.  
Garnitura TimesUz95. Bichimi 60x84 1/16  
Bosma tobog'i 10,25. Shartli bosma tobog'i 9,53.  
Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 161.  
Bahosi kelishilgan narxda.**

**«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.  
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.**

**Murojaat uchun telefonlar  
Nashr bo'limi: 278-36-89, marketing bo'limi: 128-78-43  
Faks: 273-00-14, e-mail: [yangiasravlodi@mail.ru](mailto:yangiasravlodi@mail.ru)**

# **QAYDLAR UCHUN**

---